

INSON HUQUQLARI BO'YICHA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING INSON HUQUQLARI BO'YICHA XALQARO SHARTNOMALARI TO'PLAMI

Toshkent – 2023

UO'K 341.231.14(100)(08)
KBK 67.404(0)
B 71

B 71 Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalari to'plami. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2023. – 179 b.

Mazkur qo'llanma Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi huzuridagi Ilmiy-muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan (2023-yil 27-sentabr, 13-sonli bayonnoma).

ISBN 978-9910-9787-3-9

Mas'ul muharrir: A. X. Saidov, akademik
Tuzuvchilar: M. Tillabayev, D. Muratova
Tarjimonlar: E. Ernazarov, G'. Mirzo

To'plamdan inson huquqlari va erkinliklarini har tomonlama himoya qilish to'g'risidagi eng muhim xalqaro shartnomalar o'rin olgan. Ushbu hujjatlar inson huquqlari va asosiy erkinliklarining keng doirasini, jumladan, Inson huquqlari to'g'risidagi bill, rivojlanishga bo'lgan huquq, irqiy va boshqa kamsitishlarni taqiqlash, xotin-qizlar, bolalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va qochoqlarni himoya qilishni qamrab olgan.

To'plam keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan bo'lib, talabalar, aspirantlar, yuridik universitetlar va fakultetlar o'qituvchilari, davlat muassasalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari uchun ma'lumotlar qo'llanmasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

UO'K 341.231.14(100)(08)
KBK 67.404(0)

ISBN 978-9910-9787-3-9

MUNDARIJA

KIRISH	4
I BO'LIM. INSON HUQUQLARI TO'G'RSIDAGI BILL	
Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi	8
Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt	13
Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga Fakultativ bayonnoma	27
Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga o'lim jazosini bekor qilishga yo'naltirilgan ikkinchi Fakultativ bayonnoma	30
Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt	33
II BO'LIM. KAMSITISHGA BARHAM BERISH	
Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya	41
Din yoki e'tiqodga asoslangan murosasizlik va kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi deklaratsiya	51
III BO'LIM. RIVOJLANISHGA BO'LGAN HUQUQ	
Xalqlarning tinchlikka bo'lgan huquqi to'g'risidagi deklaratsiya	54
Rivojlanishga bo'lgan huquq to'g'risidagi deklaratsiya	55
IV BO'LIM. ALOHIDA TOIFADAGI FUQAROLARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH	
A. Xotin-qizlar huquqlari	
Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiya	59
Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya	62
B. Bolalar huquqlari	
Bolalarni xalqaro o'g'irlab ketishning fuqarolik-huquqiy jihatlarini to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi	72
Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya	81
Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli Fakultativ bayonnoma	97
Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga bolalarning qurolli mojarolarda ishtirokiga taalluqli Fakultativ bayonnoma	104
C. Nogironlar huquqlari	
Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya	109
V BO'LIM. ODIL SUDLOVNI AMALGA OSHIRISH SOHASIDA SHAXSLARNI HIMOYA QILISH	
Qiynoqlar hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya	129
VI BO'LIM. SHAXSNING HUQUQIY MAQOMINI HIMOYA QILISH	
Fuqarosizlikni kamaytirish to'g'risidagi konvensiya	140
Apatrid (fuqaroligi yo'q shaxs) maqomi to'g'risidagi konvensiya	146
Qochoqlar maqomi to'g'risidagi konvensiya	155
Qochoqlar maqomlariga taalluqli bayonnoma	166

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash, himoya qilish va ularga rioya qilish masalalari davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Hozirgi kunda O'zbekistonda insonning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari to'g'risida qonunchilik tizimi takomillashtirilmoqda.

Mamlakatimizda **“Inson qadri uchun”** degan ezgu g'oyani to'liq ro'yobga chiqarish, inson huquq va erkinliklari sohasidagi xalqaro standartlarni milliy qonunchilik va huquqiy amaliyotga implementasiya qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish hamda qonun ustuvorligini ta'minlash, shuningdek jamiyat va har bir fuqaro hayotiga ularni tatbiq etish Yangi O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatida Markaziy o'rinni egallab kelmoqda.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 15-moddasida “O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo'llaniladi”, deb belgilab qo'yilgan.

Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan inson huquqlari sohasidagi xalqaro shartnomalarda o'z ifodasini topgan normalar huquqiy tartibga solishning asoslaridan biri hisoblanadi, bu normalar qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyotining muhim mezonlaridir.

Konstitusiyaning 19-moddasiga muvofiq, “O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda Konstitusiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi”. Shu taxlit yurtimizda inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquq va umumbashariy qadriyatlarning ustuvor maqomi Konstitusiya darajasida yanada mustahkamlandi.

Xalqaro hamjamiyat inson huquqlari sohasiga oid andazalarni ishlab chiqish va ularga rioya etilishini nazorat qilish mexanizmini yaratish yuzasidan katta tajribaga ega. Odatda, davlat o'z hokimiyat va boshqaruv idoralari hamda mansabdor shaxslari timsolida inson huquqlariga rioya etilishi bo'yicha kafil hisoblanadi. Bu qoida Konstitusiyamizning 109-moddasida quyidagicha mustahkamlab qo'yilgan: “O'zbekiston Respublikasining Prezidenti ... fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga ... rioya etilishining kafilidir”.

Bugungi kunda inson huquqlarini xalqaro darajada himoya qilish masalalari, asosan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro paktlar kabi 100 ga yaqin hujjatda o'z aksini topgan. O'zbekiston o'tgan davrda inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq asosiy xalqaro hujjatlarga qo'shilgan.

Mamlakatimizda ham inson huquqlari sohasidagi xalqaro shartnomalar va boshqa hujjatlarni nashr qilish o'ziga xos tarixiy rivojlanish yo'liga ega. 1995-yilda O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasiga oid yangi qonunlari va bir qator xalqaro shartnomalar jamlangan olti jildlik to'plam nashr etilgan. 1998-yili esa “Adolat” nashriyotida mamlakatimiz qo'shilgan inson huquqlarini himoya qilishga taalluqli 37 ta xalqaro shartnomadan iborat to'plam bosmadan chiqdi.

Shuningdek, xalqaro gumanitar huquq sohasiga doir bir qator darslik va o'quv qo'llanmalari chop etildi.

2002-yilda inson huquqlariga oid to'rt jildidan iborat to'plam ilk bor o'zbek tilida nasr etildi. Uning birinchi jildida BMTning inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalari, ikkinchi jildida xalqaro gumanitar huquq bo'yicha konvensiyalar to'plami, uchinchi jildida bola huquqlariga oid xalqaro hujjatlar, to'rtinchi jildida Evropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti hujjatlari o'z ifodasini topgan.

2004-yilda o'zbek tilida yana bir inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar to'plami nashrdan chiqib, unda inson huquqlari sohasidagi xalqaro shartnomalar bitta kitobga birlashtirilib, unga o'zbek tilida oldin nashr qilinmagan Xalqaro mehnat tashkiloti va YUNESKONing inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalari ham kiritildi. Bu kitoblar xalqaro hamkorlik sohasida faoliyat ko'rsatuvchi xodimlar va umuman, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash masalalari bilan shug'ullanuvchi barcha hamyurtlarimiz uchun muhim va foydali qo'llanmaga aylandi.

O'zbekiston Birlashgan Millatlar tashkiloti, Evropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti kabi qirqdan ziyod nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo hisoblanadi. Mamlakatimiz 2023-yil holatida dunyoning 180 davlati tomonidan tan olingan, 141 mamlakat bilan o'zaro diplomatik munosabatlar o'rnatgan. Yurtimizda 44 ta xorijiy davlatning elchixonalari, 1 ta bosh konsulligi, 8 ta faxriy konsullar, 17 ta xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari, 13 ta xalqaro hukumatlararo tashkilotlar vakolatxonalari, 1 ta diplomatik maqomga ega savdo vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. Xorijiy mamlakatlarda hamda xalqaro tashkilotlar huzurida O'zbekiston Respublikasining 55 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari faoliyat yuritib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasida zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarini samarali bajarishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi Farmoni bilan tasdiqlangan **Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi** doirasida shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarning ta'minlanishi sohasida maqsadli choralar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashining a'zosi sifatida faol harakati, BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari hamda Inson huquqlari masalalari bo'yicha maxsus ma'ruzachilar bilan yaqin hamkorligi bunga yorqin misol bo'lmoqda.

Inson huquqlariga oid xalqaro standartlarni amalga oshirish, ayniqsa, ayollar, bolalar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish hamda ijtimoiy adolat tamoyillariga konstitusiyaviy maqom berildi. Shuningdek, xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, inson huquqlari bo'yicha ta'lim sohasini takomillashtirish yuzasidan muhim qadamlar qo'yilmoqda. Inson huquqlari madaniyatini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi tomonidan 2019-yil 15-iyulda BMTning Inson huquqlari sohasida ta'lim to'g'risidagi deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirish bo'yicha Milliy harakatlar dasturi va uning ijrosi yuzasidan "Yo'l xaritasi" qabul qilindi.

O'zbekistonda bu boradagi chora-tadbirlarni samarali amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-iyunda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Jahon ta'lim dasturining to'rtinchi bosqichini amalga oshirish bo'yicha Milliy komissiyani tashkil etish to'g'risida"gi farmoyishi muhim dasturilamal bo'ldi. Inson huquqlari sohasidagi Jahon ta'lim dasturining 2020–2024-yillarda amalga oshiriladigan to'rtinchi bosqichi yoshlarni tenglik, inson huquqlariga rioya qilish va kamsitmaslik ruhida tarbiyalash hamda o'qitishga yo'naltirilgan.

Davlat tashkilotlari xodimlarining huquqiy savodxonligi darajasini oshirish va baholash tartibi o'rnatildi. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi huzurida davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari xodimlari uchun inson huquqlariga rioya etish va uni himoya qilish

sohasida kadrlar malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari tashkil qilindi. Huquqni muhofaza qilish Akademiyasida esa "Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq" magistratura yo'nalishi ochildi. Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazda Inson huquqlari sohasida oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, shuningdek ushbu yo'nalishda fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadida "Inson huquqlari" (yuridik fanlar, sotsiologiya fanlari) ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-fevraldagi PQ-46-son qarori bilan tasdiqlangan **O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasturi** mamlakatimizda inson huquqlari sohasidagi ta'limni yanada rivojlantirishga, aholining inson huquqlari sohasidagi huquqiy savodxonligini oshirishga, shuningdek davlat xizmatchilarining inson huquqlari va gender tenglik sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Milliy ta'lim dasturida quyidagi asosiy vazifalar belgilandi:

yoshlarning inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xabardorligini oshirish;

davlat organlari xodimlarining inson huquqlari va gender tengligi sohasidagi bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish;

inson huquqlari sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy-tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash;

aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari o'rtasida inson huquqlari sohasida xabardorligini oshirish;

inson huquqlari bo'yicha ta'lim sohasida fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish;

zamonaviy texnologiyalar, badiiy asarlar, ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiyani mustahkamlash tizimining samaradorligini oshirish;

inson huquqlari bo'yicha ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Ushbu dastur inson huquqlari sohasida axborot berish, ma'rifat va o'qitish tizimini bosqichma-bosqich kengaytirish va takomillashtirishga, kadrlar tayyorlash tizimini milliy qonunchilik va xalqaro standartlar talablari asosida sifat jihatidan yangi bosqichga chiqarishga qaratildi.

2023-yilda xalqaro hamjamiyat inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash sohasidagi asosiy demokratik tamoyil va talablarni o'zida mujassam etgan, shuningdek bu sohada butun xalqaro huquq tizimi shakllanishi uchun siyosiy va huquqiy asosga aylangan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligini keng nishonlamoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-maydagi **"Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 75 yilligini keng nishonlash to'g'risida"**gi farmoniga muvofiq, fuqarolarning inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi prinsiplari va normalari to'g'risidagi bilimlarini oshirish, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy, qonunchilikka oid chora-tadbirlar tizimi belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalariga oid to'plamlarni davlat tilida chop etish amalga oshirilayotgan tadbirlarning muhim tarkibiy qismi bo'lib, inson huquqlari sohasida aholi xabardorligini oshirish, inson huquqlari madaniyatini shakllantirish va inson huquqlari sohasidagi ta'limni sifatli amalga oshirishning muhim tarkibiy qismidir.

O'ylaymizki, e'tiboringizga havola etilayotgan to'plam xalqaro shartnomalarning mazmun-mohiyati bilan tanishtirish, inson huquq va erkinliklari bo'yicha xalqaro printsip va normalar to'g'risidagi bilimlarni yanada boyitishga xizmat qiladi.

O'zbek tilida (lotin alifbosida) tayyorlangan mazkur to'plam 6 bo'limdan iborat bo'lib, unda jami 21 ta xalqaro shartnoma va deklaratsiyalar matni o'z ifodasini topgan.

Birinchi qism Inson huquqlari to'g'risidagi bill deb nomlanib, unda inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning Fakultativ bayonnomasi, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt kiritilgan.

Ikkinchi qismda Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya, Din yoki e'tiqodga asoslangan murosasizlik va kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi deklaratsiya o'rin olgan.

Uchinchi qism Xalqlarning tinchlikka bo'lgan huquqi to'g'risidagi deklaratsiya hamda Rivojlanishga bo'lgan huquq to'g'risidagi deklaratsiyadan iborat.

To'rtinchi qism Xotin-qizlar huquqlari, Bolalar huquqlari va Nogironlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro shartnomalarni o'z ichiga olgan.

Beshinchi qismda shaxsning huquqiy maqomini himoya qilishga bag'ishlangan xalqaro shartnomalar o'z aksini topgan.

Bu hujjatlar to'plami keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan bo'lib, undan ko'zlangan maqsad: birinchidan, inson huquq va erkinliklari bo'yicha xalqaro standartlar to'g'risidagi xabardorlikni oshirishga ko'maklashish;

ikkinchidan, inson huquqlari sohasidagi xalqaro shartnomalarning mazmuni bilan tanishtirish;

uchinchidan, inson huquqlari to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish;

to'rtinchidan, inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiyani axborot resurs jihatdan ta'minlashga hissa qo'shishdan iborat.

Inson huquqlari sohasidagi hozirgi zamon xalqaro huquqi kontsepsiyasiga muvofiq, davlatlar inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilishga hamda ularning hamma uchun birdek, biror-bir kamsitishsiz amal qilishini ta'minlashga majbur hisoblanadi. Xalqaro-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan standartlar davlatlarning inson huquqlari sohasidagi milliy qonunchilikni takomillashtirishi uchun namuna vazifasini bajaradi.

Umid qilamizki, mazkur to'plam inson huquqlari madaniyatining rivojlanishiga, aholining siyosiy va huquqiy madaniyati yuksalishiga, inson huquqlarining ta'minlanishi va himoya qilinishi, ularga rioya etilishi holatining yanada yaxshilanishiga, inson huquqlari sohasidagi sifatli ta'lim va tarbiyani shakllantirishga ko'maklashadi.

To'plam inson huquqlari bo'yicha bilimlarni keng yoyish, bu boradagi xabardorlikni kuchaytirishda ko'mak bo'lishiga, shuningdek inson huquqlari va asosiy erkinliklarini rag'batlantirish hamda himoya qilish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, olimlar, pedagoglar, talabalar uchun muhim manba bo'lib qolishiga ishonchimiz komil.

Akmal SAIDOV,

*O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi
Jahon ta'lim dasturining to'rtinchi bosqichini amalga oshirish bo'yicha
Milliy komissiyasi raisi*

I BO'LIM. INSON HUQUQLARI TO'G'RIDAGI BILL

INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASI

*Bosh Assambleyaning 1948-yil 10-dekabrdagi 217 A (III)-sonli
rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan va e'lon qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 30-sentyabrdagi
366-XII-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

MUQADDIMA

Insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmat hamda ularning teng va ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinchlikning asosi ekanligini e'tiborga olib;

inson huquqlarini mensimaslik va uni poymol etish insoniyat vijdoni qiynaladigan vahshiyona ishlar sodir etilishiga olib kelganini, kishilar so'z erkinligi va e'tiqod erkinligiga ega bo'ladigan hamda qo'rquv va muhtojlikdan holi sharoitda yashaydigan dunyoni yaratish insonlarning ezgu intilishidir deb e'lon qilinganligini e'tiborga olib;

inson oxirgi chora sifatida zulm va istibdodga qarshi isyon ko'tarishga majbur bo'lishining oldini olish maqsadida inson huquqlari qonun kuchi bilan himoya etilishi zarur ekanligini e'tiborga olib;

xalqlar o'rtasida do'stona munosabatlarni rivojlantirishga ko'zarurligini e'tiborga olib;

Birlashgan Millatlar xalqlari insonning asosiy huquqlariga, shaxsning qadr-qimmatiga, erkak va ayolning teng huquqliligiga, o'z e'tiqodlarini Nizomda tasdiqlaganliklari hamda yanada kengroq erkinlikda ijtimoiy taraqqiyot va turmush sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashishga ahd qilganliklarini e'tiborga olib;

a'zo bo'lgan davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini yalpi hurmat qilish va unga rioya qilishga ko'maklashish majburiyatini olganligini e'tiborga olib;

mazkur huquqlar va erkinliklarning xarakterini yalpi tushunish ushbu majburiyatlarning to'liq ado etilishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lishini e'tiborga olib;

Bosh Assambleya mazkur Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini barcha xalqlar va davlatlar bajarishga intilishi lozim bo'lgan vazifa sifatida e'lon qilar ekan, bundan maqsad har bir inson va jamiyatning har bir tashkiloti doimo ushbu Deklaratsiyani nazarda tutgan holda ma'rifat va ta'lim yo'li bilan bu huquq va erkinliklarning hurmat qilinishiga ko'maklashishi, milliy va xalqaro taraqqiyparvar tadbirlar orqali ham uning bajarilishi ta'minlanishiga, Tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar xalqlari o'rtasida hamda ushbu davlatlarning yurisdiksiyasidagi hududlarda yashayotgan xalqlar o'rtasida yalpisiga va samarali tan olinishiga intilishlari zarur.

1-modda

Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin, bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak.

2-modda

1. Har bir inson irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat'i nazar ushbu Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va erkinlikka ega bo'lishi zarur.

2. Bundan tashqari, inson mansub bo'lgan mamlakat yoki hududning siyosiy, huquqiy yoki xalqaro maqomidan, ushbu hudud mustaqilmi, vasiymi, o'z-o'zini idora qiladimi yoki boshqacha tarzda cheklanganligidan qat'i nazar biror bir ayirmachilik bo'lmasligi kerak.

3-modda

Har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir.

4-modda

Hech kim qullikda yoki erksiz holatda saqlanishi mumkin emas; qullik va qul savdosining barcha ko'rinishlari taqiqlanadi.

5-modda

Hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan muomala va jazoga duchor etilmasligi kerak.

6-modda

Har bir inson qaerda bo'lishidan qat'i nazar, o'zining huquq subyekti sifatida tan olinish huquqiga ega.

7-modda

Barcha odamlar qonun oldida tengdirlar va har qanday tafovutlarsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqiga ega. Barcha odamlar ushbu Deklaratsiyaga zid bo'lgan har qanday kamsitishdan va bunday kamsitishlarga undaydigan har qanday fitnadan teng himoya qilinish huquqiga egadir.

8-modda

Har bir inson unga konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda vakolatli milliy sudlar tomonidan huquqlarining samarali tiklanishi huquqiga ega.

9-modda

Hech kim asossiz hibsga olinishi, ushlanishi yoki quvg'in qilinishi mumkin emas.

10-modda

Har bir inson o'z huquq va burchlarini belgilash hamda unga qo'yilgan jinoiy aybning asosli ekanini aniqlash uchun uning ishi to'liq tenglik asosida oshkora va adolatning barcha talabiga rioya qilgan holda mustaqil va xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqiga ega.

11-modda

1. Jinoyat sodir etganlikda ayblangan har bir inson, uning himoya qilinishi uchun barcha imkoniyatlar ta'minlangan holda, uning aybi ochiq sud muhokamasi yo'li bilan qonuniy tartibda aniqlanmagunga qadar aybsiz deb hisoblanish huquqiga ega.

2. Hech kim jinoyat sodir etilgan vaqtda milliy qonunlar yoki xalqaro huquqqa ko'ra jinoyat deb topilmagan har qanday harakat yoki faoliyatsizligi asosida sodir etilgan jinoyat uchun jazoga hukm qilinishi mumkin emas. Shuningdek, jinoyat sodir etilgan vaqtda qo'llanishi mumkin bo'lgan jazoga nisbatan og'irroq jazo berilishi mumkin emas.

12-modda

Hech kim birovning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashishi, uning uy-joyi daxlsizligiga, yozishmalaridagi sirlarga yoki uning nomusi va obro'siga o'zboshimchalik bilan tajovuz qilishi mumkin emas. Har bir inson mana shunday aralashuv yoki tajovuzdan qonun tomonidan himoya qilinish huquqiga ega.

13-modda

1. Har bir inson erkin harakatlanish va o'ziga har bir davlat doirasida turar joy tanlash huquqiga ega.
2. Har bir inson xohlagan mamlakatini, xususan, o'z mamlakatini tark etish va o'z mamlakatiga qaytib kelish huquqiga ega.

14-modda

1. Har bir inson ta'qib tufayli boshqa mamlakatlardan boshpana izlash va o'sha boshpanadan foydalanish huquqiga ega.
2. Bu huquq siyosiy bo'lmagan jinoyatni sodir etganda yoki Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsad va tamoyillariga zid bo'lgan xatti-harakatlarga asoslangan ta'qib holatida qo'llanilmaydi.

15-modda

1. Har bir inson fuqarolik huquqiga ega.
2. Hech kim o'z fuqaroligidan yoki o'z fuqaroligini o'zgartirish huquqidan o'zboshimchalik bilan mahrum qilinishi mumkin emas.

16-modda

1. Balog'at yoshiga yetgan erkaklar va xotin-qizlar irqi, millati yoki diniy belgilari bo'yicha hech qanday cheklashlarsiz nikohdan o'tishga va oila qurishga haqli. Ular nikohdan o'tishda, nikohda turgan vaqtlarida va uni bekor qilish vaqtida bir xil huquqlardan foydalanadi.
2. Nikohdan o'tayotgan har ikki tomonning erkin va to'liq roziligi asosidagina nikoh tuzilishi mumkin.
3. Oila jamiyatning tabiiy va asosiy bo'g'ini sanaladi hamda jamiyat va davlat tomonidan himoya qilinishga haqli.

17-modda

1. Har bir inson ham yakka holda, ham boshqalar bilan birgalikda mulkka egalik qilish huquqiga ega.
2. Hech kim o'z mulkidan o'zboshimchalik bilan mahrum etilishi mumkin emas.

18-modda

Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega; bu huquq o'z dini yoki e'tiqodini o'zgartirish erkinligini va ta'limotda, toat-ibodatda hamda diniy rasm-rusum va marosimlarni ommaviy yoki xususiy tartibda bajarish orqali o'z dini yoki e'tiqodiga ham yakka, ham boshqalar bilan birgalikda amal qilishi erkinligini o'z ichiga oladi.

19-modda

Har bir inson e'tiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega; bu huquq to'siqlarsiz o'z e'tiqodiga amal qilish erkinligini hamda axborot va g'oyalarni davlat chegaralaridan qat'i nazar, har qanday vositalar bilan izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga oladi.

20-modda

1. Har bir inson tinch yig'inlar o'tkazish va uyushmalar tuzish erkinligi huquqiga ega.
2. Hech kim biror bir uyushmaga kirishga majbur qilinishi mumkin emas.

21-modda

1. Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillar vositasida o'z mamlakatini boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega.
2. Har bir inson o'z mamlakatida davlat xizmatidan teng foydalanish huquqiga ega.
3. Xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo'lishi lozim; bu iroda yalpi va teng saylov huquqidan yashirin ovoz berish yo'li bilan yoki ovoz berish erkinligini ta'minlaydigan boshqa teng qiymatli shakllar vositasida o'tkazilishi kerak bo'lgan davriy va soxtalashtirilmagan saylovlarda o'z aksini topishi kerak.

22-modda

Har bir inson jamiyat a'zosi sifatida milliy sa'y-harakatlar va xalqaro hamkorlik orqali hamda har bir davlatning tuzilishi va resurslariga muvofiq ijtimoiy ta'minotga va o'z qadr-qimmatini qo'llab-quvvatlash hamda shaxsining erkin rivojlanishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalaridagi huquqlarini amalga oshirish huquqiga ega.

23-modda

1. Har bir inson mehnat qilish, ishini erkin tanlash, mehnatning adolatli va qulay sharoitiga va ishsizlikdan himoya qilinish huquqiga ega.
2. Har bir inson hech bir kamsitishsiz teng mehnat uchun teng haq olish huquqiga ega.
3. Har bir ishlovchi kishi o'zi va oilasi uchun insonga munosib yashashni ta'minlaydigan adolatli va qoniqarli haq olishga hamda zarur bo'lganda, ijtimoiy ta'minotning boshqa vositalari bilan to'ldirilgan daromad olish huquqiga ega.
4. Har bir inson kasaba uyushmalari tuzish va o'z manfaatlarini himoya qilish uchun kasaba uyushmalariga kirish huquqiga ega.

24-modda

Har bir inson dam olish va bo'sh vaqtga ega bo'lish, jumladan, ish kunini oqilona cheklash huquqi va haq to'lanadigan mehnat ta'tili olish huquqiga ega.

25-modda

1. Har bir inson o'zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan turmush darajasiga ega bo'lish, jumladan, kiyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega bo'lishga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog'liq bo'lmagan sharoitlarga ko'ra tirikchilik uchun mablag' bo'lmay qolgan boshqa hollarda ta'minlanish huquqiga ega.
2. Onalik va bolalik alohida g'amxo'rlik va yordam huquqini beradi. Barcha bolalar nikohda yoki nikohda bo'lmagan ota-onalardan tug'ilishidan qat'i nazar, bir xil ijtimoiy himoyadan foydalanishi kerak.

26-modda

1. Har bir inson ta'lim olish huquqiga ega. Ta'lim olish, hech bo'lmaganda, boshlang'ich va umumiy ta'lim tekin bo'lishi lozim. Boshlang'ich ta'lim majburiy bo'lishi kerak. Texnik va kasbiy ta'lim hammaning imkoni yetadigan bo'lishi, oliy ta'lim esa har kimning qobiliyatiga asosan hamma uchun bir xil imkoniyat darajasida bo'lishi kerak.
2. Ta'lim inson shaxsining to'liq rivojlanishiga hamda inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmatni oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Ta'lim barcha xalqlar, irqiy va diniy guruhlar o'rtasidagi hamjihatlik, sabr-toqatlilik va do'stlikka hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni saqlash bo'yicha faoliyatiga ko'maklashishi kerak.

3. Ota-onalar kichik yoshdagi bolalari uchun ta'lim turini tanlashda ustuvorlik huquqiga egadir.

27-modda

1. Har bir inson jamiyatning madaniy hayotida erkin ishtirok etish, san'atdan bahramand bo'lish, ilmiy taraqqiyotda ishtirok etish va uning samarasidan foydalanish huquqiga ega.

2. Har bir inson, u muallifi bo'lgan ilmiy, adabiy yoki san'at asarlarining natijasida o'zining ma'naviy va moddiy manfaatlarining himoya qilinishi huquqiga ega.

28-modda

Har bir inson ushbu Deklaratsiyada bayon etilgan huquq va erkinliklar to'liq amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy va xalqaro tartib huquqiga ega.

29-modda

1. Har bir inson o'z shaxsiyatining erkin va to'liq rivojlanishi mumkin bo'lgan jamiyat oldidagina majburiyatga ega.

2. Har bir inson o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda demokratik jamiyatda boshqalarning huquq va erkinliklari yetarli darajada bo'lishini hamda hurmat qilinishini ta'minlash, axloq, jamoat tartibi, umumiy farovonlikning adolatli talablarini qondirish maqsadidagina qonunda belgilangan cheklanishlarga rioya etishi kerak.

3. Ushbu huquq va erkinliklarning amalga oshirilishi hech qanday holatda Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsad va tamoyillariga zid bo'lmasligi kerak.

30-modda

Ushbu Deklaratsiyadagi hech bir narsa biror bir davlat, shaxslar guruhi yoki alohida shaxslarga mazkur Deklaratsiyada bayon etilgan huquq va erkinliklarni yo'q qilishga yo'naltirilgan har qanday faoliyat bilan shug'ullanish yoki harakatni amalga oshirish huquqini berish kabi talqin etilishi mumkin emas.

FUQAROVIIY VA SIYOSIY HUQUQLAR TO'G'RIDAGI XALQARO PAKT

*Bosh Assambleyaning 1966-yil 16-dekabrda 2200 A (XXI)-sonli
rezolyusiyasi bilan qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustda
127-I-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavida e'lon qilingan tamoyillarga muvofiq, barcha insoniyat oilasining a'zolariga xos qadr-qimmatni hamda ularning teng va ajralmas huquqlarini tan olish ozodlik, adolat va yalpi tinchlikning asosi ekanligini e'tiborga olib,

bu huquqlar inson shaxsiga xos bo'lgan qadr-qimmatdan kelib chiqishini tan olib,

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga muvofiq qo'rquv va muhtojlikdan ozod bo'lgan, fuqarolik va siyosiy erkinlikdan foydalanuvchi ozod inson shaxsi ideali har bir odam o'z iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlaridan foydalanishi mumkin bo'lgan sharoit yaratilgandagina ro'yobga chiqishi mumkinligini tan olib,

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustaviga asosan davlatlar inson huquqlari va erkinliklarini yalpi hurmat qilish hamda ularga rioya etilishini rag'batlantirishi shartligini e'tiborga olib,

har bir alohida inson boshqa odamlar va o'zi mansub bo'lgan jamoaga nisbatan majburiyatlarga ega bo'lgan holda ushbu Paktda tan olingan huquqlar rag'batlantirilishi va rioya etilishiga erishishi lozimligini e'tiborga olib,

quyidagi moddalar to'g'risida kelishib oldilar:

I QISM

1-modda

1. Barcha xalqlar o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga egadir. Ushbu huquq asosida ular o'z siyosiy maqomlarini erkin belgilaydilar va o'z iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishlarini erkin ta'minlaydilar.

2. Barcha xalqlar o'z maqsadlariga erishish uchun o'zaro manfaatdorlik prinsipiga asoslangan xalqaro iqtisodiy hamkorlik va xalqaro huquqdan kelib chiqadigan biron-bir majburiyatga ziyon yetkazmasdan o'z tabiiy boyliklari va resurslarini erkin holda tasarruf etishi mumkin. Hech bir xalq hech bir holatda o'ziga tegishli tirikchilik vositalaridan mahrum etilmasligi kerak.

3. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi barcha davlatlar, jumladan, o'zini o'zi boshqara olmaydigan va vasiylikka olingan hududlarni boshqarish uchun javobgar bo'lgan davlatlar ham Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavi qoidalariga muvofiq, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini amalga oshirishni rag'batlantirishi va bu huquqni hurmat qilishi lozim.

II QISM

2-modda

1. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi har bir davlat o'z hududida turgan va o'z yurisdiksiyasi ostida bo'lgan barcha shaxslarning ushbu Paktda e'tirof etilgan huquqlarini hech bir ayirmachiliksiz, jumladan, irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodidan, milliy yoki ijtimoiy

kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, tug'ilishi yoki o'zga holatidan qat'i nazar hurmat qilish va ta'minlash majburiyatini oladi.

2. Agar bu narsa hali mavjud qonun hujjatlarida yoki boshqa choralar orqali nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu Paktda ishtirok etuvchi har bir davlat o'zining konstitutsiyaviy tartib-taomillariga va mazkur Pakt qoidalariga muvofiq hamda unda e'tirof etilgan huquqlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lishi mumkin bo'lgan shunday qonun hujjatlarini yoki boshqa tadbirlarni qabul qilish uchun zarur choralarni ko'rish majburiyatini oladi.

3. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi har bir davlat quyidagi majburiyatlarga ega:

a) ushbu Paktda tan olingan huquqlari va erkinliklari buzilgan har qanday shaxsni, agar bu buzilish rasmiy sifatda harakat qilgan shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa ham, huquqiy himoyaning samarali vositasi bilan ta'minlash;

b) ana shunday himoya talab qiluvchi har qanday shaxs uchun yuridik himoya vakolatli sud, ma'muriy yoki qonun chiqaruvchi hokimiyatlar tomonidan yoki davlatning huquqiy tizimida nazarda tutilgan boshqa vakolatli organlar tomonidan ta'minlanishi va sud orqali himoyalaniishi imkoniyatini rivojlantirish;

c) huquqiy himoya vositalari berilganda, vakolatli hokimiyatlar tomonidan buning qo'llanilishini ta'minlash.

3-modda

Mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlar erkaklar va xotin-qizlar uchun ushbu Paktda ko'rib chiqilgan barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan bir xilda foydalanilishini ta'minlash majburiyatini oladi.

4-modda

1. Davlatda favqulodda holat yuz bergan vaqtda, millat hayoti tahdid ostida qolgan va bu holat haqida rasmiy ravishda e'lon kilinganda ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar mazkur Pakt bo'yicha olgan o'z majburiyatlaridan chekinish uchun choralar ko'rishi mumkin, lekin bu chekinishni ahvol keskinligi talab etgan bo'lishi hamda bu choralar xalqaro huquq bo'yicha boshqa majburiyatlarga xilof bo'lmasligi va irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini va ijtimoiy kelib chiqishiga qarab kamsitishga olib kelmasligi kerak.

2. Ushbu qoida 6, 7, 8 (1 va 2-bandlar), 11, 15, 16 va 18-moddalardan biror-bir chekinish uchun asos bo'la olmaydi.

3. Ushbu Paktda chekinish huquqidan foydalanuvchi har qanday ishtirok etuvchi davlat o'zi chekingan qoidalar haqida va shunday qarorga kelishga olib kelgan sabablar haqida darhol Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi orqali mazkur Paktda ishtirok etuvchi boshqa davlatlarni xabardor qilishi kerak. Shuningdek, o'sha vositachi orqali bunday chekinish to'xtatiladigan sana to'g'risida ham xabar berilishi kerak.

5-modda

1. Ushbu Paktdagi hech narsa biror-bir davlat, biror-bir guruh yoki biror-bir shaxs mazkur Paktda tan olingan, har qanday huquq yoki erkinliklarni yo'qotishga yoki ularni ushbu Paktda nazarda tutilganidan ko'ra ko'proq cheklashga qaratilgan birorta faoliyat bilan shug'ullanish yoxud shunday harakat sodir etish huquqiga ega deb talqin qilinishi mumkin emas.

2. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi biror-bir davlatda qonun, konvensiya, qoida yoki urf-odat sifatida tan olingan yoxud mavjud bo'lgan asosiy inson huquqlari, mazkur Paktda shu huquqlar tan olinmaydi yoki qisman e'tirof etiladi degan bahona bilan biror-bir tarzda cheklanishi yoki kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi.

III QISM

6-modda

1. Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir. Bu huquq qonun bilan himoya qilinadi. Hech kim o'zboshimchalik bilan insonni yashashdan mahrum qila olmaydi.

2. O'lim jazosini bekor qilmagan mamlakatlarda o'lim hukmi faqatgina jinoyat sodir etilgan vaqtda amalda bo'lgan va mazkur Pakt hamda Genotsid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risidagi konvensiyaga zid bo'lmagan qonunga muvofiq eng og'ir jinoyatlar uchungina chiqarilishi mumkin. Bunday jazo faqat vakolatli sud tomonidan chiqarilgan yakuniy hukmni ijro etib amalga oshirilishi mumkin.

3. O'lim jazosi bekor qilinmagan mamlakatlarda mazkur Paktga va Genotsid jinoyatining oldini olish hamda uning uchun jazolash to'g'risidagi konvensiyaga zid bo'lmagan, faqat jinoyat sodir etilgan vaqtda amalda bo'lgan qonunga muvofiq eng og'ir jinoyatlar uchungina o'lim hukmi chiqarilishi mumkin. Bunday jazo faqat vakolatli sud tomonidan chiqarilgan yakuniy hukmni ijro etish uchun amalga oshirilishi mumkin.

4. Genotsid jinoyati uchun hayotdan mahrum etilayotgan bo'lsa, shuni e'tiborga olish lozimki, ushbu moddadagi hech bir narsa mazkur Paktga ishtirok etuvchi davlatlar uchun biror-bir yo'l bilan Genotsid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risidagi konvensiya qarorlariga muvofiq qabul qilingan har qanday majburiyatlardan chekinish huquqini bermaydi.

5. O'lim jazosiga hukm qilingan har bir kishi afv etish haqida yoki hukmni yumshatish to'g'risida iltimos qilish huquqiga ega. Amnistiya, afv etish yoki o'lim hukmini almashtirish hamma holatlarda hadya etilishi mumkin.

6. O'n sakkiz yoshdan kichik shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun o'lim hukmi chiqarilmaydi va homilador xotin-qizlarga nisbatan bu hukm ijro etilmaydi.

7-modda

Hech kim qiynoqlarga yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoki jazoga duchor etilmasligi kerak. Jumladan, hech bir shaxs ustidan o'zining erkin roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajriba o'tkazilishi mumkin emas.

8-modda

1. Hech kim qullikda saqlanmasligi kerak; qullik va qul savdosining barcha turlari taqiqlanadi.

2. Hech kim erksiz holatda saqlanmasligi kerak.

3. a) hech kim majburiy yoki bajarilishi shart bo'lgan mehnatga majbur qilinmasligi kerak;

b) jinoyat uchun jazo tariqasida juda og'ir ishlarga jalb etilish bilan bog'liq ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan mamlakatlarda, shunday jazo vakolatli sud hukmi bilan tayinlansa, 3" a" kichik bandi juda og'ir ishlarni bajarish uchun to'siq bo'lmaydi;

c) "majburiy yoki bajarilishi shart bo'lgan mehnat" atamasi ushbu bandda quyidagilarni qamrab olmaydi:

i) "b" kichik bandda qayd etilmagan biror-bir ish yoki xizmat, qoida tariqasida, sudning qonuniy farmoyishiga asosan qamoqda bo'lgan shaxs yoki bunday qamoqdan shartli ravishda ozod etilgan shaxs bajarishi kerak;

ii) harbiy tusdagi har qanday xizmat, siyosiy yoki diniy-etnik sabablarga ko'ra harbiy xizmatni rad etish tan olinadigan mamlakatlarda xuddi shunday sabablarga ko'ra harbiy xizmatni rad etayotgan shaxslar uchun qonunda nazarda tutilgan har qanday xizmat;

iii) aholining hayoti yoki osoyishtaligiga tahdid soluvchi favqulodda holat yoki falokat holatlarida majburiy bo'lgan har qanday xizmat;

iv) odatdagi fuqarolik burchlariga kiruvchi har qanday ish yoki xizmat.

9-modda

1. Har bir inson erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim o'zboshimchalik bilan hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas. Hech kim qonunda belgilangan asos va tartibga muvofiq ozodlikdan mahrum etilishi mumkin emas.

2. Har bir hibsga olinuvchiga hibsga olinganida uning hibsga olinish sabablari xabar qilinadi va unga qo'yilgan har qanday ayblov zudlik bilan ma'lum qilinadi.

3. Jinoiy ayblov bo'yicha hibsga olingan yoki ushlab turilgan har bir shaxs zudlik bilan sudya yoki qonun bo'yicha sud hokimiyatini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan boshqa mansabdor shaxs huzuriga keltiriladi hamda oqilona muddatda sud muhokamasiga yoki ozod qilinish huquqiga ega. Sud muhokamasini kutayotgan shaxslarning qamoqda saqlanishi umumiy qoida bo'lmasligi kerak, biroq ozod qilish sudga kelish kafolatlari berilishiga, sud muhokamasiga uning har qanday boshqa bosqichiga kelishga va zarur hollarda, hukm ijro etilishi uchun kelishga bog'liq qilib qo'yilishi mumkin.

4. Hibsga olinishi yoki qamoqda saqlab turilishi tufayli ozodlikdan mahrum etilgan har bir shaxs o'z ishining sudda ko'rib chiqilishi huquqiga ega, toki sud uning ushlab turilishi qanchalik qonuniy ekanligi borasida darhol qaror chiqara olsin va agar uni ushlab turish noqonuniy bo'lsa, ozod qilish haqida farmoyish bera olsin.

5. Noqonuniy hibsga olish yoki qamoqda saqlab turish qurboni bo'lganlarning har biri da'vo kuchiga ega bo'lgan kompensatsiya olish huquqiga ega.

10-modda

1. Ozodlikdan mahrum etilgan barcha shaxslar insoniy muomala va inson shaxsiga xos bo'lgan qadr-qimmatining hurmat qilinishi huquqiga ega.

2. a) istisno holatlari mavjud bo'lmaganda ayblanuvchilar mahkumlardan alohida joylashtiriladi va ularga sudlanmagan jazoga mahkum etilmagan shaxslar maqomiga javob beradigan alohida rejim taqdim etiladi;

b) voyaga yetmagan ayblanuvchilar voyaga yetgan ayblanuvchilardan alohida qilinadi hamda qisqa muddatda qaror chiqarish uchun sudga keltiriladi;

3. Mahbuslar uchun penitensiar tizim bilan ularni to'g'ri yo'lga solish va ijtimoiy qayta tarbiyalash maqsadi nazarda tutilgan. Voyaga yetmagan huquqbuzarlar voyaga yetganlardan alohida qilinadi hamda ularning yoshi va huquqiy maqomiga javob beruvchi rejim taqdim etiladi.

11-modda

Hech kim biror-bir shartnoma majburiyatini bajara olmaydigan ahvolda bo'lgani asosidagina ozodlikdan mahrum etilishi mumkin emas.

12-modda

1. Biror-bir davlat hududida qonuniy ravishda turgan har bir kishi ushbu hudud doirasida erkin harakatlanish va turar joyni erkin tanlash huquqiga ega.

2. Har bir inson har qanday mamlakatni, jumladan, o'z mamlakatini tark etish huquqiga ega.

3. Yuqorida qayd etilgan huquqlar hech qanday cheklash obyekti bo'lishi mumkin emas, qonunda nazarda tutilgan davlat xavfsizligini, jamoat tartibini, aholi salomatligi yoki ma'naviyatini yoxud boshqalarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish uchun zarur bo'lgan va ushbu Paktda e'tirof etilgan boshqa huquqlarga mos keladigan cheklashlar bundan mustasno.

4. Hech kim o'z mamlakatiga kirish huquqidan o'zboshimchalik bilan mahrum etilishi mumkin emas.

13-modda

Ushbu Paktda ishtirok etuvchi biror-bir davlat hududida qonuniy ravishda turgan chet ellik faqat qonunga muvofiq holda chiqarilgan qarorning ijrosi uchun chiqarib yuborilishi mumkin va agar davlat xavfsizligining qat'iy mulohazalari boshqacha talab etmasa, o'zining chiqarib yuborilishiga qarshi dalillarni taqdim etish, bu ishni vakolatli hokimiyat yoki vakolatli hokimiyat tomonidan maxsus tayinlangan shaxs yoxud shaxslar qayta ko'rib chiqishi va shu maqsadda ushbu hokimiyat oldida shaxs yoki shaxslar tomonidan taqdim etish huquqiga ega.

14-modda

1. Barcha shaxslar sudlar va tribunallar oldida tengdir. Har bir kishi unga qo'yilayotgan har qanday jinoiy ayblov ko'rib chiqilayotganda yoki biror-bir fuqarolik jarayonida uning huquq va burchlari aniqlanayotganida qonunga asosan tuzilgan vakolatli, mustaqil va xolis sud tomonidan mazkur ish adolatli hamda ochiq holda ko'rib chiqilishi huquqiga ega. Demokratik jamiyatda axloq yuzasidan, jamiyat tartibi yoki davlat xavfsizligi nuqtai nazaridan yoki buni tomonlarning shaxsiy hayoti manfaatlarini talab etganida yoki sud fikriga ko'ra bu qandaydir darajada qat'iyan zarur deb topilganida, ya'ni omma ko'z o'ngida bo'ladigan jarayon sudlov manfaatlariga halal beradigan alohida hollarda matbuot xodimlari va omma barcha majlislarga yoki shu majlislarning bir qismiga kiritilmasligi mumkin; biroq jinoiy yoki fuqarolik ishi bo'yicha chiqarilgan har qanday sud qarori oshkora bo'lishi kerak, voyaga yetmaganlarning manfaatlarini boshqa narsani talab etgan hollarda yoki nikoh borasidagi nizolar yoki bolalarga vasiylik tayinlash haqidagi ishlar bundan mustasno.

2. Jinoyatsodiretganlikda ayblanayotgan har bir shaxs qonunga muvofiq aybi isbotlanmaguncha aybsiz deb hisoblanish huquqiga ega.

3. Har kim o'ziga qo'yilgan har qanday jinoiy ayblovni ko'rib chiqishda to'liq tenglik asosida kamida quyidagi kafolatlarni olish huquqiga ega:

a) o'ziga qo'yilgan jinoiy ayblov xususiyati va asoslari haqida u tushunadigan tilda zudlik bilan va batafsil xabardor etilishi;

b) o'z himoyasini tayyorlash va o'zi tanlagan himoyachi bilan muloqotda bo'lish uchun yetarlicha vaqt va imkoniyatga ega bo'lish;

c) asossiz kechiktirmasdan ishining sudda ko'rilishi;

d) o'zining ishtirokida sud qilinishi va o'zini shaxsan yoki o'zi tanlagan himoyachi orqali himoya qilinishi; agar unda himoyachi bo'lmasa, bu huquq haqida xabardor qilinishi va odil sud manfaatlarini talab qilgan har qanday holatda unga tayinlangan himoyachiga ega bo'lishi, bu himoyachiga to'lash uchun yetarli mablag'i bo'lmagan har qanday holatda unga himoyachining tekinga berilishi;

e) unga qarshi ko'rsatma berayotgan guvohlarni so'roq qilish yoki ana shu guvohlar so'roq kilinishi huquqiga ega bo'lish va unga qarshi ko'rsatma berayotgan guvohlar uchun mavjud bo'lgan shartlarda o'zining guvohlarini chaqirish va so'roq qilish huquqiga ega bo'lish;

f) agar sudda qo'llanilayotgan tilni tushunmasa yoki bu tilda gaplasha olmasa bepul tarjimon ko'magidan foydalanish;

g) o'ziga o'zi qarshi ko'rsatma berishga yoki o'zini aybdor deb tan olishga majbur qilinmaslik.

4. Voyaga yetmaganlarga nisbatan sud jarayoni shunday bo'lishi kerakki, unda ularning yoshi va ularni qayta tarbiyalashga ko'maklashish maqbulligi inobatga olinsin.

5. Biror-bir jinoyat uchun sudlangan har kim uning sudlanganligi va hukm qonunga muvofiq yuqori turuvchi sud instansiyasi tomonidan qayta ko'rib chiqilishi huquqiga ega.

6. Agar biror-bir shaxs jinoiy qilmishi uchun uzil-kesil qaror bilan sudlangan bo'lsa va agar biror-bir yangi yoki qayta aniqlangan holat sud ishida xatolik mavjudligini inkor etmasligiga asosanib unga nisbatan chiqazilgan hukm bekor qilinsa yoki afv etilgan bo'lsa, bunday hukm natijasida jazolangan shaxs, agar qayd etilgan noma'lum holat faqat uning aybi yoki qisman aybi bilan o'z vaqtida aniqlanmaganligi isbotlanmasa, qonunga muvofiq kompensatsiya oladi.

7. Hech kim har bir mamlakatning qonuni va jinoyat-prosessual huquqiga muvofiq uzil-kesil sudlangan yoki oqlangan jinoyati uchun ikkinchi bor sudlanishi yoki jazolanishi mumkin emas.

15-modda

1. Hech kim sodir etilgan paytida davlatning amalda bo'lgan ichki qonun hujjatlari yoki xalqaro huquqqa ko'ra jinoyat hisoblanmagan biror-bir harakati yoki xato ish qilib qo'yganligi uchun jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilishi mumkin emas. Xuddi shuningdek, jinoyat sodir etilgan vaqtda qo'llanishi lozim bo'lgan jazoga nisbatan og'irroq jazo tayinlanishi mumkin emas. Agar jinoyat sodir etilganidan keyin qonun bilan nisbatan yengil jazo belgilansa, ushbu qonun mazkur jinoyatchiga nisbatan qo'llaniladi.

2. Mazkur moddadagi hech narsa har qanday shaxsni sodir etilgan vaqtda xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan umumiy prinsiplarga ko'ra jinoyat deb hisoblangan har qanday harakat yoki xato ish qilib qo'yganlik uchun sudga berishga va jazolashga to'sqinlik qilmaydi.

16-modda

Har bir inson qaerda turishidan qat'i nazar uning subyektlik maqomi tan olinishi huquqiga ega.

17-modda

1. Hech kim o'zining shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda aralashishga, o'zining uy-joyi yoki yozishmalari siri daxlsizligiga o'zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda tajovuz qilinishiga yoki uning or-nomusi va sha'niga noqonuniy tajovuz qilinishiga duchor etilishi mumkin emas.

2. Har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzlardan qonun orqali himoya etilish huquqiga ega.

18-modda

1. Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o'z tanloviga ko'ra din yoki e'tiqodga ega bo'lish yoki qabul qilishni hamda o'zining dini va e'tiqodiga ham yakka tartibda, ham boshqalar bilan birgalikda, oshkora yoki xususiy tartibda sig'inishga, diniy va boshqa marosimlarni bajarish hamda o'qitish erkinligini o'z ichiga oladi.

2. Hech kim o'z ixtiyoriga ko'ra o'z dini va e'tiqodiga ega bo'lish yoki qabul qilish erkinligini kamsitadigan majburiy holatga duchor etilmasligi lozim.

3. Din yoki e'tiqodga sig'inish erkinligi faqat qonun bilan belgilangan va jamoat xavfsizligini, tartibini, salomatligi va axloqini saqlash uchun, ya'ni boshqa shaxslarning asosiy huquqlari va erkinliklarini muhofaza etish uchun zarur bo'lgan hollardagina cheklanishi mumkin.

4. Mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlar ota-onalarning va tegishli hollarda qonuniy vasiylarning o'z bolalarini o'z shaxsiy e'tiqodiga muvofiq diniy va axloqiy tarbiyalash erkini hurmat qilish majburiyatini oladi.

19-modda

1. Har bir inson hech bir to'siqsiz o'z fikrida sobit qolish huquqiga ega.

2. Har bir inson o'z fikrini erkin bayon etish huquqiga ega; bu huquq davlat chegaralaridan qat'i nazar, og'zaki, yozma yoki matbuot yoxud ifodalashning badiiy shakllari orqali yoki o'z ixtiyoriga ko'ra barcha turdagi axborot va g'oyalarni boshqacha usullarda qidirish, olish va tarqatish erkinligini qamrab oladi.

3. Ushbu moddaning 2-bandida nazarda tutilgan huquqlardan foydalanish alohida majburiyatlar va alohida mas'uliyat yuklaydi. Bu ayrim cheklashlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, biroq bu qonun bilan belgilanishi va quyidagilar uchun zarur bo'lishi lozim:

- a) boshqa shaxslarning huquqlari va obro'-e'tiborini hurmat qilish uchun;
- b) davlat xavfsizligini, jamoat tartibini, aholi salomatligi yoki ma'naviyatini muhofaza etish uchun.

20-modda

- 1. Urushni har qanday targ'ib etish qonun bilan taqiqlanishi kerak.
- 2. Kamsitish, adovat yoki zo'rvonlikka undovchi milliy, irqiy yoki diniy nafrat foydasiga bo'lgan har qanday harakat qonun bilan taqiqlanishi lozim.

21-modda

Tinch yig'inlarga bo'lgan huquqlar tan olinadi. Ushbu huquqdan foydalanishda qonunga muvofiq o'rnatilgan va demokratik jamiyatda davlat yoki jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, aholi salomatligi va ma'naviyatini muhofaza etish yoki boshqa shaxslarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish uchun zarur bo'lganlaridan tashqari hech qanday cheklashlarga yo'l qo'yilmaydi.

22-modda

- 1. Har bir inson boshqalar bilan uyushish erkinligi huquqiga, jumladan, kasaba uyushmalarini tashkil etish va o'z manfaatlarini himoya qilish uchun ularga qo'shilish huquqiga ega.
- 2. Ushbu huquqdan foydalanishda qonun bilan nazarda tutilgan va demokratik jamiyatda davlat yoki jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, aholi salomatligi va ma'naviyatini muhofaza etish yoki boshqa shaxslarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish uchun zarur bo'lganlaridan tashqari hech qanday cheklashlarga yo'l qo'yilmaydi. Mazkur modda qurolli kuchlar va politsiya tarkibiga kiruvchi shaxslar uchun shu huquqdan foydalanishda qonuniy cheklashlar joriy etilishiga to'sqinlik qilmaydi.
- 3. Ushbu moddadagi hech narsa Xalqaro mehnat tashkilotining 1948-yilgi Konvensiyasida ishtirok etuvchi davlatlarga uyushmalar erkinligi va huquqini himoya qilish borasida, mazkur Konvensiyada nazarda tutilgan kafolatlarining zarariga qonunchilik hujjatlarini qabul qilish yoki ushbu kafolatlarga zarar yetkazadigan tarzda qonunni qo'llash huquqini bermaydi.

23-modda

- 1. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sanaladi hamda jamiyat va davlat tomonidan himoya qilinish huquqiga ega.
- 2. Nikoh yoshiga yetgan erkaklar va xotin-qizlarning nikohdan o'tish va oila qurish huquqi tan olinadi.
- 3. Nikohlanuvchilarning erkin va to'liq roziligisiz birorta nikoh tuzilmasligi kerak.
- 4. Mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlar nikohdan o'tishda, nikohda bo'lgan vaqtda va u bekor qilinayotganda er-xotinlarning huquq hamda majburiyatlari tengligini ta'minlash uchun zarur choralar ko'rishlari lozim. Nikoh bekor qilinganda barcha bolalar zarur tarzda himoya qilinishi hisobga olinishi kerak.

24-modda

- 1. Har bir bola irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli yoki tug'ilishi bo'yicha hech qanday kamsitishlarsiz uning oilasi, jamiyat va davlat tomonidan voyaga yetmagan sifatidagi holatida talab qilinadigan himoya choralarining ko'rilishi huquqiga ega.
- 2. Har bir bola tug'ilgandan so'ng darhol ro'yxatdan o'tkazilishi va ismiga ega bo'lishi kerak.
- 3. Har bir bola fuqarolikni olish huquqiga ega.

25-modda

Har bir fuqaro 2-moddada qayd etilganidek, hech bir kamsitishlarsiz va asoslanmagan cheklashlarsiz huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak:

- a) ham bevosita, ham erkin saylangan vakillar orqali davlat ishlarini yuritishda ishtirok etish;
- b) yalpi teng saylov huquqi asosida, yashirin ovoz berish orqali o'tkaziladigan va saylovchilarning erkin xohish-irodasini ta'minlaydigan chinakam davriy saylovlarda ovoz berish va saylanish;
- c) o'z mamlakatida umumiy tenglik shartlarida davlat xizmatiga kirish.

26-modda

Barcha kishilar qonun oldida tengdirlar va hech qanday kamsitishlarsiz qonun tomonidan teng himoya qilinish huquqiga ega. Bu borada har qanday turdagi kamsitish qonun bilan taqiqlab qo'yilishi kerak va qonun barcha shaxslarga irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy va boshqa e'tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, tug'ilishi yoki boshqa holatlar kabi har qanday belgilariga ko'ra kamsitishlarga qarshi teng va samarali himoyani kafolatlashi kerak.

27-modda

Etnik, diniy va til jihatdan ozchilikni tashkil etuvchi elatlar mavjud bo'lgan mamlakatlarda, bunday ozchilikka mansub shaxslarga o'z guruhining boshqa a'zolari bilan birgalikda o'z madaniyatidan foydalanish, o'z diniga sig'inish va rasm-rusumlarini bajarish, shuningdek ona tilidan foydalanish huquqi rad etilishi mumkin emas.

IV QISM

28-modda

1. Inson huquqlari bo'yicha qo'mita (bundan buyon ushbu Paktda Qo'mita deb ataladi) tuziladi. U o'n sakkiz a'zodan iborat va quyida keltirilgan vazifalarni bajaradi.

2. Qo'mita tarkibiga ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlarning fuqarosi bo'lgan va yuksak ma'naviy fazilatlariga ega bo'lgan hamda inson huquqlari sohasida tan olingan bilimga ega shaxslar kiradi, ayni paytda yuridik tajribaga ega bo'lgan bir necha shaxslarning ishtirok etishining foydaliligi e'tiborga olinadi.

3. Qo'mita a'zolari shaxsan saylanadi va ishlaydi.

29-modda

1. Qo'mita a'zolari 28-moddada nazarda tutilgan talablarga javob beradigan va shu maqsadda ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar tomonidan ko'rsatilgan shaxslar ro'yxatidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

2. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi har bir davlat ikkitadan ortiq bo'lmagan shaxsni ko'rsatishi mumkin. Bu shaxslar o'zlarini ko'rsatgan davlatning fuqarolari bo'lishlari lozim.

3. Har bir shaxs qaytadan ko'rsatilish huquqiga ega.

30-modda

1. Dastlabki saylov ushbu Pakt kuchga kirgandan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi.

2. Qo'mitaga har bir saylovga kamida to'rt oy oldin, 34-moddaga muvofiq bo'sh o'rinlarni to'ldirish uchun e'lon qilinadigan saylovdan tashqari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlarga uch oy ichida Qo'mita a'zoligiga nomzodlarni taqdim etish uchun yozma taklif bilan murojaat qiladi.

3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi shu tarzda ko'rsatilgan shaxslarning ushbu Paktda ishtirok etuvchi bu shaxslarni ilgari surgan davlatlarni ko'rsatgan holda alifbo tartibida ro'yxatini tuzadi va bu ro'yxatni har bir saylov o'tkaziladigan sanadan kamida bir oy oldin mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlarga taqdim etadi.

4. Qo'mita a'zolarini saylash Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy muassasalarida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi tomonidan chaqiriladigan ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlarning yig'ilishida o'tkaziladi. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlarning uchdan ikki qismining hozir bo'lishi kворum hisoblanuvchi bu majlisda ishtirokchi-davlatlarning qatshanuvchi va ovoz beruvchi vakillarining eng ko'p ovoz olgan va mutlaq ko'pchilik ovozlarni olgan shaxslar Qo'mitaga saylangan hisoblanadi.

31-modda

1. Qo'mitaga ayni bir davlatning bir nafardan ortiq fuqarosi kirishi mumkin emas.
2. Qo'mita saylovlarida a'zolarining adolatli jug'rofiy taqsimlanishi hamda sivilizasiyaning turli shakllari va asosiy yuridik tizimlarning vakillari e'tiborga olinadi.

32-modda

1. Qo'mita a'zolari to'rt yil muddatga saylanadi. Ularning nomzodi qayta ko'rsatilsa, ular qaytadan saylanish huquqiga egadir. Biroq birinchi saylovda saylangan a'zoldan to'qqiz nafarining vakolatlari muddati ikki yillik davrning oxirida tugaydi; birinchi saylovdan so'ng darhol o'sha to'qqiz a'zoning nomi 30-moddaning 4-bandida ko'rsatilgan majlis Raisi tomonidan qur'a tashlash bilan aniqlanadi.
2. Vakolatlar tugagandan so'ng saylov ushbu Pakt mazkur qismining oldingi moddalariga muvofiq o'tkaziladi.

33-modda

1. Agar boshqa a'zolarining yakdil fikriga ko'ra Qo'mitaning biron bir a'zosi qandaydir bir sababga ko'ra vaqtincha bo'lmaslikdan tashqari, o'z vazifasini bajarishni to'xtatgan bo'lsa, Qo'mita raisi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga bu haqda xabar qiladi, so'ng Bosh kotib bu a'zo o'rnini bo'sh deb e'lon qiladi.
2. Qo'mitaning biror bir a'zosi vafot etgan yoki iste'foga chiqqan holatlarda Qo'mita raisi darhol bu haqda a'zo vafot etgan kundan yoki iste'foga chiqish kuchga kirgan kundan e'tiboran bu o'rinni bo'sh deb e'lon qiladigan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibini xabardor qiladi.

34-modda

1. 33-moddaga muvofiq bo'sh turgan o'rin e'lon qilinganda va, agar almashtirilishi kerak bo'lgan a'zoning vakolat muddati mazkur bo'sh o'rin e'lon qilingandan keyin olti oy ichida tugamasa, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi ushbu Paktda ishtirok etuvchi har bir davlatga 29-moddaga asosan bo'sh o'rinni to'ldirish uchun ikki oy ichida nomzod taqdim etishi mumkinligi to'g'risida xabar beradi.
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi shu tarzda ko'rsatilgan shaxslar ro'yxatini alifbo tartibida tuzadi va bu ro'yxatni ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlarga taqdim etadi. Bo'sh o'rinni to'ldirish uchun saylovlar mazkur Paktning ushbu qismining tegishli qoidalariga muvofiq o'tkaziladi.
3. 33-moddaga binoan e'lon qilingan bo'sh o'rinni egallash uchun saylangan Qo'mita a'zosi mazkur moddaning qoidalariga muvofiq Qo'mitada o'rnini bo'shatgan a'zoning vakolat muddatining qolgan qismi bo'yicha lavozimni egallaydi.

35-modda

Qo'mita a'zolari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi belgilaydigan tartibda va shartlarda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining mablag'laridan Qo'mitadagi vazifasining muhimligini hisobga olgan holda Bosh Assambleya tasdiqlaydigan haqni oladi.

36-modda

Ushbu Paktga muvofiq Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi Qo'mita vazifalarining samarali amalga oshirilishi uchun kerakli xodimlar va moddiy mablag'larni taqdim etadi.

37-modda

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi Qo'mitaning birinchi majlisini Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy muassasalarida chaqiradi.

2. O'zining birinchi majlisidan keyin Qo'mita o'z tartib-taomilida nazarda tutilgan vaqtda yig'iladi.

3. Qo'mita, odatda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy muassasalarida yoki Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jenevadagi bo'limida yig'iladi.

38-modda

Qo'mitaning har bir a'zosi o'z vazifasini bajarishga kirishishdan oldin Qo'mitaning ochiq yig'ilishida o'z vazifalarini xolis va vijdonan amalga oshirishi to'g'risida tantanali bayonot beradi.

39-modda

1. Qo'mita o'z mansabdor shaxslarini ikki yil muddatga saylaydi. Ular qayta saylanishi mumkin.

2. Qo'mita o'zining tartib-taomil qoidalarini belgilaydi, lekin bu qoidalar, xususan, quyidagilarni nazarda tutishi kerak:

a) Qo'mitaning o'n ikki a'zosi kворumni tashkil etadi;

b) Qo'mita qarorlari hozir bo'lgan a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

40-modda

1. Ushbu Paktga ishtirok etuvchi davlatlar mazkur Paktga e'tirof etilgan huquqlarni hayotga tatbiq etish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar va bu huquqlardan foydalanishda erishilgan yuksalishlar to'g'risida hisobotlar taqdim etish majburiyatini oladi:

a) ushbu Pakt tegishli ishtirokchi-davlatlarga nisbatan kuchga kirgandan keyin bir yil ichida;

b) bundan so'ng Qo'mita talab qilgan barcha hollarda.

2. Barcha hisobotlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga taqdim etiladi, u ularni ko'rib chiqish uchun Qo'mitaga yuboradi. Hisobotlarda ushbu Paktga hayotga tatbiq etishga ta'sir qiluvchi omillar va qiyinchiliklar, agar mavjud bo'lsa, ko'rsatiladi.

3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi Qo'mita bilan maslahatlashuvidan so'ng manfaatdor ixtisoslashtirilgan muassasalarga hisobotning ular vakolati doirasiga taalluqli bo'lishi mumkin bo'lgan qismining nusxalarini yuborishi mumkin.

4. Qo'mita ushbu Paktga ishtirok etuvchi davlatlar tomonidan taqdim etiladigan hisobotlarni o'rganadi. U ishtirokchi-davlatlarga o'z hisobotlarini va umumiy tartibda maqsadga muvofiq deb hisoblaydigan mulohazalarini yuboradi. Qo'mita, shuningdek ushbu mulohazalarni Iqtisodiy va Ijtimoiy kengashga mazkur Paktga ishtirok etuvchi davlatlardan olingan hisobotlar nusxalari bilan birga yuborishi mumkin.

5. Ushbu Paktga ishtirok etuvchi davlatlar Qo'mitaga mazkur moddaning 4-bandiga muvofiq qayd qilinishi mumkin bo'lgan har qanday mulohazalar bo'yicha o'z fikrini taqdim etishi mumkin.

41-modda

1. Ushbu moddaga muvofiq mazkur Paktga ishtirok etuvchi davlat istalgan vaqtda Qo'mitaning biror-bir Ishtirokchi-davlat boshqa Ishtirokchi-davlat ushbu Pakt bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligini da'vo qilayotgani to'g'risidagi xabarni qabul qilishi va ko'rib chiqish vakolatini tan olishini bayon etishi mumkin. Mazkur moddada nazarda tutilgan xabar, agar faqat Qo'mita vakolatini o'zi tan olgani to'g'risida bayonot bergan Ishtirokchi-davlat tomonidan taqdim etilgan

bo'lsa qabul qilinishi va ko'rib chiqilishi mumkin. Qo'mita, agar shunday bayonot bermagan Ishtirokchi-davlatga tegishli hech bir xabarni qabul qilmaydi. Ushbu moddaga muvofiq qabul qilingan xabar quyidagi tartib-taomilga binoan ko'rib chiqiladi:

a) agar ushbu Paktda ishtirok etuvchi biror-bir davlat boshqa Ishtirokchi-davlat mazkur Pakt qarorlarini hayotga tatbiq etmayapti deb topsa, o'sha davlat bu masalani qayd etilgan ishtirokchi-davlat e'tiboriga yozma xabar orqali yetkazishi mumkin. Ushbu xabarni olgandan keyin uni olgan davlat bunday xabarni yuborgan davlatga uch oy ichida yozma shaklda tushuntirish yoki mazkur masala bo'yicha tushuntirish bilan boshqa har qanday bayonotni taqdim etadi, bunda iloji boricha va maqsadga muvofiq holda shu masala borasida qabul qilingan, qabul qilinadigan yoki qabul qilinishi mumkin bo'lgan ichki tartib-taomillar va choralar ko'rsatiladi;

b) agar masala qabul qiluvchi davlat dastlabki xabarni olganidan keyin olti oy mobaynida manfaatdor Ishtirokchi-davlatlarni qoniqtiradigan darajada hal etilmagan bo'lsa, bu davlatlarning har biri masalani Qo'mitani va boshqa davlatni xabardor qilish orqali Qo'mitaga taqdim etish huquqiga ega;

c) Qo'mita o'ziga taqdim etilgan masalani xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga muvofiq barcha imkoniyatdagi ichki vositalar sinab ko'rilgan va mazkur holatda tugagan deb ishonch hosil qilganidan keyingina ko'rib chiqadi. Bu qoida ushbu vositalarning qo'llanishi asossiz ravishda kechiktiriladigan holatlarda amal qilmaydi;

d) ushbu moddada nazarda tutilgan xabarni ko'rib chiqishda Qo'mita yopiq majlis o'tkazadi;

e) Qo'mita "c" kichik bandning qarorlariga rioya qilgan holda, ushbu Paktda e'tirof etilgan inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish asosida masalalarni do'stona hal etish maqsadida manfaatdor Ishtirokchi-davlatlarga o'z xolis xizmatini ko'rsatadi;

f) Qo'mita ko'rib chiqishi uchun o'ziga taqdim etilgan har qanday masala yuzasidan "b" kichik bandda ko'rsatilgan manfaatdor Ishtirokchi-davlatlarga iltimos bilan ishga taalluqli har qanday axborotni taqdim etish bo'yicha murojaat qilishi mumkin;

g) "b" kichik bandda ko'rsatilgan manfaatdor Ishtirokchi-davlatlar Qo'mitada masala ko'rib chiqilayotganda vakil bo'lish va og'zaki va/yoki yozma taqdimnoma berish huquqiga ega;

h) Qo'mita "b" kichik bandga muvofiq xabarnoma olingan kundan boshlab o'n ikki oy ichida hisobot taqdim etadi:

i) agar "e" kichik band qarorlari doirasida masala hal etilsa, Qo'mita o'z hisobotida dalillar va erishilgan qarorning qisqacha mazmuni bilan cheklanadi;

ii) agar "e" kichik band qarorlari doirasida bir qarorga kelinmasa, Qo'mita o'z hisobotida dalillarni qisqacha mazmuni bilan cheklanadi; manfaatdor Ishtirokchi-davlatlar tomonidan berilgan yozma taqdimnomalar va og'zaki taqdimnomalarning yozib olingan bayoni hisobotga ilova qilinadi.

Har bir masala bo'yicha hisobot manfaatdor Ishtirokchi-davlatlarga yuboriladi.

2. Mazkur modda qarorlari ushbu Paktda ishtirok etuvchi o'nta davlat shu moddaning 1-bandiga muvofiq bayonot berganida kuchga kiradi. Bunday bayonotlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi huzurida Ishtirokchi-davlatlar tomonidan saqlash uchun topshiriladi, u ularning nusxalarini qolgan ishtirokchi-davlatlarga yuboradi. Bayonot Bosh kotibning bildirishnomasi bilan istalgan vaqtda qaytarib olinishi mumkin. Bunday harakat mazkur moddaga muvofiq topshirilgan xabarning predmeti bo'lgan har qanday masalaning ko'rib chiqilishiga to'sqinlik qilmaydi; agar manfaatdor Ishtirokchi-davlat yangi bayonot bermagan bo'lsa, Bosh kotib bayonot qaytarib olingani to'g'risidagi bildirishnomani olganidan keyin hech qanday Ishtirokchi-davlatning keyingi biror bir xabar qabul qilinmaydi.

42-modda

1. a) 41-moddaga muvofiq Qo'mitaga topshirilgan biror-bir masala manfaatdor Ishtirokchi-davlatlarni qoniqtiradigan darajada yechilmagan bo'lsa, Qo'mita manfaatdor Ishtirokchi-

davlatlarning oldindan bergan roziligiga ko'ra maxsus Kelishtiruvchi komissiya (bundan buyon "Komissiya" deb yuritiladi) tayinlashi mumkin. Komissiya mazkur Pakt qoidalariga rioya qilgan holda masalani yaxshilik bilan hal etish maqsadida manfaatdor Ishtirokchi-davlatlarga xolis xizmat ko'rsatadi;

b) Komissiya manfaatdor Ishtirokchi-davlatlarga maqbul bo'lgan besh nafar shaxsdan iborat bo'ladi. Agar manfaatdor Ishtirokchi-davlatlar uch oy mobaynida Komissiyaning to'liq tarkibi yoki tarkibning bir qismi borasida kelishuvga kelolmasa, tayinlash to'g'risidagi kelishuvga kelinmagan Komissiya a'zolari yashirin ovoz berish yo'li bilan Qo'mita a'zolarining uchdan ikki qismining ko'pchilik ovozi bilan saylanadi.

2. Komissiya a'zolari vazifalarni shaxs sifatida bajaradi. Ular manfaatdor Ishtirokchi-davlatlarning yoki ushbu Paktga qatnashmaydigan davlatlar yoxud 41-moddaga muvofiq bayonot bermagan Ishtirokchi-davlatning fuqarolari bo'lishlari mumkin emas.

3. Komissiya o'z Raisini saylaydi va o'z shaxsiy tartib-qoidalarini belgilaydi.

4. Komissiya majlislari, odatda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy muassasalarida yoki Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jenevadagi bo'limida o'tkaziladi. Biroq ular Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi va tegishli Ishtirokchi-davlatlar bilan maslahatlashuvda Komissiya tomonidan belgilanadigan boshqa qulay joylarda ham o'tkazilishi mumkin.

5. 36-moddaga muvofiq taqdim etiladigan Kotibiyat ushbu moddaga asosan tayinlanadigan Komissiyaga ham xizmat ko'rsatadi.

6. Qo'mita tomonidan olingan va o'rganilgan axborot Komissiya ixtiyoriga taqdim etiladi va Komissiya manfaatdor Ishtirokchi-davlatlarga iltimos bilan ishga taalluqli har qanday axborotni taqdim etishlari bo'yicha murojaat qilishi mumkin.

7. Komissiya masalani to'liq ko'rib chiqqanida, lekin har qanday holatda ham mazkur masala unga topshirilgandan keyin 12 oydan kechiktirmay, u Qo'mita raisiga uni manfaatdor Ishtirokchi-davlatlarga yuborish uchun hisobot taqdim etadi:

a) agar Komissiya o'n ikki oy mobaynida mazkur masalani ko'rib chiqishni tugatmasa, u o'z hisobotini ushbu masalani ko'rib chiqish holatining qisqacha mazmuni bilan cheklanadi;

b) agar ushbu Paktga tan olingan inson huquqlariga rioya qilish asosida mazkur masalani tinch yo'l bilan hal etishga erishilgan bo'lsa, Komissiya o'z hisobotida dalillar va erishilgan qarorlarni qisqacha mazmuni bilan cheklaydi;

c) agar "b" kichik bandda keltirilgan qarorga erishilmagan bo'lsa, Komissiya hisoboti manfaatdor Ishtirokchi-davlatlar o'rtasidagi nizoga taalluqli barcha dalillar xususidagi xulosadan va ushbu masalani tinch yo'l bilan hal etish imkoniyatlari to'g'risidagi mulohazalardan iborat. Ushbu hisobot, shuningdek manfaatdor Ishtirokchi-davlatlar tomonidan qilingan yozma taqdimnomalar va og'zaki taqdimnomalarning yozib olingan bayonini ham o'z ichiga oladi;

d) agar Komissiya hisoboti "c" kichik bandga muvofiq taqdim etilayotgan bo'lsa, manfaatdor Ishtirokchi-davlatlar ushbu hisobotni olganidan keyin uch oy ichida Qo'mita raisini Komissiya hisobotining mazmuni bilan rozi ekanliklari to'g'risida xabardor qiladi.

8. Ushbu moddaning qarorlari Qo'mitaning 41-moddaga nazarda tutilgan majburiyatlarini kamsitmaydi.

9. Manfaatdor ishtirokchi-davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi tomonidan taqdim etilgan smetaga muvofiq Komissiya a'zolarining barcha xarajatlarini teng ravishda ko'taradilar.

10. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi, agar zarur bo'lsa, ushbu moddaning 9-bandiga muvofiq manfaatdor ishtirokchi-davlatlar tomonidan qoplanguniga qadar Komissiya a'zolarining xarajatlarini to'lash huquqiga ega.

43-modda

Qo'mita va 42-moddaga muvofiq tayinlanishi mumkin bo'lgan maxsus Kelishtiruvchi komissiya a'zolari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Imtiyozlar va immunitetlar to'g'risidagi konvensiyasining

tegishli bo'limlarida nazarda tutilganidek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan xizmat safarlariga yuboriladigan ekspertlarning imtiyozlari, yengilliklari va immunitetlaridan (daxlsizligi) foydalanish huquqiga ega.

44-modda

Ushbu Paktni amalga oshirish haqidagi qoidalar Birlashgan Millatlar Tashkiloti va ixtisoslashtirilgan muassasalarning ta'sis hujjatlari va konvensiyalari tomonidan yoki ularga muvofiq tasdiqlangan inson huquqlari sohasidagi tartib-taomillarga zarar yetkazmasdan qo'llaniladi hamda mazkur Paktda Ishtirok etuvchi davlatlar ular o'rtasida mavjud bo'lgan umumiy va maxsus xalqaro kelishuvlarga asosan nizoni hal etishning boshqa tartib-qoidalariga murojaat qilishiga to'sqinlik qilmaydi.

45-modda

Qo'mita Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasiga Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash orqali o'z ishi to'g'risida yillik hisobot taqdim etadi.

V QISM

46-modda

Ushbu Paktdagi hech narsa mazkur Pakt taalluqli bo'lgan mavzular bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining turli organlari va ixtisoslashtirilgan muassasalarning tegishli majburiyatlarini belgilaydigan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining va ixtisoslashtirilgan muassasalar ustavlari qoidalarining ahamiyatini pasaytiradi deb talqin qilinmasligi kerak.

47-modda

Ushbu Paktdagi hech narsa barcha xalqlarning o'z tabiiy boyliklari va resurslariga to'laligicha va erkin egalik qilish hamda ulardan foydalanishdagi ajralmas huquqining cheklanishi sifatida talqin qilinmasligi kerak.

VI QISM

48-modda

1. Ushbu Pakt Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a'zo-davlatlari yoki uning ixtisoslashtirilgan muassasalarining har qanday a'zosi, Xalqaro Sud Statutining har qanday ishtirokchi-davlati va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan ushbu Paktda ishtirok etishga taklif qilingan har qanday davlat tomonidan imzolaniishi uchun ochiqdir.

2. Ushbu Pakt ratifikatsiya qilinishi kerak. Ratifikatsiya yorliqlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga saqlash uchun topshiriladi.

3. Ushbu Pakt mazkur moddaning 1-bandida ko'rsatilgan har qanday davlatning qo'shilishi uchun ochiqdir.

4. Qo'shilish Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga qo'shilish to'g'risidagi hujjatni saqlash uchun topshirish orqali amalga oshiriladi.

5. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi ushbu Paktni imzolagan yoki unga qo'shilgan barcha davlatlarni har bir ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilganligi haqida xabardor qiladi.

49-modda

1. Ushbu Pakt Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga o'ttiz beshinchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilgan kundan uch oy o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Paktning ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan har bir davlat uchun o'ttiz beshinchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun qabul qilinganidan so'ng mazkur Pakt o'sha davlatning o'z ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjati saqlash uchun topshirilgan kundan boshlab uch oy o'tgach kuchga kiradi.

50-modda

Ushbu Pakt qarorlari hech bir cheklashsiz yoki istisnosiz Federativ davlatlarning barcha qismlariga nisbatan tatbiq etiladi.

51-modda

1. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi biron bir davlat tuzatishlar taklif qilishi va ularni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga taqdim etishi mumkin. So'ngra, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi har qanday taklif qilingan tuzatishlarni, ushbu takliflarni ko'rib chiqish va ular yuzasidan ovoz berish maqsadida ishtirokchi-davlatlar konferensiyasini chaqirish tarafdori ekanliklarini bildirishlarini so'rab mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlarga yuboradi. Agar ishtirokchi-davlatlarning kamida uchdan bir qismi bunday konferensiya chaqirishni ma'qullasa, Bosh kotib Birlashgan Millatlar Tashkiloti homiyligida bu konferensiyani chaqiradi. Ushbu Konferensiyada hozir bo'lgan va ovoz berishda qatnashuvchi ishtirokchi-davlatlarning ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan har qanday tuzatish Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

2. Tuzatishlar ularni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tasdiqlagach va ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlarning uchdan bir qismi tomonidan ularning konstitutsiyaviy tartib-qoidalariga muvofiq qabul qilingandan keyin kuchga kiradi.

3. Tuzatishlar kuchga kirganda, ularni qabul qilgan ishtirokchi-davlatlar uchun majburiy bo'lib qoladi, boshqa ishtirokchi-davlatlar uchun esa mazkur Pakt qarorlari va ular tomonidan avval qabul qilingan har qanday tuzatishlarni bajarish majburiy bo'ladi.

52-modda

48-moddaning 5-bandiga muvofiq qilinadigan bildirishlardan qat'i nazar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi ushbu moddaning 1-bandida ta'kidlangan barcha davlatlarni quyidagilar to'g'risida xabardor qiladi:

a) 48-moddaga muvofiq imzolashlar, ratifikatsiya va qo'shilishlar haqida;

b) 49-moddaga muvofiq ushbu Paktning kuchga kirish sanasi va 51-moddaga muvofiq har qanday tuzatishlarning kuchga kirish sanasi haqida.

53-modda

1. Ushbu Paktning ingliz, ispan, xitoy, rus va fransuz tillaridagi matnlari aynan bir xil bo'lib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti arxiviga saqlash uchun topshiriladi.

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi ushbu Paktning tasdiqlangan nusxalarini 48-moddada ko'rsatilgan barcha davlatlarga yuboradi.

FUQAROVIIY VA SIYOSIY HUQUQLAR TO'G'RIDAGI XALQARO PAKTGA FAKULTATIV BAYONNOMA

*Bosh Assambleyaning 1966-yil 16-dekabrda 2200 A (XXI)-sonli rezolyusiyasi bilan
qabul qilingan hamda imzolash, ratifikatsiya qilish va qo'shilish uchun ochiq*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi
128-I-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Mazkur Bayonnomada ishtirok etuvchi barcha davlatlar,

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt (keyingi o'rinlarda – "Pakt") maqsadlariga kelgusida ham erishish va uning qarorlarini amalga oshirish uchun Paktning IV qismi asosida ta'sis etiluvchi Inson huquqlari bo'yicha qo'mitaga (keyingi o'rinlarda – "Qo'mita") mazkur Bayonnomada ta'kidlanganidek, ushbu Paktga ifodalangan huquqlarimiz buzilib jabrlanayapmiz, deya ta'kidlayotgan ayrim shaxslarning xabarlarini qabul qilish va ko'rib chiqish imkoniyatini berishning maqsadga muvofiqligini e'tiborga olib, quyidagilar borasida kelishdilar:

1-modda

Mazkur Bayonnoma ishtirokchisi bo'ladigan, Paktning ishtirokchisi bo'lgan davlat Qo'yurisdiksiyasiga kiradigan shaxslardan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish vakolatini e'tirof etadi, qayd etilgan shaxslar esa Paktga bayon qilingan huquqlardan biri ishtirok etuvchi davlat tomonidan buzilib, biz shuning jabrlanuvchisimiz deya tasdiqlaydi. Qo'mita Pakt ishtirokchisi sanalgan, lekin ushbu Bayonnoma qatnashchisi bo'lmagan davlatga aloqador bo'lgan hech bir xabarni qabul qilmaydi.

2-modda

1-modda qoidalariga rioya qilingan hollarda, Paktga qayd etilgan huquqlardan birortasi buzilganligini da'vo qilgan va huquqiy himoyaning mavjud barcha ichki vositalarini tugatgan shaxslar Qo'mitaga ko'rib chiqishi uchun yozma ravishda xabar taqdim etishi mumkin.

3-modda

Qo'mita ushbu Bayonnomaga muvofiq taqdim etilgan imzosiz yoki Qo'fikriga ko'ra bunday xabarlarni taqdim etish huquqini suiiste'mol qilishni anglatadigan yoxud Pakt qoidalariga mos kelmaydigan har qanday xabarni nomaqbul deb e'tirof etishi mumkin.

4-modda

1. 3-modda qoidalariga rioya qilgan holda Qo'mita ushbu Bayonnomaga muvofiq o'ziga taqdim etilgan har qanday xabarni Paktning biror bir qoidasini buzgan deb da'vo qilingan mazkur Bayonnomada ishtirok etuvchi davlat e'tiboriga yetkazadi.

2. Xabarni olgan davlat olti oy mobaynida Qo'mitaga ushbu masalaning mohiyatini aniqlashtiradigan yozma tushuntirish yoki bayonotni va, agar mavjud bo'lsa, mazkur davlat tomonidan qabul qilinishi mumkin bo'lgan har qanday choralarni taqdim etishi kerak.

5-modda

1. Qo'mita alohida shaxs va manfaatdor ishtirokchi-davlat tomonidan taqdim etilgan barcha yozma ma'lumotlarni hisobga olgan holda, ushbu Bayonnomaga muvofiq olingan xabarlarni ko'rib chiqadi.

2. Qo'mita quyidagilar bo'yicha tasdiq olmaguncha, shaxslarning xabarlarini ko'rib chiqmaydi:

a) ayni shu masala boshqa xalqaro muhokama yoki tartibga solish tartib-qoidalariga muvofiq ko'rib chiqilmaydi;

b) ushbu shaxs huquqiy himoyaning barcha imkoniyatli ichki vositalaridan foydalanib bo'lgan. Ushbu qoida bunday vositalarni qo'llash asossiz kechiktirilgan holatlarda amal qilmaydi.

3. Mazkur Bayonnomada ko'zda tutilgan xabarlarni ko'rib chiqishda Qo'mita yopiq majlis o'tkazadi.

4. Qo'mita o'z mulohazalarini tegishli ishtirokchi-davlatga va shaxsga ma'lum qiladi.

6-modda

Qo'mita 45-moddada nazarda tutilgan yillik hisobotiga ushbu Bayonnomaga muvofiq o'z faoliyati to'g'risida qisqacha hisobot kiritadi.

7-modda

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1960-yil 14-dekabrda qabul qilingan 1514 (XV)-rezolyutsiyasining Mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik taqdim etish to'g'risidagi deklaratsiyasiga taalluqli maqsadlariga erishilgunga qadar ushbu Bayonnoma qoidalarini mazkur xalqlarga Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavi hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan muassasalarining boshqa xalqaro konvensiyalari va hujjatlari tomonidan taqdim etilgan petitsiyalar (iltimosnoma) berish huquqini hech bir shaklda cheklamaydi.

8-modda

1. Ushbu Bayonnoma Paktni imzolagan har bir davlat tomonidan imzolanishi uchun ochiq.

2. Ushbu Bayonnoma Paktni ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan har bir davlat tomonidan ratifikatsiya qilinishi kerak. Ratifikatsiya yorliqlari saqlash uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga topshiriladi.

3. Ushbu Bayonnoma Paktni ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan har bir davlat uchun ochiq.

4. Qo'shilish Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirish bilan amalga oshiriladi.

5. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi mazkur Bayonnomani imzolagan yoki unga qo'shilgan barcha davlatlarga har bir ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilgani to'g'risida xabar beradi.

9-modda

1. Pakt kuchga kirganda ushbu Bayonnoma Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga qo'shilish to'g'risidagi o'ninchi ratifikatsiya yorlig'i yoki hujjati saqlash uchun topshirilgan kundan boshlab uch oy o'tgach kuchga kiradi.

2. Qo'shilish to'g'risidagi o'ninchi ratifikatsiya yorlig'i yoki hujjat topshirilgandan keyin mazkur Bayonnomani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan har bir davlat uchun ushbu Bayonnoma qo'shilish to'g'risidagi shaxsiy ratifikatsiya yorlig'i yoki hujjati saqlash uchun topshirilgan kundan boshlab uch oy o'tgach kuchga kiradi.

10-modda

Ushbu Bayonnoma qarorlari Federativ davlatlarning hamma qismlariga hech bir cheklash yoki istisnosiz tatbiq etiladi.

11-modda

1. Mazkur Bayonnomada ishtirok etuvchi biror bir davlat tuzatish taklif etishi va ularni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga taqdim etishi mumkin. So'ngra, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi har qanday taklif qilingan tuzatishlarni ko'rib chiqish va ular yuzasidan ovoz berishni o'tkazish maqsadida ishtirokchi-davlatlar konferensiyasini chaqirish tarafdori ekanliklarini bildirishlarini so'rab ushbu takliflarni mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlarga yuboradi. Agar ishtirokchi-davlatlarning kamida uchdan bir qismi bunday konferensiya chaqirishni ma'qullasa, Bosh kotib Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida bu konferensiya chaqiradi. Ushbu Konferensiyada hozir bo'lgan va ovoz berishda qatnashuvchi ishtirokchi-davlatlarning ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan har qanday tuzatish Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

2. Tuzatishlar ularni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tasdiqlagach va ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlarning uchdan bir qismi tomonidan, ularning konstitutsiyaviy tartib-qoidalariga muvofiq qabul qilingandan keyin kuchga kiradi.

3. Tuzatishlar kuchga kirganda, ularni qabul qilgan ishtirokchi-davlatlar uchun majburiy bo'lib qoladi, boshqa ishtirokchi-davlatlar uchun esa mazkur Pakt qarorlari va ular tomonidan avval qabul qilingan har qanday tuzatishlarni bajarish majburiy bo'ladi.

12-modda

1. Har bir ishtirokchi-davlat istalgan vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi nomiga yozma xabar berish yo'li bilan ushbu Bayonnomani bekor qilishi mumkin. Denonsatsiya Bosh kotib tomonidan bunday xabarnomani olingan kundan boshlab uch oy o'tgach kuchga kiradi.

2. Denonsatsiya mazkur Bayonnoma qoidalarini denonsatsiya kuchga kirgunga qadar 2-moddaga muvofiq taqdim etilgan har qanday xabarga qo'llashni davom ettirishga to'stinlik qilmaydi.

13-modda

1 Ushbu Bayonnomaning 8-modda 5-bandiga muvofiq berilgan xabarnomalardan qat'i nazar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi Paktning 48-moddasi 1-bandida qayd etilgan barcha davlatlarga quyidagilarni ma'lum qiladi:

- a) 8-moddaga muvofiq imzolashlar, ratifikatsiyalar va qo'shilishlar;
- b) 9-moddaga muvofiq ushbu Protkolning kuchga kirish sanasi va 11-moddaga muvofiq har qanday tuzatishlarning kuchga kirish sanasi;
- c) 12-moddaga asosan denonsatsiya.

14-modda

1. Ushbu Paktning ingliz, ispan, xitoy, rus va fransuz tillaridagi matnlari aynan bir xil bo'lib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti arxiviga saqlash uchun topshiriladi.

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi ushbu Paktning tasdiqlangan nusxalarini 48-moddada ko'rsatilgan barcha davlatlarga yuboradi.

FUQAROVIIY VA SIYOSIY HUQUQLAR TO'G'RSIDAGI XALQARO PAKTGA O'LIM JAZOSINI BEKOR QILISHGA YO'NALTIRILGAN IKKINCHI FAKULTATIV BAYONNOMA

*Bosh Assambleyaning 1989-yil 15-dekabrda
44/128-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 10-dekabrda
O'RQ-185-son Qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Ushbu Bayonnomada ishtirok etuvchi davlatlar,
o'lim jazosini bekor qilish inson qadr-qimmatini mustahkamlashga va inson huquqlarining
progressiv rivojlanishiga ko'maklashadi deb hisoblab,

1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining
3-moddasi va 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi
xalqaro paktning 6-moddasiga tayanib,

Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning o'lim jazosini bekor qilishga
taalluqli 6-moddasi aniq ifodalanganligi bekor qilishning maqsadga muvofiqligining asosli
ko'rsatkichi hisoblanishini ta'kidlab,

o'lim jazosini bekor qilish bo'yicha barcha choralarni yashashga bo'lgan huquqni
ta'minlashdagi taraqqiyot sifatida ko'rib chiqilishiga ishonch hosil qilib,

bekor qilishning maqsadga muvofiqligining asosli ko'rsatkichi bo'lgan o'lim jazosini bekor
qilishga taalluqli siyosiy huquqlarda o'lim jazosini bekor qilish to'g'risidagi xalqaro majburiyatni
o'z zimmasiga olish istagini bildirib,

quyidagilar to'g'risida kelishib oldilar:

1-modda

1. Mazkur Bayonnomaning ishtirokchisi bo'lgan davlatlari yurisdiksiyasi ostida bo'lgan hech
bir shaxs o'lim jazosiga tortilmaydi.

2. Har bir ishtirokchi-davlat o'z yurisdiksiyasi doirasida o'lim jazosini bekor qilish uchun barcha
zarur choralarni ko'radi.

2-modda

1. Ushbu Bayonnomaga hech qanday qo'shimcha shart qo'shishga yo'l qo'yilmaydi,
ratifikatsiya qilish yoki unga qo'shilish paytida qilingan, ya'ni urush vaqtida sodir etilgan harbiy
xarakterdagi eng og'ir jinoyatlarni sodir etishdagi aybi tan olinganidan keyin urush vaqtida o'lim
jazosini qo'llashni nazarda tutadigan qo'shimcha shart bundan mustasno.

2. Shunday qo'shimcha shartni kiritayotgan ishtirokchi-davlat ratifikatsiya qilish yoki unga
qo'shilish paytida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga urush vaqtida qo'llaniladigan o'z
milliy qonunchiligining tegishli qoidalari to'g'risida xabar beradi.

3. Shunday qo'shimcha shartni kiritgan ishtirokchi-davlat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh
kotibini o'z hududiga nisbatan har qanday urush holatining boshlanishi yoki to'xtatilishi to'g'risida
xabardor qiladi.

3-modda

Mazkur Bayonnomaning ishtirokchisi bo'lgan davlatlar Paktning 40-moddasiga muvofiq Inson huquqlari bo'yicha qo'mitaga taqdim etadigan ma'ruzalariga ushbu Bayonnomanani amalga oshirish uchun ular tomonidan ko'rilgan choralar to'g'risidagi axborotni kiritadi.

4-modda

41-moddaga muvofiq bayonot bergan Paktning ishtirokchisi bo'lgan davlatlarga nisbatan Inson huquqlari bo'yicha qo'mitaning har qanday ishtirokchi-davlatning boshqa ishtirokchi-davlat o'z majburiyatlarini bajarmayotganini da'vo qilgani to'g'risidagi xabarlarni qabul qilish va ularni ko'rib chiqish vakolati, agar faqat manfaatdor ishtirokchi-davlat ratifikatsiya qilish yoki unga qo'shilish paytida buning aksi to'g'risida bayonot bermagan bo'lsa, mazkur Bayonnoma qoidalariga nisbatan amal qiladi.

5-modda

1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga birinchi Fakultativ bayonnomasining ishtirokchisi bo'lgan davlatlarga nisbatan Inson huquqlari bo'yicha qo'mitaning ularning yurisdiksiyasi ostida bo'lgan ayrim shaxslarning xabarlarini olish va ko'rib chiqish vakolati, agar faqat manfaatdor ishtirokchi-davlat ratifikatsiya qilish yoki unga qo'shilish paytida buning aksi to'g'risida bayonot bermagan bo'lsa, mazkur Bayonnoma qoidalariga nisbatan amal qiladi.

6-modda

1. Mazkur Bayonnomaning qoidolari Paktga qo'shimcha qoidalar sifatida qo'llaniladi.
2. Mazkur Bayonnomaning 2-moddasiga muvofiq izohlar kiritish imkoniyatiga zarar yetkazmagan holda ushbu Bayonnomaning 1-moddasi 1-bandida kafolatlangan huquq Paktning 4-moddasiga binoan undan hech qanday chekinishga yo'l qo'ymaydi.

7-modda

1. Mazkur Bayonnoma Pakti imzolagan har qanday davlatning imzolashi uchun ochiq.
2. Mazkur Bayonnoma Pakti ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan har qanday davlat tomonidan ratifikatsiya qilinishi kerak. Ratifikatsiya yorliqlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga saqlash uchun topshiriladi.
3. Mazkur Bayonnoma Pakti ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan har qanday davlatning qo'shilishi uchun ochiq.
4. Qo'shilish Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga qo'shilish to'g'risidagi hujjatni topshirish yo'li bilan amalga oshiriladi.
5. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi mazkur Bayonnomanani imzolagan yoki unga qo'shilgan davlatlarni har bir ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat topshirilgani haqida xabardor qiladi.

8-modda

1. Mazkur Bayonnoma Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga o'ninchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat topshirilgan kundan boshlab uch oy o'tgandan keyin kuchga kiradi.
2. Ushbu Bayonnoma o'ninchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat topshirilgandan keyin mazkur Bayonnomanani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan har bir davlat uchun ushbu Bayonnomaning o'z ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat topshirilgan kundan boshlab uch oy o'tgandan keyin kuchga kiradi.

9-modda

Mazkur Bayonnomaning qoidalari federativ davlatlarning barcha qismlarida hech bir cheklash yoki istisnolarsiz amal qiladi.

10-modda

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Paktning 48-moddasi 1-bandida keltirilgan barcha davlatlarga quyidagilar to'g'risida xabar qiladi:

- a) mazkur Bayonnomaning 2-moddasiga muvofiq shartlar, xabarlar va bildirgilar;
- b) mazkur Bayonnomaning 4- yoki 5-moddalariga muvofiq qilingan bayonotlar;
- c) mazkur Bayonnomaning 7-moddasiga muvofiq imzolashlar, ratifikatsiya va qo'shilishlar;
- d) mazkur Bayonnomaning 8-moddasiga muvofiq Bayonnomaning kuchga kirgan sanasi to'g'risida.

11-modda

1. Mazkur Bayonnomaning ingliz, arab, ispan, xitoy, rus va fransuz tillaridagi matnlari aynan bir xil bo'lib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti arxiviga saqlash uchun topshiriladi.

2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi mazkur Bayonnomaning tasdiqlangan nusxalarini Paktning 48-moddasida ko'rsatilgan barcha davlatlarga yuboradi.

IQTISODIY, IJTIMOIIY VA MADANIY HUQUQLAR TO'G'RISIDAGI XALQARO PAKT

*Bosh Assambleyaning 1966-yil 16-dekabrda 2200 A (XXI)-sonli rezolyutsiyasi bilan
qabul qilingan hamda imzolash, ratifikatsiya qilish va qo'shilish uchun ochiq*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi
126-I-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavida e'lon qilingan prinsiplarga muvofiq, insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos bo'lgan qadr-qimmat va teng hamda buzilmas huquqlarini tan olish prinsiplari erkinlik, adolat va yalpi tinchlikning negizi ekanligini e'tiborga olib,

ushbu huquqlar inson shaxsining o'ziga xos qadr-qimmatidan kelib chiqishini tan olib,

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga muvofiq qo'rquv va muhtojlikdan holi bo'lgan erkin inson shaxsining ideali har bir kishi o'z iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlaridan, shuningdek o'z fuqarolik va siyosiy huquqlaridan foydalanishi mumkin bo'lgan sharoit yaratilgandagina amalga oshirish mumkinligini e'tirof etib,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustaviga ko'ra davlatlar inson huquqlari va erkinliklariga umum rioya etishi va hurmat qilishini rag'batlantirishi shart ekanligini e'tiborga olib,

har bir alohida inson boshqa odamlar va o'zi tegishli bo'lgan jamoaga nisbatan majburiyati bo'lgani holda mazkur Paktda tan olinayotgan huquqlarni rag'batlantirish va ularga rioya etishga erishishi lozimligini e'tiborga olib,

quyidagi moddalar borasida kelishib oldilar:

I QISM

1-modda

1. Barcha xalqlar o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega. Ushbu huquq orqali ular o'z siyosiy maqomini erkin o'rnatadilar va o'z iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotini erkin ta'minlaydilar.

2. Barcha xalqlar o'z maqsadlariga erishish uchun o'z tabiiy boyliklari va resurslarini o'zaro foyda prinsipiga asoslangan xalqaro iqtisodiy hamkorlik va xalqaro huquqdan kelib chiqadigan biror bir majburiyatlarga zarar yetkazmasdan erkin egalik qilishlari mumkin. Hech bir xalq o'ziga tegishli bo'lgan tirikchilik vositalaridan hech qachon mahrum qilinmasligi shart.

3. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi barcha davlatlar, shu jumladan, o'z-o'zini boshqara olmayotgan va vasiy bo'lgan hududlarni boshqarish uchun mas'ul bo'lganlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavi qoidalariga muvofiq, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini amalga oshirishni rag'batlantirishlari va bu huquqni hurmat qilishlari shart.

II QISM

2-modda

1. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi har bir davlat yakka tartibda hamda xalqaro yordam va hamkorlik tartibida, jumladan, iqtisod va texnika sohalarida mazkur Paktda e'tirof etilgan huquqlarning asta-sekin to'liq amalga oshirilishini ta'minlash uchun barcha zarur usullar bilan, shuningdek qonuniy choralar ko'rish orqali mavjud resurslarning, imkon qadar, keng doirasida choralar ko'rish majburiyatini oladi.

2. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar mazkur Paktda e'lon qilingan huquqlarning irqi, tanasining rangi, jinsi, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, tug'ilishi yoki boshqa holatlariga nisbatan hech qanday kamsitishsiz amalga oshirilishini kafolatlash majburiyatini oladilar.

3. Rivojlanayotgan mamlakatlar inson huquqlari va erkinliklarini hamda o'z xalqi xo'jaligini zarur tarzda hisobga olgan holda, o'z fuqarolari bo'lmagan shaxslarga mazkur Paktda e'tirof etilgan iqtisodiy huquqlarni qanday darajada kafolatlashini belgilashlari mumkin.

3-modda

Mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlar erkaklar va xotin-qizlar uchun ushbu Paktda ko'rib chiqilgan barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan bir xilda foydalanilishini ta'minlash majburiyatini oladi.

4-modda

Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar mazkur Paktga muvofiq u yoki bu davlat taqdim etadigan huquqlardan foydalanishga nisbatan ushbu davlat faqat bu huquqlarning qonun bilan belgilanadigan va faqat qayd etilgan huquqlarning tabiatiga mos keladigan darajada hamda demokratik jamiyatda umumiy farovonlikka ko'maklashish maqsadida cheklashlarni o'rnatishi mumkinligini e'tirof etadilar.

5-modda

1. Ushbu Paktdagi hech narsa biror-bir davlat, biror-bir guruh yoki biror-bir shaxs ushbu Paktda tan olingan, har qanday huquq yoki erkinliklarni yo'qotishga yoki ularni mazkur Paktda nazarda tutilganidan ko'ra ko'proq cheklashga qaratilgan birorta faoliyat bilan shug'ullanish yoxud shunday harakat sodir etish huquqiga ega deb talqin qilinishi mumkin emas.

2. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi biror-bir davlatda qonun, konvensiya, qoida yoki urf-odat sifatida tan olingan yoxud mavjud bo'lgan asosiy inson huquqlari, mazkur Paktda shu huquqlar tan olinmaydi yoki qisman e'tirof etiladi degan bahona bilan biror-bir tarzda cheklanishi yoki kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi.

III QISM

6-modda

1. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar har bir insonning o'zi erkin holda tanlagan yoki erkin rozi bo'lgan mehnat orqali ishlab mablag' topish imkoniyatiga ega bo'lish huquqini qamrab olgan mehnat qilish huquqini tan oladi hamda mazkur huquqni ta'minlash uchun tegishli choralarni ko'radi.

2. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar tomonidan mazkur huquqni to'liq amalga oshirish maqsadida ko'rilishi kerak bo'lgan choralar kasbiy-texnik o'qitish va tayyorgarlik dasturlari, insonning asosiy siyosiy va iqtisodiy erkinliklarini kafolatlaydigan sharoitlarda uzluksiz iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotga va to'liq samarali bandlikka erishish yo'llari va usullarini o'z ichiga oladi.

7-modda

Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar har kimning adolatli va qulay mehnat sharoitlariga bo'lgan huquqini, xususan, quyidagilarni o'z ichiga olgan holda tan oladi:

a) barcha mehnatkashlarga kamida quyidagilarni ta'minlaydigan haq:

i) teng qiymatga ega bo'lgan mehnat uchun hech bir tafovutsiz adolatli ish haqi va teng mukofotlash, xususan, xotin-qizlarga erkaklar foydalanadiganidan kam bo'lmagan mehnat sharoiti teng mehnat uchun teng haq to'lash bilan kafolatlanishi kerak;

ii) mazkur Paktning qarorlariga muvofiq ular va ularning oilalari uchun qoniqarli bo'lgan turmush;

b) xavfsizlik va gigiena talablariga javob beruvchi ish sharoiti;

c) barchaga mehnat staji va malaka asosida ishda tegishli yanada yuqoriroq bosqichlarga ko'tarilish uchun bir xil imkoniyat;

d) dam olish, bo'sh vaqt va oqilona cheklangan ish vaqti hamda haq to'lanadigan davriy ta'til, shuningdek bayram kunlari uchun haq.

8-modda

Ushbu Paktida ishtirok etuvchi davlatlar quyidagilarni ta'minlash majburiyatini oladilar:

a) har bir insonning o'z iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini amalga oshirish va himoya qilish uchun kasaba uyushmalari tashkil etish hamda shu kabi uyushmalarga o'z ixtiyoriga ko'ra tegishli tashkilot qoidalariga rioya qilishning yagona sharti bilan kirish huquqi. Ko'rsatib o'tilgan huquqdan foydalanishga hech bir cheklanish qo'yilmaydi, qonunda nazarda tutilgan va demokratik jamiyatda davlat xavfsizligi yoki jamoat tartibi manfaatlarini yo'lidagi yoki boshqalarning huquq va erkinligini muhofaza etishdagi huquqlar bundan mustasno;

b) kasaba uyushmalarining milliy federatsiya yoki konfederatsiya tuzish huquqi va milliy federatsiya, konfederatsiyalarning xalqaro kasaba uyushmalari tuzish yoki shu kabi uyushmalarga birlashish huquqi;

c) kasaba uyushmalarining hech bir to'siqsiz, cheklashsiz faoliyat yuritish huquqi, qonunda nazarda tutilgan va demokratik jamiyatda davlat xavfsizligi yoki jamoat tartibi manfaati yoxud boshqalarning huquq va erkinligini muhofaza qilish uchun zarur bo'lgan huquqlari bundan mustasno;

d) har bir mamlakatning qonunlariga muvofiq amalga oshiriladigan ish tashlash huquqi.

2. Ushbu modda Qurolli Kuchlar, politsiya yoki davlat ma'muriyati tarkibidagi shaxslar uchun mazkur huquqlardan foydalanishda qonuniy cheklash kiritilishiga to'sqinlik qilmaydi.

3. Ushbu moddadagi hech narsa 1948-yilgi Xalqaro mehnat tashkilotining konvensiyasida ishtirok etuvchi davlatlarga uyushmalar erkinligi va tashkilotlar tuzish huquqini himoya qilish ko'rsatilgan Konvensiyada nazarda tutilgan kafolatlarga zarar yetkazgan holda qonuniy aktlar qabul qilish yoki ushbu kafolatlarga zarar yetkazadigan qonunni qo'llash huquqini bermaydi.

9-modda

Ushbu Paktida ishtirok etuvchi davlatlar har bir insonning ijtimoiy ta'minlanish, jumladan, ijtimoiy sug'urta huquqini e'tirof etadi.

10-modda

Ushbu Paktida ishtirok etuvchi davlatlar quyidagilarni tan oladi:

1. Jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi bo'lgan oilaga, ayniqsa, uning tashkil topishida hamda uning zimmasida mustaqil bo'lmagan bolalar va ularning tarbiyasi to'g'risida g'amxo'rlik qilish mas'uliyati bo'lganda, iloji boricha, keng qamrovli muhofaza va yordam taqdim etilishi kerak. Nikoh nikohlanuvchilarning erkin roziligiga ko'ra tuzilishi kerak.

2. Tug'ruqdan oldin va keyingi davrda onalarga alohida muhofaza taqdim etilishi zarur. Bu davr mobaynida ishlaydigan onalarga haq to'lanadigan ta'til yoki ijtimoiy ta'minot bo'yicha yetarli nafaqa bilan ta'til berilishi kerak.

3. Barcha bolalar va o'smirlarga hech bir kamsitishsiz, oilaviy kelib chiqishi yoki boshqa belgilaridan qat'i nazar alohida himoya choralari va yordam ko'rsatilishi shart. Bolalar va o'smirlar iqtisodiy va ijtimoiy ekspluatatsiyadan himoya qilingan bo'lishi kerak. Ularning mehnatini axloqi va salomatligi uchun zararli bo'lgan yoki hayot uchun xavfli sohalarida yoxud ularning normal o'sishi uchun zarar keltirishi mumkin bo'lgan sohalarida qo'llash qonun bilan jazolanishi kerak.

Bundan tashqari, davlat pullik bolalar mehnatidan foydalanishni taqiqlaydigan va qonun bilan jazolanadigan yosh chegaralarini belgilashi kerak.

11-modda

1. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar har kimning o'zi va oilasi uchun yetarlicha oziq-ovqat, kiyim-kechak va uy-joy hamda yashash sharoitlarini doimiy ravishda yaxshilanib borishini o'z ichiga oladigan yetarli turmush darajasiga bo'lgan huquqini e'tirof etadi. Ishtirokchi-davlatlar ushbu huquqlarning amalga oshirilishini ta'minlash uchun erkin kelishuvga asoslangan xalqaro hamkorlikning bu boradagi muhim ahamiyatini e'tirof etib, tegishli choralarni ko'radi.

2. Mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlar har bir insonning ochlikdan ozod bo'lish asosiy huquqini tan olgan holda, quyidagilar uchun yakka va xalqaro hamkorlik tartibida, vazifalarni amalga oshirish uchun aniq dasturlarni o'tkazishni qamrab oladigan zarur choralarni ko'rishlari kerak:

a) texnik va ilmiy bilimlardan keng ko'lamda foydalanish, ovqatlanish tamoyillari to'g'risidagi bilimlarni yoyish, tabiiy resurslardan yanada samarali foydalanish va o'zlashtirish uchun agrar tizimni takomillashtirish yoki isloh qilish yo'li bilan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, saqlash va taqsimlash uslublarini yaxshilash; va

b) ehtiyojga muvofiq va oziq-ovqat mahsulotlarini import yoki eksport qiluvchi mamlakatlarning muammolarini hisobga olgan holda jahondagi oziq-ovqat zaxiralarining adolatli taqsimlanishini ta'minlash.

12-modda

1. Mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlar har bir insonning jismoniy va ruhiy salomatlikning oliy darajasiga erishish huquqini e'tirof etadi.

2. Ushbu huquqni to'liq amalga oshirish uchun mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlar tomonidan ko'rilishi kerak bo'lgan choralar quyidagilar uchun zarur tadbirlarni o'z ichiga oladi:

a) o'lik go'daklar tug'ilishi va bolalar o'limini qisqartirish hamda bolalarning sog'lom rivojlanishini ta'minlash;

b) tashqi muhit gigienasining hamma jihatlarini va sanoatda mehnat gigienasini yaxshilash;

c) epidemik, endemik, kasbiy va boshqa kasalliklarning oldini olish va davolash hamda ularga qarshi kurashish;

d) kasallik holatlarida hammaga tibbiy yordam ko'rsatish va tibbiy parvarishni ta'minlaydigan sharoit yaratish.

13-modda

1. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar har bir insonning ta'lim olishga bo'lgan huquqini e'tirof etadi. Ular ta'lim inson shaxsining to'liq rivojlanishi va uning qadr-qimmatini yaratishga qaratilgan bo'lishi hamda inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmatni mustahkamlash zarur degan fikrga qo'shiladi. Shuningdek, ular ta'lim barchaga erkin jamiyatning foydali ishtirokchilari bo'lishga imkon yaratishi, barcha xalqlar va barcha irqiy, etnik va diniy guruhlar o'rtasida o'zaro tushunish, xayrixohlik va do'stlikni rivojlantirish hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni saqlash borasidagi ishiga ko'maklashishi kerak degan fikrga qo'shiladi.

2. Mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlar ushbu huquqning to'liq amalga oshirilishi uchun quyidagilarni e'tirof etadi:

a) boshlang'ich ta'lim hamma uchun majburiy va tekin bo'lishi kerak;

b) o'rta ta'lim kasbiy-texnik o'rta ta'limni o'z ichiga olgan holda barcha shakllarda va barcha zarur choralarni ko'rish, xususan, asta-sekin bepul ta'limni joriy etish orqali hamma uchun ochiq bo'lishi va foydalana olishi kerak;

c) barcha zarur choralarni ko'rish, xususan, asta-sekin bepul ta'limni joriy etish orqali har kimning qobiliyatini hisobga olgan holda oliy ta'limni hamma uchun birdek foydalana oladigan qilinishi kerak;

d) oddiy ta'lim boshlang'ich ta'limning to'liq kursini o'tmagan yoki tugallamaganlar uchun imkoni boricha rag'batlantirilishi yoki kuchaytirilishi lozim;

e) barcha darajadagi maktablar tarmoqlari faol rivojlantirilishi, stipendiyalarning qoniqarli tizimi belgilanishi va o'qituvchilarning moddiy ahvoli doimiy ravishda yaxshilanib borishi kerak.

3. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar ota-onalar va tegishli hollarda qonuniy vasiylarning o'z farzandlari uchun davlat hokimiyati ta'sis etgan maktablarnigina emas, balki davlat tomonidan belgilanishi yoki tasdiqlanishi mumkin bo'lgan ta'lim uchun minimal talabga javob beradigan maktablarni ham tanlash erkinligini hurmat qilish va o'z shaxsiy e'tiqodiga muvofiq o'z farzandlarini diniy va axloqiy tarbiya bilan ta'minlashlari majburiyatini oladi.

4. Mazkur moddaning hech bir qismi ayrim shaxslar va muassasalarning ushbu moddaning 1-bandida bayon qilingan prinsiplarga rioya qilishning o'zgarmas sharti bilan ta'lim muassasalarini tashkil etish va ularga rahbarlik qilish erkinligini kamsitish ma'nosida talqin qilinmasligi hamda ushbu muassasalarda beriladigan ta'lim davlat tomonidan belgilanishi mumkin bo'lgan minimal talablarga javob berishi kerak.

14-modda

Ushbu Paktda ishtirok etuvchi har bir davlat ishtirokchi sifatida kirgunga qadar o'z metropoliyasi hududida yoki uning yurisdiksiyasida bo'lgan boshqa hududlarda majburiy bepul boshlang'ich ta'limni o'rnatmagan bo'lsa, ikki yil ichida majburiy bepul umum ta'lim prinsipini rejada ko'rsatilgan oqilona yillar mobaynida asta-sekin hayotga tatbiq etish uchun batafsil chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va qabul qilish majburiyatini oladi.

15-modda

1. Mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlar har bir insonning quyidagi huquqlarini e'tirof etadi:

a) madaniy hayotda ishtirok etish;

b) ilmiy taraqqiyot va uni amalga qo'llash natijalaridan foydalanish;

c) o'zi muallif bo'lgan har qanday ilmiy, adabiy yoki badiiy mehnat bilan bog'liq holda yuzaga keluvchi moddiy va ma'naviy manfaatlar himoyasidan foydalanish.

2. Ushbu huquqlarni to'la amalga oshirish uchun mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlar qabul qilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar fan va madaniyat yutuqlarini muhofaza qilish, rivojlantirish va targ'ib etish uchun zarur bo'lgan choralarni o'z ichiga oladi.

3. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyat uchun so'zsiz zarur bo'lgan erkinlikni hurmat qilish majburiyatini oladi.

4. Mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlar ilmiy va madaniy sohalarda xalqaro aloqalar va hamkorlikni rag'batlantirish va rivojlantirishdan keladigan foydani tan oladi.

IV QISM

16-modda

1. Mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlar ushbu Paktning shu qismiga muvofiq, mazkur Paktda tan olingan huquqlarga rioya etishga erishish yo'lidagi ular tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlar va taraqqiyot to'g'risida hisobotlar taqdim etish majburiyatini oladi.

2. a) Barcha hisobotlar, uning nusxalarini mazkur Pakt qoidalariga muvofiq ko'rib chiqish uchun Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashga yuboradigan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga taqdim etadi;

b) Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi ixtisoslashtirilgan muassasalarga, mazkur Paktda ishtirok etuvchi, shuningdek ushbu ixtisoslashtirilgan muassasalarning a'zosi bo'lgan davlatlarning hisobotlarini yoki hisobotlarning tegishli qismlarining nusxalarini yuboradi, chunki bunday hisobotlar yoki bu hisobotlarning qismlari yuqorida qayd etilgan muassasalarning konstitutsiyaviy hujjatlariga muvofiq ularning majburiyatlari doirasiga kiradigan har qanday masalalarga aloqador.

17-modda

1. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash tomonidan mazkur Pakt kuchga kirgandan so'ng bir yil mobaynida ishtirokchi-davlatlar va ixtisoslashtirilgan manfaatdor muassasalar bilan maslahatlashuv bo'yicha o'rnatilishi kerak bo'lgan dasturga muvofiq bosqichma-bosqich o'z hisobotlarini taqdim etadi.

2. Hisobotlarda ushbu Pakt bo'yicha majburiyatlarning bajarilish darajasiga ta'sir qiladigan omillar va qiyinchiliklar ko'rsatilishi mumkin.

3. Agar tegishli ma'lumotlar ushbu Paktda ishtirok etuvchi biror-bir davlat tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotiga yoki biror-bir ixtisoslashtirilgan muassasaga ilgariroq xabar qilingan bo'lsa, bu ma'lumotlarni qayta bayon etishning hojati yo'q va shu tarzda xabardor etilgan ma'lumotlarga aniq havola yetarli bo'ladi.

18-modda

Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari va asosiy erkinliklari sohasidagi Ustaviga muvofiq o'z majburiyatlarini bajarish uchun ixtisoslashtirilgan muassasalar bilan ularning faoliyati sohasiga taalluqli bo'lgan ushbu Pakt qarorlariga rioya etilishiga erishish yo'lidagi yutuqlar to'g'risida hisobotlar taqdim etish haqida kelishib olishi mumkin. Bu hisobotlar shu tarzda amalga oshirish to'g'risida vakolatli organlar tomonidan qabul qilingan qaror va tavsiyalarining tafsilotlarini ham o'z ichiga olishi mumkin.

19-modda

Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash Inson huquqlari bo'yicha komissiyaga ko'rib chiqish va umumiy tavsiyalar berish uchun yoki tegishli hollarda inson huquqlariga taalluqli ma'lumotlar uchun davlatlar tomonidan 16 va 17-moddalarga binoan taqdim etilgan hisobotlarni hamda ixtisoslashtirilgan muassasalar tomonidan 18-moddaga muvofiq taqdim etilgan inson huquqlariga taalluqli hisobotlarni berishi mumkin.

20-modda

Mazkur Paktda ishtirok etuvchi manfaatdor davlatlar va ixtisoslashtirilgan muassasalar Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashga 19-moddaga asosan har qanday umumiy tavsiyalar bo'yicha yoki Inson huquqlari bo'yicha komissiyaning har qanday hisobotidagi shunday umumiy tavsiyaga havola bo'yicha yoxud havola qilinayotgan har qanday hujjat bo'yicha izoh taqdim etishi mumkin.

21-modda

Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash vaqti-vaqti bilan Bosh Assambleyaga ushbu Paktda tan olingan huquqlarga yalpi rioya etilishini ta'minlash doirasida qabul qilingan choralar va erishilgan natijalar to'g'risida mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlar hamda ixtisoslashtirilgan muassasalardan olinadigan ma'lumotlarning umumiy tushdagi tavsiyanomalari va qisqacha bayoni bilan hisobotlar taqdim etishi mumkin.

22-modda

Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash Birlashgan Millatlar Tashkilotining boshqa organlari, ularning yordamchi organlari va texnik yordam ko'rsatish bilan shug'ullanadigan ixtisoslashtirilgan muassasalarning diqqat-e'tiborini mazkur Paktning ushbu qismida eslatilayotgan hisobotlar tufayli yuzaga kelayotgan har qanday masalalarga qaratishi mumkin, zero, bu hol ana shu organlar tomonidan vakolatlari doirasida ushbu Paktning asta-sekin amalga oshirishga ko'maklashish mumkin bo'lgan xalqaro chora-tadbirlarning qanchalik maqsadga muvofiqligiga taalluqli qarorlar chiqarishida foydali bo'lishi mumkin.

23-modda

Mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlar konvensiyalar tuzish, tavsiyalar qabul qilish, maslahatlashuvlar maqsadida texnik yordam ko'rsatish va mintaqaviy va texnik yig'ilishlar o'tkazish, shuningdek manfaatdor hukumatlar bilan birgalikda tashkil etilgan tadqiqotlarni olib borish kabi vositalarni qo'llashga taalluqli ushbu Paktda e'tirof etilgan huquqlarni amalga oshirishga yordam beruvchi xalqaro tadbirlar qatoriga kiradi deb kelishadilar.

24-modda

Ushbu Paktdagi hech narsa Birlashgan Millatlar Tashkilotining turli organlari va ixtisoslashtirilgan muassasalarning mazkur Paktga taalluqli masalalarga nisbatan tegishli majburiyatlarini belgilaydigan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi qarorlari va ixtisoslashtirilgan muassasalarning nizomi ahamiyatini kamsitish sifatida talqin qilinmasligi kerak.

25-modda

Mazkur Paktdagi hech narsa barcha xalqlarning o'z tabiiy boyliklari va resurslaridan to'liq va erkin egalik qiladigan va foydalanadigan ajralmas huquqini kamsitish sifatida talqin qilinmasligi kerak.

V QISM

26-modda

1. Ushbu Pakt Birlashgan Millatlar Tashkilotining, biror bir a'zo-davlatlari yoki uning ixtisoslashtirilgan muassasalarining har qanday a'zosi, Xalqaro Sud Statutining har qanday ishtirokchi-davlati va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan ushbu Paktda ishtirok etishga taklif qilingan biror bir boshqa davlat tomonidan imzolanishi uchun ochiq.

2. Ushbu Pakt ratifikatsiya qilinishi kerak. Ratifikatsiya yorliqlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga saqlash uchun topshiriladi.

3. Ushbu Pakt mazkur moddaning 1-bandida ko'rsatilgan har qanday davlatning qo'shilishi uchun ochiq.

4. Qo'shilish qo'shilish to'g'risidagi hujjatni saqlash uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga topshirish orqali amalga oshiriladi.

5. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi ushbu Pakti imzolagan yoki unga qo'shilgan barcha davlatlarni har bir ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjatning saqlash uchun topshirilganligi haqida xabardor qiladi.

27-modda

1. Ushbu Pakt Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga o'ttiz beshinchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilgan kundan uch oy o'tgach kuchga kiradi.

2. Ushbu Pakti ratifikatsiya qilgan yoki unga o'ttiz beshinchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun qabul qilinganidan so'ng qo'shilgan har bir davlat uchun mazkur Pakt o'sha davlatning o'z ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjati saqlash uchun topshirilgan kundan boshlab uch oy o'tgach kuchga kiradi.

28-modda

Ushbu Pakt qarorlari hech bir cheklashsiz yoki istisnosiz Federativ davlatlarning barcha qismlariga nisbatan tatbiq etiladi.

29-modda

1. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi biron bir davlat tuzatishlar taklif qilishi va ularni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga taqdim etishi mumkin. So'ngra, Birlashgan Millatlar

Tashkilotining Bosh kotibi har qanday taklif qilingan tuzatishlarni ko'rib chiqish va ular yuzasidan ovoz berishni o'tkazish maqsadida ishtirokchi-davlatlar konferensiyasini chaqirish tarafdori ekanliklarini bildirishlarini so'rab ushbu takliflarni mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlarga yuboradi. Agar ishtirokchi-davlatlarning kamida uchdan bir qismi bunday konferensiya chaqirishni ma'qullasa, Bosh kotib Birlashgan Millatlar Tashkiloti homiyligida bu konferensiyani chaqiradi. Ushbu Konferensiyada hozir bo'lgan va ovoz berishda qatnashuvchi ishtirokchi-davlatlarning ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan har qanday tuzatish Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

2. Tuzatishlar ularni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tasdiqlagach va ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlarning uchdan bir qismi tomonidan, ularning konstitutsiyaviy tartib-qoidalariga muvofiq qabul qilingandan keyin kuchga kiradi.

3. Tuzatishlar kuchga kirganda, ularni qabul qilgan ishtirokchi-davlatlar uchun majburiy bo'lib qoladi, boshqa ishtirokchi-davlatlar uchun esa mazkur Pakt qarorlari va ular tomonidan avval qabul qilingan har qanday tuzatishlarni bajarish majburiy bo'ladi.

30-modda

26-moddaning 5-bandiga muvofiq qilinadigan bildirishlardan qat'i nazar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi ushbu moddaning 1-bandida ta'kidlangan barcha davlatlarni quyidagilar to'g'risida xabardor qiladi:

- a) 26-moddaga binoan imzolashlar, ratifikatsiyalar va qo'shilishlar;
- b) 27-moddaga muvofiq mazkur Paktning kuchga kirish sanasi va 29-moddaga muvofiq har qanday tuzatishlarning kuchga kirish sanasi.

31-modda

1. Ushbu Paktning ingliz, ispan, xitoy, rus va fransuz tillaridagi matnlari aynan bir xil bo'lib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti arxiviga saqlash uchun topshiriladi.

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi ushbu Paktning tasdiqlangan nusxalarini 26-moddada ko'rsatilgan barcha davlatlarga yuboradi.

II BO'LIM. KAMSITISHGA BARHAM BERISH

IRQIY KAMSITISHNING BARCHA SHAKLLARIGA BARHAM BERISH TO'G'RISIDAGI XALQARO KONVENSIYA

*Bosh Assambleyaning 1965-yil 21-dekabrda
2106 (XX)-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustda
129-I-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Ushbu Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlari,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavi har bir insonga xos bo'lgan qadr-qimmat va tenglik prinsiplariga asoslangan hamda Tashkilotga a'zo barcha davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda Birlashgan Millatlar Tashkilotining hamma uchun irqi, jinsi, tili yoki dinidan qat'i nazar inson huquqlari va asosiy erkinliklarini umumbashariy hurmat qilish va unga rioya etishni rag'batlantirish va rivojlantirishdan iborat bo'lgan maqsadlaridan biriga erishish uchun birgalikda va mustaqil harakatlar qilish majburiyatini olganligini hisobga olib,

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida barcha odamlar o'z qadr-qimmatini va huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'ilishini hamda har bir inson hech qanday tafovutlarsiz, xususan, irqi, tanasining rangi yoki milliy kelib chiqishidan qat'i nazar, unda ko'rsatilgan barcha huquq va erkinliklarga ega bo'lishi kerakligi e'tirof etilganini hisobga olib,

hamma odamlar qonun oldida tengligi hamda har qanday kamsitish va har qanaqa kamsitishga undashdan qonun bilan teng himoyalash huquqiga ega ekanligini hisobga olib,

Birlashgan Millatlar Tashkiloti mustamlakachilik va u bilan bog'liq har qanday ajratish va kamsitish amaliyotini u qayerda va qanday shaklda namoyon bo'lishidan qat'i nazar qoralagan hamda 1960-yil 14-dekabrda (Bosh Assambleyaning 1514(XV)-rezolyutsiyasi) Mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik berish to'g'risidagi deklaratsiya bularning barchasiga darhol va so'zsiz chek qo'yish zarurligini tasdiqlagan va tantanali e'lon qilganini hisobga olib,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1963-yil 20-noyabrda (Bosh Assambleyaning 1904(XVIII)-rezolyutsiyasi) Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi deklaratsiyasi butun dunyoda irqiy kamsitishni uning hamma shakllari va ko'rinishlariga zudlik bilan barham berish va inson shaxsining qadr-qimmatini tushunilishi va hurmat qilinishini ta'minlash zarurligini tantanali tasdiqlashini hisobga olib,

irqiy tafovutga asoslangan har qanday ustunlik nazariyasi ilmiy jihatdan soxtaligiga, ma'naviy jihatdan nomunosibligi va ijtimoiy jihatdan adolatsiz va xavfliligiga hamda irqiy kamsitishni qayerda bo'lmasin xoh nazariyada, xoh amaliyotda oqlab bo'lmasligiga ishonch hosil qilib,

odamlarni irqi, tanasining rangi yoki etnik kelib chiqishi bo'yicha kamsitish millatlar o'rtasida do'stona va tinch munosabatlarga to'sqinlik qilishini hamda xalqlar o'rtasida tinchlik va xavfsizlik, shuningdek, hatto bir davlat ichida shaxslarning uyg'un tinch-totuv yashashi buzilishiga olib kelishi mumkinligini tasdiqlab,

irqiy to'siqlarning mavjudligi har qanday insoniy jamiyatning ideallariga zid ekanligiga ishonch hosil qilib,

dunyoning ba'zi hududlarida hamon kuzatilayotgan irqiy kamsitishning namoyon bo'lishidan, shuningdek aparteid, ajratish yoki bo'linish siyosati kabi irqiy ustunlik yoki irqiy dushmanlik prinsipiga asoslangan davlat siyosatidan tashvishlanib,

irqiy kamsitishni uning barcha shakllari va ko'rinishlarida tezroq barham berish hamda irqilar o'rtasida o'zaro tushunishga ko'maklashish va irqiy ajratish va irqiy kamsitishning barcha shakllaridan xoli xalqaro hamjamiyat tuzish maqsadida irqchilik nazariyalari bilan ularni amalga oshirish amaliyotining oldini olish va tugatish uchun barcha zarur choralarni ko'rishga qaror qilib,

Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan 1958-yilda tasdiqlangan Ishga yollash va mehnat sohasidagi kamsitish to'g'risidagi konvensiyani hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1960-yilda ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tasdiqlangan Ta'lim sohasidagi kamsitishga barham berish to'g'risidagi konvensiyani inobatga olib,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi deklaratsiyasida bayon etilgan prinsiplarni amalga oshirishni va shu maqsadga erishish uchun tez orada amaliy tadbirlar o'tkazishni ta'minlashni istab, quyidagilarga kelishib oldi:

I QISM

1-modda

1. Ushbu Konvensiyada "irqiy kamsitish" iborasi irq, tanasining rangi, urug'chilik, milliy yoki etnik kelib chiqish belgilariga asoslangan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yoki jamiyat hayotining istalgan boshqa sohalarida teng asoslarda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish, foydalanish yoki amalga oshirishni yo'qotish yoki kamsitishni maqsad yoki natija biladigan har qanday tafovut, istisno, cheklash yoki ustunlikni anglatadi.

2. Ushbu Konvensiya uning ishtirokchi-davlatlari fuqarolar va fuqaro bo'lmaganlar o'rtasida o'tkazadigan yoki qiladigan tafovutlar, istisnolar, cheklashlar yoki ustunliklarga nisbatan qo'llanilmaydi.

3. Ushbu Konvensiyada hech narsa ishtirokchi-davlatlarning milliy mansublik, fuqarolik yoki naturalizatsiyaga taalluqli qonun hujjatlari qoidalariga qandaydir darajada ta'sir qiluvchi sifatida talqin qilinishi mumkin emas, agar bunday qarorlarda biron bir muayyan millatga nisbatan kamsitish o'tkazilmagan bo'lsa.

4. Himoyaga muhtoj ayrim irqiy yoki etnik guruhlar yoxud alohida shaxslarni lozim taraqqiyot bilan ta'minlash maqsadida, ya'ni bunday guruhlar yoki shaxslarning inson huquqlari va asosiy erkinliklaridan teng foydalanishi va amalga oshirilishini ta'minlash uchun zarur bo'lishi mumkin bo'lgan alohida choralarni qabul qilish irqiy kamsitish deb ko'rilmaydi, biroq bunday choralar turli irqiy guruhlar uchun alohida huquqlarni saqlash oqibatiga ega emasligi va ular amalga oshirilgan maqsadlarga erishilgandan keyin o'z kuchida qolmasligi shart.

2-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar irqiy kamsitishni qoralaydilar hamda hamma mumkin bo'lgan usullarda zudlik bilan irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish siyosatini amalga oshirish va barcha irqilar o'rtasida o'zaro tushunishga ko'maklashish majburiyatini oladilar va shu maqsadda:

a) har bir ishtirokchi-davlat shaxslar, guruhlar yoki muassasalarga nisbatan irqiy kamsitish bilan bog'liq biron bir hujjat yoki harakatlarni amalga oshirmaslik hamda ham milliy, ham mahalliy bo'lgan barcha davlat organlari va davlat muassasalari ushbu majburiyatlarga muvofiq harakat qilishini kafolatlash majburiyatini oladi;

b) har bir ishtirokchi-davlat qaysidir shaxslar yoki tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan irqiy kamsitishni rag'batlantirmaslik, himoya qilmaslik va qo'llab-quvvatlamaslik majburiyatini oladi;

c) har bir ishtirokchi-davlat hukumat siyosatini milliy va mahalliy ko'lamda qayta ko'rib chiqish, shuningdek irqiy kamsitish mavjud bo'lgan barcha joyda uning paydo bo'lishi yoki umrbod qolishiga olib keladigan har qanday qonun va qarorlarni tuzatish, bekor qilish yoki yo'q qilish uchun samarali choralar ko'rishi kerak;

d) har bir ishtirokchi-davlat barcha tegishli vositalardan, jumladan, qonunchilik choralaridan foydalangan holda, vaziyatga qarab, har qanday shaxslar, guruhlar yoki tashkilotlar tomonidan olib boriladigan irqiy kamsitishni taqiqlashi va unga chek qo'yishi kerak;

e) har bir ishtirokchi-davlat irqiy to'siqlarni yo'qotishga yo'naltirilgan boshqa choralar singari tegishli hollarda ko'p irqli tashkilotlar va harakatlarni birlashtirishni rag'batlantirishni hamda ulardan irqiy bo'linishni chuqurlashtirishga ko'maklashishni qo'llab-quvvatlamaslik majburiyatini oladi.

2. Ishtirokchi-davlatlar ayrim irqiy guruhlar yoki ularga mansub shaxslarni, ularga inson huquqlari va asosiy erkinliklaridan to'liq va teng foydalanishlarini kafolatlagan holda, ularga tegishli rivojlanish va himoya qilishni ta'minlash maqsadida, vaziyat talab qilganda, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hamda boshqa sohalarida alohida va aniq choralarini ko'rishlari kerak. Bunday choralar, aslo, oqibati ular amalga oshirilgan maqsadlarga erishilgandan keyin turli irqiy guruhlar uchun teng bo'lmagan yoki alohida huquqlarning saqlanib qolishiga olib kelmasligi kerak.

3-modda

Ishtirokchi-davlatlar irqiy ajratish va aparteidni alohida qoralaydilar hamda ularning yurisdiksiyasida bo'lgan hududlarda bunday xususiyatdagi har qanday amaliyotni oldini olish, taqiqlash va yo'q qilish majburiyatini oladilar.

4-modda

Ishtirokchi-davlatlar tanasining rangi yoki etnik mansubligi belgilangan bir irq yoki shaxslar guruhining ustunligi g'oyalari yoki nazariyalariga asoslangan yoxud qanday shaklda bo'lishidan qat'i nazar, irqiy nafrat va kamsitishni oqlash yoki rag'batlantirishga urinadigan har qanday targ'ibotni va barcha tashkilotlarni qoralaydilar hamda bunday kamsitishni yoki kamsitish harakatlariga har qanday fitnalarni tugatishga qaratilgan shoshilinch va ijobiy choralar ko'rish majburiyatini oladi hamda shu maqsadda ular Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan prinsiplarga va ushbu Konvensiyaning 5-moddasida aniq bayon etilgan qoidalarga muvofiq, boshqalar qatorida:

a) irqiy ustunlik yoki nafratga asoslangan g'oyalarni har qanaqasiga yoyishni, irqiy kamsitishni har qanaqasiga gijgijlashni, shuningdek istalgan irq yoki boshqa tana rangi yoki etnik nasabdagi shaxslar guruhiga qarshi qaratilgan hamma zo'ravonlik harakatlari yoxud ularni ig'vo qilishni, shuningdek mablag' bilan ta'minlashni qo'shib irqchilik faoliyatini o'tkazish uchun har qanday yordam ko'rsatishni qonunga muvofiq jazolanadigan jinoyat deb e'tirof etadilar;

b) irqiy kamsitishni rag'batlantiradigan va uni ig'vo qiladigan tashkilotlarni, shuningdek uyushgan va har qanday boshqa targ'ibot faoliyatini qonunga qarshi deb e'lon qiladilar va taqiqlaydilar hamda shunday faoliyatda qatnashishni qonun bilan jazolanadigan jinoyat deb tan oladilar;

c) davlat hokimiyatining milliy yoki mahalliy organlariga yoxud davlat muassasalariga irqiy kamsitishni yoki uni ig'vo qilishni rag'batlantirishga ruxsat etmaydilar.

5-modda

Ushbu Konvensiyaning 2-moddasida bayon etilgan asosiy majburiyatlarga muvofiq, ishtirokchi-davlatlar irqiy kamsitishni uning barcha shakllarida taqiqlash va yo'qotishga hamda har bir insonning irqi, tanasining rangi, milliy yoki etnik mansubligidan qat'i nazar, qonun oldida teng huquqliligini, ayniqsa, quyidagi huquqlarni amalga oshirishni ta'minlash majburiyatini oladilar:

a) sud oldida va odil sudlovni amalga oshiradigan boshqa organlar oldida tenglik huquqlari;
b) hukumat mansabdor shaxslar kabi qandaydir alohida shaxslar, guruhlar yoki muassasalar tomonidan yetkaziladigan zoʻravonlik yoki tan jarohatlari davlat tomonidan shaxsiy xavfsizlik va himoya qilinish huquqi;

c) siyosiy huquqlar, xususan, umumiy va teng saylov huquqi asosida saylovlarda ishtirok etish huquqi – ovoz berish va oʻz nomzodini koʻrsatish, har qanday darajadagi davlat ishlariga rahbarlikdagi kabi mamlakatni boshqarishda ishtirok etish huquqi, shuningdek davlat xizmatidan teng foydalanish huquqi;

d) boshqa fuqarolik huquqlari, jumladan:

i) davlat ichida harakatlanish va yashash erkinligi huquqi;

ii) biron bir mamlakatni, shu jumladan, oʻz mamlakatini tashlab ketish va oʻz mamlakatiga qaytish huquqi;

iii) fuqarolikka boʻlgan huquqi;

iv) nikohga kirish va juftini tanlash huquqi;

v) mulkka ham yakka, ham boshqalar bilan birgalikda egalik qilish huquqi;

vi) meros olish huquqi;

vii) fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqi;

viii) eʼtiqod erkinligi va ularni erkin ifoda etish huquqi;

ix) tinch yigʻilishlar va uyushmalar erkinligi huquqi;

e) iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalaridagi huquqlar, jumladan:

i) mehnat, ishni erkin tanlash, adolatli va qulay mehnat sharoitlari, ishsizlikdan himoyalash, teng mehnat uchun teng haq olish, adolatli va qoniqarli ragʻbatlantirish huquqi;

ii) kasaba uyushmalari tuzish va ularga qoʻshilish huquqi;

iii) uy-joy huquqi;

iv) sogʻliqni saqlash, tibbiy yordam, ijtimoiy taʼminot va ijtimoiy xizmat koʻrsatish huquqi;

v) taʼlim va kasbiy tayyorgarlik huquqi;

vi) madaniy hayotda teng ishtirok etish huquqi;

f) jamoat foydalanishi uchun moʻljallangan, masalan, transport, mehmonxonalar, restoranlar, kafe, teatrlar va oromgohlardan istalgan joyda yoki biron bir xizmat koʻrsatish turidan foydalanish huquqi.

6-modda

Ishtirokchi-davlatlar oʻz yurisdiksiyasi doirasidagi har bir insonga ushbu Konvensiyani buzib, uning inson huquqlari va asosiy erkinliklariga tajovuz qiladigan irqiy kamsitishning har qanday harakatlari sodir etilgan holatlarda vakolatli milliy sudlar hamda boshqa davlat institutlari orqali samarali himoya va himoya vositalarini, shuningdek mazkur sudlarga bunday kamsitish oqibatida yetkazilgan har qanday zarar uchun adolatli va teng undirish yoki qondirish toʻgʻrisida daʼvo qilish huquqlarini taʼminlaydi.

7-modda

Ishtirokchi-davlatlar, jumladan, oʻqitish, tarbiya, madaniyat va axborot sohasida irqiy kamsitishga qarshi kurash, millatlar va irqiy yoki etnik guruhlar oʻrtasida oʻzaro tushunish, chidamlilik va doʻstlikni ragʻbatlantirish, shuningdek BMT Nizomi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, BMTning Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish toʻgʻrisidagi deklaratsiyasi hamda ushbu Konvensiya maqsadi va prinsiplarini ommalashtirish maqsadida kechiktirib boʻlmaydigan hamda samarali choralar koʻrish majburiyatini oladilar.

II QISM

8-modda

1. Irtiqiy kamsitishga barham berish bo'yicha qo'mitasi (keyingi o'rinlarda – "Qo'mita") tashkil etilishi kerak, u o'n sakkiz ekspertdan iborat bo'lib, ishtirokchi-davlatlar tomonidan o'z majburiyatlarini shaxs sifatida bajaradigan o'z fuqarolari orasidan saylanadigan, yuksak ma'naviy fazilatlariga ega va xolis deb tan olingan, qolaversa, adolatli jo'g'rofiy taqsimlash va sivilizatsiyaning, shuningdek asosiy huquqiy tizimlarning turli shakllaridan vakillar bo'lishiga e'tibor qaratiladi.

2. Qo'mita a'zolari yashirin ovoz berish yo'li bilan ishtirokchi-davlatlar tomonidan ilgari surilgan ro'yxatga kiritilgan shaxslar orasidan saylanadi. Har bir ishtirokchi-davlat o'z fuqarolari orasidan bir shaxsni ko'rsatishi mumkin.

3. Dastlabki saylov ushbu Konvensiya kuchga kirgandan keyin olti oy o'tgach o'tkaziladi. Har safar saylov sanasidan kamida uch oy oldin Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi ishtirokchi-davlatlarga ikki oy ichida ular tomonidan ko'rsatilgan shaxslarning ismlarini taqdim etishini taklif qilgan holda xat bilan murojaat qiladi. Bosh kotib shu tarzda ko'rsatilgan barcha shaxslar ro'yxatini ularni ilgari surgan ishtirokchi-davlatlarni ko'rsatgan holda alifbo tartibida tayyorlaydi hamda ushbu ro'yxatni Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlariga taqdim etadi.

4. Qo'mita a'zolarini saylash Bosh kotib tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy muassasalarida chaqiriladigan Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlari yig'ilishida o'tkaziladi. Ishtirokchi-davlatlarning uchdan ikki qismi kvorumni tashkil etadigan ushbu yig'ilishda eng ko'p ovoz olgan va Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlari vakillarining ovoz berishda hozir bo'lgan hamda ishtirokchilarining mutlaq ko'pchilik ovozini olgan nomzodlar Qo'mita a'zolari etib saylangan bo'ladi.

5. a) Qo'mita a'zolari to'rt yilga saylanadi. Biroq dastlabki saylovda saylanadigan to'qqiz a'zoning vakolat muddati ikki yillik davr oxirida tugaydi; dastlabki saylovdan keyin darhol shu to'qqiz a'zoning nomlari Qo'mita raisi tomonidan qur'a tashlab aniqlanadi.

b) Konvensiyaning ishtirokchi-davlati kutilmagan bo'sh ish o'rinlarini to'ldirish uchun bundan buyon Qo'mita a'zosi bo'lmagan eksperti o'rniga Qo'mita ma'qullagan taqdirda o'z fuqarolari orasidan boshqa ekspert tayinlaydi.

6. Ishtirokchi-davlatlar Qo'mita a'zolari tomonidan Qo'mita vazifalarini bajarish davridagi xarajatlarni qoplashni o'z zimmlariga oladilar.

9-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga Qo'mita tomonidan ko'rib chiqilishi uchun ushbu Konvensiya qoidalarini hayotda tatbiq etilishiga ko'maklashuvchi qabul qilingan qonunchilik, sud, ma'muriy yoki boshqa chora-tadbirlar to'g'risida hisobot berish majburiyatini oladilar:

a) mazkur davlat uchun ushbu Konvensiya kuchga kirgandan keyin bir yil mobaynida;

b) keyinchalik har ikki yilda va har gal, Qo'mita buni talab qilganda.

Qo'mita Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlaridan qo'shimcha axborot so'rashi mumkin.

2. Qo'mita har yili Bosh kotib orqali Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasiga o'z faoliyati to'g'risida hisobot taqdim etadi hamda Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlaridan olingan hisobot va axborotlarni o'rganishga asoslangan takliflar va umumiy tavsiyalar berishi mumkin. Bunday takliflar va umumiy tavsiyalar Bosh Assambleyaga, agar mavjud bo'lsa, Konvensiya ishtirokchi-davlatlarining mulohazalari bilan birga xabar qilinadi.

10-modda

1. Qo'mita o'zining tartib-taomil qoidalarini belgilaydi.

2. Qo'mita o'zining mansabdor shaxslarini ikki yil muddatga saylaydi.

3. Qo'mita kotibiyati Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi tomonidan ta'minlanadi.

4. Qo'mita yig'ilishlari odatda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy muassasalarida o'tkaziladi.

11-modda

1. Agar biron bir ishtirokchi-davlat boshqa ishtirokchi-davlat Konvensiyaning qoidalarini bajarmaydi deb hisoblasa, u bu haqda Qo'mitaga xabar berishi mumkin. So'ngra, Qo'mita ushbu xabarni manfaatdor ishtirokchi-davlatga yetkazadi. Uch oy mobaynida xabarnoma olgan davlat Qo'mitaga ushbu masala va mazkur davlat tomonidan qabul qilinishi mumkin bo'lgan choralarni yorituvchi yozma tushuntirish yoki arizalarni taqdim etadi.

2. Agar masala bunday davlat tomonidan dastlabki xabarnoma olingandan keyin olti oy mobaynida ikki tomonlama muzokaralar yoki ular uchun biron bir boshqa qulay yo'l bilan ikkala tomonni qanoatlantirib hal etilmasa, ushbu ikki davlatdan biri bu masalani Qo'mitaning, shuningdek boshqa davlatning tegishli xabarnomasi orqali qayta ko'rib chiqish uchun Qo'mitaga topshirish huquqiga ega.

3. Qo'mita unga berilgan masalani ushbu moddaning 2-bandiga muvofiq xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga ko'ra mazkur holatda huquqiy himoyaning barcha qulay ichki vositalari sinab ko'rilganligi va tugaganligini belgilaganidan keyin ko'rib chiqadi. Marzkur qoida bu vositalarni qo'llash nihoyatda cho'zilib ketganida amal qilmaydi.

4. Qo'mita unga ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan har qanday masala bo'yicha manfaatdor ishtirokchi-davlatlarga ishga taalluqli istalgan axborotni taqdim etishlarini taklif qilishi mumkin.

5. Agar ushbu modda qoidalaridan kelib chiqadigan biron bir masalani Qo'mita ko'rib chiqayotgan bo'lsa, u holda manfaatdor ishtirokchi-davlatlar o'z vakillarini ushbu masalani ko'rib chiqish davrida ovoz berish huquqsiz Qo'mita yig'ilishlarida ishtirok etish uchun yuborish huquqiga ega.

12-modda

1. a) Qo'mita zarur deb hisoblagan barcha axborotni olgan va sinchikovlik bilan tekshirgandan keyin, Rais Qo'mita a'zolari bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin bo'lgan besh nafardan iborat maxsus Kelishuv komissiyasini (keyingi o'rinlarda – "Komissiya") tayinlaydi. Komissiya a'zolari bahsda tomonlarning yakdil roziligi bilan tayinlanadi hamda Komissiya manfaatdor davlatlarga mazkur masalani, Konvensiya qoidalariga rioya etish asosida tinch yo'l bilan bartaraf etish maqsadida o'zining ezgu xizmatlarini tavsiya qiladi.

b) Agar bahsda tomonlar bo'lgan davlatlar o'rtasida uch oy mobaynida Komissiyaning butun tarkibiga yoki tarkibining bir qismiga nisbatan kelishuvga erishilmagan bo'lsa, u holda bahsda tomonlar bo'lgan davlatlar o'rtasida tayinlanish to'g'risida kelishuvga erishilmagan Komissiya a'zolari Qo'mita a'zolari tarkibidan yashirin ovoz berish yo'li bilan uchdan ikki ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.

2. Komissiya a'zolari o'z majburiyatlarini shaxs sifatida bajaradilar. Ular bahsda tomonlar bo'lgan davlatlarning yoki Konvensiyada ishtirok etmaydigan davlatning fuqarolari bo'lmasligi kerak.

3. Komissiya o'z raisini saylaydi va o'zining tartib-taomil qoidalarini o'rnatadi.

4. Komissiya yig'ilishlari, odatda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy muassasalarida yoki Komissiya qarori bo'yicha istalgan boshqa qulay joyda o'tkaziladi.

5. Konvensiyaning 10-moddasi 3-bandiga muvofiq ta'minlanadigan Kotibiyat, agar Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlari o'rtasidagi bahs Komissiya tuzishga olib kelsa, shu Komissiyaga ham xizmat qiladi.

6. Bahsda tomonlar bo'lgan davlatlar Komissiya a'zolarining barcha xarajatlarini Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi tomonidan taqdim qilingan smetaga muvofiq teng darajada qoplaydilar.

7. Bosh kotib Komissiya a'zolarining xarajatlarini, agar bu zarur bo'lsa, ushbu moddaning 6-bandiga muvofiq ular bahsda tomonlar bo'lgan davlatlar tomonidan qoplanishidan oldin to'lash huquqiga ega.

8. Qo'mita tomonidan olingan va o'rganib chiqilgan axborot Komissiya ixtiyoriga taqdim etiladi hamda Komissiya manfaatdor davlatlarga ishga taalluqli istalgan axborotni berishni taklif qilishi mumkin.

13-modda

1. Komissiya masalani to'liq ko'rib chiqqach, Qo'mita raisiga tomonlar o'rtasidagi bahsning haqiqiy faktlariga taalluqli barcha masalalar bo'yicha o'zining xulosalarini va bahsni tinch hal qilish uchun zarur deb tan olgan tavsiyalarni o'z ichiga olgan hisobotni tayyorlashi va taqdim etishi kerak.

2. Qo'mita raisi bahsda ishtirok etayotgan har bir davlatga Komissiya hisobotini yuborishi kerak. Uch oy mobaynida bu davlatlar Qo'mita raisiga Komissiya hisobotida keltirilgan tavsiyalarga rozi yoki yo'qligi to'g'risida xabar berishlari kerak.

3. Ushbu moddaning 2-bandida nazarda tutilgan davr tugashiga ko'ra Qo'mita raisi Komissiya hisoboti va manfaatdor ishtirokchi-davlatlarning arizalarini Konvensiyaning boshqa ishtirokchi-davlatlariga yuborishi kerak.

14-modda

1. Ishtirokchi-davlat istalgan vaqtda Qo'mitaning yurisdiksiyasi doirasida bo'lgan o'zlarini ushbu Konvensiyada bayon etilgan biron bir huquqlarining mazkur ishtirokchi-davlat tomonidan buzilishi qurboni deb tasdiqlaydigan alohida shaxslar yoki shaxslar guruhlarining rasmiy xabarlarini qabul qilish va ko'rib chiqish vakolatini tan olishini arz qilishi mumkin. Qo'mita hech qanday rasmiy xabarlarni, agar ular shunday bayonot bermagan Konvensiyaning ishtirokchi-davlatiga taalluqli bo'lsa, qabul qilmasligi kerak.

2. Ushbu moddaning 1-bandida nazarda tutilgan bayonotni bergan har qanday ishtirokchi-davlat o'zining milliy huquqiy tizimi doirasida o'z yurisdiksiyasida ushbu Konvensiyada bayon etilgan biron bir huquqlarining buzilishi qurboni deb va huquqiy himoyaning boshqa mavjud mahalliy vositalaridan foydalanib bo'lgan alohida shaxslar va shaxslar guruhlarining arizalarini qabul qilish va ko'rib chiqish vakolati bo'lgan organni ta'sis etishi yoki ko'rsatishi mumkin.

3. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq berilgan ariza, shuningdek ushbu moddaning 2-bandiga binoan ta'sis etilgan yoki ko'rsatilgan har qanday organning nomi tegishli ishtirokchi-davlat tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga saqlash uchun topshirilishi kerak, u ularning nusxalarini qolgan ishtirokchi-davlatlarga jo'natadi. Ariza istalgan vaqtda Bosh kotibni bu haqda xabardor qilish orqali qaytarib olinishi mumkin, lekin bu aslo Qo'mita ko'rib chiqayotgan rasmiy xabarlarga ta'sir etmasligi kerak.

4. Arznomalarning ro'yxati ushbu moddaning 2-bandiga muvofiq ta'sis etilgan yoki ko'rsatilgan organ tomonidan tuziladi, bu ro'yxatning tasdiqlangan nusxalari har yili tegishli yo'llar orqali Bosh kotibga topshiriladi, bunda ularning mazmuni oshkor qilinmasligi kerak.

5. Agar arizachi ushbu moddaning 2-bandiga muvofiq ta'sis etilgan yoki ko'rsatilgan organ harakatlaridan qoniqmasa, u olti oy mobaynida mazkur masalani Qo'mitaga topshirish huquqiga ega.

6. a) Qo'mita o'zi olgan har qanday rasmiy xabarni maxfiy tarzda Konvensiya qoidalarini buzishda ayblanayotgan ishtirokchi-davlatga yetkazadi, lekin tegishli shaxs yoki shaxslar guruhi nomi uning yoki ularning aniq ifodalangan rozilgisiz aytilmaydi. Qo'mita anonim xabarlarni qabul qilmasligi kerak.

b) uch oy mobaynida bildirishnoma olgan davlat Qo'mitaga shu masalani va mazkur davlat tomonidan qabul qilinishi mumkin bo'lgan choralarni yorituvchi yozma tushuntirish yoki arizalar taqdim qiladi.

7. a) Qo'mita rasmiy xabarlarni uning ixtiyoriga manfaatdor ishtirokchi-davlat yoki arizachi tomonidan berilgan hamma ma'lumotlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqadi, Qo'mita agar arizachi huquqiy himoyaning hamma mavjud ichki vositalaridan foydalanib bo'lganligini aniqlamasa, qaysidir arizachidan olingan rasmiy xabarlarning hech birini ko'rib chiqmasligi kerak. Lekin mazkur vositalarning qo'llanilishi haddan tashqari cho'zilib ketgan hollarda bu qoida amal qilmaydi.

b) Qo'mita o'zining taklif va tavsiyalarini, agar ular bo'lsa, manfaatdor ishtirokchi-davlatga va arizachiga jo'natadi.

8. Qo'mita o'zining yillik hisobotiga shunday xabarlar xulosasini hamda zarur hollarda manfaatdor ishtirokchi-davlatlarning tushuntirish va arizalarining qisqacha bayonini, shuningdek o'zining taklif va tavsiyalarini qo'shadi.

9. Qo'mita ushbu moddada nazarda tutilgan vazifalarni Konvensiyaning kamida o'nta ishtirokchi-davlatlari mazkur moddaning 1-bandiga muvofiq ariza bergan hollardagina bajarishga vakolatli.

15-modda

1. Bosh Assambleyaning 1960-yil 14-dekabrdagi 1514 (XV)-rezolyutsiyasida bayon qilingan Mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik berish to'g'risidagi deklaratsiya maqsadlariga erishilgunga qadar ushbu Konvensiyaning qoidalari shu xalqlarga boshqa xalqaro hujjatlar yoki Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashtirilgan muassasalari tomonidan ta'minlangan arznomalar berish huquqini cheklamaydi.

2. a) Ushbu Konvensiya 8-moddasining 1-bandiga muvofiq ta'sis etilgan Qo'mita arznomalar nusxalarini BMTning shu Konvensiyaning prinsiplari va maqsadlariga bevosita taalluqli bo'lgan masalalar bilan shug'ullanadigan organlaridan oladi hamda ularda ko'rilayotgan arznomalar (agar ular vasiylikdagi va o'zini o'zi boshqarmaydigan hududlarda yashaydigan shaxslardan kelsa, ularga nisbatan 1514 (XV)-rezolyutsiya qo'llaniladigan bo'lsa va bu arznomalar ushbu Konvensiyada nazarda tutilgan masalalarga tegishli bo'lsa) bo'yicha ularga fikr va tavsiyalar beradi.

b) Qo'mita Birlashgan Millatlar Tashkilotining vakolatli organlaridan ushbu Konvensiyaning prinsiplari va maqsadlariga bevosita aloqador hamda ushbu bandning "a" kichik bandida eslatib o'tilgan hududlarda idora etuvchi Davlatlar tomonidan o'tkazilayotgan qonunchilik, sud, ma'muriy va boshqa tadbirlarga taalluqli hisobotlarning nusxalarini oladi, shuningdek bu borada o'z fikrini bildiradi va ushbu organlarga tavsiyalar beradi.

3. Qo'mita Bosh Assambleyaga bergan hisobotida Birlashgan Millatlar Tashkiloti organlaridan olgan murojaatlari va ma'ruzalarining qisqacha mazmuni, shuningdek Qo'mitaning ushbu murojaatlar va ma'ruzalarga taalluqli fikr va tavsiyalarini kiritadi.

4. Qo'mita Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibidan ushbu Konvensiyaning maqsadlariga taalluqli va mazkur moddaning 2-bandi "a" kichik bandida keltirilgan hududlarga oid uning ixtiyoridagi butun axborotni so'rab oladi.

16-modda

Bahslarni bartaraf etishga yoki shikoyatlarni ko'rib chiqishga oid ushbu Konvensiya qoidalari Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashtirilgan muassasalarining asosiy hujjatlarida yoki ular tomonidan ma'qullangan konvensiyalarda bayon etilgan kamsitish sohasidagi bahslar yoki shikoyatlarni hal etishning boshqa usullari uchun zararsiz qo'llaniladi hamda ishtirokchi-davlatlarga ularga nisbatan harakatda bo'lgan umumiy yoki maxsus xalqaro bitimlarga muvofiq bahslarni hal etish uchun boshqa usullardan foydalanishda xalaqit bermaydi.

III QISM

17-modda

1. Ushbu Konvensiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining a'zosi bo'lgan har qanday davlat yoki uning ixtisoslashtirilgan muassasalaridan biron birining a'zosi, Xalqaro Sud Statutining har qanday ishtirokchi-davlati va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan ushbu Konvensiyada qatnashish uchun taklif etilgan biron-bir boshqa davlat tomonidan imzolanish uchun ochiq.

2. Ushbu Konvensiya ratifikatsiya qilinishi kerak. Ratifikatsiya yorliqlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibida saqlanadi.

18-modda

1. Ushbu Konvensiya mazkur Konvensiyaning 17-moddasi 1-bandida ko'rsatilgan har qanday davlatlarning qo'shilishi uchun ochiq.

2. Qo'shilish Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga qo'shilish to'g'risidagi hujjatni saqlash uchun topshirish orqali amalga oshiriladi.

19-modda

1. Ushbu Konvensiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga yigirma yettinchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilganidan keyin o'ttizinchi kuni kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan yoki unga yigirma yettinchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilgandan keyin qo'shiladigan har bir davlat uchun ushbu Konvensiyaning ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjati saqlash uchun topshirilganidan keyin o'ttizinchi kuni kuchga kiradi.

20-modda

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi ratifikatsiya qilish yoki qo'shilish paytida davlatlar tomonidan qilingan qo'shimcha shartlar matnini oladi va ushbu Konvensiyaning ishtirokchilari bo'lgan yoki bo'lishlari mumkin bo'lgan barcha davlatlarga yuboradi. Qo'shimcha shartga e'tiroz bildirgan har qanday davlat yuqorida ko'rsatilgan xabar olingan kundan boshlab to'qson kun mobaynida Bosh kotibga mazkur shartni qabul qilmasligi to'g'risida bildirishi lozim.

2. Ushbu Konvensiya asosida tuzilgan qaysidir organlar ishiga halaqit berishi mumkin bo'lgan shartlar singari, ushbu Konvensiyaning maqsad va vazifalariga mos kelmaydigan qo'shimcha shartlarga yo'l qo'yilmaydi. Qo'shimcha shartlar, agar Konvensiya ishtirokchi-davlatlarining kamida uchdan ikki qismi unga e'tiroz bildirsa, mos kelmaydigan yoki ishga to'sqinlik qiladigan deb hisoblanadi.

3. Qo'shimcha shartlar istalgan vaqtda Bosh kotib nomiga tegishli bildirishnoma yuborish orqali olib tashlanishi mumkin. Bunday bildirish u olingan kundan kuchga kiradi.

21-modda

Har bir ishtirokchi-davlat ushbu Konvensiyani Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga yozma ravishda xabar berish orqali denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Bosh kotib bu haqda xabar olgan kundan boshlab bir yil o'tgach kuchga kiradi.

22-modda

Ikki yoki bir necha ishtirokchi-davlat o'rtasida ushbu Konvensiyani talqish qilish yoki qo'llashga oid mazkur Konvensiyada maxsus ko'zda tutilgan muzokaralar yoki tartib-taomillar yo'li bilan hal etilmagan har qanday bahs, bu bahsda tomonlardan birining talabiga ko'ra, agar

tomonlar bahsda hal etishning boshqa usulini kelishib olmagan bo'lsa, Xalqaro sud tomonidan hal qilinishi uchun yuboriladi.

23-modda

1. Ushbu Konvensiyani qayta ko'rib chiqish to'g'risida talab istalgan vaqtda har qaysi ishtirokchi-davlat tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi nomiga yozma xabarnoma yuborish orqali ilgari surilishi mumkin.

2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi shunday talab bilan bog'liq, agar zarur bo'lsa, qanday choralar ko'rishi to'g'risida qaror qabul qiladi.

24-modda

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi, ushbu Konvensiyaning 17-moddasi 1-bandida eslatib o'tilgan barcha davlatlarga quyidagi ma'lumotlar to'g'risida xabar beradi:

- a) 17 va 18-moddalarga muvofiq imzolash, ratifikatsiya va qo'shilish to'g'risida;
- b) 19-moddaga muvofiq ushbu Konvensiya kuchga kirish sanasi to'g'risida;
- c) 14, 20 va 23-moddalarga muvofiq olingan xabarlar va deklaratsiyalar to'g'risida;
- d) 21-moddaga muvofiq denonsatsiya to'g'risida.

25-modda

1. Mazkur Pakt ingliz, ispan, xitoy, rus va frantsuz tillarida tuzilgan hamma matnlar teng kuchga ega, u Birlashgan Millatlar Tashkilotining arxiviga saqlash uchun topshirilishi kerak.

2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi ushbu Konvensiyaning tasdiqlangan nusxalarini Konvensiyaning 17-moddasi 1-bandida eslatib o'tilgan toifalardan biron biriga tegishli barcha davlatlarga yuboradi.

DIN YOKI E'TIQODGA ASOSLANGAN MUROSASIZLIK VA KAMSITISHNING BARCHA SHAKLLARIGA BARHAM BERISH TO'G'RISIDAGI DEKLARATSIYA

*Bosh Assambleyaning 1981-yil 25-noyabrdagi 36/55-sonli
rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustdagi
505-I-son Qarori bilan tasdiqlangan*

Bosh Assambleya,

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining asosiy prinsiplariga muvofiq qadr-qimmat va tenglik har bir insonga taalluqli hamda barcha a'zo davlatlar o'zaro birgalikda va o'zi Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar, barcha uchun inson huquqlari va asosiy erkinliklarni umumiy hurmat qilish va ularga rioya qilishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish majburiyatini o'z zimmalariga oladigan,

inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida va Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro paktlarda kamsitmaslik va qonun oldida tenglik prinsiplariga hamda fikr, vijdon, din yoki e'tiqod erkinligi huquqining e'lon qilinganligini hisobga olib,

inson huquqlari va asosiy erkinliklarini, xususan, fikrlash, vijdon, din yoki har qanday turdagi e'tiqod erkinligini e'tiborsiz qoldirish va buzish to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita urushlar hamda insoniyatning katta azob-uqubatlariga sabab bo'ladi, ayniqsa ular xorijiy davlatlarning ichki ishlariga aralashish vositasi sifatida xalqlar va davlatlar o'rtasida nafratni qo'zg'atishga olib keladi,

din yoki e'tiqod, ularga amal qiladigan har bir inson uchun hayotni tushunishning asosiy elementi ekanligi hamda din va e'tiqod erkinligiga to'laligicha rioya qilish va kafolatlash kerakligini hisobga olib,

din va e'tiqod erkinligi masalalarida o'zaro tushunish, bag'rikenglik va hurmatni qo'llab-quvvatlash hamda din yoki e'tiqoddan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavi va boshqa tegishli hujjatlariga hamda ushbu Deklaratsiyaning maqsad va tamoyillariga zid bo'lgan maqsadlarda foydalanilishiga yo'l qo'ymaslikni ta'minlash muhimligini hisobga olib,

din va e'tiqod erkinligi umumjahon tinchlik, ijtimoiy adolat va xalqlar o'rtasidagi do'stlik hamda mustamlakachilik va irqiy kamsitish mafkurasi va amaliyotiga barham berish maqsadlariga erishishni ham qo'llab-quvvatlashi zarurligiga ishonch hosil qilib,

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va ixtisoslashgan muassasalar shafeligida kamsitishning turli shakllariga barham berish to'g'risida bir necha konvensiyalar qabul qilinib, kuchga kirganligini mamnuniyat bilan qayd etib,

jahonning ayrim hududlarida hali ham kuzatilayotgan din yoki e'tiqod masalalaridagi murosasizlik va kamsitishning namoyon bo'lishidan xavotirda bo'lib,

bunday murosasizlikning barcha shakllari va ko'rinishlarini imkon qadar tezroq bartaraf etish hamda din yoki e'tiqodga asoslangan kamsitishning oldini olish va unga qarshi kurashish uchun barcha zarur choralarini ko'rishga qat'iy qaror qilib,

Din yoki e'tiqodga ko'ra murosasizlik va kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi deklaratsiya ushbu deklaratsiyani e'lon qiladi:

1-modda

1. Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o'z tanloviga ko'ra har qanday din yoki e'tiqodga ega bo'lish erkinligini hamda o'z diniga e'tiqod qilish hamda o'z e'tiqodini yolg'iz yoki boshqalar bilan birgalikda, ochiq yoki xususiy tartibda, ibodat qilish, diniy marosimlar va ta'limotlarni amalga oshirish erkinligini o'z ichiga oladi.

2. Hech kimning o'z tanloviga ko'ra din yoki e'tiqodga ega bo'lish erkinligiga putur yetkazadigan majburlashga duchor qilinishi mumkin emas.

3. Dinga e'tiqod qilish yoki e'tiqodini bildirish erkinligi faqat qonun bilan belgilangan hollarda hamda jamoat xavfsizligi, tartib, sog'liq yoki axloqni, shuningdek boshqa shaxslarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun zarur bo'lgandagina cheklanishi mumkin.

2-modda

1. Hech kim hech bir davlat, muassasa, shaxslar guruhi yoki alohida shaxs tomonidan din yoki e'tiqodiga ko'ra kamsitilishga duchor qilinishi mumkin emas.

2. Ushbu Deklaratsiyaning maqsadlari uchun "din yoki e'tiqodga asoslangan murosasizlik va kamsitish" ifodasi din yoki e'tiqodga asoslangan hamda inson huquqlari tengligi va asosiy erkinliklar asosida tan olish, foydalanish yoki amalga oshirishga putur yetkazish yoki oyoq osti qilish maqsadi yoki oqibatini nazarda tutadigan istalgan farqlash, istisno qilish, cheklash yoki afzal ko'rishni anglatadi.

3-modda

Odamlarni din yoki e'tiqodiga ko'ra kamsitish inson shaxsi qadr-qimmatini haqoratlash va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavi prinsiplarini inkor etish bo'lib hisoblanadi hamda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida e'lon qilingan va Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro paktlarda batafsil bayon etilgan inson huquqlari va asosiy erkinliklarini buzish sifatida hamda davlatlar o'rtasidagi do'stona va tinch munosabatlarga to'siq sifatida qoralanadi.

4-modda

1. Barcha davlatlar fuqarolik, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotning barcha sohalarida inson huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish, amalga oshirish va ulardan foydalanishda din yoki e'tiqodga asoslangan kamsitishning oldini olish va bartaraf etish uchun samarali choralarni ko'rishlari kerak.

2. Barcha davlatlar, zarurat tug'ilganda, har qanday kamsitishlarni taqiqlovchi qonunlarni qabul qilish yoki bekor qilish, shuningdek, ushbu sohada din yoki boshqa e'tiqodlarga asoslangan murosasizlikka qarshi kurashish bo'yicha tegishli choralarni ko'rish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshiradilar.

5-modda

1. Ota-onalar yoki bolaning qonuniy vasiylari, zarur hollarda, o'z dini yoki e'tiqodiga muvofiq, shuningdek, ularning fikricha, bola olishi kerak bo'lgan axloqiy tarbiyadan kelib chiqib, oila doirasidagi yashash tarzini belgilashga haqlidir.

2. Har bir bola o'z ota-onasi yoki muayyan holatlarda qonuniy vasiylarining xohishiga ko'ra, din yoki e'tiqod sohasidagi ta'lim olish huquqiga ega hamda ota-onasi yoki qonuniy vasiylari xohishiga qarshi din yoki e'tiqod sohasidagi ta'lim olishga majburlanmaydi, bunda ustuvor prinsip bolaning manfaatlaridir.

3. Bola din yoki e'tiqodga asoslangan kamsitishning har qanday shaklidan himoyalanaadi. U o'zaro tushunish, bag'rikenglik, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, tinchlik va umuminsoniy birodarlik, o'zgalarning din va e'tiqod erkinligini hurmat qilish, shuningdek, uning g'ayrat-shijoati va qobiliyati

boshqa odamlarning baxt-saodatiga xizmat qilishga bag'ishlanishi kerakligini to'liq anglab yetish ruhida tarbiyalanishi kerak.

4. Agar bola ota-onasi yoki qonuniy vasiylarining qaramog'ida bo'lmasa, ularning din yoki e'tiqodga oid masalalardagi xohish-irodasi yoki irodasining har qanday namoyon bo'lishi e'tiborga olinadi, bunda bolaning manfaatlari ustuvor prinsip bo'lib hisoblanadi.

5. Bola tarbiyalanayotgan din yoki e'tiqod amaliyoti, ushbu Deklaratsiyaning 1-moddasi 3-bandiga rioya qilgan holda, uning jismoniy yoki ruhiy salomatligiga ham, uning umumiy rivojlanishiga ham zarar yetkazmasligi kerak.

6-modda

Ushbu Deklaratsiyaning 1-moddasiga muvofiq va 1-moddaning 3-bandi qoidalariga rioya qilgan holda, fikrlash, vijdon, din yoki e'tiqod erkinligi, xususan, quyidagi erkinliklarni o'z ichiga oladi:

a) din yoki e'tiqod bilan bog'liq ibodat qilish yoki yig'ilish hamda bu maqsadlarda joylarni tashkil etish va saqlash;

b) tegishli xayriya yoki gumanitar muassasalarni tashkil etish va saqlash;

c) diniy marosimlar, urf-odatlar yoki e'tiqodlar bilan bog'liq zaruriy ashyolar va materiallarni ishlab chiqarish, sotib olish va tegishli hajmda ishlatish;

d) ushbu sohalardagi tegishli nashrlarni tayyorlash, chop etish va tarqatish;

e) din yoki e'tiqod masalalari bo'yicha ta'limni, ushbu maqsadga muvofiq bo'lgan joylarda olib borish;

f) alohida shaxslar va tashkilotlardan ixtiyoriy moliyaviy hamda boshqa xayriya mablag'larini so'rash va olish;

g) muayyan din yoki e'tiqodning ehtiyojlari va me'yorlariga muvofiq tegishli rahbarlarni tayyorlash, tayinlash, saylash yoki vorislik huquqi bo'yicha tayinlash;

h) din va e'tiqod qoidalariga muvofiq dam olish kunlariga rioya qilish va bayramlarni nishonlash hamda marosimlarni amalga oshirish;

i) milliy va xalqaro darajada din va e'tiqod sohasida alohida shaxslar va jamoalar bilan aloqalarni o'rnatish va amalga oshirish.

7-modda

Ushbu Deklaratsiyada bayon etilgan huquq va erkinliklar milliy qonunchilikda har bir shaxs bunday huquq va erkinliklardan amalda foydalanishi mumkin bo'lgan tarzda beriladi.

8-modda

Ushbu Deklaratsiyadagi hech bir qoida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida va Inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktlarda belgilangan har qanday huquqlarni cheklovchi yoki ulardan chetga chiquvchi ma'noda talqin qilinishi mumkin emas.

III BO'LIM. RIVOJLANISHGA BO'LGAN HUQUQ

XALQLARNING TINCHLIK HUQUQI TO'G'RSIDAGI DEKLARATSIYA

*Bosh Assambleyaning 1984-yil 12-noyabrdagi
39/11-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustdagi
503-I-son Qarori bilan tasdiqlangan*

Bosh Assambleya,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy maqsadi xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash ekanligini yana bir bor tasdiqlab,

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida belgilangan xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini hisobga olib,

urushni insoniyat hayotidan chiqarib tashlash va, eng avvalo, global yadroviy falokatning oldini olish uchun barcha xalqlarning irodasi va intilishlarini ifoda etib,

urushsiz hayot mamlakatlarning moddiy farovonligi, rivojlanishi va taraqqiyoti, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan e'lon qilingan inson huquqlari va asosiy erkinliklarini to'liq amalga oshirish uchun asosiy xalqaro shart bo'lib xizmat qilishiga ishonch hosil qilib,

yadro asrida yer yuzida mustahkam tinchlik o'rnatilishi insoniyat sivilizatsiyasini va uning mavjudligini saqlab qolish uchun asosiy shart ekanligini anglab,

xalqlar uchun osuda hayotni ta'minlash har bir davlatning muqaddas burchi ekanligini e'tirof etib,

1) sayyoramiz xalqlari tinchlik uchun muqaddas huquqqa ega ekanligini tantanali ravishda e'lon qiladi;

2) xalqlarning tinchlik huquqini saqlash va uni amalga oshirishga ko'maklashish har bir davlatning asosiy vazifalaridan biri ekanligini tantanali ravishda ta'kidlaydi;

3) xalqlarning tinchlikka bo'lgan huquqini amalga oshirishni ta'minlash davlatlar siyosatidan urush, birinchi navbatda, yadroviy tahdidni bartaraf etishga, davlatlararo munosabatlarda kuch ishlatishni istisno qilishga va xalqaro nizolarni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi asosida tinch yo'l bilan hal etishga yo'naltirilishini talab qilishiga urg'u beradi;

4) barcha davlatlar va xalqaro tashkilotlarni milliy va xalqaro miqyosda tegishli choralar ko'rish orqali xalqlarning tinchlikka bo'lgan ushbu huquqini ta'minlashga har tomonlama hissa qo'shishga chaqiradi.

RIVOJLANISHGA BO'LGAN HUQUQ TO'G'RIDAGI DEKLARATSIYA

*Bosh Assambleyaning 1986-yil 4-dekabrda
41/128-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustda
504-I-son Qarori bilan tasdiqlangan*

Bosh Assambleya,

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yoki gumanitar xarakterga ega bo'lgan muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlikni amalga oshirish bilan bog'liq va irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar barcha uchun inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmatni oshirish va rivojlantirishga tegishli maqsad va tamoyillarini inobatga olib,

aholi farovonligini doimiy ravishda oshirishga va barcha shaxslarning rivojlanishda faol, erkin va konstruktiv ishtirok etishi hamda ushbu jarayonda yaratilgan imtiyoz, sharoitlarni adolatli taqsimlanishiga qaratilgan rivojlanish keng qamrovli iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy jarayon ekanligini tan olib,

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalariga muvofiq, har bir inson Deklaratsiyada belgilangan huquq va erkinliklar to'liq amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy va xalqaro tartib huquqiga ega ekanligini inobatga olib,

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt qoidalariga ishora qilib,

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashtirilgan muassasalarining insonning har tomonlama rivojlanishi, barcha xalqlarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga, shuningdek dekolonizatsiya, kamsitishni oldini olish, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish hamda ularga rioya qilish, Nizomga muvofiq xalqaro tinchlik va hafvsizlikni saqlash, davlatlar o'rtasida do'stona munosabatlar va hamkorlikni yanada rivojlantirishga ko'maklashish masalasiga tegishli shartnoma, konvensiya, rezolyutsiya va boshqa hujjatlariga ishora qilib,

xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini, unga ko'ra barcha xalqlar o'z siyosiy mavqei erkin belgilash, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotini amalga oshirish huquqiga ega ekanligini eslatib,

shuningdek, inson huquqlari to'g'risidagi ikki Xalqaro paktning tegishli qoidalariga muvofiq xalqlarning o'zlarini barcha tabiiy boyliklari va resurslari ustidan to'liq suverenitetdan foydalanish huquqini eslatib,

Nizomga muvofiq davlatlarning irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa qarashlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati, belgilaridan va har qanday boshqa farqlardan qat'i nazar barcha uchun inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish va unga rioya etilishiga ko'maklashish majburiyatini inobatga olib,

kolonializm, neokolonializm, aparteid, irqchilik va irqiy kamsitishning barcha turlari, xorijiy hukmronlik va istilo, tajovuz va milliy suverenitetga, milliy birlik va hududiy yaxlitlikka tahdid, urush tahdidi natijasi hisoblangan holatlar ta'sirida jabrlangan xalqlar va shaxslarning inson huquqlarini ommaviy va qo'pol buzilishini bartaraf etish, insoniyatning katta qismini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishiga hissa qo'shadi deb hisoblab,

inson va xalqlarning rivojlanishi va to'laqonli namoyon bo'lishi yo'lida jiddiy to'siqlar mavjudligidan xavotirlanib, xususan, fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni rad etish bilan bog'liq, shuningdek barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklari ajralmas hamda bir-biriga bog'liq ekanligini hisobga olgan holda, fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish, rag'batlantirish, himoya qilish va rivojlanishiga ko'maklashish uchun teng e'tibor va ustuvorlik berilishi kerak deb hamda ayrim inson huquqlari va asosiy erkinliklarini rag'batlantirish, hurmat qilish va amalga oshirish, boshqa inson huquqlari va asosiy erkinliklarini rad etishni oqlay olmaydi deb hisoblab,

xalqaro tinchlik va havfsizlik rivojlanishga bo'lgan huquqni amalga oshirishning muhim omili ekanligini hisobga olib,

qurolsizlanish va taraqqiyot o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjudligini va qurolsizlanish sohasidagi taraqqiyot, rivojlanish sohasidagi taraqqiyotni sezilarli darajada tezlashtirishi hamda qurolsizlanish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida bo'shatilgan mablag'lar barcha xalqlarning, xususan, rivojlanayotgan mamlakatlar xalqlarining iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishi va farovonligiga yo'naltirilishi lozimligini tasdiqlagan holda,

inson rivojlanish jarayonining asosiy subyekti ekanligini hamda shuning natijasida inson rivojlanish siyosatining asosiy ishtirokchisi va benifitsiari (foyda oluvchisi) sifatida qaralishi kerakligini tan olib,

xalqlar va shaxslarning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish davlatlarning asosiy majburiyati ekanligini e'tirof etib,

rivojlanish va inson huquqlarini himoya qilishga ko'maklashishga qaratilgan xalqaro darajadagi sa'y-harakatlar, yangi xalqaro iqtisodiy tartibni o'rnatishga qaratilgan sa'y-harakatlar bilan birga olib borilishi kerakligini anglab,

rivojlanishga bo'lgan huquq insonning ajralmas huquqi ekanligini hamda rivojlanish uchun imkoniyatlar tengligi, davlatning ham, davlatni tashkil etuvchi insonlarning ham mutlaq huquqi (imtiyozli huquqi) ekanligini tasdiqlab,

quyidagi Rivojlanishga bo'lgan huquq to'g'risidagi deklaratsiyani e'lon qiladi:

1-modda

1. Rivojlanishga bo'lgan huquq insonning ajralmas huquqi bo'lib, ushbu huquq har bir inson va barcha xalqlarning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy taraqqiyotda ishtirok etish huquqini beradi hamda ushbu huquqning ta'minlanishi orqali barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'liq amalga oshirilishi mumkin, shuningdek undan va uning afzalliklaridan foydalanish imkoniyatlaridan foydalanishga ko'maklashadi.

2. Rivojlanishga bo'lgan huquq xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini to'liq amalga oshirishni nazarda tutadi, bu inson huquqlari to'g'risidagi ikkala Xalqaro paktning tegishli qoidalariga muvofiq, xalqlarning barcha tabiiy boyliklari va resurslari ustidan to'liq suverenitetga bo'lgan ajralmas huquqini amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

2-modda

1. Inson rivojlanish jarayonining asosiy subyekti hisoblanadi hamda u rivojlanishga bo'lgan huquqning faol ishtirokchisi va benifitsiari bo'lishi lozim.

2. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini to'liq hurmat qilish zarurligini yodda tutgan holda, barcha insonlar individual va jamoaviy rivojlanish uchun, shuningdek inson shaxsining erkin va har tomonlama jamiyat oldidagi majburiyatlarini bajarishga javobgardirlar, shuning uchun ular rivojlanish uchun muhim bo'lgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tartibni qo'llab-quvvatlashlari va himoya qilishlari kerak.

3. Davlatlar, butun aholi va barcha shaxslarning farovonligini doimiy oshirishga hamda rivojlanish jarayonida faol, erkin va konstruktiv ishtirok etishi, bu yo'lda yaratilgan ne'matlarni

barchaga adolatli taqsimlanishiga qaratilgan tegishli milliy rivojlanish siyosatini belgilash huquqiga va majburiyatiga egadirlar.

3-modda

1. Davlatlar rivojlanishga bo'lgan huquqni ro'yobga chiqarish uchun milliy va xalqaro shart-sharoitlar yaratilishi uchun asosiy mas'uliyatni o'z zimmlariga oladilar.

2. Rivojlanishga bo'lgan huquqni amalga oshirish Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga muvofiq davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlardan va hamkorlikka oid xalqaro huquq tamoyillarini to'liq hurmat qilishni talab etadi.

3. Davlatlar rivojlanishni ta'minlash va uning yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishda bir-biri bilan hamkorlik qilishi kerak. Davlatlar o'zaro suveren tenglik, o'zaro bog'liqlik, manfaatdorlik va hamkorlikka asoslangan yangi iqtisodiy tartibni o'rnatishga hissa qo'shishi, inson huquqlariga rioya qilish va ulardan foydalanishga yordam beradigan tarzda o'z huquqlarini amalga oshirishi va o'z majburiyatlarini bajarishi kerak.

4-modda

1. Davlatlar individual va jamoaviy tartibda xalqaro rivojlanishga bo'lgan huquqni to'liq ro'yobga chiqarishga ko'maklashish maqsadida choralar ko'rishlari lozim.

2. Rivojlanayotgan mamlakatlarning jadal rivojlanishini ta'minlash uchun doimiy chora-tadbirlar rejasini qabul qilish kerak. Rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan olib borilayotgan sa'y-harakatlarga qo'shimcha ravishda, ushbu mamlakatlarni har tomonlama rivojlantirishni jadallashtirish maqsadida tegishli vositalar va imkoniyatlar bilan ta'minlagan holda samarali xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim.

5-modda

Davlatlar aparteid, irqchilik va irqiy kamsitishning barcha turlari, kolonializm, xorijiy hukmronlik va istilo, tajovuz, xorijiy aralashuv va milliy suverenitetga, birlikka va hududiy yaxlitlikka tahdid, urush tahdidlari va xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini tan olishdan bosh tortish kabi holatlar natijasida yuz bergan bunday vaziyatlardan jabr ko'rgan xalqlar va shaxslarning inson huquqlarini ommaviy va qo'pol buzilishini bartaraf etish uchun qat'iy choralar ko'rishlari kerak.

6-modda

1. Barcha davlatlar irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar, barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklariga umumiy hurmat va rioya etilishini rag'batlantirish hamda mustahkamlashga ko'maklashish maqsadida hamkorlikni ta'minlashi kerak.

2. Barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklari ajralmas va bir-biriga bog'liqdir; fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish, rag'batlantirish hamda himoya qilishga teng e'tibor va ustuvorlik berilishi kerak.

3. Davlatlar fuqarolik va siyosiy huquqlar, shuningdek iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga rioya qilmaslik natijasida rivojlanish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish choralari ko'rishlari kerak.

7-modda

1. Barcha davlatlar xalqaro tinchlik va havfsizlikni o'rnatish, saqlash va mustahkamlashga hissa qo'shishi kerak va shu maqsadda samarali xalqaro nazorat ostida umumiy va to'liq qurolsizlanishga erishish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirishi, shuningdek qurolsizlanish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni qabul qilish natijasida bo'shatilgan mablag'larning umumiy rivojlanish, xususan, rivojlanayotgan davlatlar uchun ishlatilishini ta'minlashi kerak.

8-modda

1. Davlatlar rivojlanishga bo'lgan huquqni amalga oshirish uchun milliy darajada barcha zarur choralarni ko'rishlari va asosiy resurslardan foydalanishda, xususan, ta'limga, sog'liqni saqlashga, ovqatlanishga, uy-joyga, bandlikka va daromadni adolatli taqsimlanishida barcha uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashi kerak. Rivojlanish jarayonida xotin-qizlarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlar ko'rilishi zarur. Barcha ijtimoiy adolatsizliklarni bartaraf etish uchun tegishli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar amalga oshirilishi lozim.

2. Davlatlar rivojlanish jarayonining muhim omili sifatida barcha sohalarda aholining ishtirokini va inson huquqlaridan to'liq foydalanishni rag'batlantirishi kerak.

9-modda

1. Ushbu Deklaratsiyada belgilangan rivojlanishning barcha jihatlari ajralmas va bir-biriga bog'liq bo'lib, ularning har biri yaxlit kontekstda ko'rib chiqilishi kerak.

2. Ushbu Deklaratsiyada belgilangan hech narsa Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsadlari va tamoyillariga zid deb talqin qilinishi mumkin emas yoki biron bir davlat, guruh yoki shaxsga Inson huquqlari deklaratsiyasida va inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktlarda bayon etilgan huquqlarni buzishga qaratilgan har qanday faoliyat yoki harakatlar bilan shug'ullanish huquqini bermaydi.

10-modda

Rivojlanishga bo'lgan huquqni to'liq amalga oshirilishini va izchil mustahkamlanishini, shu jumladan, milliy va xalqaro miqyosda siyosiy, qonuniy va boshqa chora-tadbirlarni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirilishini ta'minlash choralari ko'rish zarur.

IV BO'LIM. ALOHIDA TOIFADAGI FUQAROLARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH

A. Xotin-qizlar huquqlari

XOTIN-QIZLARNING SIYOSIY HUQUQLARI TO'G'RIDAGI KONVENSIYA

*Bosh Assambleyaning 1952-yil 20-dekabrdagi 640 (VII)-sonli rezolyutsiyasi bilan
qabul qilingan hamda imzolash, ratifikatsiya qilish va qo'shilish uchun ochiq*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustdagi
501-l-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Ahdlashuvchi tomonlar,

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavida e'lon qilingan erkaklar va xotin-qizlar o'rtasida tenglik tamoyilini amalga oshirishni istagan holda,

har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillar orqali o'z mamlakatini boshqarishda ishtirok etish huquqiga hamda o'z mamlakatida davlat xizmatlaridan teng foydalanish huquqiga ega ekanligini tan olib, shuningdek Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalariga muvofiq erkaklar va xotin-qizlarning siyosiy huquqlarga ega bo'lish va ulardan foydalanishni tenglashtirish istagini e'tirof etgan holda,

shu maqsadda konvensiya tuzishga qaror qilib,
quyidagilarga kelishib oldilar:

1-modda

Xotin-qizlar barcha saylovlarda, hech qanday kamsitishlarsiz, erkaklar bilan teng sharoitlarda ovoz berish huquqiga ega.

2-modda

Xotin-qizlar erkaklar bilan teng sharoitlarda, hech qanday kamsitishlarsiz milliy qonunchilik bilan belgilangan ommaviy saylovlarni talab qiladigan barcha muassasalarga saylanishi mumkin.

3-modda

Xotin-qizlar, hech qanday kamsitishlarsiz, erkaklar bilan teng sharoitlarda jamoat-davlat xizmatida lavozimlarni egallash va milliy qonunchilik bilan belgilangan barcha jamoat-davlat vazifalarini bajarish huquqiga ega.

4-modda

1. Ushbu Konvensiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a'zolari, shuningdek Bosh Assambleyadan taklifnoma olgan har qanday boshqa davlatlar tomonidan imzolanishi uchun ochiqdir.

2. Ushbu Konvensiya ratifikatsiya qilinishi kerak va ratifikatsiya yorliqlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga topshiriladi.

5-modda

1. Ushbu Konvensiya 4-moddaning 1-bandida ko'rsatilgan barcha davlatlarning qo'shilishi uchun ochiqdir.

2. Qo'shilish Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga qo'shilish to'g'risidagi deklaratsiyaning topshirilishi bilan amalga oshiriladi.

6-modda

1. Ushbu Konvensiya oltinchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi deklaratsiyani saqlash uchun topshirilganidan boshlab to'qsoninchi kundan kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiya Konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan har bir davlat uchun o'zining oltinchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi deklaratsiyasini saqlash uchun topshirgandan so'ng to'qsoninchi kuni kuchga kiradi.

7-modda

Har qanday davlat tomonidan imzolash, ratifikatsiya qilish yoki qo'shilish paytida ushbu Konvensiyaning biror-bir moddasiga qo'shimcha shart taqdim etilgan hollarda Bosh kotib ushbu qo'shimcha shart matnini mazkur Konvensiyaning ishtirokchisi bo'lgan yoki ishtirokchisi bo'lishi mumkin bo'lgan barcha davlatlarga yetkazadi. Ushbu qo'shimcha shartga qarshi bo'lgan har qanday davlat, ushbu xabar yuborilgan kundan boshlab to'qson kunlik muddat ichida (yoki Konvensiya ishtirokchisi bo'lgan kundan boshlab) Bosh kotibga uni qabul qilmasligi to'g'risida xabar berishi mumkin. Bunday holatda Konvensiya ushbu davlat va qo'shimcha shart kiritgan davlat o'rtasida kuchga kirmaydi.

8-modda

1. Har qanday davlat Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga yozma ravishda xabar berish orqali ushbu Konvensiyani bekor qilishi mumkin. Denonsatsiya Bosh kotib ushbu bildirishnomani olgan kundan bir yil o'tgandan keyin kuchga kiradi.

2. Konvensiyada tomonlar soni oltitadan kam bo'lib qolsa, ushbu Konvensiyaning amal qilishi denonsatsiya kuchga kirgan kundan boshlab to'xtaydi.

9-modda

Ushbu Konvensiyani talqin qilish yoki qo'llash bo'yicha har qanday ikki yoki undan ortiq Ahdlashuvchi davlatlar o'rtasida kelib chiqadigan, muzokaralar yo'li bilan hal qilinmaydigan har qanday nizo, agar ular yarashuvning boshqa tartibi to'g'risida kelishib olishmasa, mazkur nizoda tomonlardan birining talabiga binoan Xalqaro sud qaroriga taqdim etiladi.

10-modda

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zolarini va ushbu Konvensiyaning 4-moddasi 1-bandida nazarda tutilgan Tashkilotning a'zosi bo'lmagan davlatlarni xabardor qiladi:

- a) 4-moddaga muvofiq olingan imzolar va ratifikatsiya yorliqlari to'g'risida;
- b) 5-moddaga muvofiq olingan qo'shilish haqidagi deklaratsiyalar to'g'risida;
- c) 6-moddaga muvofiq ushbu Konvensiya kuchga kiradigan sana to'g'risida;
- d) 7-moddaga muvofiq olingan xabarlar va bildirishnomalar to'g'risida;
- e) 8-moddaning 1-bandiga muvofiq olingan denonsatsiya to'g'risidagi bildirishnomalar to'g'risida;

f) 8-moddaning 2-bandiga muvofiq Konvensiyaning amal qilishi to'xtatilishi to'g'risida.

11-modda

1. Ushbu Konvensiya ingliz, ispan, xitoy, rus va fransuz tillaridagi matnlari aynan bir xil bo'lib, Birlashgan Millatlar Tashkilotining arxivida saqlanadi.

2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tasdiqlangan nusxalarni Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zolariga va 4-moddaning 1-bandida nazarda tutilgan Tashkilotning a'zosi bo'lmagan davlatlarga yuborishi lozim.

XOTIN-QIZLARNI KAMSITISHNING BARCHA SHAKLLARIGA BARHAM BERISH TO'G'RISIDAGI KONVENSIYA

*Bosh Assambleyaning 1979-yil 18-dekabrda 34/180-sonli rezolyutsiyasi bilan
qabul qilingan hamda imzolash, ratifikatsiya qilish va qo'shilish uchun ochiq*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 6-maydagi
87-I-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Ushbu Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlari:

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi insonning asosiy huquqlariga, inson shaxsiyatining qadr-qimmati va qadriyatiga, erkak va xotin-qizlarning teng huquqligiga ishonchni yana qaror toptirganligini hisobga olgan holda;

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi kamsitishga yo'l qo'ymaslik tamoyilini tasdiqlaganini va barcha odamlar o'zining qadr-qimmati hamda huquqida erkin va teng bo'lib tug'ilishini, har bir inson unda e'tirof etilgan barcha huquq va erkinliklarga hech qanday farqlarsiz, shu jumladan, jinsga nisbatan ham ega bo'lishi kerakligini ma'lum qilganini hisobga olib,

Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro paktlarning ishtirokchi-davlatlariga erkak va xotin-qizlar uchun barcha iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqarolik va siyosiy huquqlardan teng foydalanish huquqini ta'minlash majburiyati yuklatilganligini hisobga olib,

erkak va xotin-qizlarning teng huquqli bo'lishiga yordam berish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va ixtisoslashtirilgan muassasalar shafeligida tuzilgan xalqaro konvensiyalarni e'tiborga olib,

shuningdek, erkak va xotin-qizlarning teng huquqli bo'lishiga yordam berish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va ixtisoslashtirilgan muassasalar tomonidan qabul qilingan rezolyutsiyalar, deklaratsiyalar va tavsiyanomalarni hisobga olib,

biroq, mana shu turli hujjatlariga qaramay, xotin-qizlarga nisbatan jiddiy kamsitilish hollari hali ham mavjudligidan tashvishlanib,

xotin-qizlarning kamsitilishi inson qadr-qimmatiga bo'lgan teng huquqlilik va hurmat qilish sabablarining buzilishiga, xotin-qizlarning erkaklar bilan bir qatorda o'z mamlakatining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ishtirok etishiga to'sqinlik qilishini, jamiyat va oila farovonligining o'sishiga halaqit berishini hamda xotin-qizlarning o'z mamlakatlari va insoniyatning manfaatlarini yo'lida imkoniyatlarini to'liq namoyon qilishini yanada qiyinlashtirishini eslatib,

qashshoqlik sharoitlarida xotin-qizlarning oziq-ovqat, sog'liqni saqlash, ta'lim, kasb tayyorgarlik va ishga joylashish imkoniyatlari, shuningdek boshqa ehtiyojlardan foydalanish imkoniyati juda kam ekanligidan tashvishlanib,

tenglik va adolatga asoslangan yangi xalqaro iqtisodiy tartibning o'rnatilishi erkaklar va xotin-qizlar o'rtasidagi tenglikni ta'minlashda sezilarli hissa qo'shishiga qat'iy ishonib,

irqiy ayirmachilik, barcha turdagi irqchilik, irqiy kamsitish, eski va yangi mustamlakachilik (kolonializm va neokolonializm), agressiya, xorijiy bosib olinish va hukmronlik hamda davlatlarning ichki ishlariga aralashishga barham berish erkaklar va xotin-qizlar huquqlarini to'la amalga oshirish uchun zarur ekanligini ta'kidlab,

xalqaro tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, xalqaro keskinlikni yumshatish, ularning ijtimoiy va iqtisodiy tizimlaridan qat'i nazar, barcha davlatlar o'rtasida o'zaro hamkorlik,

ommaviy va batamom quolsizlanish, xususan, qatiy va samarali xalqaro nazorat ostida yadroviy quolsizlanish, mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarda adolat, tenglik va o'zaro manfaatdorlik tamoyillarini qaror toptirish hamda chet el va mustamlaka hukmronligi va xorijiy istilo ostida bo'lgan xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash va mustaqillikka bo'lgan huquqini amalga oshirish, shuningdek davlatlarning milliy suvereniteti va hududiy yaxlitligini hurmat qilish ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanishga ko'maklashishini hamda buning natijasida erkaklar va xotin-qizlar o'rtasida to'liq tenglikka erishishga imkon berishini tasdiqlab,

mamlakatning to'liq rivojlanishi, butun dunyoda farovonlik va tinchlik ishi xotin-qizlarning barcha sohalarida erkaklar bilan baravar mumkin qadar ko'proq ishtirokini talab qilishiga qatiy ishonib,

xotin-qizlarning oila farovonligi va jamiyat rivojiga qo'shayotgan hozirgacha to'liq tan olinmagan hissasining ahamiyatini, onalikning ijtimoiy ahamiyatini hamda oilada va bola tarbiyasida ota-onaning o'rnini hisobga olib, ayolning nasl davomchisi sifatidagi o'zni ayol huquqlarining kamsitilishiga sabab bo'lmashligi kerakligini, chunki bolalarning tarbiyasi erkak va xotin-qizlarning hamda butun jamiyatning birgalikdagi javobgarligini talab qilishini anglab,

erkak va ayol o'rtasida to'la tenglikka erishish uchun ham erkak, ham ayolning jamiyat va oiladagi an'anaviy o'rnini o'zgartirish zarurligini yodda tutib,

Xotin-qizlarni kamsitishlarga barham berish to'g'risidagi deklaratsiyasida e'lon qilingan tamoyillarni amalga oshirish va shu maqsadda bunday kamsitishlarning barcha

shakllari va ko'rinishlariga barham berish uchun zarur choralarni ko'rishga qat'iy qaror qilib, quyidagilar to'g'risida kelishib oldilar:

I QISM

1-modda

Mazkur Konvensiyaning maqsadi uchun "xotin-qizlarga nisbatan kamsitish" tushunchasi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqarolik yoki har qanday boshqa sohada inson huquqlari va asosiy erkinliklariga erkak va xotin-qizlarning teng huquqliligi asosida xotin-qizlarning oilaviy ahvolidan qat'i nazar, ular tomonidan tan olish, foydalanish yoki amalga oshirishni bo'shashtirishga yoxud yo'qqa chiqarishga yo'naltirilgan jinsiy belgilariga ko'ra har qanday farq, istisno yoki cheklashni anglatadi.

2-modda

Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllarini qoralab, zudlik bilan barcha tegishli usullar orqali xotin-qizlarga nisbatan kamsitishga barham berish siyosatini olib borishga kelishadilar va shu maqsadda quyidagi majburiyatlarni oladilar:

a) erkaklar bilan xotin-qizlarning teng huquqlilik tamoyilini, agarda bu hozirgacha qilingan bo'lmasa, milliy Konstitutsiyaga yoki boshqa tegishli qonunchilikka kiritish va qonun hamda boshqa tegishli vositalar yordamida ushbu tamoyilni amaliyotga joriy etilishini ta'minlash;

b) xotin-qizlarga nisbatan har qanday kamsitishni taqiqlovchi tegishli qonunchilik va boshqa choralarni, jumladan, zarur bo'lganda sanksiyalarni qabul qilish;

c) vakolatli milliy sudlar va boshqa davlat muassasalarining yordami bilan xotin-qizlarni kamsitishning har qanday aktiga qarshi samarali himoya qilishni ta'minlash orqali xotin-qizlar huquqlarini erkaklar bilan tenglik asosida yuridik himoya qilish tartibini o'rnatish;

d) xotin-qizlarga nisbatan kamsitadigan biron-bir hujjatlarni yoki xatti-harakatlarni amalga oshirishdan tiyilish hamda davlat organlari va muassasalari ushbu majburiyatga muvofiq ish ko'rishlariga kafolat berish;

e) biron-bir shaxs, tashkilot yoki korxona tomonidan xotin-qizlarga nisbatan kamsitishga barham berish uchun barcha tegishli choralarni ko'rish;

f) xotin-qizlarga nisbatan kamsitishni ifodalaydigan amaldagi qonunlar, qarorlar, urf-odatlar va amaliyotni o'zgartirish yoki bekor qilish uchun barcha tegishli choralarni, jumladan, qonunchilik choralarni ko'rish;

g) o'zining jinoyat qonunchiligidagi xotin-qizlarga nisbatan kamsitishni ifodalaydigan barcha qoidalarini bekor qilish.

3-modda

Ishtirokchi-davlatlar barcha sohalarda, xususan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda xotin-qizlarning erkaklar bilan tenglik asosida inson huquqlari va asosiy erkinliklarini ro'yobga chiqarishlari hamda foydalanishlarini kafolatlash maqsadida ularni har tomonlama rivojlanishini va taraqqiyotini ta'minlash uchun barcha tegishli choralarni, jumladan, qonunchilik choralarni ko'radilar.

4-modda

1. Mazkur Konvensiya bilan belgilanganidek, ishtirokchi-davlatlar tomonidan erkaklar va xotin-qizlar o'rtasida amalda tengligini ta'minlashni tezlashtirishga yo'naltirilgan vaqtinchalik maxsus choralarni qabul qilish kamsituvchi deb hisoblanmaydi, biroq u aslo teng huquqli bo'lmagan yoki tabaqalashtirilgan andozalarning saqlanib qolishiga olib kelmasligi kerak; imkoniyatlar tengligi va teng huquqlilik munosabatining maqsadlariga erishilgandan so'ng bu choralar bekor qilinishi shart.

2. Ishtirokchi-davlatlar tomonidan onalikni himoya qilishga yo'naltirilgan maxsus choralar, jumladan, ushbu Konvensiyada mavjud bo'lgan choralarning qabul qilinishi kamsituvchi deb hisoblanmaydi.

5-modda

Ishtirokchi-davlatlar quyidagi maqsadlarda barcha tegishli choralarni qabul qiladi:

a) erkaklar va xotin-qizlar xulq-atvorining ijtimoiy va madaniy modellari jinslardan birining past bo'lishi yoki ustun bo'lishi yoxud erkak va ayol rolining bir xilligi g'oyasiga asoslangan xurofotlarga barham berish hamda urf-odatlar va boshqa barcha amaliyotlarni tugatishga erishish maqsadida o'zgartirish;

b) barcha holatlarda bolalar manfaatlarini ustun turishi sharti bilan oilaviy tarbiya o'z ichiga onalikni ijtimoiy vazifa sifatida to'g'ri anglashni hamda erkak va xotin-qizlarning o'z bolalarining tarbiyasi hamda kamoloti uchun umumiy javobgarligi e'tirof etilishini qamrab olishini ta'minlash.

6-modda

Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlar savdosi va xotin-qizlarni fohishalikka ekspluatatsiya qilishning barcha turlariga chek qo'yish uchun barcha tegishli choralarni, jumladan, qonunchilik choralarni ko'radi.

II QISM

7-modda

Ishtirokchi-davlatlar mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotida xotin-qizlarni kamsitishga barham berish yuzasidan barcha tegishli choralarni ko'radilar, xususan, xotin-qizlarga erkaklar bilan teng sharoitlarda quyidagi huquqlarni ta'minlaydilar:

a) barcha saylovlar va ommaviy referendumlarda ovoz berish hamda barcha ommaviy saylanadigan organlarga saylanish;

b) davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish hamda davlat lavozimlarini egallash, shuningdek davlat boshqaruvining barcha darajalarida hamma davlat vazifalarini amalga oshirish;

c) mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotining muammolari bilan shug'ullanuvchi nohukumat tashkilotlar va uyushmalarning faoliyatida ishtirok etish.

8-modda

Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlarning erkaklar bilan tenglik asosida va hech qanday kamsitishsiz xalqaro miqyosda o'z hukumatlari nomidan vakillik qilish hamda xalqaro tashkilotlar ishida ishtirok etish imkoniyatini ta'minlash uchun barcha tegishli choralarni ko'radi.

9-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar fuqarolikni qabul qilish, o'zgartirish yoki saqlab qolishga nisbatan xotin-qizlarga erkaklar bilan teng huquqlarni beradi. Ular, xususan, xorijlik bilan turmush qurganda ham, nikohda bo'lgan vaqtida turmush o'rtog'ining fuqaroligi o'zgarganida ham ayolning fuqaroligi o'z-o'zidan o'zgarishiga olib kelmasligini, uni fuqaroligi bo'lmagan shaxsga aylantirmasligini va turmush o'rtog'ining fuqaroligini qabul qilishga majbur qilolmasligini ta'minlaydi.

2. Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlarga o'z farzandlarining fuqaroligiga nisbatan erkaklar bilan teng huquqlar beradi.

III QISM

10-modda

Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlarga nisbatan kamsitishga barham berish, xususan, erkaklar va xotin-qizlarning tengligi asosida ularga ta'lim sohasidagi erkaklar bilan teng huquqlarini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radi:

a) shahar tumanlaridagi kabi qishloq joylarida ham barcha toifadagi o'quv muassasalarida ta'lim olish imkoniga ega bo'lish va diplom olish, kasb yoki mutaxassislikni tanlash uchun bir xil sharoitlarni yaratish, bu tenglik maktabgacha ta'lim, umumta'lim, maxsus va oliy texnik ta'limda, shuningdek kasbiy tayyorgarlikning barcha turlarida ta'minlanadi;

b) bir xil o'quv dasturlari, bir xil imtihonlar, bir xil malakali o'qituvchilar tarkibi, teng sifatli maktab xonalari va jihozlaridan foydalanish;

c) ta'lim olishning barcha bosqichlari va shakllarida erkak va xotin-qizlarning birgalikda ta'lim olishi va ushbu maqsadga erishishga ko'maklashadigan boshqa turdagi ta'lim olishni rag'batlantirish orqali, xususan, o'quv qo'llanmalari va maktab dasturlarini qayta ko'rib chiqish hamda o'qitish uslublarini moslashtirish yo'li bilan har qanday andozadagi konsepsiyani bartaraf etish;

d) ta'lim uchun stipendiya va boshqa nafaqalar olishda bir xil imkoniyatlar;

e) erkaklar va xotin-qizlarning bilimlaridagi har qanday uzilishni mumkin qadar tezroq qisqartirishga yo'naltirilgan, jumladan, katta yoshdagilar orasida savodxonlikni ommalashtirish dasturlari va funksional savodxonlik dasturini, xususan, ta'lim olishni davom ettirish dasturidan foydalanishning bir xil imkoniyatlari;

f) maktabni tugatmayotgan qizlar sonini qisqartirish hamda maktabni barvaqt tark etgan qizlar va xotin-qizlar uchun dasturlar ishlab chiqish;

g) sport va jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida faol qatnashish uchun bir xil imkoniyatlar;

h) oilalarning sog'lomligi va farovonligini ta'minlashga ko'maklashish maqsadida ta'lim xususiyatiga ega maxsus axborotlar, jumladan, oilaning katta-kichikligini rejalashtirish to'g'risidagi axborot va maslahatlardan foydalanish imkoniyati.

11-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar erkaklar va xotin-qizlarning tengligi asosida teng huquqlarini ta'minlash bilan bandlik sohasida xotin-qizlarga nisbatan kamsitishga barham berish uchun barcha tegishli choralarni ko'radi, xususan:

- a) barcha odamlarning ajralmas huquqi sifatida mehnatga bo'lgan huquqi;
- b) ishga yollanishda bir xil imkoniyatlarga ega bo'lish, shu bilan birga, ishga yollanishda bir xil tanlab olish mezonlarini qo'llash huquqi;
- c) kasb yoki ish turini erkin tanlash, lavozim bo'yicha ko'tarilish va bandlik kafolati, shuningdek shogirdlik, yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlik va muntazam qayta tayyorlashni o'z ichiga olgan mehnat qilishning barcha imtiyozlari va shart-sharoitlaridan foydalanish, kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorgarlik olish huquqi;
- d) imtiyozlar olgan holda teng mukofotlash, teng qiymatga ega bo'lgan mehnatga nisbatan teng sharoitlarga, shuningdek ish sifatini baholashga teng yondashish huquqi;
- e) ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqi, xususan, nafaqaga chiqish, ishsizlik, kasallik, nogironlik, qarilik va mehnat qobiliyatini yo'qotishning boshqa holatlarida, shuningdek haq to'lanadigan ta'tilga bo'lgan huquq;
- f) sog'liqni saqlash va xavfsiz mehnat sharoitlari, jumladan, naslni davom ettirish vazifasini saqlab qolishga bo'lgan huquqi.

2. Xotin-qizlarga nisbatan turmushga chiqqanligi yoki onaligi sababli kamsitishning oldini olish va ularga mehnat qilishga bo'lgan samarali huquqlarni kafolatlash uchun ishtirokchi-davlatlar quyidagilarni amalga oshirish uchun tegishli choralarni ko'radi:

- a) homiladorligiga yoki homiladorlik va tug'ruq bo'yicha ta'tiliga asosan ishdan bo'shatish tahdidi ostida sanksiyalar qo'llashni yoxud ishdan bo'shatish paytida oilaviy ahvoli tufayli kamsitishni taqiqlash;
- b) avvalgi ish joyini, lavozimini yoki ijtimoiy nafaqalarini yo'qotmagan holda homiladorlik va tug'ruq bo'yicha haq to'lanadigan ta'tillar yoki taqqoslama ijtimoiy nafaqalar to'lanadigan ta'tillar joriy etish;
- c) ota-onalarga oilaviy majburiyatlarini bajarishni mehnat faoliyati va jamiyat hayotidagi ishtiroki bilan birga qo'shib olib borish imkonini yaratish uchun, jumladan, bolalarni tarbiya qilish muassasalari tarmog'ini tashkil etish va kengaytirish yo'li orqali zarur qo'shimcha ijtimoiy xizmatlarni taqdim etishni rag'batlantirish;
- d) homiladorlik davrida xotin-qizlar salomatligi uchun zararli deb isbotlangan mehnat turlarida ularning alohida himoyasini ta'minlash.

3. Mazkur moddada nazarda tutilgan huquqlarni himoya qilishga taalluqli qonunchilik ilmiy-texnikaviy bilimlar asosida vaqti-vaqti bilan ko'rib chiqiladi, shuningdek zaruratga qarab qaytadan ko'rib chiqiladi, bekor qilinadi yoki kengaytiriladi.

12-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar erkaklar va xotin-qizlarning tengligi asosida tibbiy xizmatdan, xususan, oilaning katta-kichikligini rejalashtirishga taalluqli masalalarda ham foydalanishini ta'minlash maqsadida sog'liqni saqlash sohasida xotin-qizlarga nisbatan kamsitishga barham berish uchun barcha tegishli choralarni ko'radi;

2. Ishtirokchi-davlatlar ushbu moddaning 1-bandi qoidalaridan qat'i nazar xotin-qizlarni homiladorlik, tug'ruq va tug'ruqdan keyingi davrida tegishli xizmatlarni, zaruriyat tug'ilganda, bepul xizmatlarni, shuningdek homiladorlik va emizikli davrda kerakli oziq-ovqatlarni yetkazib berishni ta'minlaydilar.

13-modda

Ishtirokchi-davlatlar erkak va xotin-qizlarning tengligi asosida teng huquqlarni ta'minlash maqsadida ijtimoiy va iqtisodiy hayotning boshqa sohalarida xotin-qizlarga nisbatan kamsitishga barham berish uchun barcha tegishli choralarni ko'radi, xususan:

- a) oilaviy nafaqaga bo'lgan huquqi;
- b) zayom, ko'chmas mulk hisobiga qarz va boshqa shakldagi moliyaviy kreditlarni olishga bo'lgan huquqi;

c) dam olish bilan bog'liq tadbirlarda, sport mashg'ulotlarida va madaniy hayotning barcha sohalarida ishtirok etish huquqi.

14-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar qishloq joylarda yashovchi xotin-qizlar duch keladigan alohida muammolarni va ularning o'z oilalarining iqtisodiy farovonligini ta'minlashda muhim rol o'ynashini, shu jumladan, ularning xo'jalikning tovar bo'lmagan tarmoqlaridagi faoliyatini e'tiborga olib, mazkur Konvensiya qoidalarini qishloq joylarida yashovchi xotin-qizlarga nisbatan qo'llashni ta'minlash uchun barcha tegishli choralarni ko'radi.

2. Ishtirokchi-davlatlar erkak va xotin-qizlarning tengligi asosida ularning qish-loq hududlarini rivojlantirishdagi ishtirokini ta'minlash va bunday rivojlanishdan

foйда olishini ta'minlash maqsadida qishloq joylaridagi xotin-qizlarga nisbatan kamsitishga barham berish uchun barcha tegishli choralarni ko'radi, jumladan, bunday xotin-qizlarga quyidagi huquqlarni ta'minlaydilar:

- a) barcha darajalarda rivojlanish rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;
- b) oilaning katta-kichikligini rejalashtirish masalalari bo'yicha axborotlar, maslahatlar va xizmatlarni inobatga olgan holda tegishli tibbiy xizmatdan foydalanish;
- c) ijtimoiy sug'urta dasturlari qulayliklaridan bevosita foydalanish;
- d) funksional savodxonlikni inobatga olib barcha turdagi tayyorlov hamda rasmiy va norasmiy ta'lim olish, shuningdek ularning texnikaviy darajasini oshirish uchun barcha turdagi jamoat xizmatlaridan, qishloq xo'jalik masalalari bo'yicha maslahat berish xizmatidan foydalanish;
- e) ishga yollash yoki mustaqil mehnat faoliyati orqali iqtisodiy imkoniyatlardan teng foydalanishni ta'minlash uchun o'z-o'ziga yordam ko'rsatish guruhlar va shirkatlarni tashkil etish;
- f) jamoa faoliyatining barcha turlarida ishtirok etish;
- g) qishloq xo'jalik kreditlari va zayomlari, sotish tizimi, tegishli texnologiyalari hamda yer va agrar islohotlarida, shuningdek yerlarni qayta joylashtirish rejalarida teng maqomga erishishga ega bo'lish;
- h) tegishli turmush sharoitlaridan, ayniqsa, uy-joy sharoitlaridan, sanitariya xizmatlaridan, elektr va suv ta'minotidan, shuningdek transport va aloqa vositalaridan foydalanish.

IV QISM

15-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlarning qonun oldida erkaklar bilan tengligini tan oladilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlarga erkaklar bilan bir xil fuqarolik huquqlarini va uni amalga oshirishning bir xil imkoniyatlarini beradi. Ular, xususan, shartnomalarni tuzish va mulkni boshqarishda ularga teng huquqlar, shuningdek sudlar va tribunallarda ish ko'rishning barcha bosqichlarida ularga teng munosabatni ta'minlaydi.

3. Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlarning huquqiy egaligini cheklashda o'zining huquqiy oqibatiga ega har qanday barcha shartnomalar va boshqa barcha xususiy hujjatlarni haqiqiy emas deb hisoblaydilar.

4. Ishtirokchi-davlatlar shaxslarning ko'chib yurishi hamda yashash joyi va turar joyini tanlash erkinligiga taalluqli bo'lgan qonunchilikka nisbatan erkak va xotin-qizlarga bir xil huquqlarni taqdim etadi.

16-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlarga nisbatan nikoh va oila munosabatlariga taalluqli barcha masalalarda kamsitishga barham berish uchun barcha tegishli choralarni ko'radi, xususan, erkak va xotin-qizlarning tengligi asosida quyidagilarni ta'minlaydi:

- a) nikohga kirishishda bo'lgan bir xil huquqlar;

b) turmush o'rtog'ini erkin tanlash hamda faqatgina o'zining erkin va to'liq roziligi bilan nikohga kirishishda bo'lgan bir xil huquqlar;

c) nikoh davrida va uni bekor qilishda bir xil huquq va burchlar;

d) oilaviy sharoitidan qat'i nazar, bolalarga taalluqli bo'lgan masalalarda erkak va xotin-qizlarning ota-ona sifatida bir xil huquq va majburiyatlari; barcha vaziyatlarda bolalarning manfaati ustun turadi;

e) bolalar soni va ularning tug'ilishi o'rtasidagi oraliq to'g'risidagi masalani erkin va mas'uliyatli hal qilishda bir xil huquqlar, shuningdek bu huquqlarni amalga oshirishga imkon beradigan axborot, ta'lim olish va vositalardan foydalanishga ega bo'lish;

f) bolalarning vasiylari, homiylari, vakillari va farzandlikka oluvchilari bo'lishda yoki milliy qonunchilikda ko'zda tutilgan shunga o'xshash vazifalarni amalga oshirishda bir xil huquq va majburiyatlari; barcha vaziyatlarda bolalarning manfaati ustun turadi;

g) er va xotinning bir xil shaxsiy huquqlari, shu jumladan, ismi-sharifini, kasb va mashg'ulotni tanlash huquqi;

h) er-xotinning mol-mulkka ham bepul, ham pullik egalik qilish, sotib olish, boshqarish, foydalanish va tasarruf qilishga nisbatan bir xil huquqlari.

2. Bolani unashtirish va nikohlash yuridik kuchga emas hamda nikohdan o'tishning eng quyi yoshini aniqlash va nikohlarni fuqarolik holati dalolatnomalarida majburiy qayd etish maqsadida barcha zarur choralar, jumladan, qonunchilik choralari ko'riladi.

V QISM

17-modda

1. Mazkur Konvensiyaning amalga oshirilish jarayonini ko'rib chiqish uchun Konvensiya kuchga kirgan vaqtda o'n sakkiztadan, u ratifikatsiya qilinganidan yoki unga o'ttiz beshinchi ishtirokchi-davlat qo'shilganidan so'ng esa ushbu Konvensiya sohasini mukammal biladigan yuqori axloqiy sifatlarga va yetuk ma'lumotlarga ega bo'lgan yigirma uchta ekspertdan iborat Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berish bo'yicha qo'mitasi ta'sis etiladi (keyingi o'rinlarda – Qo'mita). Bu ekspertlar ishtirokchi-davlatlar tomonidan o'z fuqarolari ichidan saylanadilar va xususiy shaxs sifatida ish yuritadilar, bunda adolatli geografik taqsimot va sivilizatsiyaning har xil shakldagi, shuningdek asosiy huquqiy tizimlar vakillari hisobga olinadi.

2. Qo'mita a'zolari ishtirokchi-davlatlar tomonidan ko'rsatilgan ro'yxatga kiritilgan shaxslar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Har bir ishtirokchi-davlat o'zining fuqarolari orasidan bitta shaxsni taklif qilishi mumkin.

3. Mazkur Konvensiyaning kuchga kirgan kunidan boshlab olti oydan so'ng birlamchi saylovlar o'tkaziladi. Har bir saylov o'tkazilishidan kamida uch oy oldin Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi ishtirokchi-davlatlarga ikki oy ichida o'z vakillarini ko'rsatish taklifi bilan xat yo'llaydi. Bosh kotib ishtirokchi-davlatlarning ko'rsatmasi bilan shunday tarzda kiritilgan barcha shaxslarning ro'yxatini alifbo tartibida tayyorlaydi hamda bu ro'yxatni ishtirokchi-davlatlarga taqdim etadi.

4. Qo'mita a'zolari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi tomonidan chaqiriladigan va BMT Markaziy muassasalarida o'tkaziladigan ishtirokchi-davlatlar yig'ilishida saylanadilar. Ishtirokchi-davlatlarning soni uchdan ikki qismni tashkil etadigan bu yig'ilishda Qo'mitaga saylangan shaxslar ovoz berishda qatnashadigan va ishtirok etadigan ishtirokchi-davlatlar vakillarining eng ko'p va mutlaq ko'p ovozini olgan nomzodlar hisoblanadi.

5. Qo'mita a'zolari to'rt yil muddatga saylanadilar. Biroq birinchi saylovda saylangan to'qqiz a'zoning vakolat muddati ikki yil o'tishi bilan tugaydi; birinchi saylovlar o'tkazilishi bilan bu to'qqiz a'zoning familiyasi Qo'mita raisi tomonidan qur'a tashlash orqali tanlanadi.

6. Qo'mitaning besh nafar qo'shimcha a'zosini saylash o'ttiz beshinchi davlatning Konvensiyani ratifikatsiya qilganidan keyin yoki unga qo'shilganidan keyin mazkur moddaning 2, 3 va 4-bandlari

qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi. Shu tarzda saylangan ikki nafar qo'shimcha a'zoning vakolat muddati ikki yil o'tishi bilan tugaydi; bu ikki nafar qo'shimcha a'zoning familiyasi Qo'mita raisi tomonidan qur'a tashlash orqali tanlanadi.

7. Ishtirokchi-davlat ko'zda tutilmagan bo'sh o'rinlarni to'ldirish uchun Qo'mita a'zosi sifatida o'z vazifasini tugatgan ekspertning o'rniga Qo'mita ma'qullagan taqdirdagina o'z fuqarolari orasidan boshqa ekspertni tayinlaydi.

8. Qo'mita a'zolari Bosh Assambleya tomonidan tasdiqlangan mukofotlarni Qo'mita vazifasining muhimligini hisobga olgan holda Assambleya tomonidan belgilangan tartib va shartlarda Birlashgan Millatlar Tashkilotining mablag'laridan oladi.

9. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi mazkur Konvensiyaga muvofiq Qo'mitaning vazifalari samarali amalga oshirilishi uchun zarur xodim va moddiy mablag'lar bilan ta'minlaydi.

18-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar ushbu Konvensiyani qoidalarini bajarish uchun qabul qilingan qonunchilik, sud, ma'muriy yoki boshqa chora-tadbirlar to'g'risidagi va bu borada erishilgan yutuqlar haqidagi ma'ruzalarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga Qo'mita tomonidan ko'rib chiqilishi uchun taqdim etish majburiyatini oladilar:

a) manfaatdor davlat uchun mazkur Konvensiyani kuchga kirgan kundan e'tiboran bir yil ichida;

b) shundan so'ng, hech bo'lmaganda, har to'rt yilda va so'ngra, qachonki, Qo'mita bu haqda rasmiy ravishda so'raganda.

2. Ma'ruzalarda mazkur Konvensiya bo'yicha majburiyatlarni bajarish darajasiga ta'sir ko'rsatadigan omillar va qiyinchiliklar ko'rsatilishi mumkin.

19-modda

1. Qo'mita o'zining shaxsiy bajaradigan ishlar tartibi qoidalarini tasdiqlaydi.

2. Qo'mita ikki yil muddatga o'zining mansabdor shaxslarini saylaydi.

20-modda

1. Qo'mita ushbu Konvensiyaning 18-moddasiga muvofiq taqdim etilgan ma'ruzalarni ko'rib chiqish maqsadida, qoidaga ko'ra ikki haftadan oshmaydigan davr mobaynida har yili majlis o'tkazadi.

2. Qo'mitaning yig'ilishlari qoidaga ko'ra Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy muassasalarida yoki Qo'mita tomonidan belgilanadigan boshqa istalgan qulay joyda o'tkaziladi.

21-modda

1. Qo'mita har yili BMT Bosh Assambleyasiga Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash orqali o'zining faoliyati to'g'risidagi ma'ruzasini taqdim etadi hamda ishtirokchi-davlatlardan olingan ma'ruza va axborotlarni o'rganishga asoslangan umumiy xususiyatga ega taklif va tavsiyanomalarni kiritishi mumkin. Umumiy xususiyatga ega bunday taklif va tavsiyanomalar ishtirokchi-davlatlarning fikrlari bilan bir qatorda, agar ular mavjud bo'lsa, Qo'mitaning ma'ruzasiga kiritiladi.

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi Qo'mita ma'ruzalarini Xotin-qizlarning ahvoli bo'yicha komissiyasiga axborot uchun yuboradi.

22-modda

Ixtisoslashtirilgan muassasalar o'zlarining faoliyat doirasiga kiradigan ushbu Konvensiyaning bunday qoidalarini amalga oshirish haqidagi masalalarni ko'rib chiqishda vakillik qilish huquqiga ega. Qo'mita ixtisoslashtirilgan muassasalarga ularning faoliyati doirasiga kiradigan sohalarida Konvensiyani amalga oshirish haqidagi ma'ruzalarni taqdim etishni taklif qilishi mumkin.

VI QISM

23-modda

Ushbu Konvensiyada hech bir narsa erkak va xotin-qizlar o'rtasidagi teng huquqlikka erishishga ko'maklashuvchi quyida mavjud bo'lgan qoidalarga dahl qilmaydi:

- a) ishtirokchi-davlatlarning qonunchiligida; yoki,
- b) shunday davlat uchun kuchga ega bo'lgan har qanday boshqa xalqaro konvensiya, shartnoma yoki bitimda.

24-modda

Ishtirokchi-davlatlar mazkur Konvensiyada tan olingan huquqlarning to'liq amalga oshirilishiga erishish uchun milliy darajada barcha zarur choralarni ko'rish majburiyatini oladilar.

25-modda

1. Mazkur Konvensiya barcha davlatlar tomonidan imzolanishi uchun ochiqdir.
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi mazkur Konvensiyaning depozitariysi etib tayinlanadi.
3. Mazkur Konvensiya ratifikatsiya qilinishi lozim. Ratifikatsiya yorliqlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga saqlash uchun topshiriladi.
4. Mazkur Konvensiya barcha davlatlarning qo'shilishi uchun ochiqdir. Qo'shilish Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga qo'shilish to'g'risidagi hujjatni saqlash uchun topshirish orqali amalga oshiriladi.

26-modda

1. Mazkur Konvensiyani qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi iltimosnoma Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi nomiga har qanday ishtirokchi-davlatlardan birining istalgan vaqtda yozma ravishdagi xabar orqali taqdim etilishi mumkin.
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi, agar u qandaydir choralar ko'rish zarurligini e'tirof etsa, bunday iltimosnomaga nisbatan aynan qanday choralar ko'rish zarurligi to'g'risida qaror qabul qiladi.

27-modda

1. Ushbu Konvensiya yigirmanchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjatlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga saqlash uchun topshirilganidan so'ng o'ttizinchi kundan kuchga kiradi.
2. Mazkur Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan yoxud yigirmanchi ratifikatsiya yorlig'i yoki unga qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilgandan keyin unga qo'shiladigan har bir davlat uchun ushbu Konvensiyaning ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilganidan so'ng o'ttizinchi kundan kuchga kiradi.

28-modda

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi ratifikatsiya qilish yoki qo'shilish paytida davlatlar tomonidan qilingan qo'shimcha shartlarning matnini qabul qiladi hamda barcha davlatlarga tarqatadi.
2. Mazkur Konvensiyaning maqsad va vazifalariga to'g'ri kelmaydigan qo'shimcha shartlar kiritilmaydi.
3. Qo'shimcha shartlar istalgan vaqtda Bosh kotib nomiga yuborilgan tegishli bildirishnoma orqali bekor qilinishi mumkin, keyin esa u bu haqda barcha ishtirokchi-davlatlarni xabardor qiladi. Bunday bildirishnoma u olingan kundan boshlab kuchga kiradi.

29-modda

1. Mazkur Konvensiyani talqin etish yoki qo'llashga nisbatan ikki yoki bir nechta ishtirokchi-davlatlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal etilmagan har qanday bahs tomonlardan birining iltimosiga binoan hakamlik muhokamasiga yuboriladi. Agar hakamlik muhokamasi haqida ariza berilgan paytdan boshlab olti oy mobaynida tomonlar hakamlik muhokamasini tashkil etishga nisbatan kelishuvga erisholmagan bo'lsa, tomonlardan biri ushbu bahsni Sud Nizomiga muvofiq tegishli ariza berish yo'li bilan Xalqaro Sudga topshirishi mumkin.

2. Har bir ishtirokchi-davlat mazkur Konvensiyani imzolash, ratifikatsiya qilish yoki qo'shilish paytida ushbu moddaning 1-bandida ko'rsatilgan majburiyatlar bilan o'zini bog'liq deb hisoblamasligini bildirishi mumkin. Boshqa ishtirokchi-davlatlar shunga o'xshash qo'shimcha shartni qo'ygan har qanday ishtirokchi-davlatga nisbatan ushbu moddaning ko'rsatilgan bandidan kelib chiqadigan majburiyatlarni olmaydi.

3. Mazkur moddaning 2-bandiga muvofiq qo'shimcha shartlarni qo'ygan har qanday ishtirokchi-davlat istagan vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga bildirishnoma yo'llash orqali o'z qo'shimcha shartlarini olib tashlashi mumkin.

30-modda

Mazkur Konvensiyaning rus, ingliz, arab, ispan, xitoy va fransuz tillaridagi matnlari aynan bir xil bo'lib, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga saqlash uchun topshiriladi.

B. Bolalar huquqlari

BOLALARNI XALQARO O'G'IRLAB KETISHNING FUQAROLIK-HUQUQIY JIHATLARI TO'G'RISIDAGI KONVENSIYA

1980-yil 25-oktabrda Gaagada imzolangan

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 1-maydagi
629-I-son Qarori bilan ratifikatsiya qilingan*

Ushbu Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlari,
bolalarning manfaatlari ularga vasiylik qilishga taalluqli masalalarda muhim ahamiyatga ega ekanligiga qat'iy ishonch hosil qilib,

bolalarni noqonuniy ko'chirish yoki ushlab turishning zararli oqibatlaridan xalqaro miqyosda himoya qilishni va ularning zudlik bilan doimiy yashash davlatiga qaytarilishini ta'minlaydigan tartib-taomillarni belgilashni, shuningdek foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish huquqlarini himoya qilishni ta'minlash istagini bildirib,

shu maqsadda Konvensiya tuzishga qaror qilinib, quyidagi qoidalar to'g'risida kelishib oldilar:

I BOB. KONVENSIYANING AMAL QILISH SOHASI

1-modda

Ushbu Konvensiyaning maqsadlari:

a) Ahdlashuvchi davlatlardan biriga noqonuniy ravishda ko'chirilgan yoki Ahdlashuvchi davlatlardan birida ushlab turilgan bolalarning zudlik bilan qaytishini ta'minlash;

b) bir Ahdlashuvchi davlatning qonunchiligida nazarda tutilgan vasiylik va foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish huquqlariga boshqa Ahdlashuvchi davlatlarda samarali rioya etilishini ta'minlash.

2-modda

Ahdlashuvchi davlatlar o'z hududlarida Konvensiya maqsadlariga erishishni ta'minlash uchun barcha tegishli choralarni ko'radilar. Buning uchun ular o'z ixtiyorida bo'lgan eng tezkor protseduralardan foydalanadilar.

3-modda

Bolani ko'chirish yoki ushlab turish noqonuniy sifatida ko'riladi, agar:

a) har qanday shaxsga, muassasaga yoki boshqa tashkilotga berilgan vasiylik huquqlari birgalikda yoki yakka tartibda bolani ko'chirish yoki ushlab turilgunga qadar doimiy yashagan davlati qonunchiligiga muvofiq amalga oshirilgan bo'lsa;

b) ko'chirish yoki ushlab turish vaqtida ushbu huquqlar haqiqatan ham birgalikda yoki yakka tartibda amalga oshirilgan yoxud agar ko'chirish yoki ushlab turish sodir bo'lmaganda amalga oshirilgan bo'lsa.

Yuqorida (a) bandda aytib o'tilgan vasiylik huquqlari, xususan, qonunga muvofiq yoxud sud yoki ma'muriy qaror asosida yoxud ushbu davlatning qonunchiligiga ko'ra yuridik kuchga ega bo'lgan kelishuv asosida yuzaga kelishi mumkin.

4-modda

Konvensiya biron bir Ahdlashuvchi davlatda doimiy ravishda istiqomat qiluvchi har qanday bolaga bevosita vasiylik yoki foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish huquqi buzilishidan oldin qo'llaniladi. Konvensiyani qo'llash bola 16 yoshga to'lganda to'xtatiladi.

5-modda

Ushbu Konvensiya maqsadlari uchun:

- a) "vasiylik huquqlari" bolaning shaxsiyati to'g'risida g'amxo'rlik qilish bilan bog'liq huquqlarni, xususan, bolaning yashash joyini aniqlash huquqini o'z ichiga oladi;
- b) "foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish huquqlari" bolani cheklangan muddatga uning doimiy yashash joyidan boshqa joyga olib ketish huquqini o'z ichiga oladi.

II BOB. MARKAZIY ORGANLAR

6-modda

Ahdlashuvchi davlat Markaziy organga Konvensiya tomonidan yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun mazkur organi tayinlaydi.

Federal davlatlar, bir nechta huquqiy tizimlarga ega davlatlar yoki avtonom hududiy birliklarga ega davlatlar bir nechta Markaziy organlarni tayinlashi va ularni vakolatlarining hududiy chegaralarini belgilashlari mumkin. Agar davlat bir nechta Markaziy organlarni tayinlagan bo'lsa, u o'z nomidan ushbu davlat hududidagi tegishli Markaziy organga topshirishi uchun arizalar yuboriladigan Markaziy organi tayinlashi kerak.

7-modda

Markaziy organlar bir-biri bilan hamkorlik qiladi hamda bolalarning zudlik bilan qaytishini va ushbu Konvensiyaning boshqa maqsadlariga erishishni ta'minlash uchun o'z davlatlaridagi vakolatli organlar o'rtasidagi hamkorlikka ko'maklashadi.

Xususan, ular to'g'ridan-to'g'ri yoki vositachi orqali barcha zarur choralarni ko'radilar:

- a) noqonuniy ko'chirilgan yoki ushlab turilgan bolaning joylashgan joyini aniqlash;
- b) vaqtinchalik choralar ko'rish yoki choralarni ko'rishni ta'minlash orqali bolaga qo'shimcha zarar yetkazilishining yoxud manfaatdor tomonlarga zarar yetkazilishining oldini olish;
- c) bolaning ixtiyoriy qaytishini ta'minlash yoki nizoli masalalarni tinch yo'l bilan hal qilishga ko'maklashish;
- d) agar kerak bo'lsa bolaning ijtimoiy holatiga oid ma'lumotlarni almashish;
- e) Konvensiyaning qo'llanilishi bilan bog'liq qismida o'z davlatining qonunchiligi to'g'risida umumiy axborotni taqdim etish;
- f) bolaning qaytib kelishiga erishish uchun sud yoki ma'muriy protseduralarni yuritish yoki qo'zg'atishga ko'maklashish hamda kerak bo'lganda, foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish huquqining samarali amalga oshirilishini tashkil etish yoki ta'minlash choralarini ko'rish;
- g) agar vaziyat talab etsa, yuridik yordam va maslahat berishni ta'minlash yoki advokat va huquqiy masalalar bo'yicha maslahatchilarning ishtirokini ta'minlashga ko'maklashish;
- h) bolaning xavfsiz qaytishini ta'minlash uchun zarur va mos keladigan ma'muriy choralarni ko'zda tutish;

i) Konvensiyani amalga oshirish to'g'risida bir-birlarini xabardor qilish va iloji boricha uni qo'llashdagi to'siqlarni bartaraf etish.

III BOB. BOLALARNING QAYTISHI

8-modda

Bolaning vasiylik huquqlari buzilgan holda ko'chirilgan yoki ushlab turilganligini da'vo qilgan har qanday shaxs, muassasa yoki boshqa tashkilot bolani qaytishini ta'minlashga yordam so'rab bolaning doimiy yashash joyidagi Markaziy organga yoki har qanday boshqa Ahdlashuvchi davlatning Markaziy organiga murojaat qilishi mumkin.

Arizada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

a) arizachining, bolaning va bolani o'g'irlab ketgan yoki ushlab turgan shaxsning shaxsi to'g'risida ma'lumotlar;

b) agar bunday ma'lumotlar mavjud bo'lsa, bolaning tug'ilgan sanasi;

c) ariza beruvchining bolani qaytarish to'g'risidagi talabiga asoslangan holatlar;

d) bolaning turgan joyi va bola kim bilan birgaligi taxmin qilinayotgan shaxsning kimligi to'g'risida mavjud bo'lgan barcha ma'lumotlar.

Arizaga ilova qilinishi mumkin:

e) ishga tegishli har qanday qaror yoki kelishuvning tasdiqlangan nusxasi;

f) bolaning doimiy yashaydigan davlatining Markaziy organi yoki boshqa vakolatli organi yoki ushbu davlatning tegishli qonunchiligiga oid vakolatli shaxsdan kelib chiqqan guvohnoma yoki yozma ko'rsatma;

g) ishga tegishli boshqa har qanday hujjat.

9-modda

Agar 8-moddada nazarda tutilgan arizani olgan Markaziy organ bolaning boshqa Ahdlashuvchi davlatda ekanligiga ishonish uchun asoslarga ega bo'lsa, u ushbu arizani to'g'ridan-to'g'ri va darhol mazkur Ahdlashuvchi davlatning Markaziy organiga yuboradi hamda vaziyatga qarab so'rov yuborgan Markaziy organni yoki arizachini xabardor qiladi.

10-modda

Bola joylashgan davlatning Markaziy organi bolaning ixtiyoriy ravishda qaytishi uchun barcha zarur choralarni ko'rishi yoki ko'rilishini ta'minlashi shart.

11-modda

Ahdlashuvchi davlatlarning sud yoki ma'muriy organlari bolani qaytarish uchun shoshilinch choralar ko'rishlari shart.

Agar tegishli sud yoki ma'muriy organ protseduralar boshlangan kundan boshlab olti hafta mobaynida qaror qabul qilmagan bo'lsa, arizachi yoki so'rov yuborilgan davlatning Markaziy organi o'z tashabbusi bilan yoki so'rov yuborgan davlat Markaziy organining iltimosiga binoan kechikish sabablari to'g'risida tushuntirish talab qilishga haqli. Agar so'rov yuborilgan davlatning Markaziy organi tomonidan javob olingan bo'lsa, ushbu organ javobni vaziyatga qarab so'rov yuborgan davlatning Markaziy organiga yoki arizachiga yuboradi.

12-modda

Agar bola 3-moddaga muvofiq g'ayriqonuniy ravishda ko'chirilgan yoki ushlab turilgan bo'lsa va bola joylashgan Ahdlashuvchi davlatning sud yoki ma'muriy organlarida ish jarayoni boshlangan

paytda bola g'ayriqonuniy ko'chirilgan yoki ushlab turilgan kundan boshlab bir yildan kam vaqt o'tgan bo'lsa, mazkur organ bolani qaytarishni buyurishi shart.

Agar ish avvalgi bandda ko'rsatilgan bir yillik muddat tugaganidan keyin boshlangan bo'lsa ham, sud yoki ma'muriy organlar, agar bola yangi muhitga moslashganligi isbotlanmasa, bolani qaytarishni buyurishi shart.

Agar so'rov yuborilgan davlatning sud yoki ma'muriy organi bolani boshqa davlatga ko'chirilganiga ishonish uchun asosi bo'lsa, ushbu organ ish jarayonini to'xtatishi yoki bolani qaytarish to'g'risidagi arizani rad etishi mumkin.

13-modda

Avvalgi moddaning qoidalariga qaramasdan, so'rov yuborilgan davlatning sud yoki ma'muriy organi, agar bolaning qaytarilishiga to'sqinlik qiluvchi shaxs, muassasa yoki boshqa organ quyidagilarni belgilasa, bolani qaytarish to'g'risida qaror qabul qilishga majbur emas:

a) bolaga g'amxo'rlik qilgan shaxs, muassasa yoki boshqa organ bolani ko'chirilishi yoki ushlab turilishi paytida o'z vasiylik huquqiga ega bo'lmagan yoxud uning ko'chirilishi yoki ushlab turilishiga rozilik bergan yoki keyinchalik bunga e'tiroz bildirmagan; yoki

b) bolaning qaytishi unga jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazishi xavfini tug'dirishi yoxud uni boshqa yo'l bilan chidab bo'lmas holatga tushib qolishi kabi jiddiy xavf mavjud.

Sud yoki ma'muriy organ, agar bola qaytib kelishi bo'yicha e'tiroz bildirsa hamda o'zining qarorlari uchun javob berishi mumkin bo'lgan yoshga va yetuklik darajasiga yetgan bo'lsa, bolani qaytarib berishni buyurishni rad etishi mumkin.

Ushbu moddada keltirilgan holatlarni ko'rib chiqishda sud va ma'muriy organlar bolaning doimiy yashaydigan mamlakatining Markaziy organi yoki boshqa vakolatli organi tomonidan bolaning ijtimoiy holati bilan bog'liq taqdim etilgan ma'lumotlarni hisobga olishlari kerak.

14-modda

3-moddaga muvofiq g'ayriqonuniy ko'chirish yoki olib ketish sodir bo'lganligini aniqlashda so'rov yuborilgan davlatning sud yoki ma'muriy organlari to'g'ridan-to'g'ri qonunchilikni, shuningdek ushbu qonunchilikni tasdiqlash yoki xorijiy davlatning boshqa holatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan qarorlarini tan olish uchun maxsus protseduralarga murojaat qilmasdan, bola yashaydigan mamlakatda rasman tan olingan yoki tan olinmagan sud va ma'muriy qarorlarni bevosita e'tiborga olishlari mumkin.

15-modda

Ahdlashuvchi davlatning sud yoki ma'muriy organlari bolani qaytarib berish to'g'risida buyruq chiqarishdan oldin arizachidan bolaning doimiy istiqomat qiladigan mamlakati organlarining qarorini yoxud ushbu Konvensiyaning 3-moddasiga muvofiq uni olib ketish yoki ushlab turish noqonuniy bo'lganligi to'g'risidagi boshqa qarorni, agar bunday qaror yoki ajrimni ushbu davlatdan olish mumkin bo'lsa, uni taqdim etishni so'rashi mumkin. Ahdlashuvchi davlatlarning Markaziy organlari ariza beruvchiga iloji boricha bunday qaror yoki ajrimni olishda yordam berishga majburdirlar.

16-modda

3-moddaga muvofiq bolani g'ayriqonuniy topshirish yoki ushlab turish to'g'risida xabar olgandan so'ng, bola ko'chirilgan yoki u ushlab turilgan Ahdlashuvchi davlatning sud yoki ma'muriy organlari bola ushbu Konvensiyaga binoan qaytarib berilmasligi aniqlanmaguncha yoki agar xabar olingandan keyin oqilona vaqt davomida ariza berilmagan bo'lsa, vasiylik huquqining mohiyati to'g'risida qaror qabul qilishga haqli emas.

17-modda

Vasiylik to'g'risidagi qaror so'rov yuborilgan davlatga taqdim etilganligi yoki tasdiqlanishi kerakligi, ushbu Konvensiyaga muvofiq bolani qaytarishni rad etish uchun asos bo'lmaydi, biroq so'rov yuborilgan davlatning sud yoki ma'muriy organlari mazkur Konvensiyani qo'llashda bunday qarorning sabablarini hisobga olishi mumkin.

18-modda

Ushbu moddaning qoidalari sud yoki ma'muriy organlarning istalgan vaqtda bolani qaytarib berish to'g'risida buyruq berish bo'yicha vakolatlarini cheklamaydi.

19-modda

Ushbu Konvensiyaga muvofiq chiqarilgan bolani qaytarish to'g'risidagi qaror har qanday vasiylik masalasining afzalliklarini aniqlash sifatida qabul qilinishi mumkin emas.

20-modda

12-modda qoidalariga muvofiq bolani qaytarib berish, agar so'rov yuborilgan davlatning inson huquqlari va asosiy erkinliklariga tegishli bo'lgan asosiy prinsiplari bilan hal etilmasa, rad etilishi mumkin.

IV BOB. FOYDALANISH IMKONIYATIGA EGA BO'LISH HUQUQLARI

21-modda

Foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish huquqlaridan samarali oshirishni tashkil etish yoki ta'minlash choralari ko'rish to'g'risidagi ariza Ahdlashuvchi davlatlarning Markaziy organlariga bolani qaytarish to'g'risidagi ariza bilan bir xil tarzda taqdim etilishi mumkin.

Hokimiyatning Markaziy organlari tinch yo'l bilan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish huquqlarini amalga oshirishga ko'maklashish va bunday huquqlardan foydalanish bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday shartlarni bajarish maqsadida 7-moddada ko'rsatilgan hamkorlik bo'yicha majburiyatlari bilan bog'liqdir. Markaziy organlar bunday huquqlardan foydalanish yo'lidagi barcha to'siqlarni imkon qadar bartaraf etish uchun barcha choralarni ko'rishga majbur.

Markaziy organlar to'g'ridan-to'g'ri yoki vositachilar orqali bunday huquqlarni tashkil qilish yoki himoya qilish va ushbu huquqlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan shartlarga rioya qilishni ta'minlash maqsadida tartib-taomillarga qiziqtirishi yoki ko'maklashishi mumkin.

V BOB. UMUMIY QOIDALAR

22-modda

Ushbu Konvensiyani qo'llash doirasida sud yoki ma'muriy protseduralarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar va xarajatlarni to'lashni kafolatlash uchun hech qanday garov yoki boshqa to'lov talab qilinmaydi.

23-modda

Ushbu Konvensiya kontekstida qonuniylashtirish yoki boshqa shunga o'xshash rasmiyatchilik talab qilinmaydi.

24-modda

So'rov yuborilayotgan davlatning Markaziy organlariga yuborilgan har qanday bayonot, xabar yoki boshqa hujjat asl tilda tuziladi hamda so'rov yuborilayotgan davlatning rasmiy tili yoki rasmiy tilidan biriga yoxud agar buning iloji bo'lmasa, fransuz yoki ingliz tiliga tarjimai bilan ilova qilinadi.

Biroq, Ahdlashuvchi davlat 42-moddaga muvofiq qo'shimcha shart qo'yishi orqali uning Markaziy organiga yuborilgan bayonotda, xabarda yoki boshqa hujjatda frantsuz yoki ingliz tilidan foydalanishga e'tiroz bildirishi mumkin.

25-modda

Ahdlashuvchi davlatlarning fuqarolari va ushbu davlatlarda doimiy yashovchi shaxslar mazkur Konvensiyani qo'llash bilan bog'liq masalalarda boshqa har qanday Ahdlashuvchi davlatda, ular o'zlari xuddi shu sharoitlarda ushbu davlatning fuqarolari kabi yoki uning hududida doimiy yashovchi sifatida yuridik yordam va maslahat olish huquqiga ega.

26-modda

Har bir Markaziy organ ushbu Konvensiyani qo'llash xarajatlarini mustaqil ravishda o'z zimmasiga oladi.

Ahdlashuvchi davlatlarning Markaziy organlari va boshqa davlat xizmatlari ushbu Konvensiyaga muvofiq taqdim etilgan arizalar bo'yicha haq olmaydi. Xususan, ular ariza beruvchidan tartib-taomillarni amalga oshirish yoki tegishli hollarda, ishda advokat yoki huquqiy masalalar bo'yicha maslahatchilarning ishtiroki bilan bog'liq xarajatlar va chiqimlarni to'lashni talab qilishga haqli emas. Biroq, ular bolani qaytarishni ta'minlash bilan bog'liq, amalga oshirilishi kerak bo'lgan xarajatlar va chiqimlarni to'lashni talab qilish huquqiga ega.

Ammo, Ahdlashuvchi davlat 42-moddaga muvofiq qo'shimcha shart qo'yishi orqali ishda advokat yoki huquqiy masalalar bo'yicha maslahatchilarning ishtiroki yoki sud tartib-taomillarini amalga oshirish bilan bog'liq oldingi bandda keltirilgan har qanday xarajatlarni qoplamasligini e'lon qilishi mumkin, uning yuridik yordam va maslahat tizimi tomonidan undirilishi mumkin bo'lgan xarajatlar bundan mustasno.

Ushbu Konvensiyaga muvofiq sud yoki ma'muriy organlar bolani qaytarish to'g'risida buyruq yoki foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish huquqiga taalluqli ko'rsatma berilgandan so'ng, zarur hollarda, bolani ko'chirgan yoki ushlab turgan yoxud foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish huquqlarini amalga oshirishga to'sqinlik qilgan shaxsga ariza beruvchi yoki ariza beruvchi nomidan kelib chiqqan zarur xarajatlarni, shu jumladan, yo'l xarajatlari, bolaning joylashgan joyini aniqlash bilan bog'liq xarajatlar, ariza beruvchining yuridik vakili bilan bog'liq xarajatlar va bolani qaytarish bo'yicha xarajatlarni to'lashiga buyruq berishi mumkin.

27-modda

Agar ushbu Konvensiya talablari bajarilmaganligi yoki ariza etarli darajada asoslanmaganligi aniq bo'lsa, Markaziy organ bunday arizani qabul qilishga majbur emas. Bunday holda, Markaziy organ vaziyatga qarab, ariza beruvchini yoki ariza taqdim etilgan Markaziy organni darhol xabardor qiladi.

28-modda

Markaziy organ arizaga ariza beruvchi nomidan harakat qilish yoki buning uchun vakil tayinlash huquqini beruvchi yozma ishonchnoma ilova qilinishini talab qilishi mumkin.

29-modda

Ushbu Konvensiya 3 va 21-moddalarga muvofiq vakillik yoki foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish huquqlari buzilganligi to'g'risida da'vo qilgan har qanday shaxs, muassasa yoki boshqa

tashkilotning ushbu Konvensiya qoidalariga binoan yoki unga asoslanmasdan to'g'ridan-to'g'ri Ahdlashuvchi davlatning sud yoki ma'muriy organlariga murojaat qilishiga to'sqinlik qilmaydi.

30-modda

Ushbu Konvensiya shartlariga muvofiq Markaziy organlarga yoki to'g'ridan-to'g'ri Ahdlashuvchi davlatning sud yoki ma'muriy organlariga taqdim etilgan har qanday ariza hujjatlar va unga ilova qilingan yoki Markaziy organ tomonidan taqdim etilgan boshqa har qanday axborotlar bilan birgalikda Ahdlashuvchi davlatlarning sud yoki ma'muriy organlari tomonidan qabul qilinishi kerak.

31-modda

Turli hududiy birliklarda qo'llaniladigan bolalarga vasiylik qilish masalalarida ikki va undan ortiq huquqiy tizimga ega bo'lgan davlatlarga nisbatan:

a) bunday davlatda doimiy yashash joyiga har qanday ko'rsatmasi ushbu davlatning hududiy birlikdagi doimiy yashash joyiga taalluqli deb talqin qilinadi;

b) bunday davlat qonunining har qanday ko'rsatmasi bola doimiy yashaydigan ushbu davlatning tegishli hududiy birligida amal qiladigan qonun bilan bog'liq deb talqin etiladi.

32-modda

Bolalarga vasiylik qilish masalalarida turli toifadagi shaxslarga qo'llaniladigan ikki yoki undan ortiq huquqiy tizimlarga ega bo'lgan davlatga nisbatan bunday davlat qonunining har qanday ko'rsatmasi ushbu davlat qonuni bilan belgilangan huquqiy tizimga tegishli deb talqin qilinadi.

33-modda

Turli hududiy birliklarda bolalarga vasiylik qilishga nisbatan o'z huquqiy normalariga ega bo'lgan davlat, agar yagona huquqiy tizimga ega bo'lgan biron bir davlat buni amalga oshirishga majbur bo'lmasa, ushbu Konvensiyani qo'llashi shart emas.

34-modda

Ushbu Konvensiya o'zining qo'llanilish doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha 1961-yil 5-oktyabrda Voyaga etmaganlarni himoya qilishda organlarning vakolatlari va amaldagi qonunchilikka taalluqli konvensiyaga nisbatan ikkala Konvensiya tomonlari o'rtasidagi munosabatlarda ustuvorlikka ega. Ushbu Konvensiya noqonuniy ko'chirilgan yoki ushlab turilgan bolani qaytarish yoki foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish huquqini ta'minlash maqsadida kelib chiqish davlati va so'rov yuborilgan davlat o'rtasidagi munosabatlarda amal qiladigan boshqa xalqaro hujjatlarning yoki so'rov yuborilgan davlatning boshqa qonun hujjatlarining qo'llanilishini cheklamaydi.

35-modda

Ushbu Konvensiya Ahdlashuvchi davlatlar o'rtasida faqat ushbu davlatlarda kuchga kirgandan keyin sodir bo'lgan noqonuniy ko'chirish yoki ushlab turishlarga nisbatan qo'llaniladi.

Agar 39 va 40-moddalarga muvofiq ariza berilgan bo'lsa, avvalgi bandidagi Ahdlashuvchi davlatlarga ko'rsatma ushbu Konvensiya qo'llaniladigan hududiy birlikka yoki birliklarga tegishli deb tushunilishi kerak.

36-modda

Ushbu Konvensiyada hech narsa ikki yoki undan ortiq Ahdlashuvchi davlatlarni bolaning qaytishi bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan cheklovlar sonini kamaytirish maqsadida ushbu Konvensiyaning bunday cheklovlarga olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday qoidalarini qo'llamaslik to'g'risida o'zaro kelishib olishlariga to'sqinlik qilmaydi.

VI BOB. YAKUNIY QOIDALAR

37-modda

Ushbu Konvensiya xalqaro xususiy huquq bo'yicha Gaaga konferensiyasining o'n to'rtinchi sessiyasi davomida a'zolari bo'lgan davlatlar tomonidan imzolanishi uchun ochiq.

Ushbu Konvensiya ratifikatsiya qilinishi, qabul qilinishi yoki tasdiqlanishi kerak va ratifikatsiya qilish, qabul qilish yoki tasdiqlash to'g'risidagi hujjatlar Niderlandiya Qirolligi Tashqi ishlar vazirligiga saqlash uchun topshiriladi.

38-modda

Har qanday boshqa davlatlar Konvensiyaga qo'shilishi mumkin.

Qo'shilish to'g'risidagi hujjatlar Niderlandiya Qirolligi Tashqi ishlar vazirligiga saqlash uchun topshiriladi.

Konvensiya, unga qo'shilgan davlat uchun qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilganidan keyin uchinchi kalendar oyining birinchi kunidan kuchga kiradi.

Qo'shilish faqat qo'shilgan davlat va qo'shilishni tan olishi to'g'risida e'lon qilgan Ahdlashuvchi davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda kuchga kiradi. Bunday bayonot qo'shilganidan so'ng ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan, qabul qilgan yoki tasdiqlagan Ahdlashuvchi davlat tomonidan ham qilinishi kerak. Bu bayonot Niderlandiya Qirolligi Tashqi ishlar vazirligiga saqlash uchun topshiriladi; mazkur vazirlik diplomatik kanallar orqali har bir Ahdlashuvchi davlatga tasdiqlangan nusxasini yuboradi.

Konvensiya, unga qo'shilgan davlat va qo'shilishni e'tirof etgani to'g'risida bayonot bergan davlat o'rtasida e'tirof etish to'g'risidagi bayonot saqlash uchun topshirilganidan keyin uchinchi kalendar oyining birinchi kunidan kuchga kiradi.

39-modda

Har qanday davlat imzolash, ratifikatsiya qilish, qabul qilish, tasdiqlash yoki qo'shilish paytida ushbu Konvensiya xalqaro munosabatlar uchun javobgar bo'lgan barcha hududlarda yoxud ularning bir yoki bir nechtasida joriy etilishini bayon etishi mumkin. Bunday bayonot mazkur davlat uchun Konvensiya kuchga kirgan sanadan boshlab kuchga kiradi.

Bunday bayonot, shuningdek har qanday keyingi amal qilish doirasining kengayishi to'g'risida Niderlandiya Qirolligi Tashqi ishlar vazirligi xabardor qilinadi.

40-modda

Agar Ahdlashuvchi davlat ushbu Konvensiya bilan tartibga solinadigan masalalarga nisbatan turli xil huquqiy tizimlar qo'llaniladigan ikki yoki undan ortiq hududiy birliklarga ega bo'lsa, mazkur davlat imzolash, ratifikatsiya qilish, qabul qilish, tasdiqlash yoki qo'shilish paytida ushbu Konvensiya uning barcha hududiy birliklarida yoki faqat bitta yoxud bir nechtasida joriy etiladi deb bayonot berishi mumkin va bu bayonotni istalgan vaqtda yangi bayonot berish orqali o'zgartirishi mumkin.

Har bir bunday bayonot to'g'risida Niderlandiya Qirolligi Tashqi ishlar vazirligi xabardor qilinadi hamda ushbu bayonotda Konvensiya qamrab olgan hududiy birliklar aniq ko'rsatilishi kerak.

41-modda

Agar Ahdlashuvchi davlat ijro etuvchi, sud va qonunchilik vakolatlari davlat tarkibidagi markaziy va hokimiyatning boshqa organlari o'rtasida taqsimlanadigan boshqaruv shakliga ega bo'lsa, bunday davlatda vakolatlarining ichki taqsimlanishiga nisbatan ushbu Konvensiyaning imzolanishi, ratifikatsiya qilinishi, qabul qilinishi yoki tasdiqlanishi yoxud unga qo'shilish yoki 40-moddaga asoslanib qilingan bayonot ta'sir ko'rsatmaydi.

42-modda

Har qanday davlat ratifikatsiya qilish, qabul qilish, tasdiqlash yoki qo'shilish paytidan kechiktirmasdan yoxud 39 yoki 40-moddalar asosida qilingan bayonot paytida 24-modda va 26-moddaning uchinchi bandida nazarda tutilgan bir yoki ikkala shartlarni qo'yishi mumkin. Boshqa hech qanday shartlashishga yo'l qo'yilmaydi.

Har qanday davlat istalgan vaqtda qo'ygan shartlarni olib tashlashi mumkin. Bunday olib tashlash to'g'risida Niderlandiya Qirolligi Tashqi ishlar vazirligi xabardor qilinadi.

Shartlashish oldingi bandeda ko'rsatilgan xabarnomadan keyin uchinchi kalendar oyining birinchi kunidan o'z kuchini yo'qotadi.

43-modda

Ushbu Konvensiya 37 va 38-moddalarda nazarda tutilgan ratifikatsiya qilish, qabul qilish, tasdiqlash yoki qo'shilish to'g'risidagi uchinchi hujjat saqlash uchun topshirilganidan keyin uchinchi kalendar oyining birinchi kunidan kuchga kiradi.

Shundan so'ng Konvensiya kuchga kiradi:

a) ratifikatsiya qilish, qabul qilish, tasdiqlash yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilganidan keyin uchinchi kalendar oyining birinchi kunidan uni ratifikatsiya qilgan, qabul qilgan, tasdiqlagan yoki keyinchalik unga qo'shilgan har bir davlat uchun;

b) 39 yoki 40-moddalarga muvofiq Konvensiya qamrab olgan hududlar yoki hududiy birliklar uchun ushbu moddalarda nazarda tutilgan xabarnomadan keyin uchinchi kalendar oyining birinchi kunidan.

44-modda

43-moddaning 1-bandiga muvofiq Konvensiya kuchga kirgan sanadan boshlab besh yil davomida, shu jumladan, keyinchalik uni ratifikatsiya qilgan, qabul qilgan, tasdiqlagan yoki unga qo'shilgan davlatlar uchun o'z kuchida qoladi.

Konvensiyaning amal qilishi, agar denonsatsiya qilinmagan bo'lsa, har besh yilda avtomatik ravishda yangilanadi.

Har bir denonsatsiya to'g'risidagi bildirishnoma besh yillik muddat tugashidan kamida olti oy oldin Niderlandiya Qirolligi Tashqi ishlar vazirligiga yuboriladi. U Konvensiya qo'llaniladigan muayyan hududlar yoki hududiy birliklar bilan cheklanishi mumkin.

Denonsatsiya faqat u haqida xabar bergan davlatga nisbatan amal qiladi. Konvensiya boshqa Ahdlashuvchi davlatlar uchun o'z kuchida qoladi.

45-modda

Niderlandiya Qirolligi Tashqi ishlar vazirligi xalqaro xususiy huquq bo'yicha Gaaga konferensiyasiga a'zo davlatlarni va 38-moddaga muvofiq qo'shilgan davlatlarni quyidagilar haqida xabardor qiladi:

1) 37-moddada eslatib o'tilgan imzolash, ratifikatsiya qilish, qabul qilish va tasdiqlash to'g'risida;

2) 38-moddada eslatib o'tilgan qo'shilishlar to'g'risida;

3) 43-moddaga muvofiq Konvensiyaning kuchga kirish sanasi to'g'risida;

4) 39-moddaga muvofiq qamrov doirasini kengaytirish to'g'risida;

5) 38 va 40-moddalarda eslatib o'tilgan bayonotlar to'g'risida;

6) 24-modda va 26-moddaning uchinchi bandida eslatib o'tilgan qo'shimcha shartlar, shuningdek 42-moddada eslatib o'tilgan ularni olib tashlash to'g'risida;

7) 44-moddada eslatib o'tilgan denonsatsiya to'g'risida.

BOLA HUQUQLARI TO'G'RSIDAGI KONVENSIYA

*BMT Bosh Assambleyasining 1989-yil 20-noyabrda
44/25-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabrda
757–XII-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

MUQADDIMA

Ushbu Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlari,

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavida e'lon qilingan prinsiplarga muvofiq, jamiyat barcha a'zolarining o'ziga xos bo'lgan qadr-qimmat, teng va ajralmas huquqlari yer yuzasida erkinlik, adolat va tinchlikni ta'minlashning asosi ekanligi e'tirof etilganini hisobga olib,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqlari Ustavda insonning asosiy huquqlariga, inson shaxsining sha'ni va qadr-qimmatiga bo'lgan o'z ishonchlarini tasdiqlaganliklari hamda ijtimoiy taraqqiyot va turmush sharoitlarini yaxshilash borasida ko'maklashishga ahd qilganliklarini e'tiborga olib,

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hamda inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda har bir inson irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, tug'ilishi yoki boshqa holatlar bilan bog'liq belgilariga ko'ra har qanday tafovutdan qat'i nazar, mazkur hujjatlarda ko'rsatib qo'yilgan huquq va erkinliklarga ega bo'lishini e'lon qilganligi va rozilik bildirganligini e'tirof etib,

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida bolalar alohida g'amxo'rlik va yordam huquqiga egadirlar, deb e'lon qilganligini eslatib,

jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblangan oila va tabiiy muhitga uning barcha a'zolari, ayniqsa, bolalar o'sishi va farovonligi uchun jamiyat doirasidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga to'liq oladigan bo'lishida zarur himoya va yordam bilan ta'minlanishi lozim ekanligiga ishonch hosil qilgan holda,

bolaning shaxsi sog'lom va har tomonlama uyg'unlashgan holda kamoloti uchun u oila g'amxo'rligida, baxt, mehr-muhabbat va ongli tushunish vaziyatida o'sishi zarurligini e'tirof etib, bola jamiyatda mustaqil hayotga to'la tayyorlanishi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavida e'lon qilingan g'oyalar ruhida, ayniqsa, tinchlik, qadr-qimmat, sabr, erkinlik, tenglik va birdamlik ruhida tarbiyalanishi lozimligini hisobga olib,

bolani mana shunday alohida himoya qilish zarurligi 1924-yilgi Bola huquqlari to'g'risidagi Jeneva deklaratsiyasida va 1959-yil 20-noyabrda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Bola huquqlari deklaratsiyasida ko'zda tutilganligini va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda (23- va 24-moddalarda), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda (10-modda), shuningdek ixtisoslashgan muassasalar hamda bolalarning farovonligi masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlarning Nizomlari va tegishli hujjatlarida e'tirof etilganligini e'tiborga olib,

Bola huquqlari deklaratsiyasida ko'rsatib o'tilganidek, "bola, jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetishmagan bo'lsa, maxsus muhofaza va g'amxo'rlikka, jumladan, tug'ilguncha va tug'ilgandan keyin tegishli huquqiy himoyaga muhtoj" ekanligini e'tiborga olib,

Ijtimoiy va huquqiy tamoyillar to'g'risidagi deklaratsiyaning bolalar himoyasi va farovonligi, ayniqsa, bolalarni milliy va xalqaro darajalarda tarbiyalashga berish hamda asrab olish paytidagi himoyasi va farovonligiga doir qoidalariga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Voyaga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari ("Pekin qoidalari") hamda Favqulodda holatlarda va qurolli mojarolar davrida ayollar va bolalarni himoya qilish to'g'risidagi deklaratsiya qoidalariga tayanib,

jahondagi barcha mamlakatlarda nihoyatda og'ir sharoitlarda yashayotgan bolalar borligi hamda ular alohida e'tiborga muhtoj ekanliklarini e'tirof etib,

bolaning himoya qilinishi va uyg'un ravishda rivojlanishi uchun har bir xalqning an'analari va madaniy qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etishini munosib tarzda hisobga olib,

har bir mamlakatda, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalarning turmush sharoitlarini yaxshilash uchun xalqaro hamkorlik qilishning muhimligini e'tirof etib,

quyidagilar haqida kelishib oldilar:

I QISM

1-modda

Ushbu Konvensiyaning maqsadlari uchun 18 yoshga to'lmagan har bir inson zoti, agar ushbu bolaga nisbatan qo'llaniladigan qonunga ko'ra erta voyaga yetmagan bo'lsa, bola hisoblanadi.

2-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar o'z yurisdiksiyasi doirasida bo'lgan har bir bola uchun, hech qanday kamsitishlarsiz, irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, bolaning sog'ligi va tug'ilishi, uning ota-onasi yoki qonuniy vasiysi yoxud har qanday boshqa holatlardan qat'i nazar, ushbu Konvensiyada nazarda tutilgan barcha huquqlarni hurmat qiladilar hamda ularni ta'minlab beradilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar bola, uning ota-onasi, qonuniy vasiysi yoki boshqa oila a'zolarining qarashlari yoki e'tiqodida o'z ifodasini topadigan maqom, faoliyat asosida kamsitish yoki jazolashning barcha shakllaridan bolani himoya qilishni ta'minlash uchun hamma zarur choralarni ko'radilar.

3-modda

1. Bolalarga nisbatan barcha xatti-harakatlarda, ular ijtimoiy ta'minot masalalari bilan shug'ullanuvchi davlat yoki xususiy muassasalar, sudlar, ma'muriy yoki qonun chiqaruvchi organlar tomonidan sodir etiladimi-yo'qmi, bundan qat'i nazar, bolaning manfaatlarini yaxshiroq ta'minlanishiga birinchi darajali e'tibor beriladi.

2. Ishtirokchi-davlatlar o'z zimmasiga bolani, uning ota-onasi, vasiysi yoki qonun bo'yicha unga javobgar bo'lgan boshqa shaxslarning huquqlari va majburiyatlarini e'tiborga olgan holda, farovonligi uchun zarur bo'lgan himoya va g'amxo'rlik bilan ta'minlash majburiyatini oladi hamda ana shu maqsadda barcha qonuniy va ma'muriy choralarni ko'radi.

3. Ishtirokchi-davlatlar bolalarga g'amxo'rlik qilish yoki ularni himoya qilish uchun mas'ul hisoblangan muassasalar, xizmatlar va organlar vakolatli organlar tomonidan belgilab qo'yilgan normalarga, xususan, xavfsizlik va sog'liqni saqlash sohasida hamda ulardagi xodimlarning soni va ishga yaroqliligi, shuningdek vakolatli nazorat olib borishi nuqtai nazaridan javob berishlarini ta'minlaydi.

4-modda

Ishtirokchi-davlatlar ushbu Konvensiyada e'tirof etilgan huquqlarni amalga oshirish uchun barcha zarur qonuniy, ma'muriy va boshqa choralarni ko'radi. Ishtirokchi-davlatlar bunday choralarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga nisbatan o'zlarida mavjud imkoniyatlarning eng yuqori doirasida hamda zarur bo'lgan hollarda, xalqaro hamkorlik doirasida ko'radi.

5-modda

Ishtirokchi-davlatlar ota-onaning va tegishli holatlarda kengaytirilgan oila a'zolari yoki mahalliy urf-odatlarida ko'zda tutilganidek, jamoaning vasiylar yoki qonun bo'yicha bola tarbiyasi uchun javobgar bo'lgan boshqa shaxslarning ushbu Konvensiyada e'tirof etilgan huquqlarni amalga oshirishda munosib darajada bolani boshqarish va unga rahbarlik qilish hamda bu ishni bolaning rivojlanayotgan qobiliyatlariga muvofiq bajarishdagi mas'uliyati, huquq va majburiyatlarini hurmat qiladilar.

6-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar har bir bola yashash uchun ajralmas huquqqa ega ekanligini e'tirof etadilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar bolaning omon yashashi va sog'lom rivojlanishi uchun eng yuqori darajada imkoniyat yaratadilar.

7-modda

1. Bola tug'ilgan zahoti ro'yxatga olinadi hamda tug'ilgan daqiqasidan boshlab ism va fuqarolikni olish huquqiga ega, shuningdek iloji boricha, ota-onasini bilish va ularning g'amxo'rlik qilishlari huquqiga ega.

2. Ishtirokchi-davlatlar bunday huquqlarni o'zlarining milliy qonunchiligiga muvofiq amalga oshirilishini hamda bu sohadagi tegishli xalqaro hujjatlarga asosan o'zlarining majburiyatlari, xususan, agar bola boshqa fuqarolikka ega bo'lmagan taqdirda bajarilishini ta'minlaydilar.

8-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar qonunda nazarda tutilganidek, bolaning o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, fuqaroligi, ismi va oilaviy aloqalarini saqlab qolish huquqini hurmat qilish, qonunga xilof ravishda aralashuvga yo'l qo'ymaslik majburiyatini oladilar.

2. Agar bola o'ziga xoslik elementlarining bir qismi yoki barchasidan noqonuniy tarzda mahrum etilgan bo'lsa, ishtirokchi-davlatlar uning bu xususiyatlari tezroq tiklanishi uchun zarur yordam va himoyani ta'minlaydi.

9-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bola o'z ota-onasidan ularning xohishlariga zid ravishda ayrilib qolmasligini ta'minlaydilar, vakolatli organlar sud qaroriga ko'ra, qo'llanilgan qonun va tartib-taomillarga muvofiq bunday ayrilish bolaning eng yaxshi manfaatlariga yo'lida zarurligini aniqlagan holatlar bundan mustasno. Bunday ajrim, masalan, ota-onalar bolaga shafqatsiz munosabatda bo'lgan yoki u to'g'risida g'amxo'rlik qilmagan yoxud ota-onalar alohida yashayotgan va bolaning yashash joyiga nisbatan qaror qabul qilishi kerak bo'lgan u yoki bu aniq holatda zarur bo'lishi mumkin.

2. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq holda ishni har qanday sharoitda ko'rib chiqish jarayonida barcha manfaatdor tomonlarga muhokamada qatnashish va o'z nuqtai nazarini bayon qilish imkoniyati beriladi.

3. Ishtirokchi-davlatlar ota-onasining bittasi yoki har ikkalasidan ham ayrilgan bolaning ular bilan muntazam shaxsiy munosabatlar va to'g'ridan-to'g'ri aloqalar bog'lab turish huquqini hurmat qiladilar, bunday munosabatlar bolaning eng yaxshi manfaatlariga zid keladigan holatlar bundan mustasno.

4. Ishtirokchi-davlat tomonidan qabul qilingan biror-bir qaror, masalan, hibsga olish, qamash, surgun qilish, deportatsiya yoki ota-onadan bittasi yoxud ikkalasining ham yoki bolaning o'limi (ana shu shaxs davlat ixtiyorida bo'lgan paytda har qanday sababga ko'ra ro'y bergan o'lim ham shunga kiradi) tufayli sodir bo'lgan bo'lsa, ishtirokchi-davlat ota-onaga, bolaga yoki, agar zarurat

tug'lsa, oilaning boshqa a'zosiga ularning iltimosiga binoan oilaning yo'qolgan a'zosi (a'zolari yashab turgan joy) haqida, agar bu bolaning farovonligiga ziyon keltirmaydigan bo'lsa, zarur axborotni yetkazib beradi. Ishtirokchi-davlatlar bunday iltimosni qondirish o'z-o'zidan tegishli shaxs (shaxslar) uchun noxush oqibatlarga olib kelmasligini ta'minlaydilar.

10-modda

1. 9-moddaning 1-bandi bo'yicha ishtirokchi-davlatlarning majburiyatiga muvofiq bola yoki uning ota-onasi oilani birlashtirish maqsadida ishtirokchi-davlatga kirish yoxud undan chiqish uchun bergan ariza ishtirokchi-davlatlar tomonidan ijobiy, insonparvarlik va tezkorlik bilan ko'rib chiqilishi kerak. Ishtirokchi-davlatlar bunday iltimoslar arizachilar va ularning oila a'zolari uchun noxush oqibatlar keltirib chiqarmasligini ta'minlaydi.

2. Ota-onasi turli davlatlarda yashayotgan bola alohida holatlardan tashqari, ota-onaning har ikkalasi bilan muntazam ravishda shaxsiy munosabatlar va to'g'ridan-to'g'ri aloqalar bog'lab turish huquqiga ega. Ana shu maqsadda 9-moddaning 2-bandi bo'yicha ishtirokchi-davlatlarning majburiyatlariga muvofiq ishtirokchi-davlatlar bolaning va ota-onasining har qanday mamlakatni tark etish, jumladan, o'z mamlakatini tashlab ketish va unga qaytib kelish huquqini hurmat qiladi. Har qanday mamlakatni tark etish huquqiga nisbatan qonunda belgilab qo'yilgan va davlat xavfsizligini, jamoat tartibini (ordre public), aholining sog'lig'i va ma'naviyati hamda boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini saqlash uchun zarur hisoblangan, ushbu Konvensiyada e'tirof etilgan boshqa huquqlarga mos tushadigan cheklashlarga amal bo'ladi.

11-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolalarning g'ayriqonuniy ravishda ko'chirilishiga va chet eldan qaytmasligiga qarshi kurash olib borish uchun chora-tadbirlar ko'radilar.

2. Ushbu maqsadda ishtirokchi-davlatlar ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama bitimlar tuzilishiga yoxud amaldagi bitimlarga qo'shilishga ko'maklashadilar.

12-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar o'z qarashlarini shakllantirishga qodir bolaga shu qarashlarni bolaga taalluqli barcha masalalar bo'yicha erkin ifoda etish huquqini ta'minlaydilar, zero bolaning yoshi va yetukligiga muvofiq, uning qarashlariga munosib darajada e'tibor beriladi.

2. Ushbu maqsadda bolaga, xususan, bolaga ta'sir ko'rsatadigan har qanday sud yoki ma'muriy muhokamada bevosita yoxud vakil yoki tegishli organ orqali milliy qonunchilikning protsessual normalarida nazarda tutilgan tartibda eshilitish imkoniyati beriladi.

13-modda

1. Bola o'z fikrini erkin ifodalash huquqiga ega: bu huquq har qanday turdagi axborot va g'oyalarni chegarasidan qat'i nazar, og'zaki, yozma yoki bosma shaklda, san'at asari ko'rinishida yoki bolaning tanloviga ko'ra boshqa vositalar yordamida izlash, olish va uzatish erkinligini o'z ichiga oladi.

2. Bunday huquqning amalga oshirilishi ba'zi cheklashlarga duch kelishi mumkin, biroq bunday cheklashlar faqat qonunda nazarda tutilgan va zarur bo'lgan cheklashlar bo'lishi mumkin, bular quyidagilar uchun:

a) boshqa shaxslarning huquqlari va obro'sini hurmat qilish uchun;

b) davlat xavfsizligi yoki jamoat tartibini (ordre public) yoxud aholining sog'lig'i yoki ma'naviyatini muhofaza qilish uchun.

14-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaning fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqini hurmat qiladilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar ota-onaning hamda tegishli holatlarda qonuniy vasiylarning bolaga uning rivojlanayotgan qobiliyatlariga muvofiq keladigan usul orqali bola huquqini amalga oshirishda rahbarlik qilish huquqi va majburiyatlarini hurmat qiladilar.

3. O'z dini yoki e'tiqodiga amal qilish erkinligi faqat qonunda belgilangan hamda davlat xavfsizligi, jamoat tartibi, aholining ma'naviyati va sog'lig'ini muhofaza qilish yoki boshqa shaxslarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun zarur bo'lgan cheklashlarga duch kelishi mumkin.

15-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaning uyushmalar va tinch yig'ilishlar erkinligiga bo'lgan huquqini e'tirof etadilar.

2. Ushbu huquqning amalga oshirilishiga nisbatan qonunga muvofiq qo'llaniladigan va demokratik jamiyatda davlat xavfsizligi yoki jamiyat xavfsizligi, jamoat tartibi (ordre public) manfaatlari yo'lida, aholining sog'lig'i yoki ma'naviyatini saqlash, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun zarur bo'lgan cheklashlardan tashqari, biror-bir cheklashlar qo'llanilmaydi.

16-modda

1. Hech bir bola uning shaxsiy hayot, oilaviy hayot, uy-joy daxlsizligi yoki yozishmalar maxfiyligiga bo'lgan huquqining amalga oshirilishiga o'zboshimchalik bilan yoki qonunga zid ravishda aralashish yoxud uning sha'ni va obro'siga g'ayriqonuniy tajovuz qilish obyekti bo'lishi mumkin emas.

2. Bola ana shunday aralashishlar yoki tajovuz qilishlardan qonun bilan himoya qilinish huquqiga ega.

17-modda

Ishtirokchi-davlatlar ommaviy axborot vositalarining muhim rolini e'tirof etadilar hamda bolaning turli milliy va xalqaro manbalardan olingan axborotlar hamda materiallari, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy farovonlikka, shuningdek bolaning sog'lom, jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ko'maklashishga qaratilgan axborotlar va materiallardan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi. Shu maqsadda ishtirokchi-davlatlar:

a) ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy va madaniy yo'nalishdagi hamda 29-modda ruhidagi bola uchun foydali axborot va materiallarni tarqatishini rag'batlantiradilar;

b) turli xil madaniy, milliy va xalqaro manbalardan bunday axborot va materiallarni tayyorlash, ayirboshlash hamda tarqatish sohasidagi xalqaro hamkorlikni rag'batlantiradilar;

c) bolalar adabiyotini nashr etish va tarqatishni rag'batlantiradilar;

d) ommaviy axborot vositalarining qandaydir ozchilikni tashkil qiluvchi guruh yoki tub aholiga mansub bolaning til ehtiyojlariga alohida e'tibor berishni rag'batlantiradilar;

e) 13- va 18-moddalarni hisobga olgan holda bolaning farovonligiga zarar yetkazadigan axborot va materiallardan uni himoya qilishning tegishli prinsiplarini ishlab chiqishni rag'batlantiradilar.

18-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bola tarbiyasi va rivojlanishi uchun ota-onaning umumiy va bir xil javobgarligi tamoyilining e'tirof etilishini ta'minlashga qaratilgan barcha mumkin bo'lgan sa'y-harakatlarni amalga oshiradilar. Ota-ona yoki tegishli holatlarda qonuniy vasiylar bolaning tarbiyasi va rivojlanishi uchun asosiy javobgar bo'ladilar. Bolaning eng yaxshi manfaatlari ularning asosiy g'amxo'rligi predmeti hisoblanadi.

2. Ishtirokchi-davlatlar ushbu Konvensiyada bayon qilingan huquqlarning amalga oshirilishini kafolatlash va unga ko'maklashish maqsadida ota-ona va qonuniy vasiylarga bola tarbiyasi

bo'yicha majburiyatlarini bajarishlariga tegishli yordam ko'rsatadilar hamda bolalar muassasalari tarmog'ining rivojlanishini ta'minlaydilar.

3. Ishtirokchi-davlatlar ota-onasi ishlaydigan bolalar uchun mo'ljallangan xizmatlar hamda bolalar parvarish qilinadigan muassasalardan ularning foydalanish huquqiga ega bo'lishlarini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radilar.

19-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolani ota-ona, qonuniy vasiylar yoki bolaga g'amxo'rlik qiluvchi har qanday boshqa shaxs tomonidan jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlik, haqoratlash yoki suiiste'mollik, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik yoki e'tiborsizlik, qo'pol muomala yoki ekspluatatsiya qilish, jumladan, jinsiy zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish maqsadida hamma zarur qonuniy, ma'muriy, ijtimoiy va ma'rifiy chora-tadbirlarni ko'radi.

2. Bunday himoya choralari, kerak bo'lganda, bola va unga g'amxo'rlik qilayotgan shaxslarga zarur qo'llab-quvvatlashni taqdim etish maqsadida ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish uchun, shuningdek bola bilan yuqorida ko'rsatilganidek shafqatsizlarcha munosabatda bo'lish hollari munosabati bilan ogohlantirish va aniqlash, xabar berish, ko'rib chiqish, tergov qilish, davolashga yuborish va shundan keyingi choralarning boshqa shakllarini amalga oshirish, jumladan, zarur bo'lganda, sud ishini boshlash uchun samarali tartib-taomillarni o'z ichiga oladi.

20-modda

1. O'zining oila g'amxo'rligidan vaqtincha yoki doimiy mahrum bo'lgan yoki o'zining eng yaxshi manfaatlari yo'lida bunday g'amxo'rlikda qola olmaydigan bola davlat tomonidan ko'rsatiladigan alohida himoya va yordamni olish huquqiga egadir.

2. Ishtirokchi-davlatlar o'z milliy qonunlariga muvofiq bolani parvarish qilishning almashtirilishini ta'minlaydilar.

3. Bolani bunday parvarishlash, jumladan, islom shariatiga bo'yicha "kafolat"ga tarbiyaga berishni, asrab olishni yoki zarurat bo'lganda, bolalar boqiladigan tegishli muassasalarga joylashtirishni o'z ichiga oladi. Parvarishni almashtirish turlari ko'rib chiqilayotganda bola tarbiyasidagi vorislikning maqsadga muvofiqligi hamda uning etnik kelib chiqishi, diniy va madaniy mansubligi, ona tili yetarli darajada hisobga olinishi lozim.

21-modda

Bola asrab olish tizimining mavjudligini e'tirof etgan yoki hal qiladigan ishtirokchi-davlatlar bolaning eng yaxshi manfaatlari birinchi navbatda hisobga olinishini ta'minlaydilar, ular:

a) bolani asrab olish faqat qo'llaniladigan qonun va tartib-taomillarga muvofiq hamda barcha ishga taalluqli va ishonchli axborot asosida bolaning ota-ona, qarindoshlar va qonuniy vasiylariga nisbatan maqomiga qarab, agar talab etilsa, manfaatdor shaxslar zarur bo'lishi mumkin bo'lgan maslahat asosida asrab olish uchun o'zlarining ongli roziliklarini berishlarini aniqlaydigan vakolatli hokimliklar tomonidan hal etilishini ta'minlaydilar;

b) boshqa mamlakatda bolani asrab olish, agar bolani tarbiyaga topshirish yoki uning tarbiyasini ta'minlay oladigan yoxud asrab oladigan oilaga joylashtirish mumkin bo'lmasa, agar bolani kelib chiqishi mamlakatida biron bir munosib parvarish bilan ta'minlashning iloji bo'lmasa, bolani parvarish qilishning muqobil usuli sifatida qaralishi mumkinligini e'tirof etadilar;

c) bola boshqa mamlakatda asrab olingan taqdirda xuddi mamlakat ichkarisida bolani asrab olishga nisbatan qo'llaniladigan kafolat va normalar bir xil qo'llanilishini ta'minlaydilar;

d) bola boshqa mamlakatda asrab olingan taqdirda bolaning joylashtirilishi shu ish bilan bog'liq shaxslarga o'zini oqlamagan moliyaviy foyda keltirmasligini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'radilar;

e) zarur holatlarda ushbu moddaning maqsadlariga ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartlashuvlar yoki bitimlar tuzish yo'li bilan erishishga ko'maklashadilar hamda shu asosda

bolaning boshqa mamlakatda joylashuvi vakolatli hokimiyatlar yoki organlar tomonidan amalga oshirilishini ta'minlashga intiladilar.

22-modda

1) Ishtirokchi-davlatlar qochoq maqomini olishni istagan yoki qochoq hisoblangan bolani qo'llaniladigan xalqaro yoki ichki huquq va tartib-taomillarga muvofiq ham unga hamroh bo'layotgan va bo'lmayotgan ota-onasi yoki har qanday boshqa shaxsga ushbu Konvensiyada va inson huquqlari bo'yicha boshqa xalqaro hujjatlarda yoki ko'rsatib o'tilgan davlatlar ishtirokchilari hisoblangan insonparvarlik hujjatlarida bayon qilingan qo'llaniladigan huquqlardan foydalanishda tegishli himoya va insonparvarlik yordam bilan ta'minlash uchun zarur choralarini ko'radilar.

2. Ushbu maqsadda ishtirokchi-davlatlar, o'zlari zarur deb topgan holatlarda, bunday bolani himoya qilish, unga yordam ko'rsatish hamda har qanday qochoq bolaning ota-onasi yoki oilasining boshqa a'zolarini izlashda, uning o'z oilasiga qo'shilishi uchun zarur bo'lgan axborotni olish bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa vakolatli hukumatlararo tashkilotlar yoki Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlik qilayotgan nodavlat tashkilotlarining har qanday sa'y-harakatlariga ko'maklashadilar. Ota-onasi yoki oilasining boshqa a'zolarini topib bo'lmagan holatlarda bu bolaga, ushbu Konvensiyada nazarda tutilganidek biror-bir sababga ko'ra o'zining oilaviy qurshovidan doimiy yoki vaqtincha mahrum bo'lgan har qanday boshqa bolaga ko'rsatiladigani kabi himoya taqdim etiladi.

23-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar aqliy yoki jismoniy jihatdan noraso bola o'zining qadr-qimmatini ta'minlaydigan, o'ziga ishonch tug'diradigan va uning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini yengillashtiradigan sharoitlarda to'laqonli hamda munosib tarzda yashashi lozimligini e'tirof etadilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar noraso bolaning unga nisbatan alohida g'amxo'rlik ko'rsatilishi huquqiga ega ekanligini e'tirof etadilar hamda imkoniyatlar mavjud bo'lgan taqdirda, yordam so'rab iltimos qilingan bo'lsa va bolaning ahvoriga, uning ota-onasi va bola to'g'risida g'amxo'rlik qilayotgan boshqa shaxslarning mavqeiga mos keladigan yordamni, uni olish huquqiga ega bo'lgan bolaga va unga g'amxo'rlik qilish uchun javobgar bo'lganlarga bunday yordamning taqdim etilishini rag'batlantiradilar va ta'minlaydilar.

3. Noraso bolaning alohida ehtiyojlari e'tirof etilib, yordam ushbu moddaning 2-bandiga muvofiq bolaning ota-onasi yoki unga g'amxo'rlikni amalga oshirayotgan boshqa shaxslarning moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, imkon qadar bepul beriladi hamda bunday yordam noraso bola ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, tibbiy xizmat, sog'liqni tiklash, mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko'rish sohasidagi xizmatlardan va dam olish vositalaridan samarali foydalanishni ta'minlashni maqsad qilgan, bu esa, bolani, iloji boricha to'liq ijtimoiy hayotga jalb etish va uning shaxsiyatining rivojlanishi, jumladan, bolaning madaniy va ma'naviy rivojlanishiga olib keladi.

4. Ishtirokchi-davlatlar xalqaro hamkorlik ruhida noraso bolalarning sog'lig'ini saqlash profilaktikasi, tibbiy, ruhiy va funksional davolanishi sohasidagi tegishli axborotning ayirboshlanishiga, xususan, reabilitatsiya usullari, umumiy ta'lim va kasbiy tayyorgarlik to'g'risidagi axborotni tarqatishga, shuningdek ishtirokchi-davlatlar o'zlarining bu sohadagi imkoniyatlari va bilimlarini yaxshilash hamda tajribalarini kengaytirish imkonini berish uchun ushbu axborotlardan foydalanishga ko'maklashadilar. Shu munosabat bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning ehtiyojlariga alohida e'tibor qaratilishi kerak.

24-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaning sog'liqni saqlash tizimining takomillashgan xizmatlaridan, kasalliklarni davolash va salomatlikni tiklash vositalaridan foydalanish huquqini e'tirof etadilar.

Ishtirokchi-davlatlar hech bir bola sog'liqni saqlash tizimining bunday xizmatlaridan foydalanish huquqidan mahrum qilinmasligini ta'minlashga intiladi.

2. Ishtirokchi-davlatlar ushbu huquqning to'liq amalga oshishiga erishadilar, xususan, quyidagilar uchun zarur choralarni ko'radilar:

a) chaqaloqlar va bolalar o'limi darajasini kamaytirish;

b) birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini rivojlantirishga birinchi darajali e'tibor berilishi bilan hamma bolalarga zarur tibbiy yordam berish va sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlash;

c) boshqa usullar qatorida qulay texnologiyani qo'llash hamda atrof-muhitning ifloslanish xavfi va xatarni e'tiborga olgan holda yetarli miqdorda to'yimli oziq-ovqat va toza ichimlik suvi yetkazib berish yo'li bilan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami doirasida kasalliklar va to'yib ovqatlanmaslikka qarshi kurashish;

d) onalarga tug'ishdan oldin va tug'ruqdan keyingi davrda sog'lig'ini saqlash bo'yicha tegishli xizmatlarni taqdim etish;

e) jamiyatning barcha tabaqalarini, xususan, ota-onalar va bolalarni, bolalarning sog'lig'i va ovqatlanishi, ko'krak suti bilan boqishning afzalliklari, gigiyena, bola yashayotgan muhit sanitariyasi va baxtsiz hodisalarning oldini olish, shuningdek ularning ta'lim olish imkoniyati va bunday bilimlardan foydalanishni qo'llab-quvvatlash to'g'risida xabardorligini ta'minlash;

f) profilaktik tibbiy yordam va oila hajmini rejalashtirish sohasidagi ma'rifiy ishlar va xizmatlarni rivojlantirish.

3. Ishtirokchi-davlatlar bolalarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadigan an'anaviy amaliyotga barham berish maqsadida har qanday samarali va zarur choralarni ko'radilar.

4. Ishtirokchi-davlatlar ushbu moddada e'tirof etilgan huquqlarning to'la amalga oshishiga asta-sekin erishish maqsadida xalqaro hamkorlikni rag'batlantirish va uni rivojlantirish majburiyatini oladilar. Shu munosabat bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning ehtiyojlariga alohida e'tibor berilishi kerak.

25-modda

Ishtirokchi-davlatlar vakolatli organlar tomonidan homiylikka olingan bolaning, uni parvarish qilish, himoya qilish yoki jismoniy yoxud ruhiy davolash, bolaga taqdim etiladigan davolashni vaqtincha baholash huquqini hamda bola to'g'risida bunday g'amxo'rlik qilish bilan bog'liq barcha boshqa shart-sharoitlarni e'tirof etadilar.

26-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar har bir bolaning ijtimoiy ta'minot imtiyozlaridan, jumladan, ijtimoiy sug'urtadan foydalanish huquqini e'tirof etadilar hamda bu huquq o'zlarining milliy qonunchiligiga muvofiq to'liq amalga oshishiga erishish uchun zarur choralarni ko'radilar.

2. Bu imtiyozlar zaruratga qarab bolaning hamda bolani boqish mas'uliyatini zimmasiga olgan shaxslarning mavjud resurslari va imkoniyatlarini, shuningdek bola tomonidan yoki uning nomidan imtiyozlarni olish bilan bog'liq har qanday mulohazalarni hisobga olgan holda taqdim etiladi.

27-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar har bir bolaning jismoniy, aqliy, ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur turmush darajasiga ega bo'lish huquqini e'tirof etadilar.

2. Ota-ona yoki bolani tarbiyalayotgan boshqa shaxslar o'z qobiliyatlari va moliyaviy imkoniyatlari doirasida bolaning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan turmush sharoitini ta'minlashga asosiy javobgardir.

3. Ishtirokchi-davlatlar milliy shart-sharoitlarga muvofiq va o'z imkoniyatlari doirasida bu huquqning amalga oshishida ota-ona va bolani tarbiyalayotgan boshqa shaxslarga yordam ko'rsatish yuzasidan zarur choralarni ko'radilar hamda zarur bo'lgan hollarda moddiy yordam

beradilar va, ayniqsa, oziq-ovqat, kiyim-kechak va uy-joy bilan ta'minlash borasidagi dasturni qo'llab-quvvatlaydilar.

4. Ishtirokchi-davlatlar ota-ona yoki bola uchun moliyaviy javobgar bo'lgan boshqa shaxslar tomonidan bolani boqishni ishtirokchi-davlat ichidagi kabi xorijda ham tiklanishini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radilar. Xususan, agar bola uchun moliyaviy javobgar bo'lgan shaxs va bola turli davlatlarda yashayotgan bo'lsalar, ishtirokchi-davlatlar xalqaro bitimlarga qo'shilishga yoki bunday bitimlarni tuzishga, shuningdek boshqa tegishli kelishuvlarga erishishga ko'maklashadilar.

28-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaning ilm olish huquqini e'tirof etadilar hamda bu huquqning teng imkoniyatlar asosida amalga oshishiga asta-sekin erishish maqsadida ular, xususan:

a) bepul va majburiy boshlang'ich ta'limni joriy etadilar;

b) ham umumiy, ham kasb-hunar bo'yicha o'rta ta'limning turli shakllari rivojlanishini rag'batlantiradilar, bunday ta'lim hamma bolalar uchun ochiqligini ta'minlaydilar hamda bepul ta'limni joriy etish va zarur bo'lgan hollarda, moliyaviy yordam ko'rsatish singari zarur chora-tadbirlarni ko'radilar;

c) barcha zarur vositalar yordamida har bir bolaning qobiliyati asosida oliy ma'lumot olish imkoniyatini ta'minlaydilar;

d) barcha bolalar uchun ta'lim va kasbiy tayyorgarlik sohasida axborot hamda materiallar bilan tanishish imkoniyatini ta'minlaydilar;

e) maktabga muntazam borishga ko'maklashish hamda maktabni tashlab ketadigan o'quvchilar sonining kamayishi bo'yicha choralar ko'radilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar maktab intizomi bolaning insoniylik qadr-qimmatini hurmat qilishni aks ettiruvchi usullar yordamida va ushbu Konvensiyaga muvofiq qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radilar.

3. Ishtirokchi-davlatlar ta'limga taalluqli masalalar bo'yicha, xususan, butun dunyoda johillik va savodsizlikka barham berishga yordam beradigan hamda ilmiy-texnikaviy bilimlar va o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanishni yengillashtirish maqsadida xalqaro hamkorlikni rag'batlantiradilar va rivojlantiradilar. Shu munosabat bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning ehtiyojlariga alohida e'tibor berilishi kerak.

29-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaga beriladigan ta'lim quyidagilarga yo'naltirilishi kerakligiga rozilik bildiradilar:

a) bolaning shaxsi, iste'dodi, aqliy va jismoniy qobiliyatlari eng to'la hajmda rivojlanishi;

b) inson huquqlari va asosiy erkinliklariga, shuningdek Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida e'lon qilingan prinsiplarga hurmatni tarbiyalash;

c) bolaning ota-onaga, uning madaniy o'ziga xosligi, til va qadriyatlarga, bola yashayotgan mamlakatning, uning kelib chiqishi mamlakatining milliy qadriyatlariga, uning o'zinikidan farq qiladigan tsivilizatsiyalarga hurmatni tarbiyalash;

d) bolani erkin jamiyatda tushunish, tinchlik, sabr-toqatli bo'lish, erkaklar va xotin-qizlarning tengligi hamda barcha xalqlar, etnik, milliy va diniy guruhlar, shuningdek tub aholi orasidan bo'lgan shaxslar o'rtasida do'stlik ruhida ongli hayotga tayyorlash;

e) atrofdagi tabiatga hurmatni tarbiyalash.

2. Ushbu moddaning yoki 28-moddaning hech qaysi bandi alohida shaxslar va organlarning o'quv muassasalarini tashkil etish va ularga ushbu moddaning 1-bandida bayon etilgan prinsiplarga doimiy rioya qilishi sharti bilan rahbarlik qilishi hamda bunday o'quv muassasalarida beriladigan ta'lim davlat tomonidan o'rnatilgan minimal me'yorlarga javob berishi to'g'risidagi talabini bajarish, ularning erkinligini cheklash sifatida talqin qilinmaydi.

30-modda

Etnik, diniy yoki til jihatdan ozchilikni tashkil qiluvchi yoxud tub aholiga mansub shaxslar yashaydigan davlatlarda ana shunday ozchilik yoki tub aholiga mansub bolaning mazkur guruhning boshqa a'zolari bilan birgalikda o'z madaniyatidan foydalanish, o'z diniga e'tiqod qilish va uning rasm-rusumlarini bajarish, shuningdek ona tilidan foydalanish huquqi rad etilmasligi lozim.

31-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaning dam olish va bo'sh vaqtini o'tkazish huquqini, o'zining yoshiga mos keladigan o'yinlar va ko'ngilochar tadbirlarda ishtirok etish, madaniy hayotda erkin qatnashish, san'at bilan shug'ullanish huquqini e'tirof etadilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar bolaning madaniy va ijodiy hayotda har tomonlama qatnashish huquqini hurmat qiladilar, rag'batlantiradilar hamda madaniy va ijodiy faoliyat, bo'sh vaqtni o'tkazish va dam olish uchun tegishli teng imkoniyatlar yaratib berilishiga ko'maklashadilar.

32-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaning iqtisodiy ekspluatatsiyadan hamda uning sog'lig'i uchun xavf-xatar yetkazishi mumkin bo'lgan yoki ta'lim olishiga to'sqinlik qiladigan yoxud sog'lig'i, jismoniy, aqliy, ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga zarar keltiradigan har qanday ishlardan himoya qilinish huquqini e'tirof etadilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar ushbu moddaning amalga oshirilishini ta'minlash uchun qonuniy, ma'muriy va ijtimoiy, shuningdek ta'lim sohasidagi chora-tadbirlarni ko'radilar. Ushbu maqsadlarda, boshqa xalqaro hujjatlarning tegishli qoidalariga amal qilgan holda, ishtirokchi-davlatlar, jumladan:

- a) ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh yoki eng kichik yoshlarni belgilaydilar;
- b) ish kunining davomiyligi va mehnat sharoiti to'g'risidagi zarur talablarni aniqlaydilar;
- c) ushbu moddaning samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun jazoning tegishli turlari yoki boshqa sanksiyalarni nazarda tutadilar.

33-modda

Ishtirokchi-davlatlar bolalarni tegishli xalqaro shartnomalarda belgilanganidek, giyohvandlik va psixotrop moddalarini noqonuniy iste'mol qilishdan himoya qilish uchun barcha zarur choralarni, jumladan, qonunchilik, ma'muriy va ijtimoiy, shuningdek ta'lim sohasidagi choralarni hamda bunday moddalarni g'ayriqonuniy ravishda ishlab chiqarishda va ularni sotishda bolalardan foydalanishga yo'l qo'ymaslik choralarni ko'radilar.

34-modda

Ishtirokchi-davlatlar bolani jinsiy ekspluatatsiya va jinsiy buzishning barcha shakllaridan himoya qilish majburiyatini oladilar. Shu maqsadlarda ishtirokchi-davlatlar, xususan, milliy, ikki tomonlama va ko'p tomonlama darajalarda quyidagilarning oldini olish uchun hamma zarur choralarni ko'radilar:

- a) bolani har qanday g'ayriqonuniy jinsiy faoliyatga tortish va majburlash;
- b) fohishalik yoki g'ayriqonuniy boshqa jinsiy amaliyotda bolalarni ekspluatatsiya qilish maqsadlarida foydalanish;
- c) pornografiya va pornografiya materiallarini tayyorlashda bolalarni ekspluatatsiya qilish maqsadlarida foydalanish.

35-modda

Ishtirokchi-davlatlar bolalarni o'g'irlash, bolalar savdosi yoki ularni har qanday maqsadlarda va har qanday shakllarda kontrabanda qilishning oldini olish uchun milliy, ikki tomonlama va ko'p tomonlama darajalarda barcha zarur choralarni ko'radilar.

36-modda

Ishtirokchi-davlatlar bolani uning farovonligining har qanday jihatiga zarar yetkazadigan ekspluatatsiyaning barcha boshqa shakllaridan himoya qiladilar.

37-modda

Ishtirokchi-davlatlar quyidagilarni ta'minlaydilar:

a) birorta ham bola qiynoqlarga yoxud muomala yoki jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga duchor etilmasligini. Na o'lim jazosi, na ozod qilish imkoniyatini nazarda tutmaydigan umrbod qamoq jazosi 18 yoshdan kichik bo'lgan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun tayinlanmaydi;

b) birorta ham bola noqonuniy yoki o'zboshimchalik bilan ozodlikdan mahrum etilmasligini. Bolani hibsga olish, ushlab turish yoki qamoqqa olish qonunga asosan amalga oshiriladi hamda faqat oxirgi chora sifatida va iloji boricha tegishli qisqa vaqt mobaynida qo'llaniladi;

c) ozodlikdan mahrum etilgan har bir bola uning yoshidagi shaxslarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda insonparvar munosabatdan foydalanish va uning shaxsiyatining daxlsiz bo'lgan qadr-qimmatining hurmat qilinishini. Xususan, ozodlikdan mahrum etilgan har bir bola, agar bolaning eng yaxshi manfaatlari uchun shunday qilmaslik kerak, deb hisoblanmasa, kattalardan ajratilishi kerak hamda alohida holatlarni istisno qilgan holda, o'z oilasi bilan yozishmalar va uchrashuvlar orqali aloqada bo'lish huquqiga ega;

d) ozodlikdan mahrum etilgan har bir bola huquqiy va boshqa tegishli yordamdan zudlik bilan foydalanish huquqiga, shuningdek sud yoki boshqa vakolatli, mustaqil va xolis organ oldida o'zining ozodlikdan mahrum etilishining qonuniyligiga e'tiroz bildirish huquqi hamda ular tomonidan har qanday shu kabi protsessual harakatga nisbatan zudlik bilan qaror qabul qilinishi huquqiga ega bo'lgan.

38-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar xalqaro gumanitar huquqning qurolli mojarolar yuzaga kelgan holatda ularga nisbatan qo'llaniladigan va bolalarga taalluqli normalarini hurmat qilishni hamda ularga rioya etilishini ta'minlash majburiyatini oladilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar 15 yoshga to'lmagan shaxslarning harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etmasliklarini ta'minlash uchun imkoni bo'lgan barcha choralarni ko'radilar.

3. Ishtirokchi-davlatlar 15 yoshga to'lmagan har qanday shaxsni o'z qurolli kuchlari safida xizmatga chaqirishga yo'l qo'ymaydilar. Ishtirokchi-davlatlar 15 yoshga yetgan, biroq hali 18 yoshga to'lmagan shaxslar orasidan yollayotganida yoshi kattaroq shaxslarni ma'qul ko'rishga intiladi.

4. Ishtirokchi-davlatlar qurolli mojarolar paytida tinch aholini himoya qilish bilan bog'liq xalqaro gumanitar huquq bo'yicha majburiyatlariga muvofiq qurolli mojarolar daxl qilgan bolalarni himoya qilish va parvarishlashni ta'minlash maqsadida barcha imkoni bo'lgan choralarni ko'rishga majburdir.

39-modda

Ishtirokchi-davlatlar har qanday beparvolik, ekspluatatsiya yoki suiiste'molliklar, qiynoqlar yoki muomala, jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlari yoxud qurolli mojarolar qurboni bo'lgan bolaning jismoniy va ruhiy tiklanishi hamda ijtimoiy reintegratsiyasiga ko'maklashish uchun barcha zarur choralarni ko'radi. Bunday tiklanish va reintegratsiya bolaning sog'lig'i, o'zini o'zi hurmat qilish va qadr-qimmatini ta'minlaydigan sharoitlarda amalga oshirilishi kerak.

40-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar jinoyat qonunchiligini buzgan deb topilgan, uni buzganlikda ayblanayotgan yoki aybdor deb topilgan har bir bolaning, uning qadr-qimmatini va ahamiyati

tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradigan, unda inson huquqlariga va boshqalarning asosiy erkinliklariga hurmatni mustahkamlaydigan hamda bunda bolaning yoshi va uning reintegratsiyasi, jamiyatda foydali o'rin tutishiga ko'maklashish maqsadga muvofiqligini hisobga oladigan bunday muomalaga bo'lgan huquqini e'tirof etadilar.

2. Ushbu maqsadlarda va xalqaro hujjatlarning tegishli qoidalarini e'tiborga olib, ishtirokchi-davlatlar, xususan, quyidagilarni ta'minlaydilar:

a) hech bir bola harakat sodir etilgan vaqtda milliy yoki xalqaro huquqda taqiqlanmagan harakat yoki harakatsizlik sababli jinoyat qonunchiligini buzgan deb topilmasligi, ayblanmasligi va aybdor deb topilmasligini;

b) jinoyat qonunchiligini buzgan deb hisoblanayotgan yoki uni buzishda ayblanayotgan har bir bola kamida quyidagi kafolatlarga ega:

i) uning aybi qonunga muvofiq isbotlanmaguncha aybsizlik prezumptsiyasi;

ii) unga qarshi ayblovlar haqida va zarur hollarda, uning ota-onasi yoki qonuniy vasiylari orqali kechiktirmasdan va bevosita xabardor qilish hamda o'zining himoyasini tayyorlash va amalga oshirishda huquqiy hamda boshqa zarur yordam olishi;

iii) ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan vakolatli, mustaqil va xolis organ yoki sud organi tomonidan advokat yoki boshqa tegishli shaxs ishtirokida qonunga muvofiq adolatli sudda ko'rishda, agar bu bolaning eng yaxshi manfaatlariga zid deb hisoblanmasa, xususan, uning yoshi yoxud ota-onasi yoki qonuniy vasiylarining mavqeini hisobga olgan holda kechiktirmasdan qaror qabul qilinishi;

iv) guvohlik ko'rsatmasini berish yoki aybni tan olishga majburlashdan ozod bo'lish; ayblash bo'yicha guvohlarning ko'rsatmalarini yoxud mustaqil ravishda yoxud boshqa shaxslar yordamida o'rganib chiqish hamda himoya guvohlarining teng huquqli ishtiroki va ularning ko'rsatmalarini o'rganib chiqishni ta'minlash;

v) agar bola jinoyat qonunchiligini buzgan deb hisoblansa, qonunga muvofiq yuqori turuvchi vakolatli, mustaqil va xolis organ yoki sud tomonidan tegishli qarorni va u bilan bog'liq holda qabul qilingan har qanday choralarni takroran ko'rib chiqish;

vi) agar bola foydalanilayotgan tilni tushunmasa yoki bu tilda gapira olmasa, tarjimonning bepul yordami;

vii) muhokama qilishning barcha bosqichlarida uning shaxsiy hayotini to'liq hurmat qilish.

3. Ishtirokchi-davlatlar jinoyat qonunchiligini buzgan deb hisoblanayotgan, uni buzganlikda ayblanayotgan yoki aybdor deb topilgan bolalarga bevosita taalluqli bo'lgan qonunlar, tartib-taomillar, organlar va muassasalarni belgilashda ko'maklashishga intiladilar, xususan:

a) bolalar jinoyat qonunchiligini buzishga qodir emas deb hisoblanadigan eng kichik yoshni belgilashga;

b) zarur va maqsadga muvofiq bo'lgan taqdirda, bunday bolalar bilan inson huquqlari va huquqiy kafolatlarga to'la rioya qilgan holda sud muhokamasidan foydalanmasdan muomala qilish bo'yicha choralarni ko'rishga.

4. Bolaning farovonligi, shuningdek uning holati va jinoyatning xususiyatiga muvofiq keladigan muassasalardagi parvarishning o'rnini bosadigan muomala qilishni ta'minlash maqsadida parvarish, vasiylik va nazorat haqidagi qoida, maslahat xizmatlari, sinov muddatini tayinlash, ta'lim, o'quv va kasbiy tayyorgarlik dasturlari va parvarishning boshqa shakllari kabi turli xil tadbirlarning mavjudligi zarurdir.

41-modda

Ushbu Konvensiyada hech narsa bola huquqlarini amalga oshirishga ko'proq darajada yordam beradigan har qanday vaziyatga daxl qilmaydi hamda quyidagilarda o'z ifodasini topishi mumkin:

a) ishtirokchi-davlat qonunida; yoki

b) mazkur davlatga nisbatan amalda bo'lgan xalqaro huquq normalarida.

II QISM

42-modda

Ishtirokchi-davlatlar tegishli va ta'sirli vositalardan foydalangan holda Konvensiyaning prinsiplari va qoidalari to'g'risida ham katta yoshdagilarni, ham bolalarni keng xabardor qilish majburiyatini oladilar.

43-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar tomonidan ushbu Konvensiyaga muvofiq qabul qilingan majburiyatlarni bajarishda erishilgan taraqqiyotni ko'rib chiqish maqsadida quyida ko'zda tutilgan vazifalarni bajaradigan Bola huquqlari bo'yicha qo'mita ta'xis qilinadi.

2. Qo'mita o'zining yuksak axloqiy fazilatlariga hamda ushbu Konvensiya bilan qamrab olingan sohalarida vakolatli deb e'tirof etilgan o'n nafar ekspertdan iboratdir. Qo'mita a'zolari ishtirokchi-davlatlar tomonidan o'z fuqarolari orasidan saylanadi hamda ular shaxsan ishtirok etadilar, binobarin, adolatli jug'rofiy taqsimlanishga, shuningdek bosh huquqiy tizimlarga e'tibor beriladi.

3. Qo'mita a'zolari ishtirokchi-davlatlar tomonidan ko'rsatilgan shaxslar ro'yxatiga kiritilganlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Har bir ishtirokchi-davlat o'z fuqarolari orasidan bitta shaxsni ko'rsatishi mumkin.

4. Qo'mitaga dastlabki saylovlar ushbu Konvensiya kuchga kirgan kundan e'tiboran olti oydan kechiktirmasdan, keyinchalik esa har ikki yilda bir marta o'tkaziladi. Har bir saylov kunidan kamida to'rt oy oldin Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi ishtirokchi-davlatlarga ikki oy mobaynida o'z nomzodlarini taqdim etish taklifi bilan xat orqali murojaat qiladi. So'ngra Bosh kotib shu tarzda ilgari surilgan barcha shaxslarning ro'yxatini, ushbu shaxslarni ilgari surgan ishtirokchi-davlatlarni ko'rsatgan holda alifbo tartibida tuzib chiqadi hamda bu ro'yxatni ushbu Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlariga taqdim etadi.

5. Saylovlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy muassasalarida Bosh kotib tomonidan chaqiriladigan ishtirokchi-davlatlar yig'ilishlarida o'tkaziladi. Ishtirokchi-davlatlarning uchdan ikki qismi kvorumni tashkil etadigan ushbu yig'ilishlarda Qo'mita tarkibiga saylangan deb eng ko'p ovoz olgan hamda ishtirokchi-davlatlar vakillarining ovoz berishda hozir bo'lgan va ishtirok etayotgan mutlaq ko'pchilik ovozi to'plagan nomzodlar hisoblanadilar.

6. Qo'mita a'zolari to'rt yillik muddatga saylanadilar. Ular nomzodlari takroran ko'rsatilgan hollarda qayta saylanish huquqiga egadirlar. Birinchi saylovlarda saylangan besh a'zoning vakolat muddati ikki yillik davr oxirida tugaydi; birinchi saylovdan keyin zudlik bilan ushbu besh a'zoning ismlari Yig'ilish raisi tomonidan qur'a tashlash orqali aniqlanadi.

7. Qo'mitaning biror bir a'zosi vafot etgan yoki iste'foga chiqqan yoxud u qandaydir boshqa sababga ko'ra Qo'mita a'zosi majburiyatlarini bajara olmay qolgan taqdirda, Qo'mita ushbu a'zosini ko'rsatgan ishtirokchi-davlat Qo'mita tomonidan ma'qullanishi sharti bilan qolgan muddatga o'z fuqarolari orasidan boshqa ekspert tayinlaydi.

8. Qo'mita o'zining tartib-taomillari qoidalarini o'rnatadi.

9. Qo'mita ikki yillik muddatga o'zining mansabdor shaxslarini saylaydi.

10. Qo'mita sessiyalari, odatda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy muassasalarida yoki Qo'mita tomonidan belgilangan har qanday boshqa qulay joyda o'tkaziladi. Qo'mita, qoidaga ko'ra har yili o'z sessiyalarini o'tkazadi. Qo'mita sessiyasining davomiyligi Bosh Assambleya tomonidan ma'qullangan taqdirda ushbu Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlari yig'ilishida belgilanadi va zarurat bo'lganda qayta ko'rib chiqiladi.

11. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Qo'mita tomonidan ushbu Konvensiyaga muvofiq o'z vazifalarining samarali amalga oshirilishi uchun xodimlar va moddiy mablag'larni taqdim etadi.

12. Ushbu Konvensiyaga muvofiq ta'xis etilgan Qo'mita a'zolari Bosh Assambleya tomonidan belgilangan tartib va shartlarda Birlashgan Millatlar Tashkiloti mablag'laridan Bosh Assambleya tasdiqlagan rag'batlantirishlarni oladilar.

44-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar Qo'mitaga Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi orqali Konvensiyada e'tirof etilgan huquqlarni mustahkamlash yuzasidan qabul qilingan choralar hamda ushbu huquqlarni amalga oshirishda erishilgan taraqqiyot to'g'risida ma'ruzalar taqdim etish majburiyatini oladilar:

- a) Konvensiya kuchga kirganidan keyin ikki yil mobaynida tegishli ishtirokchi-davlat uchun;
- b) keyinchalik har besh yilda.

2. Ushbu moddaga muvofiq taqdim etiladigan ma'ruzalarda mazkur Konvensiya bo'yicha majburiyatlarning bajarilish darajasiga ta'sir etuvchi omil va qiyinchiliklar, agar ular mavjud bo'lsa, ko'rsatiladi. Ma'ruzalar, shuningdek Qo'mitaga mazkur mamlakatda Konvensiyaning amal qilishini to'liq tushunishni ta'minlash uchun yetarli axborotlarni o'z ichiga oladi.

3. Qo'mitaga har tomonlama dastlabki ma'ruzani taqdim etgan ishtirokchi-davlat ushbu moddaning 1b-bandiga muvofiq taqdim etadigan keyingi ma'ruzalarida ilgari bayon qilingan asosiy axborotni takrorlashiga zarurat bo'lmaydi.

4. Qo'mita ishtirokchi-davlatlardan ushbu Konvensiyaning amalga oshirishga taalluqli bo'lgan qo'shimcha axborotni so'rab olishi mumkin.

5. Qo'mita faoliyati to'g'risidagi ma'ruzalar ikki yilda bir marta Bosh Assambleyaga Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash orqali taqdim etiladi.

6. Ishtirokchi-davlatlar ma'ruzalarini o'z mamlakatlarida keng oshkora bo'lishini ta'minlaydilar.

45-modda

Konvensiyaning samarali amalga oshirilishiga ko'maklashish va ushbu Konvensiya bilan qamrab olingan sohalaridagi xalqaro hamkorlikni rag'batlantirish maqsadida:

a) ixtisoslashtirilgan muassasalar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining boshqa organlari ushbu Konvensiyaning o'z vakolati doirasiga kiradigan bunday qoidalarini amalga oshirish haqidagi masalalarni ko'rib chiqishda vakil yuborish huquqiga egadirlar. Qo'mita ixtisoslashtirilgan muassasalarga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi va boshqa vakolatli organlariga, agar u buni maqsadga muvofiq deb hisoblasa, ularning tegishli vakolat doirasiga kiradigan sohalarida Konvensiyaning amalga oshirishga doir ekspertlar xulosasini taqdim qilishni taklif etishi mumkin. Qo'mita ixtisoslashtirilgan muassasalar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining boshqa organlariga o'z faoliyat doirasiga kiradigan sohalarida Konvensiyaning amalga oshirish haqida ma'ruzalar taqdim qilishni taklif etishi mumkin;

b) Qo'mita, agar u buni maqsadga muvofiq deb hisoblasa, ixtisoslashtirilgan muassasalar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi va boshqa vakolatli organlariga ishtirokchi-davlatlarning texnik maslahat yoki yordam yoxud shunga ehtiyoj ko'rsatilgan har qanday ma'ruzalarini, shuningdek Qo'mitaning bunday iltimos yoki ko'rsatmalarga doir fikr-mulohaza va takliflarini, agar ular mavjud bo'lsa, qayta yo'llaydi;

c) Qo'mita Bosh Assambleyaga uning nomidan Bosh kotibga bola huquqlariga taalluqli alohida masalalar yuzasidan tadqiqotlar o'tkazishni taklif etishni tavsiya qilishi mumkin;

d) Qo'mita ushbu Konvensiyaning 44- va 45-moddalariga muvofiq olinadigan axborotlarga asoslangan umumiy ahamiyatga molik taklif va tavsiyalar kiritishi mumkin. Umumiy ahamiyatga molik bunday taklif va tavsiyalar har qanday manfaatdor ishtirokchi-davlatga yuboriladi hamda ishtirokchi-davlatlarning mulohazalari bilan birga, agar mavjud bo'lsa, Bosh Assambleyaga xabar qilinadi.

III QISM

46-modda

Ushbu Konvensiya barcha davlatlar tomonidan imzolanishi uchun ochiq.

47-modda

Ushbu Konvensiya ratifikatsiya qilinishi kerak. Ratifikatsiya yorliqlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga saqlash uchun topshiriladi.

48-modda

Ushbu Konvensiya unga har qanday davlatning qo'shilishi uchun ochiq. Qo'shilish to'g'risidagi hujjatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga saqlash uchun topshiriladi.

49-modda

1. Ushbu Konvensiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga yigirmanchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilgan sanadan keyin o'ttizinchi kundan kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan yoxud unga yigirmanchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilgandan keyin unga qo'shiladigan har bir davlat uchun mazkur Konvensiya bunday davlat tomonidan ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilgandan keyin o'ttizinchi kuni kuchga kiradi.

50-modda

1. Har qanday ishtirokchi-davlat tuzatish taklifini kiritishi va uni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga taqdim etishi mumkin. So'ngra, Bosh kotib taklif kiritilgan tuzatishlarni, ushbu takliflarni ko'rib chiqish va ular yuzasidan ovoz berish maqsadida ishtirokchi-davlatlar konferensiyasini chaqirish tarafdori ekanliklarini bildirishlarini so'rab mazkur ishtirokchi-davlatlarga qayta yuboradi. Agar bunday xabar yetkazilgan sanadan boshlab to'rt oy mobaynida ishtirokchi-davlatlarning kamida uchdan bir qismi shunday konferensiyani chaqirishni yoqlab chiqsa, Bosh kotib bu konferensiyani Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida chaqiradi. Ushbu konferensiyada hozir bo'lgan va ovoz berishda qatnashuvchi ishtirokchi-davlatlarning ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan har qanday tuzatish Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

2. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq qabul qilingan tuzatish uni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tasdiqlagandan keyin hamda ishtirokchi-davlatlarning uchdan ikki qismining ko'pchiligi tomonidan qabul qilinganidan keyin kuchga kiradi.

3. Tuzatish kuchga kirgandan keyin uni qabul qilgan ishtirokchi-davlatlar uchun majburiy bo'lib qoladi, boshqa ishtirokchi-davlatlar uchun esa ushbu Konvensiya qoidalari va ular tomonidan qabul qilinadigan har qanday tuzatishlar majburiy bo'lib qoladi.

51-modda

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi ratifikatsiya qilish yoki qo'shilish paytida davlatlar tomonidan qilingan qo'shimcha shartlar matnini qabul qiladi hamda barcha davlatlarga yuboradi.

2. Ushbu Konvensiyaning maqsad va vazifalariga mos kelmaydigan qo'shimcha shartlarga yo'l qo'yilmaydi.

3. Qo'shimcha shartlar istalgan vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga yuborilgan tegishli bildirishnoma orqali olib tashlanishi mumkin, keyin esa u bu haqda barcha davlatlar xabardor qilinadi. Bunday bildirishnoma uni Bosh kotib tomonidan olingan kundan boshlab kuchga kiradi.

52-modda

Har qanday ishtirokchi-davlat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga yozma ravishda bildirish orqali ushbu Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Bosh kotib tomonidan bildirishnoma olinganidan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

53-modda

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi ushbu Konvensiyaning depozitariysi etib tayinlanadi.

54-modda

Ushbu Konvensiyaning ingliz, arab, ispan, xitoy, rus va fransuz tillaridagi matnlari aynan bir xil bo'lib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga saqlash uchun topshiriladi. Shuni tasdiqlash uchun quyida imzo chekkan vakolatli vakillar o'zlarining tegishli hukumatlari tomonidan shunga yetarli darajada vakil qilingan bo'lib, mazkur Konvensiyani imzoladilar.

BOLA HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI KONVENSIYAGA BOLALAR SAVDOSI, BOLALAR FOHISHABOZLIGI VA BOLALAR PORNOGRAFIYASIGA TAALLUQLI FAKULTATIV BAYONNOMA

*BMT Bosh Assambleyasining 2000-yil 25-maydagi
54/263-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 11-dekabrda
O'RQ-188-son Qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Mazkur Bayonnomaning ishtirokchi-davlatlari,

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning maqsadlariga erishish va uning qoidalarini, ayniqsa, 1, 11, 21, 32, 33, 34, 35 va 36-moddalarini amalga oshirishga ko'maklashish uchun ishtirokchi-davlatlar bolani bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasidan himoya qilish kafolatlarini ta'minlash uchun qabul qilishlari kerak bo'lgan choralarga kengroq urg'u berishi maqsadga muvofiq bo'lishini e'tiborga olib,

shuningdek, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada bolaning iqtisodiy ekspluatatsiyadan va uning sog'lig'i uchun xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan yoki ta'lim olishiga to'sqinlik qiladigan yoxud uning sog'lig'iga va jismoniy, aqliy va ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga zarar yetkazadigan har qanday ishni bajarishdan himoya qilinish huquqi e'tirof etilganini hisobga olib,

bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasi maqsadida bolalar xalqaro kontrabandasining ko'لامي sezilarli darajada o'sib borayotganidan tashvishlanib,

bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasini bevosita rag'batlantiradigan, ayniqsa, bolalar uchun xavfli bo'lgan fohishabozlik turizmining keng tarqalgan va davom etayotgan amaliyotidan chuqur tashvishlanib,

bir qator alohida zaif bolalar guruhlari, jumladan, yosh qizlarning jinsiy ekspluatatsiya qilishga duchor bo'lish ehtimoli kattaligini hamda jinsiy ekspluatatsiya qilingan bolalar orasida yosh qizlarning ulushi nomutanosib ravishda yuqori ekanligini e'tirof etib,

Internet va boshqa rivojlanayotgan texnologiyalar orqali bolalar pornografiyasining tobora o'sib borayotganidan tashvishlanib, Internetdagi bolalar pornografiyasiga qarshi kurash bo'yicha xalqaro konferensiya (1999 yili Vena) va, xususan, uning bolalar pornografiyasini ishlab chiqarish, tarqatish, eksport qilish, uzatish, import qilish, qasddan saqlash va uni reklama qilish butun dunyoda jinoiy javobgarlikka tortilishiga chaqiradigan hamda hukumatlar va Internet sanoati o'rtasidagi yanada yaqin hamkorlik va sheriklikning muhimligini ko'rsatadigan qaroriga havola qilinib,

bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga barham berish uning yuzaga kelishiga yordam beradigan barcha omillar, jumladan, etarli darajada rivojlanmagan, kambag'allik, iqtisodiy nomutanosiblik, tenghuquqli bo'lmagan ijtimoiy-iqtisodiy tuzilma, notinch oilalarning mavjudligi, ta'lim darajasining pastligi, shaharlar va qishloqlar o'rtasidagi migratsiya, jinsiy kamsitish, katta yoshdagilarning mas'uliyatsiz shahvoniy xulqi, an'anaviy amaliyotning zararli turlari, qurolli mojarolar va bolalar kontrabandasini e'tiborga olgan holda, keng qamrovli yondashuvni qabul qilishga ko'maklashishini hisobga olib,

bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga bo'lgan iste'molchilarning talabini kamaytirish uchun jamiyatning xabardorlik darajasini oshirish bo'yicha harakat

qilish zarurligini hisobga olib, shuningdek barcha ishtirokchilar o'rtasidagi global hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash hamda milliy darajada huquqni qo'llash choralari kuchaytirishning muhimligiga ishonch hosil qilib,

bolalarni himoya qilish sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlarining qoidalari, jumladan, Bolalarni himoya qilish va davlatlararo farzand asrab olish sohasida hamkorlik to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi, Bolalarni xalqaro o'g'irlab ketishning fuqarolik-huquqiy jihatlarini to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi, Ota-onalarning mas'uliyati masalalari va bolalarni himoya qilish choralari bo'yicha yurisdiksiya, amaldagi huquq, tan olish, huquqni qo'llash va hamkorlik to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi hamda Xalqaro mehnat tashkilotining Bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlash va tugatish bo'yicha zudlik bilan choralari ko'rish to'g'risidagi 182-konvensiyasini e'tiborga olib,

bola huquqlarini targ'ib qilish va himoya qilishda keng qamrovli sodiqlikdan dalolat beradigan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani har joyda qo'llab-quvvatlanishidan ruhlanib,

Bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasining oldini olish bo'yicha Harakatlar dasturi hamda qoidalarining, 1996 yil 27–31 avgustda bo'lib o'tgan Butunjahon kongressida qabul qilingan Bolalarni tijorat maqsadida jinsiy ekspluatatsiya qilishga qarshi deklaratsiya va Harakatlar dasturi qoidalarini, shuningdek tegishli xalqaro tashkilotlarning ushbu masala bo'yicha boshqa qaror va tavsiyalarining amalga oshirilishining muhimligini tan olib,

bolani himoya qilish va barkamol rivojlantirish uchun har bir xalqning an'analari va madaniy qadriyatlarining ahamiyati muhimligini kerakli tarzda hisobga olib,

quyidagilar to'g'risida kelishib oldilar:

1-modda

Ishtirokchi-davlatlar mazkur Bayonnomada nazarda tutilganidek, bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasini man qiladilar.

2-modda

Mazkur Bayonnomaning maqsadlari uchun:

a) bolalar savdosi deganda bolani har qanday shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan boshqa shaxs yoki shaxslar guruhiga mukofot yoki har qanday boshqa tovon puli uchun berib yuborish qaratilgan har qanday harakat yoki bitim tushiniladi;

b) bolalar fohishabozligi mukofot yoki har qanday boshqa tovon puli uchun boladan jinsiy faoliyatlarda foydalanishni anglatadi;

c) bolalar pornografiyasi deganda har qanday vositalarda bolaning haqiqiy yoki taqlid qilingan ochiq-oydin jinsiy harakatlarni tasvirlashi yoxud asosan shahvoniy maqsadlar uchun bolaning jinsiy a'zolarining har qanday tasviri tushuniladi.

3-modda

1. Har bir ishtirokchi-davlat, hech bo'lmaganda, quyidagi harakatlar va faoliyat turlarini, ushbu jinoyat milliy yoki transmilliy darajada yoxud yakka yoki uyushgan tartibda sodir etilganligidan qat'i nazar, kriminal yoki jazo huquqi bilan to'liq qamrab olinishini ta'minlaydi:

a) 2-moddada belgilangan bolalar savdosi mazmunida:

i) quyidagi maqsadlarda har qanday vositalar bilan bolani taklif qilish, topshirish yoki qabul qilib olish:

a. bolani jinsiy ekspluatatsiya qilish;

b. mukofot uchun bolaning organlarini topshirish;

c. bolani majburiy mehnatga jalb qilish;

ii) farzandlikka olishga oid amaldagi xalqaro-huquqiy hujjatlarni buzgan holda vositachi sifatida bolani asrab olishga rozilikni olishga g'ayriqonuniy jalb qilish;

b) 2-moddada belgilangan bolalar fohishabozligi uchun bolani taklif qilish, qabul qilib olish, topshirish yoki berish;

c) 2-moddada belgilangan bolalar pornografiyasining yuqorida ta'kidlangan maqsadlari uchun ishlab chiqarish, taqsimlash, tarqatish, import, eksport, taklif qilish, sotish yoki saqlash.

2. Ishtirokchi-davlatning milliy qonunchiligi qoidalarini hisobga olib, shu kabi qoidalar mazkur qilmishlardan birortasini sodir etishga suiqasd qilish, shuningdek ushbu qilmishlarning birortasini sodir etishda sheriklik qilish yoki birga qatnashishga nisbatan qo'llaniladi.

3. Har bir ishtirokchi-davlat ushbu jinoyatlar uchun ularning og'irlik darajasidan kelib chiqib tegishli jazo choralari nazarda tutadi.

4. Har bir ishtirokchi-davlat o'zining milliy qonunchiligining qoidalarini hisobga olib, tegishli hollarda mazkur moddaning 1-bandida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun yuridik shaxslarning javobgarligini bo'yicha choralarni ko'radi. Ishtirokchi-davlatning huquqiy tamoyillarini hisobga olgan holda, yuridik shaxslarning ushbu javobgarligi jinoiy, fuqarolik yoki ma'muriy bo'lishi mumkin.

5. Ishtirokchi-davlatlar bolani asrab olish bilan aloqasi bo'lgan barcha shaxslarning amaldagi xalqaro huquqiy hujjatlar qoidalariga muvofiq harakat qilishlarini ta'minlash maqsadida barcha tegishli huquqiy va ma'muriy choralarni ko'radilar.

4-modda

1. Har bir ishtirokchi-davlat 3-moddaning 1-bandida ko'rsatilgan jinoyatlarga nisbatan, agar bunday jinoyatlar o'z hududida yoki ushbu davlatda ro'yxatdan o'tgan dengiz yoki havo bortida sodir etilgan bo'lsa, o'z yurisdiksiyasini o'rnatish uchun zarur bo'lishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi.

2. Har bir ishtirokchi-davlat 3-moddaning 1-bandida ko'rsatilgan jinoyatlarga nisbatan quyidagi hollarda o'z yurisdiksiyasini o'rnatish uchun zarur bo'lishi mumkin bo'lgan choralarni ko'rish mumkin:

a) gumon qilinayotgan jinoyatchi mazkur davlatning fuqarosi yoki uning hududida doimiy yashash joyiga ega shaxs bo'lsa;

b) jabrlanuvchi mazkur davlatning fuqarosi bo'lsa.

3. Har bir ishtirokchi-davlat, shuningdek gumon qilinayotgan jinoyatchi uning hududida bo'lganda va bu davlat mazkur jinoyat o'zining fuqarolaridan biri tomonidan sodir qilinganligi asosida jinoyatchini boshqa ishtirokchi-davlatga topshirmaganda, yuqorida keltirilgan jinoyatlarga nisbatan o'z yurisdiksiyasini o'rnatish uchun zarur bo'lishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi.

4. Mazkur Bayonnoma davlatning ichki qonuniga muvofiq amalga oshiriladigan har qanday jinoiy yuridiksiyani istisno qilmaydi.

5-modda

1. 3-moddaning 1-bandida keltirilgan jinoyatlar ishtirokchi-davlatlar o'rtasida mavjud bo'lgan har qanday ekstraditsiya qilish to'g'risidagi shartnomaga ekstarditsiya qilishga olib keladigan jinoyatlar sifatida kiritilishi kerak deb hisoblanadi, shuningdek bunday shartnomalarda belgilangan shartlarga muvofiq davlatlar o'rtasida kelgusida tuziladigan ekstraditsiya qilish to'g'risidagi har bir shartnomaga ekstraditsiya qilishga olib keladigan jinoyatlar sifatida kiritiladi.

2. Agar ekstraditsiyani shartnomaning mavjudligi bilan belgilaydigan ishtirokchi-davlat u bilan ekstraditsiya qilish to'g'risida shartnomasi bo'lmagan boshqa ishtirokchi-davlatdan ekstraditsiya qilish to'g'risidagi iltimosnomani olsa, u bunday jinoyatlarga nisbatan mazkur Bayonnomaning ekstraditsiya qilish uchun huquqiy asos sifatida ko'rib chiqishi mumkin. Ekstraditsiya ekstraditsiya qilish to'g'risidagi iltimosnoma yuborilgan davlatning qonunchiligida nazarda tutilgan shartlarga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Shartnomaning mavjudligi bilan ekstraditsiya qilishni shart qilmagan ishtirokchi-davlatlar o'zaro munosabatlarda bunday jinoyatlarni ekstraditsiya to'g'risida iltimos qilingan davlat

qonunchiligida nazarda tutilgan shartlarga muvofiq ekstarditsiya qilishga olib keladigan jinoyatlar sifatida ko'rib chiqadilar.

4. Bunday jinoyatlar ishtirokchi-davlatlar o'rtasida ekstraditsiya qilish maqsadida 4-moddaga muvofiq, ular nafaqat sodir etilgan joyda, balki o'z yurisdiksiyasini o'rnatish shart bo'lgan davlatlar hududida ham sodir etilgan deb ko'rib chiqiladi.

5. Agar ekstraditsiya qilish to'g'risida so'rov 3-moddaning 1-bandida ko'rsatilgan jinoyatlardan biri bo'yicha kelib tushgan bo'lsa, va agar bunday so'rov yuborilgan ishtirokchi-davlat jinoyatchini fuqaroligi asosida uni ekstraditsiya qilmayotgan bo'lsa yoki ekstraditsiya qilmasa, ushbu davlat ishni jinoiy ish qo'zg'atish maqsadida o'zining vakolatli organlariga topshirish uchun tegishli choralarni ko'radi.

6-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bir-birlariga 3-moddaning 1-bandida belgilangan jinoyatlar bo'yicha boshlangan tergov yoki jinoiy ta'qiblar yoxud ekstraditsiya qilish tartib-taomillari, jumladan, aytib o'tilgan protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mavjud dalillarni olishga ko'maklashish bilan bog'liq maksimal darajadagi yordamni ko'rsatadilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar mazkur moddaning 1-bandi bo'yicha ular o'rtasida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday shartnomalar yoxud boshqa o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risida boshqa kelishuvlarga asosan o'z majburiyatlarini bajaradilar. Bu kabi shartnomalar yoki kelishuvlar bo'lmaganda, ishtirokchi-davlatlar bir-birlariga o'zlarining ichki davlat qonunlariga muvofiq yordam beradilar.

7-modda

Ishtirokchi-davlatlar o'zlarining milliy qonunchiligi qoidalariga muvofiq:

a) tegishli hollarda, olib qo'yish va musodara qilishni ta'minlovchi choralarni ko'radi:

i) mazkur Bayonnomaga muvofiq nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etish yoki sodir etishga yordam berish uchun foydalaniladigan materiallar, mablag'lar va boshqa asbob-uskunalar kabi mol-mulk;

ii) bunday jinoyatlarni sodir etish natijasida olingan daromadlar;

b) boshqa ishtirokchi-davlatning (a) (i) kichik bandda belgilangan mol-mulk yoki daromadlarni olib qo'yish yoxud musodara qilish to'g'risidagi iltimoslarini bajaradi;

c) bunday jinoyatlarni sodir etish uchun foydalanilgan binolarni vaqtincha yoki doimiy asosda yopib qo'yishga yo'naltirilgan choralarni ko'radi.

8-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar jinoiy sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida mazkur Bayonnomaga bilan man qilingan amaliyot qurbonlari bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun tegishli choralarni ko'radi, xususan:

a) jabrdiyda bolalarning zaifligini tan olish va ularning ayrim ehtiyojlarini, shu jumladan, guvoh sifatida ayrim ehtiyojlarini tan olish uchun tartib-taomillarni moslashtirish;

b) jabrdiyda bolalarni ularning huquqlari, roli va sud jarayonining mazmuni, muddati va borishi hamda ularning ishlari bo'yicha hal qiluv qarori to'g'risida xabardor qilish;

c) jabrdiyda bolalarning shaxsiy manfaatlariga daxldor bo'lgan hollarda, ularning fikri, ehtiyojlari va muammolari milliy qonunchilikning protsessual normalariga muvofiq sud ishlarini yuritish davomida taqdim etilishi va ko'rib chiqilishini ta'minlash;

d) jabrdiyda bolalarga sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida tegishli yordam ko'rsatish bo'yicha xizmatlar taqdim etilishi;

e) jabrdiyda bolalarning shaxsiy hayoti va shaxsini tegishli holatlarda himoya qilish hamda jabrlangan bolalarning shaxsini aniqlashga olib kelishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarning noo'rin tarqalib ketishini oldini olish maqsadida milliy qonunchilikka muvofiq choralar ko'rish;

f) jabrdiyda bolalar, shuningdek ularning oilalari va ularning nomidan chiqadigan guvohlarga nisbatan qo'rqitish va qasos choralarining qo'llanilishidan tegishli hollarda himoya qilishni ta'minlash;

g) jabrdiyda bolalarga ishlar bo'yicha qarorlar qabul qilish hamda tovon pulini to'lash to'g'risidagi farmoyish va qarorlarning ijrosini haddan tashqari kechiktirilishiga yo'l qo'ymaslik.

2. Ishtirokchi-davlatlar jabrdiydalarining haqiqiy yoshiga nisbatan shubhalarning mavjudligi jinoiy tergov, jumladan, jabrdiydaning yoshini aniqlash maqsadlari uchun tergovning boshlanishiga to'sqinlik qilmasligini ta'minlaydi.

3. Ishtirokchi-davlatlar mazkur Bayonnomada nazarda tutilgan qurboni bo'lgan bolalar bilan muomala qilishda jinoiy sud ishini yuritish tizimida bolaning oliy manafaatlariga rioya qilinishiga ustuvor ahamiyat berilishini ta'minlaydi.

4. Ishtirokchi-davlatlar mazkur Bayonnomaga muvofiq taqiqlangan jinoiy harakatlar jabrdiyda bolalar bilan ishlaydigan shaxslarga tegishli, xususan, huquqiy va psixologik tayyorgarlikni ta'minlash uchun choralar ko'radi.

5. Ishtirokchi-davlatlar tegishli hollarda preventiv faoliyat va/yoki bu kabi jinoyatlar qurbonlarini himoya qilish va rehabilitatsiya qilish bilan shug'ullanadigan shaxslar va/yoki tashkilotlarning xavfsizligi va daxlsizligini ta'minlash bo'yicha choralar ko'radi.

6. Mazkur moddada hech narsa ayblanuvchining adolatli va xolis sud muhokamasiga bo'lgan huquqlariga zarar yetkazuvchi yoki zid deb talqin qilinmaydi.

9-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar mazkur Bayonnomada belgilangan jinoyatlarning oldini olish maqsadida qonunlar, ma'muriy choralar, ijtimoiy strategiyalar va dasturlarni qabul qiladilar yoki kuchaytiradilar, qo'llaydilar va targ'ib qiladilar. Alohida e'tibor bolalarni, ayniqsa, bunday amaliyotga nisbatan zaif bo'lgan bolalarni himoya qilishga qaratilgan.

2. Ishtirokchi-davlatlar bilim berish va o'qitishning barcha tegishli vositalaridan foydalangan holda mazkur Bayonnomada belgilangan preventiv choralar va jinoyatlarning zararli oqibatlari to'g'risida ma'lumot olishni ta'minlash orqali jamoatchilikning keng doirasi, jumladan, bolalarda xabardorlikni oshirishga ko'maklashadilar. Ishtirokchi-davlatlar mazkur moddaga ko'ra o'z majburiyatlarini bajarishlarida jamoatning, xususan, bolalar va jabrdiyda bolalarning axborot-ma'rifiy va o'quv dasturlarida, shu jumladan, xalqaro miqyosda ishtirok etishini rag'batlantiradilar.

3. Ishtirokchi-davlatlar bunday jinoyatlarning jabrdiydalariga har qanday tegishli yordamni, jumladan, ularning to'liq ijtimoiy reintegratsiyasini hamda to'liq jismoniy va psixologik tiklanishi uchun yordam ko'rsatishni ta'minlash maqsadida barcha mumkin bo'lgan choralarini ko'radilar.

4. Ishtirokchi-davlatlar mazkur Bayonnomada belgilangan jinoyatlar qurboni bo'lgan barcha bolalarning yuridik javobgar shaxslardan hech bir kamsitishlarsiz yetkazilgan zarar uchun tovon puli olishning tegishli tartib-taomillaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi.

5. Ishtirokchi-davlatlar mazkur Bayonnomada belgilangan jinoyatlarni targ'ib qiladigan materiallarni ishlab chiqarish va tarqatishni samarali taqiqlashni ta'minlashga qaratilgan tegishli choralarini ko'radilar.

10-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi, bolalar pornografiyasi va bolalar jinsiy turizmi bilan bog'liq xatti-harakatlarni sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarni ogohlantirish, aniqlash, tergov qilish, jinoiy javobgarlikka tortish va jazolash maqsadida ko'ptomonlama, mintaqaviy va ikki tomonlama kelishuvlar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha barcha zarur choralarini ko'radilar. Ishtirokchi-davlatlar, shuningdek o'z organlari, milliy va xalqaro nodavlat tashkilotlari hamda xalqaro tashkilotlar o'rtasida xalqaro hamkorlikka va muvofiqlashtirishga ko'maklashadilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar jabrdiyda bolalarni jismoniy va ruhiy tiklanishlari, ijtimoiy hayotga qaytishlari va repatriatsiya ishlarida yordam berishga yo'naltirilgan xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashadilar.

3. Ishtirokchi-davlatlar bolalarning bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi, bolalar pornografiyasi va bolalar jinsiy turizmi ob'ekti bo'lib qolishi sifatida zaifligini kuchaytiradigan qashshoqlik va etarli darajada rivojlanmaganlik kabi asosiy sabablarni bartaraf etish maqsadida xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga ko'maklashadilar.

4. Buning uchun tegishli imkoniyatlarga ega bo'lgan ishtirokchi-davlatlar mavjud ko'ptomonlama, mintaqaviy, ikki tomonlama yoxud boshqa dasturlar doirasida moliyaviy, texnik va boshqa yordam ko'rsatadilar.

11-modda

Mazkur Bayonnomada hech narsa bolaning huquqlarini amalga oshirishga ko'proq ko'maklashadigan hech bir qoidalariga va quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan qoidalariga ta'sir qilmaydi:

- a) ishtirokchi-davlatning qonun hujjatlarida;
- b) mazkur davlat uchun amalda bo'lgan xalqaro huquq normalarida.

12-modda

1. Har bir ishtirokchi-davlat Bola huquqlari bo'yicha qo'mitaga mazkur Bayonnoma ushbu ishtirokchi-davlat uchun kuchga kirgandan keyin ikki yil davomida Bayonnoma qoidalarini amalga oshirish maqsadida qabul qilingan chora-tadbirlar to'g'risidagi keng qamrovli axborotlarni o'z ichiga olgan ma'ruzani taqdim etadi.

2. Har bir ishtirokchi-davlat keng qamrovli ma'ruza taqdim etilganidan keyin Bola huquqlari bo'yicha qo'mitaga Konvensiyaning 44-moddasiga muvofiq taqdim etiladigan ma'ruzalarga Bayonnomaning amalga oshirilishiga doir har qanday qo'shimcha axborotni kiritadi. Bayonnomaning boshqa ishtirokchi-davlatlari har besh yilda ma'ruza taqdim etadilar.

3. Bola huquqlari bo'yicha qo'mita ishtirokchi-davlatlardan mazkur Bayonnomaning amalga oshirilishiga doir qo'shimcha axborotni so'rashi mumkin.

13-modda

1. Mazkur Bayonnoma Konvensiyaning ishtirokchisi bo'lgan har qanday davlat tomonidan imzolaniishi uchun yoki uni imzolagan davlat uchun ochiq.

2. Ushbu Bayonnoma ratifikatsiya qilinishi kerak va Konvensiyaning ishtirokchisi bo'lgan yoki uni imzolagan har qanday davlatning qo'shilishi uchun ochiq. Ratifikatsiya yorliqlari yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga saqlash uchun topshiriladi.

14-modda

1. Mazkur Bayonnoma o'ninchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilgandan keyin uch oy o'tgach kuchga kiradi.

2. Mazkur Bayonnomaning ratifikatsiya qilgan yoki u kuchga kirgandan keyin unga qo'shilgan har bir davlat uchun ushbu Bayonnoma uning ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilgandan keyin bir oy o'tgach kuchga kiradi.

15-modda

1. Har qanday ishtirokchi-davlat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga yozma ravishda xabardor qilish orqali ushbu Bayonnomaning denonsatsiya qilishi mumkin, shuning uchun u bu haqda Konvensiyaning boshqa ishtirokchi-davlatlarini va Konvensiyaning imzolagan barcha davlatlarni

xabardor qiladi. Denonsatsiya Bosh kotib tomonidan bu kabi bildirishnoma olingan sanadan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi.

2. Bunday denonsatsiya ishtirokchi-davlatni mazkur Bayonnoma bo'yicha uning denonsatsiya kuchga kiradigan sanagacha sodir etilgan har qanday jinoyatga nisbatan majburiyatlaridan ozod qilmaydi. Xuddi shu kabi, bunday denonsatsiya, hech bir tarzda, denonsatsiya kuchga kiradigan sanagacha Qo'mita tomonidan ko'rib chiqilayotgan har qanday masalaning keyinchalik ko'rib chiqilishiga to'sqinlik qilmaydi.

16-modda

1. Har qanday ishtirokchi-davlat tuzatish taklifini kiritishi va uni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga taqdim etishi mumkin. So'ngra, Bosh kotib taklif kiritilgan tuzatishlarni, ushbu takliflarni ko'rib chiqish va ular yuzasidan ovoz berish maqsadida ishtirokchi-davlatlar konferensiyasini chaqirish tarafdori ekanliklarini bildirishlarini so'rab mazkur ishtirokchi-davlatlarga qayta yuboradi. Agar bunday xabar yetkazilgan sanadan boshlab to'rt oy mobaynida ishtirokchi-davlatlarning hech bo'lmaganda uchdan bir qismi shunday konferensiyani chaqirishni bildirsa, Bosh kotib bu konferensiyani Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida chaqiradi. Ushbu konferensiyada hozir bo'lgan va ovoz berishda ishtirok etgan ishtirokchi-davlatlarning ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan har qanday tuzatish Bosh Assambleyaga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

2. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq qabul qilingan tuzatish, uni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tasdiqlagandan keyin hamda ishtirokchi-davlatlarning uchdan ikki qismining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinganidan keyin kuchga kiradi.

3. Tuzatish kuchga kirgandan keyin uni qabul qilgan ishtirokchi-davlatlar uchun majburiy bo'ladi, boshqa ishtirokchi-davlatlar uchun esa ushbu Bayonnoma qoidalari va ular tomonidan qabul qilingan har qanday tuzatishlar majburiy bo'lib qoladi.

17-modda

1. Mazkur Bayonnomaning ingliz, arab, ispan, xitoy, rus va fransuz tillaridagi matnlari aynan bir xil bo'lib, ular Birlashgan Millatlar Tashkilotining arxivida saqlanishi uchun topshirilishi kerak.

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi mazkur Bayonnomaning tasdiqlangan nusxalarini Konvensiyaning barcha ishtirokchi-davlatlariga va Konvensiyani imzolagan barcha davlatlarga yuboradi.

BOLA HUQUQLARI TO'G'RIDAGI KONVENSIYAGA BOLALARNING QUROLLI MOJAROLARDA ISHTIROKIGA TAALLUQLI FAKULTATIV BAYONNOMA

*Bosh Assambleyaning 2000-yil 25-maydagi
54/263-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 11-dekabrda
O'RQ-190-son Qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Ushbu Bayonnomaning ishtirokchi-davlatlari,

bola huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilishga xizmat qiluvchi keng tarqalgan tayyorlik haqida guvohlik beradigan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning umumiy qo'llab-quvvatlanishidan ruhlaniib,

bolalar huquqlari maxsus himoyaga muhtojligini qayta tasdiqlagan holda, hech qanday farqlarsiz bolalarning sharoitini, shuningdek ularning tinch va xavfsiz muhitda rivojlanishi va ta'lim olishini doimiy yaxshilashni ta'minlashga da'vat etib,

qurolli mojarolarning bolalarga zararli va keng ko'lamli ta'siridan, shuningdek uning barqaror tinchlik, xavfsizlik va rivojlanish uchun uzoq muddatli oqibatlaridan tashvishlanib,

qurolli mojarolar sharoitida bolalarga qilingan tajovuzlarni, shuningdek xalqaro huquqqa muvofiq muhofaza qilinadigan ob'ektlarga, shu jumladan, maktab va kasalxonalar kabi odatda, bolalar ko'p bo'ladigan joylarga qilinadigan bevosita hujumlarni qoralab,

Xalqaro jinoyat sudi Statutining qabul qilinganini va, xususan, unda 15 yoshga to'lmagan bolalarni harbiy xizmatga chaqirish yoki safarbar qilish yoxud ham xalqaro, ham xalqaro bo'lmagan qurolli mojarolar doirasidagi harbiy harakatlarda ulardan faol foydalanish bilan bog'liq harakatlarning harbiy jinoyat sifatida belgilanganini e'tirof etib,

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada e'tirof etilgan huquqlarning yanada samarali amalga oshirilishiga ko'maklashish maqsadida bolalarning qurolli mojarolarda qatnashishidan himoya qilishni kuchaytirish zarurligini hisobga olib,

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 1-moddasida ushbu Konvensiya maqsadlari uchun 18 yoshga to'lmagan har bir inson zoti, agar mazkur bolaga nisbatan qo'llaniladigan qonun bo'yicha u ertaroq voyaga yetmagan bo'lsa, bola hisoblanishi nazarda tutilganligini e'tiborga olib,

shaxslarni qurolli kuchlarga chaqirish va ularning harbiy harakatlarda qatnashish yoshini oshiradigan Konvensiyaga Fakultativ bayonnomaning bolalarga doir barcha harakatlarda birinchi navbatdagi e'tibor bola manfaatlarini a'lo darajada ta'minlashga qaratilishi kerak degan tamoyilning amalga oshirilishiga samarali ko'maklashishiga ishonch hosil qilib,

1995 yil dekabr oyida o'tkazilgan Qizil Xoch va Qizil Yarim oynning yigirma oltinchi Xalqaro konferensiyasi mojarolar taraflariga 18 yoshga to'lmagan bolalarning harbiy harakatlarda ishtirok etmasligini ta'minlash maqsadida har qanday zarur choralarini ko'rishini tavsiya qilishini qayd etib,

Xalqaro mehnat tashkilotining 1999-yil iyun oyida yakdillik bilan qabul qilingan, xususan, qurolli mojarolarda bolalardan foydalanish uchun ularni majburiy yoki shartli yollashni taqiqlaydigan Bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlash va tugatish bo'yicha zudlik bilan choralar ko'rish to'g'risidagi 182-konvensiyasini ma'qullab,

davlatning qurolli kuchlaridan ajralib turadigan qurolli guruhlar tomonidan davlat ichida va tashqarisidagi harbiy harakatlarga bolalarni yollash, o'qitish va ulardan foydalanishni

chuqur tashvish bilan qoralab hamda shu maqsadda bolalarni yollagan, o'qitgan va ulardan foydalanganlarning javobgarligini e'tirof etib,

qurolli mojarodagi har bir tomonning xalqaro gumanitar huquq qoidalariga rioya qilish majburiyati haqida eslatib,

mazkur Bayonnoma Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavida belgilangan maqsad va prinsiplarga, jumladan, 51-modda va gumanitar huquqning tegishli normalariga zarar yetkazmasligini qayd etib,

Ustavda ko'rsatilgan maqsad va prinsiplarning to'la hurmat qilinishi va inson huquqlari cohasida qo'llaniladigan shartnomalarga rioya qilishga asoslangan tinchlik va xavfsizlik muhiti bolalarni, xususan, qurolli mojarolar va chet el istilosi vaqtida to'la himoya qilishning zaruriy sharti ekanligini e'tiborga olib,

bolalarning iqtisodiy yoki ijtimoiy ahvoli yoxud jinsi bilan bog'liq holda, ushbu Bayonnomaga xilof ravishda ularning harbiy harakatlarga yollanish va foydalanilishiga ko'ra zaif bo'lgan bolalarning o'ziga xos ehtiyojlarini e'tirof etib,

bolalarning qurolli mojarolarda ishtirok etishining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sabablarini hisobga olish zarurligini esda tutib,

mazkur Bayonnomani amalga oshirishda, shuningdek qurolli mojarolar qurbonlari bo'lgan bolalarni jismoniy va ruhiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish hamda ijtimoiy reintegratsiya qilish ishida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash zarurligiga ishonch hosil qilib,

ushbu Bayonnomani amalga oshirishga doir axborot va ta'lim dasturlarining tarqatilishida jamiyatning, xususan, bolalar va jabrdiyda bolalarning ishtirokini rag'batlantirib, quyidagilar to'g'risida kelishib oldilar:

1-modda

Ishtirokchi-davlatlar qurolli kuchlarining 18 yoshga to'lmagan harbiy xizmatchilari harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etmasligini ta'minlash uchun barcha choralarni ko'radilar.

2-modda

Ishtirokchi-davlatlar 18 yoshga to'lmagan shaxslar qurolli kuchlariga majburiy chaqirilmasligini ta'minlaydilar.

3-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar ushbu moddada keltirilgan tamoyillarni hisobga olib va Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga muvofiq 18 yoshga to'lmagan shaxslar alohida himoya qilinish huquqiga ega ekanligini e'tirof etib, Konvensiyaning 38-moddasi 3-bandida belgilangan yosh bilan taqqoslagan holda shaxslarni o'z milliy qurolli kuchlariga ixtiyoriy ravishda chaqiruvning eng kichik yoshini oshiradilar.

2. Har bir ishtirokchi-davlat mazkur Bayonnomani ratifikatsiya qilish yoki unga qo'shilishda majburiy xususiyatga ega bo'lgan hamda unda milliy qurolli kuchlariga ixtiyoriy ravishda chaqiruvga ruxsat etilgan eng kichik yosh ko'rsatilgan va davlat tomonidan bunday chaqiruv zo'rvonlik yoki majburiy emasligini ta'minlash maqsadida qabul qilingan kafolatlar bayon etilgan arizani saqlash uchun topshiradi.

3. O'z milliy qurolli kuchlariga 18 yoshga to'lmagan shaxslarni ixtiyoriy ravishda chaqiruvga ruxsat beruvchi ishtirokchi-davlatlar eng kamida quyidagilarni ta'minlaydigan kafolatlarni taqdim etadi:

- a) bunday chaqiruv haqiqatda ixtiyoriy xususiyatga ega bo'lishi;
- b) bunday chaqiruv ushbu shaxsning ota-onasi yoki qonuniy vasiylarining ongli roziligi bilan amaga oshirilganda;
- c) bunday shaxslar harbiy xizmatni o'tash bilan bog'liq majburiyatlari haqida to'liq xabardor qilinadi;

d) bunday shaxslar milliy harbiy xizmatga qabul qilinishidan oldin o'zining yoshiga oid ishonchli guvohnoma taqdim etadi.

4. Har bir ishtirokchi-davlat istalgan vaqtda barcha ishtirokchi-davlatlarni xabardor qiladigan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibini tegishli xabarnomani yuborish orqali o'z bayonotining qoidalarini kuchaytirishi mumkin. Bunday xabarnoma Bosh kotib tomonidan qabul qilingan sanadan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur moddaning 1-bandida belgilangan yoshini oshirish talabi, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 28 va 29-moddalariga muvofiq ishtirokchi-davlatlar qurolli kuchlari tasarrufidagi yoki nazorati ostidagi o'quv muassasalariga taalluqli bo'lmaydi.

4-modda

1. Davlatning qurolli kuchlaridan ajralib turadigan qurolli guruhlar hech bir holatda 18 yoshga to'lmagan shaxslarni harbiy harakatlarga yollashi yoki ulardan foydalanmasligi kerak.

2. Ishtirokchi-davlatlar bunday yollash va foydalanishning oldini olish uchun barcha mavjud choralarni, shu jumladan, bunday harakatlarni taqiqlash va kriminalizatsiya qilish uchun zarur huquqiy choralarni ko'radi.

3. Ushbu Bayonnomaga muvofiq mazkur moddaning qo'llanilishi qurolli mojaro tomonlaridan biron birining huquqiy maqomiga daxl qilmaydi.

5-modda

Mazkur Bayonnomadagi hech narsa ishtirokchi-davlat qonun hujjatlarida yoki xalqaro shartnomalar va xalqaro gumanitar huquqda mavjud bola huquqlarini amalga oshirishga ko'maklashadigan qoidalarining istisno qilish sifatida talqin qilinishi mumkin emas.

6-modda

1. Har bir ishtirokchi-davlat o'z yurisdiksiyasi doirasida mazkur Bayonnomaga qoidalarini samarali amalga oshirilishi va qo'llanilishini ta'minlash uchun barcha zarur huquqiy, ma'muriy va boshqa choralarni ko'radi.

2. Ishtirokchi-davlatlar mazkur Bayonnomaga tamoyillari va qoidalarining tegishli vositalar orqali kattalar va bolalar orasida keng tarqalishi va targ'ib qilinishini ta'minlash majburiyatini oladi.

3. Ishtirokchi-davlatlar mazkur Bayonnomaga zid ravishda harbiy harakatlarga jalb qilingan yoki foydalanilgan o'z yurisdiksiyasida bo'lgan shaxslarning demobilizatsiya qilinishi yoki boshqacha tarzda harbiy xizmatdan ozod qilinishini ta'minlash uchun barcha mavjud choralarni ko'radi. Ishtirokchi-davlatlar, zarur hollarda, bunday shaxslarning jismoniy va ruhiy holatini, shuningdek ularning ijtimoiy reintegratsiyasini tiklash maqsadida barcha tegishli yordamni ko'rsatadilar.

7-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar mazkur Bayonnomani amalga oshirishda, shu jumladan, Bayonnomaga zid bo'lgan har qanday faoliyatning oldini olishda va Bayonnomaga zid bo'lgan harakatlardan jabrlangan shaxslarning reabilitatsiya va ijtimoiy reintegratsiya qilishda, xususan, texnik hamkorlik va moliyaviy yordam orqali hamkorlik qiladilar. Bunday yordam va hamkorlik manfaatdor ishtirokchi-davlatlar va tegishli xalqaro tashkilotlar bilan maslahatlashib amalga oshiriladi.

2. Buni amalga oshirishga qodir bo'lgan ishtirokchi-davlatlar bunday yordamni mavjud ko'p tomonlama, ikki tomonlama yoki boshqa dasturlar doirasida yoki xususan, Bosh Assambleya qoidalariga muvofiq tashkil qilingan ixtiyoriy badallar jamg'armasi orqali ko'rsatadilar.

8-modda

1. Har bir ishtirokchi-davlat mazkur Bayonnomaga ushbu ishtirokchi-davlat uchun kuchga kirgandan keyin ikki yil davomida Bola huquqlari bo'yicha qo'mitaga mazkur Bayonnomaga

qoidalarini amalga oshirish maqsadida qabul qilingan, shu jumladan, ishtirok etish va chaqiruvga doir qoidalarni amalga oshirish maqsadida qabul qilingan chora-tadbirlar to'g'risidagi keng qamrovli axborotlarni o'z ichiga olgan ma'ruzani taqdim etadi.

2. Keng qamrovli ma'ruza taqdim etilgandan keyin har bir ishtirokchi-davlat Bola huquqlari bo'yicha qo'mitaga taqdim etiladigan ma'ruzalariga Konvensiyaning 44-moddasiga muvofiq Bayonnomaning amalga oshirilishiga doir har qanday qo'shimcha axborotlarni kiritadi. Bayonnomaning boshqa ishtirokchi-davlatlari har besh yilda ma'ruza taqdim etadilar.

3. Bola huquqlari bo'yicha qo'mita ishtirokchi davlatlardan mazkur Bayonnomaning amalga oshirilishiga doir har qanday qo'shimcha axborotlarni so'rashi mumkin.

9-modda

1. Mazkur Bayonnoma Konvensiya ishtirokchisi bo'lgan yoki uni imzolagan har qanday davlat tomonidan imzolanishi uchun ochiq.

2. Ushbu Bayonnoma ratifikatsiya qilinishi kerak va har qanday davlatning qo'shilishi uchun ochiq. Ratifikatsiya yorliqlari yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga saqlash uchun topshiriladi.

3. Bosh kotib Konvensiya va Bayonnomaning depozitariysi sifatida harakat qilib, 13-moddaga muvofiq har bir bayonot saqlash uchun topshirilgani to'g'risida Konvensiyaning barcha ishtirokchi-davlatlarini va Konvensiyani imzolagan barcha davlatlarni xabardor qiladi.

10-modda

1. Mazkur Bayonnoma o'ninchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilgandan keyin uch oy o'tgach kuchga kiradi.

2. Mazkur Bayonnomani ratifikatsiya qilgan yoki u kuchga kirgandan keyin unga qo'shilgan har bir davlat uchun uchbu Bayonnoma uning ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilgandan keyin bir oy o'tgach kuchga kiradi.

11-modda

1. Har qanday ishtirokchi-davlat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga yozma ravishda xabardor qilish orqali ushbu Bayonnomani denonsatsiya qilishi mumkin, so'ngra u bu haqda Konvensiyaning boshqa ishtirokchi-davlatlarini va Konvensiyani imzolagan barcha davlatlarni xabardor qiladi. Denonsatsiya Bosh kotib tomonidan bu kabi bildirishnoma olingan sanadan keyin bir yil o'tgach kuchga kiradi. Biroq, agar ushbu yil tugagan kunda denonsatsiya qiluvchi ishtirokchi-davlatda qurolli mojaro yuzaga kelsa, mazkur qurolli mojaro tugaguniga qadar denonsatsiya kuchga kirmaydi.

2. Bunday denonsatsiya ishtirokchi-davlatni mazkur denonsatsiya kuchga kiradigan sanagacha sodir bo'lgan har qanday harakatga nisbatan Bayonnomada nazarda tutilgan majburiyatlaridan ozod qilmaydi. Xuddi shu kabi, bunday denonsatsiya, hech bir tarzda, denonsatsiya kuchga kiradigan sanagacha Qo'mita tomonidan ko'rib chiqilayotgan har qanday masalaning keyinchalik ko'rib chiqilishiga to'sqinlik qilmaydi.

12-modda

1. Har qanday ishtirokchi-davlat tuzatish taklifini kiritishi va uni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga taqdim etishi mumkin. So'ngra, Bosh kotib taklif kiritilgan tuzatishlarni, ushbu takliflarni ko'rib chiqish va ular yuzasidan ovoz berish maqsadida ishtirokchi-davlatlar konferensiyasini chaqirish tarafdori ekanliklarini bildirishlarini so'rab mazkur ishtirokchi-davlatlarga qayta yuboradi. Agar bunday xabar yetkazilgan sanadan boshlab to'rt oy mobaynida ishtirokchi-davlatlarning hech bo'lmaganda uchdan bir qismi shunday konferensiyani chaqirishni bildirsa, Bosh kotib bu konferensiyani Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida chaqiradi. Ushbu

konferensiyada hozir bo'lgan va ovoz berishda ishtirok etgan ishtirokchi-davlatlarning ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan har qanday tuzatish Bosh Assambleyaga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

2. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq qabul qilingan tuzatish, uni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan tasdiqlanganidan keyin hamda ishtirokchi-davlatlarning uchdan ikki qismining ko'pchilik tomonidan qabul qilinganidan keyin kuchga kiradi.

3. Tuzatish kuchga kirgandan keyin uni qabul qilgan ishtirokchi-davlatlar uchun majburiy bo'ladi, boshqa ishtirokchi-davlatlar uchun esa ushbu Bayonnoma qoidalari va ular tomonidan qabul qilingan har qanday tuzatishlar majburiy bo'lib qoladi.

13-modda

1. Mazkur Bayonnomaning ingliz, arab, ispan, xitoy, rus va fransuz tillaridagi matnlari aynan bir xil bo'lib, ular Birlashgan Millatlar Tashkilotining arxivida saqlanadi.

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi mazkur Bayonnomaning tasdiqlangan nusxalarini Konvensiyaning barcha ishtirokchi-davlatlariga va Konvensiyani imzolagan barcha davlatlarga yuboradi.

C. Nogironlar huquqlari

NOGIRONLAR HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI KONVENSIYA

*Bosh Assambleyaning 2006-yil 13-dekabrda
61/106-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustda
501-I-son Qaroriga muvofiq qo'shilgan*

MUQADDIMA

Ushbu Konvensiyada ishtirokchi-davlatlar,

a) Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavida e'lon qilingan insoniyat oilasining barcha a'zolariga xos qadr-qimmat va qadriyatlar hamda ularning teng va ajralmas huquqlari prinsiplari ozodlik, adolat va umumiy tinchlikning asosi deb tan olinishi to'g'risida eslatib,

b) Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro paktlarda har bir inson ushbu hujjatlarda nazarda tutilgan barcha huquqlar va erkinliklarga hech qanday tafovutsiz ega ekanligi e'lon qilganligi va mustahkamlab qo'yganligini tan olib,

c) insonning barcha huquqlari va asosiy erkinliklarining umumiyligi, bo'linmasligi, o'zaro bog'liqligi va o'zaro aloqadorligini, shuningdek nogironlarning ulardan kamsitilmasdan to'liq foydalanishini kafolatlash zarurligini tasdiqlab,

d) Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya, Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya, Qiynoqlar hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi konvensiya, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya hamda Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyaga havola qilib,

e) nogironlik – bu rivojlanib borayotgan tushuncha ekanligini, nogironlik sog'lig'i buzilgan odamlar va munosabat hamda atrof-muhit to'siqlari o'rtasida yuzaga keladigan va bu ularning boshqalar bilan teng ravishda jamiyat hayotida to'liq va samarali ishtirok etishiga xalaqit beradigan o'zaro ta'sir natijasi ekanligini tan olib,

f) Nogironlarga nisbatan butunjahon harakat dasturi va Nogironlar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashning standart qoidalarida mavjud prinsiplar va rahbariy yo'riqnomalar nogironlarga yanada teng imkoniyatlarni ta'minlash uchun milliy, mintaqaviy va xalqaro darajadagi strategiyalar, rejalar, dasturlar va tadbirlarni rag'batlantirish, aniq ifodalash va baholashga ta'siri nuqtai nazaridan muhimligini tan olib,

g) nogironlik muammolarini tegishli barqaror rivojlanish strategiyasining tarkibiy qismlari sifatida dolzarblashtirish muhimligini ta'kidlab,

h) shuningdek, har qanday shaxsni nogironlik belgisi bo'yicha kamsitish inson shaxsiga xos qadr-qimmat va qadriyatni buzilishi ekanligini tan olib,

i) nogironlarning xilma-xilligini tan olib,

j) barcha nogironlarning, shu jumladan, faolroq qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lganlarning inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilish zarurligini tan olib,

k) ushbu turli hujjatlar va tashabbuslarga qaramasdan, nogironlar o'zlarining jamiyat hayotida teng huquqli a'zolari sifatida ishtirok etish yo'lida to'siqlar hamda jahonning barcha qismlarida ularning inson huquqlari buzilishiga duch kelishi davom etayotganligidan tashvishlanib,

l) har bir mamlakatda, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda nogironlarning turmush sharoitlarini yaxshilash uchun xalqaro hamkorlik muhimligini tan olib,

m) nogironlarning mahalliy hamjamiyatlarning umumiy farovonligi va xilma-xilligiga hozirgi va potentsiad hissasini hamda nogironlar tomonidan o'zlarining inson huquqlari va asosiy erkinliklarini to'la amalga oshirishlariga, shuningdek nogironlarning to'laqonli ishtirok etishiga ko'maklashish ularda daxldorlik hissini mustahkamlash va jamiyatning insoniy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim yutuqlarga erishish hamda qashshoqlikka barham berish imkonini berishini tan olib,

n) nogironlar uchun ularning shaxsiy mustaqilligi, shu jumladan, o'z mustaqil tanlovining erkinligi muhimligini tan olib,

o) nogironlar strategiyalar va dasturlar, shu jumladan, bevosita ularga taalluqli bo'lgan qaror qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etish imkoniga ega bo'lishlari kerak deb hisoblab,

p) nogironlar irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, diniy, siyosiy va boshqa e'tiqodlari, milliy, etnik, aborigen yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati, tug'ilishi, yoshi yoki boshqa vaziyatlar belgisi bo'yicha kamsitishning juda ko'p va keskin shakllariga duch keladigan qiyin sharoitlaridan tashvishlanib,

q) nogiron ayollar va nogiron qizlar uylarida ham, uylaridan tashqarida ham ko'pincha zo'ravonlik, jarohatlanish yoki tahqirlash, beparvoliklik yoki sovuqqonlik, yomon muomala yoki ekspluatatsiyaning katta xavfiga duch kelishlarini tan olib,

r) nogiron bolalar boshqa bolalar bilan teng holda insonning barcha huquqlari va asosiy erkinliklaridan to'liq hajmda foydalanishlari kerakligini tan olib va shu munosabat bilan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning ishtirokchi-davlatlari o'z zimmalariga olgan majburiyatlarini eslatib,

s) nogironlarning inson huquqlari va asosiy erkinliklarini to'la amalga oshirishiga ko'maklashish bo'yicha barcha sa'y-harakatlarda gender jihatlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlab,

t) nogironlarning aksariyati qashshoqlik sharoitida yashashlarini ta'kidlab hamda shu munosabat bilan qashshoqlikning nogironlarga salbiy ta'siri muammosi bilan shug'ullanish o'ta zarurligini tan olib,

u) Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavida hamda inson huquqlari sohasida qo'llaniladigan shartnomalarda bayon etilgan maqsad va prinsiplarini to'la hurmat qilishga asoslangan tinchlik va xavfsizlik vaziyati nogironlarni, xususan, qurolli mojarolar va chet el bosqinchiligi davrida to'la himoya qilishning so'zsiz sharti ekanligini e'tiborga olib,

v) jismoniy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy muhitdan, sog'liqni saqlash va ta'lim, shuningdek axborot va aloqadan foydalanish imkoniyati muhimligini, chunki bu nogironlarga barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklaridan foydalanish imkonini berishini tan olib,

w) har bir alohida insonning boshqa odamlar va o'zi mansub bo'lgan jamoa oldida majburiyatlarga ega ekanligini hamda u Inson huquqlari xalqaro billida tan olingan huquqlarni rag'batlantirish va ularga rioya etilishiga erishishga intilishi kerakligini e'tiborga olib,

x) oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi ekanligiga va jamiyat va davlat tomonidan himoyalash huquqiga egaligiga hamda nogironlar va ularning oila a'zolari oilalarga nogironlar huquqlaridan to'la va teng foydalanish ishiga hissa qo'shish imkonini beradigan zarur himoya va yordamni olishlari kerakligiga ishonch hosil qilib,

y) Nogironlarning huquqlari va qadr-qimmatlarini rag'batlantirish hamda himoya qilish to'g'risidagi keng qamrovli va yagona Konvensiya nogironlarning abgor ijtimoiy ahvollarini

yengishga hamda ularning ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan mamlakatlarda teng imkoniyatlar bilan fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotdagi ishtirokini kengaytirishga ishonch hosil qilib,

quyidagilarga kelishib oldilar:

1-modda. Maqsad

Ushbu Konvensiyaning maqsadi barcha nogironlarning insonning barcha huquqlari va asosiy erkinliklarini to'la va teng amalga oshirishini rag'batlantirish, himoya qilish hamda ta'minlash, shuningdek ularga xos qadr-qimmatni hurmat qilishni rag'batlantirishdan iborat.

Nogironlar deb turli to'siqlar bilan o'zaro munosabatda ularning boshqalar bilan teng ravishda jamiyat hayotida to'la va samarali ishtirok etishiga xalaqit beradigan barqaror jismoniy, aqliy, intellektual yoki hissiy nuqsonlari bo'lgan shaxslar tushuniladi.

2-modda. Tushunchalar

Ushbu Konvensiya maqsadlari uchun:

“muloqot” – tillar, matnlar, Brayl alifbosi, taktil muloqot, yirik shrift, bosma materiallar, audiovositalar, suhandonlarning odatiy tili singari foydalanish imkoniyati bo'lgan multimedia vositalari, shuningdek muloqotning kuchaytiruvchi va muqobil usullari, vositalari va shakllari, jumladan, foydalanish mumkin bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'z ichiga oladi;

“til” – nutq va imo-ishora tillarini hamda og'zaki bo'lmagan tillarning boshqa shakllarini o'z ichiga oladi;

“nogironlik belgisi bo'yicha kamsitish” – maqsadi yoki natijasi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqarolik yoki har qanday boshqa sohada boshqalar bilan teng ravishda insonning barcha huquqlari va asosiy erkinliklarining e'tirof qilinishi, amalga oshirilishi yoki ro'yobga chiqarilishini kamsitadigan yoki rad etadigan har qanday tafovut, istisno yoki cheklashni anglatadi. U kamsitishning barcha shakllarini, shu jumladan, oqilona moslashtirishdan voz kechishni o'z ichiga oladi;

“oqilona moslashtirish” – nogironlar tomonidan boshqalar bilan teng ravishda barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklarining amalga oshirilishi yoki ro'yobga chiqarilishini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan aniq holatlarda nomutanosib yoki oqlanmagan yukka aylanmaydigan zarur hamda mos modifikatsiyalar va tuzatishlar kiritilishini anglatadi;

“universal dizayn” – barcha odamlar uchun moslashtirish yoki maxsus dizaynga ehtiyoj sezmasdan eng yuqori imkoniyat darajasida foydalanishga yaroqli qilishga mo'ljallangan buyumlar, sharoit, dastur va xizmatlar dizaynini anglatadi. “Universal dizayn” zarurat bo'lganda, nogironlarning muayyan guruhi uchun assistiv qurilmalarni istisno etmaydi.

3-modda. Umumiy prinsiplar

Ushbu Konvensiyaning prinsiplari quyidagilar hisoblanadi:

a) insonning o'ziga xos qadr-qimmatini, uning shaxsiy mustaqilligini, shu jumladan, o'z tanlovini qilish erkinligini hamda mustaqilligini hurmat qilish;

b) kamsitmaslik;

c) jamiyatga to'la va samarali jalb etish va qo'shish;

d) nogironlarning o'ziga xos xususiyatlarini hurmat qilish va buni odamgarchilikning turfa xilligining tarkibi va insoniyatning bir qismi sifatida qabul qilish;

e) imkoniyatlar tengligi;

f) to'siqsiz foydalanish;

g) erkaklar va ayollarning tengligi;

h) nogiron bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatlarini hurmat qilish va nogiron bolalarning o'z shaxsiy xususiyatlarini saqlab qolish huquqini hurmat qilish.

4-modda. Umumiy majburiyatlar

1. Ishtirokchi-davlatlar barcha nogironlarning nogironlik belgisi bo'yicha hech qanday kamsitishsiz insonning barcha huquqlari va asosiy erkinliklarini to'la amalga oshirishini ta'minlash hamda rag'batlantirish majburiyatini oladi. Shu maqsadda ishtirokchi-davlatlar quyidagi majburiyatlarni oladi:

a) ushbu Konvensiyada e'tirof etilgan huquqlarni amalga oshirish uchun barcha zarur qonunchilik, ma'muriy va boshqa choralarni ko'rish;

b) nogironlarga nisbatan kamsitish bo'lgan mavjud qonunlar, qarorlar, urf-odatlar va asoslarni o'zgartirish yoki bekor qilish uchun barcha tegishli choralarni, shu jumladan, qonunchilik choralarni ko'rish;

c) nogironlarning barcha strategiyalar va dasturlarda inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirishni hisobga olish;

d) Ushbu Konvensiyaga to'g'ri kelmaydigan har qanday xatti-harakatlar yoki usullardan tiyilish hamda davlat organlari va muassasalari mazkur Konvensiyaga muvofiq harakat qilishlarini ta'minlash;

e) har qanday shaxs, tashkilot yoki xususiy korxona tomonidan nogironlik belgisi bo'yicha kamsitishni bartaraf etish uchun zarur choralarni ko'rish;

f) nogironlarning aniq ehtiyojlari uchun moslashtirish iloji boricha kam o'zgartirish va xarajat talab qiladigan tovarlar, xizmatlar, jihozlar va universal dizayn ob'ektlarining (ushbu Konvensiyaning 2-moddasida belgilangan) tadqiqot va konstruktorlik ishlanmalarini olib borish yoki rag'batlantirish, ularning mavjud bo'lishi va foydalanilishiga ko'maklashish, shuningdek standartlar va ko'rsatkich mo'ljallarini ishlab chiqishda universal dizayn g'oyasini ilgari surish;

g) tadqiqot va konstruktorlik ishlanmalarini olib borish yoki rag'batlantirish, shuningdek nogironlar uchun mos keladigan yangi texnologiyalar, xususan, arzon texnologiyalarga ustuvor ahamiyat bergan holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, harakatchanlikni, qurilmalar va assistiv texnologiyalarni yengillashtiradigan vositalarning mavjud bo'lishi va foydalanilishiga ko'maklashish;

h) nogironlarga harakatchanlikni, qurilmalar va assistiv texnologiyalarni yengillashtiradigan vositalar, jumladan, yangi texnologiyalar hamda yordam ko'rsatishning boshqa shakllari, qo'shimcha xizmatlar va ob'ektlar to'g'risida mavjud axborotlarni taqdim etish;

i) ushbu Konvensiyada e'tirof etilgan huquqlar bilan kafolatlangan yordam va xizmatlarni taqdim etishni takomillashtirish uchun mutaxassislar va nogironlar bilan ish olib boradigan xodimni o'qitishni rag'batlantirish.

2. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga kelganda, har bir ishtirokchi-davlat o'zida mavjud resurslardan maksimal darajada foydalanib, zarur hollarda, xalqaro hamkorlikka murojaat qilib, xalqaro huquqqa muvofiq bevosita qo'llaniladigan ushbu Konvensiyada ifodalangan majburiyatlarga ziyon yetkazmasdan mazkur huquqlarning to'la amalga oshirilishiga bosqichma-bosqich erishish choralarni ko'rish majburiyatini oladi.

3. Ushbu Konvensiyani amalga oshirishga yo'naltirilgan qonunchilik va strategiyani ishlab chiqish va qo'llashda hamda nogironlarga taalluqli masalalar bo'yicha qaror qabul qilishning boshqa jarayonlari doirasida ishtirokchi-davlatlar nogironlar, jumladan, nogiron bolalar bilan yaqindan maslahatlashadilar va ularning vakillik organlari orqali ularni faol jalb qiladilar.

4. Ushbu Konvensiyadagi hech bir narsa ishtirokchi-davlatlarning qonunlarida yoki mazkur davlatda amaldagi xalqaro huquq normalarida bo'lishi mumkin bo'lgan nogironlar huquqlarini amalga oshirishga ko'proq darajada ko'maklashadigan biror bir qoidaga daxl qilmaydi. Qonun, konvensiyalar, qoidalar yoki urf-odatlarga ko'ra ushbu Konvensiyaning biron bir ishtirokchi-davlatida e'tirof etiladigan yoki mavjud bo'lgan insonning qaysidir huquqlari va asosiy erkinliklarini hech qanday cheklash yoki kamsitishga mazkur Konvensiyada bunday huquqlar yoki erkinliklar tan olinmasligi yoki kichikroq hajmda e'tirof etilishi tufayli yo'l qo'yilmaydi.

5. Ushbu Konvensiya qoidalari federativ davlatlarning barcha qismlariga hech qanday cheklashsiz yoki istisnalarsiz targ'ib etiladi.

5-modda. Tenglik va kamsitmaslik

1. Ishtirokchi-davlatlar barcha shaxslar qonun oldida tengligini va unga ko'ra qonun tomonidan hech qanday kamsitishsiz teng himoyalaniish hamda undan teng foydalanish huquqiga egaligini tan oladi.

2. Ishtirokchi-davlatlar nogironlik belgisi bo'yicha har qanday kamsitishni taqiqlaydi hamda nogironlarga har qanday asosda kamsitishdan teng va samarali huquqiy himoyani kafolatlaydi.

3. Ishtirokchi-davlatlar tenglikni rag'batlantirish va kamsitishni bartaraf etishda oqilona moslashishni ta'minlash uchun barcha tegishli choralarni ko'radi.

4. Nogironlarning haqiqiy tengligini tezlashtirish yoki bunga erishish uchun zarur bo'lgan aniq choralar ushbu Konvensiya ma'nosi bo'yicha kamsitish hisoblanmaydi.

6-modda. Nogiron xotin-qizlar

1. Ishtirokchi-davlatlar nogiron ayollar va nogiron qizlar ko'p bora kamsitishlarga duchor bo'lishlarini tan oladilar hamda shu munosabat bilan ularning insonning barcha huquqlari va asosiy erkinliklarini to'liq va teng amalga oshirishlarini ta'minlash uchun choralar ko'radi.

2. Ishtirokchi-davlatlar ushbu Konvensiyada mustahkamlangan inson huquqlari va asosiy erkinliklarini ro'yobga chiqarish va amalga oshirishni kafolatlash uchun xotin-qizlarning har tomonlama rivojlanishi, ahvolini yaxshilash hamda huquq va imkoniyatlarini kengaytirishni ta'minlash uchun barcha tegishli choralarni ko'radi.

7-modda. Nogiron bolalar

1. Ishtirokchi-davlatlar nogiron bolalar tomonidan insonning barcha huquqlari va asosiy erkinliklarini boshqa bolalar bilan teng ravishda to'la amalga oshirilishini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radi.

2. Nogiron bolalarga nisbatan barcha xatti-harakatlarda e'tibor, birinchi navbatda, bolaning oliy manfaatlariga qaratiladi.

3. Ishtirokchi-davlatlar nogiron bolalar boshqa bolalar bilan teng ravishda o'zlarining yoshlariga va yetukligiga mos keladigan, zarur salmoq oladigan ularga taalluqli barcha masalalar bo'yicha o'z qarashlarini erkin ifoda etish huquqiga ega bo'lishlarini hamda ushbu huquqlarni amalga oshirishda nogironlik va yoshiga tegishli bo'lgan yordamni olishlarini ta'minlaydi.

8-modda. Ma'rifiy-tarbiyaviy ish

1. Ishtirokchi-davlatlar quyidagilarga erishish uchun kechiktirib bo'lmaydigan, samarali va tegishli choralarni ko'rish majburiyatini oladi:

a) nogironlik masalalarida butun jamiyatning, shu jumladan, oila darajasida bilimni oshirish hamda nogironlarning huquq va qadr-qimmatini hurmat qilishni mustahkamlash;

b) nogironlarga nisbatan turmushning barcha jabhalarida, shu jumladan, jinsi va yoshi asosidagi aqidalar va zararli odatlar bilan kurash olib borish;

c) nogironlarning salohiyati va hissasini targ'ib etish.

2. Shu maqsadda ko'rilayotgan choralar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) quyidagilarga da'vat etilgan samarali ijtimoiy-ma'rifiy kampaniyalarni avj oldirish va yuritish:

i) nogironlar huquqlariga nisbatan zehnilikni tarbiyalash;

ii) nogironlar to'g'risidagi ijobiy tasavvurlarni va ularning jamiyat tomonidan chuqurroq anglanishini rag'batlantirish;

iii) nogironlarning ko'nikmalari, qadr-qimmati va qobiliyatlarini, shuningdek ularning ish joyi va mehnat bozorida hissasining tan olinishiga ko'maklashish;

b) ta'lim tizimining barcha darajalarida, shu jumladan, kichik yoshdan boshlab barcha bolalarni nogironlar huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishga tarbiyalash;

c) barcha ommaviy axborot vositalarida nogironlarni ushbu Konvensiya maqsadlariga mos keladigan tarzda tasvirlashga da'vat etish;

d) nogironlar va ularning huquqlariga bag'ishlangan tarbiyaviy-tanishtirish dasturlarini targ'ib qilish.

9-modda. Foydalanish imkoniyati

1. Ishtirokchi-davlatlar nogironlar mustaqil turmush kechirish va hayotning barcha jabhalarida har tarafлама ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun nogironlarning boshqalar bilan teng ravishda jismoniy muhit, transport, axborot va aloqadan, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimidan, shuningdek shaharlarda bo'lgani kabi qishloq joylarida ham aholi uchun ochiq yoki taqdim etiladigan boshqa ob'ektlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash uchun tegishli choralarni ko'radi. Foydalanish imkoniyatiga xalaqit beradigan to'siqlarni aniqlash va bartaraf etishni qamrab oladigan ushbu choralar, quyidagilarda tatbiq etilishi kerak, xususan:

a) binolar, yo'llar, transport hamda boshqa tashqi va ichki ob'ektlar, shu jumladan, maktablar, turar-joylar, tibbiyot muassasalari va ish joylari;

b) axborot, kommunikatsiya va boshqa xizmatlar, shu jumladan, elektron xizmatlar va shoshilinch xizmatlar.

2. Ishtirokchi-davlatlar, shuningdek quyidagi tegishli choralarni ko'radi:

a) aholi uchun ochiq yoki taqdim etiladigan ob'ektlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini nazarda tutadigan minimal standartlar va ko'rsatkich mo'ljallarini ishlab chiqish, amalga kiritish va ularga rioya etilishini kuzatish;

b) aholi uchun ochiq yoki taqdim etiladigan ob'ektlar va xizmatlarni taklif etadigan xususiy korxonalar nogironlar uchun foydalanishning barcha jihatlarini hisobga olishlarini ta'minlash;

c) nogironlar duch keladigan foydalanish muammolari bo'yicha aloqador barcha tomonlar uchun yo'riqnoma berishni tashkil etish;

d) aholi uchun ochiq bo'lgan binolar va boshqa ob'ektlarni Brayl alifbosida bajarilgan hamda oson o'qiladigan va tushuniladigan shakldagi belgilar bilan jihozlash;

e) aholi uchun ochiq bo'lgan binolar va boshqa ob'ektlardan foydalanishini yengillashtirish uchun yordamchilar va vositachilarning, shu jumladan, yo'lboshchilar, suxandonlar va professional surdo-tarjimonlarning turli xil xizmatlarini taqdim etish;

f) nogironlarning axborotdan foydalanishini ta'minlaydigan yordam va qo'llab-quvvatlashning boshqa tegishli shakllarini rivojlantirish;

g) nogironlarning yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlaridan, shu jumladan, Internetdan foydalanish imkoniyatlarini rag'batlantirish;

h) dastlabki foydalanish imkoniyati bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlaridan eng kam xarajatlarda foydalanishga erishishda, mazkur texnologiya va tizimlarni loyihalash, ishlab chiqish va tarqatishni rag'batlantirish.

10-modda. Yashash huquqi

Ishtirokchi-davlatlar har bir insonning yashashga bo'lgan ajralmas huquqini yana bir bor tasdiqlaydi va uning nogironlar tomonidan boshqalar bilan teng ravishda samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun barcha tegishli choralarni ko'radi.

11-modda. Tahlikali va favqulodda gumanitar vaziyatlar

Ishtirokchi-davlatlar xalqaro huquq, jumladan, xalqaro gumanitar huquq va inson huquqlarining xalqaro huquqi bo'yicha o'z majburiyatlariga muvofiq nogironlarning tahlikali

vaziyatlarda, xususan, qurolli mojarolar, favqulodda gumanitar vaziyatlar va tabiiy ofatlardan himoya qilishni va xavfsizligini ta'minlash uchun barcha tegishli choralarni ko'radi.

12-modda. Qonun oldida tenglik

1. Ishtirokchi-davlatlar har bir nogiron, u qayerda bo'lishidan qat'i nazar, teng huquqiy himoya qilinish huquqiga ega ekanligini tasdiqlaydi.

2. Ishtirokchi-davlatlar nogironlar boshqalar bilan teng ravishda hayotning barcha jabhalarida huquq layoqatiga ega ekanligini e'tirof etadi.

3. Ishtirokchi-davlatlar nogironlarga o'zlarining huquqiy layoqatini amalga oshirishlarida talab etilishi mumkin bo'lgan yordamdan foydalanish imkoniyatini taqdim etish uchun tegishli choralarni ko'radi.

4. Ishtirokchi-davlatlar huquq layoqatini amalga oshirish bilan bog'liq barcha choralar inson huquqlarining xalqaro huquqiga muvofiq suiiste'molliklarning oldini olishning tegishli va samarali kafolatlarini nazarda tutishini ta'minlaydi. Bunday kafolatlar huquq layoqatini amalga oshirish bilan bog'liq choralar shaxsning huquqlari, irodasi xohish-istaklarini hurmat qilishga yo'naltirilgan bo'lishi, manfaatlar to'qnashuvi va noo'rin ta'sirdan xoli bo'lishini, ushbu shaxs vaziyatiga mutanosib va moslashtirilgan bo'lishi, iloji boricha qisqa muddatda qo'llanilishi hamda vakolatli, mustaqil va xolis organ yoki sud instansiyasi tomonidan muntazam tekshirilishini ta'minlashi kerak. Ushbu kafolatlar mazkur shaxsning huquqlari va manfaatlariga ta'sir qiladigan darajada mutanosib bo'lishi kerak.

5. Ishtirokchi-davlatlar ushbu modda qoidalarini hisobga olgan holda nogironlarning mulkka egalik qilish va uni meros qilib olish, o'z moliyaviy ishlarini boshqarish, shuningdek bank ssudalari, ipoteka kreditlari va moliyaviy kreditlashning boshqa shakllaridan teng foydalanishga bo'lgan teng huquqlarini ta'minlash uchun barcha tegishli va samarali choralarni ko'radi hamda nogironlar o'z mulkidan asossiz mahrum bo'lmasliklarini ta'minlaydi.

13-modda. Odil sudlovdan foydalanish imkoniyati

1. Ishtirokchi-davlatlar nogironlarni boshqalar bilan teng ravishda odil sudlovdan, shu jumladan, yuridik jarayonning barcha bosqichlarida, xususan, surishtirish bosqichlari va ish yuritishning boshqa boshlang'ich bosqichlarida o'zlarining bevosita va bilvosita ishtirokchilar, shuningdek guvohlar sifatidagi samarali rolini bajarishlarini yengillashtirishga qaratilgan protsessual va yoshlariga mos tuzatishlar kiritishni nazarda tutgan holda samarali foydalanishlarini ta'minlaydi.

2. Ishtirokchi-davlatlar nogironlarning odil sudlovdan samarali foydalanishini ta'minlashga ko'maklashish uchun odil sudlov sohasida, shu jumladan, politsiya va penitentsiar tizimida ishlaydigan shaxslarni tegishli tarzda o'qitishga ko'maklashadi.

14-modda. Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik

1. Ishtirokchi-davlatlar nogironlarga boshqalar bilan teng ravishda quyidagilardan foydalanishni ta'minlaydi:

a) erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqidan foydalanish;

b) noqonuniy yoki asossiz ozodlikdan mahrum bo'lmasligi hamda har qanday ozodlikdan mahrum etish qonunga muvofiq bo'lishi, nogironlikning mavjudligi esa hech bir holatda ozodlikdan mahrum etish uchun asos bo'lmasligini.

2. Ishtirokchi-davlatlar, agar nogironlar biror bir tartib-taomillar asosida ozodlikdan mahrum etilsa, ularga boshqalar bilan teng ravishda inson huquqlarining xalqaro huquqiga mutanosib bo'lgan kafolatlar berilishini hamda ular bilan muomala ushbu Konvensiyaning maqsad va prinsiplariga, xususan, oqilona moslashtirishni ta'minlashga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi.

15-modda. Qiynoqlar hamda muomala va jazolashning shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlaridan ozod bo'lish

1. Hech kim qiynoqqa solinishi yoxud muomala yoki jazolashning shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatining kamsitilishiga duchor etilishi mumkin emas. Xususan, hech bir shaxs, uning erkin rozilgisiz tibbiy yoki ilmiy tajribaga duchor qilinmasligi kerak.

2. Ishtirokchi-davlatlar nogironlar boshqalar bilan teng ravishda qiynoqqa yoki muomala va jazolashning shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga duchor qilinmasligi uchun barcha samarali qonunchilik, ma'muriy, sud yoki boshqa choralarni ko'radi.

16-modda. Eksploatatsiya, zo'ravonlik va tahqirlashlardan ozod bo'lish

1. Ishtirokchi-davlatlar nogironlarni ham uylarida, ham uning tashqarisida eksploatatsiya, zo'ravonlik va tahqirlashning barcha shakllaridan, shu jumladan gender sababi bilan bog'liq jihatlardan himoya qilish uchun barcha tegishli qonunchilik, ma'muriy, ijtimoiy, ma'rifiy va boshqa choralarni ko'radi.

2. Ishtirokchi-davlatlar, shuningdek eksploatatsiya, zo'ravonlik va tahqirlashning hamma shakllarini oldini olish uchun, xususan, nogironlarga, ularning oilalariga va nogironlarni parvarish qilayotgan shaxslarga yosh-jins xususiyatini hisobga olgan holda yordam berish va qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, eksploatatsiya, zo'ravonlik va tahqirlash ko'rinishlariga duchor bo'lmaslik, bunday holatlarni aniqlash va xabar berish yo'llari bilan tanishtirish, bu masaladagi xabardorlikni oshirish uchun barcha tegishli choralarni ko'radi. Ishtirokchi-davlatlar himoya taqdim etish bo'yicha xizmatlar nogironlikning yosh-jins xususiyatlari va omillarini hisobga olgan holda ko'rsatilishini ta'minlaydi.

3. Ishtirokchi-davlatlar eksploatatsiya, zo'ravonlik va tahqirlashning barcha shakllari namoyon bo'lishini oldini olish maqsadida nogironlarga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan barcha muassasalar va dasturlar mustaqil organlar tomonidan samarali nazorat ostida bo'lishini ta'minlaydi.

4. Ishtirokchi-davlatlar eksploatatsiya, zo'ravonlik yoki tahqirlashning har qanday shaklidan jabr ko'rgan nogironlarni jismoniy, kognitiv va psixologik tiklanishi, reabilitatsiya va ijtimoiy qayta integratsiyasiga yordamlashish uchun, shu jumladan, himoya qilishni taqdim etish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish orqali barcha tegishli choralarni ko'radi. Bunday tiklanish va qayta integratsiyalash tegishli shaxsning salomatligini, xotirjamligini, o'ziga hurmatni, qadr-qimmatini va mustaqilligini mustahkamlashga ko'maklashadigan vaziyatda sodir bo'ladi hamda yosh-jins xususiyatlari bilan bog'liq ehtiyojlar hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

5. Ishtirokchi-davlatlar nogironlarga nisbatan eksploatatsiya, zo'ravonlik va tahqirlash holatlari aniqlanishi, tekshirilishi va tegishli hollarda ta'qib etilishini ta'minlash uchun, shu jumladan, xotin-qizlar va bolalarga mo'ljallangan samarali qonunchilik va strategiyalarni qabul qiladi.

17-modda. Shaxsiy yaxlitlikni himoya qilish

Har bir nogiron boshqalar bilan teng ravishda o'zining jismoniy va ruhiy yaxlitligi hurmat qilinishi huquqiga ega.

18-modda. Ko'chib yurish erkinligi va fuqarolik

1. Ishtirokchi-davlatlar nogironlarning boshqalar bilan teng ravishda ko'chib yurish erkinligi, yashash joyini erkin tanlash va fuqarolik huquqini, shu jumladan, quyidagilarni ta'minlash orqali nogironlarning:

a) fuqarolikni olish va o'zgartirish huquqiga ega bo'lishlari hamda asossiz yoki nogironlik sababli o'z fuqaroligidan mahrum etilmasligi;

b) nogironligi sababli, ularning fuqaroligini tasdiqlovchi hujjatlarni yoki ularning shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni olish imkoniyatidan mahrum bo'lmaslik, bunday hujjatlarga ega bo'lish va ulardan foydalanish yoki tegishli tartib-taomillardan, masalan, ko'chib yurish erkinligi

huquqini amalga oshirishni yengillashtirish uchun zarur bo'lishi mumkin bo'lgan immigratsiya tartibidan foydalanish;

- c) biron bir mamlakatni, jumladan, o'z mamlakatini erkin tark etish huquqiga ega bo'lishi;
- d) asossiz yoki nogironligi sababli o'z mamlakatiga kirish huquqidan mahrum bo'lmalik.

2. Nogiron bolalar tug'ilishi bilan darhol ro'yxatga olinadi hamda tug'ilgan paytidan boshlab ismga ega bo'lish va fuqarolikni olish, shuningdek iloji boricha o'z ota-onasini bilish huquqi va ulardan g'amxo'rlik ko'rish huquqiga ega.

19-modda. Mustaqil turmush tarzi va mahalliy hamjamiyatga jalb qilish

Ushbu Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlari barcha nogironlarning boshqa odamlar qatori teng tanlov variantlarida oddiy yashash joylarida yashashdagi teng huquqliligini e'tirof etadi hamda nogironlar tomonidan bu huquqning to'la amalga oshirilishini va ularning mahalliy hamjamiyatga to'liq qo'shilishi hamda jalb etilishiga ko'maklashish, shu jumladan, quyidagilarni ta'minlash uchun samarali va tegishli choralarni ko'radi:

a) nogironlar boshqa odamlar bilan teng ravishda o'z yashash joyini hamda qayerda va kim bilan yashashni tanlash imkoniyatiga ega bo'lishi hamda qandaydir muayyan turar joy sharoitlarida yashashga majbur bo'lmasiligi;

b) nogironlar uyda, yashash joyi bo'yicha va mahalliy hamjamiyat tomonidan ko'rsatiladigan turli xil boshqa yordamchi xizmatlardan, jumladan, mahalliy hamjamiyatda hayotni qo'llab-quvvatlash va unga qo'shilish, shuningdek yakkalab qo'yishga yoki mahalliy hamjamiyatdan chiqarib yuborishga yo'l qo'yilmasligi uchun zarur bo'lgan shaxsiy yordamdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi;

c) umumiy aholiga mo'ljallangan jamoaviy foydalanish xizmatlari va ob'ektlari nogironlar uchun ham teng darajada foydalanish imkoni mavjud bo'lishi hamda ularning ehtiyojiga javob berishi.

20-modda. Shaxsiy harakatchanlik

Ishtirokchi-davlatlar nogironlarning individual harakatchanligini ularning mustaqilligining eng yuqori imkoniyati darajasida, shu jumladan, quyidagilar orqali ta'minlash uchun samarali choralar ko'radi:

a) nogironlarning o'zi tanlagan usulda, o'zi tanlagan vaqtda va maqbul narxda individual harakatchanligiga ko'maklashish;

b) nogironlarning harakatchanligini yengillashtiradigan sifatli vositalar, qurilmalar, yordamchi texnologiyalar hamda yordamchilar va vositachilar xizmatlaridan, shu jumladan, ularni maqbul narxlarda taqdim etish orqali foydalanishini yengillashtirish;

c) nogironlarni va ular bilan ishlaydigan mutaxassis kadrlarni harakatchanlik ko'nikmalariga o'qitish;

d) harakatchanlikni yengillashtiradigan vositalar, qurilmalar va yordamchi texnologiyalar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan korxonalarni nogironlar harakatchanligining barcha jihatlari hisobga olishga da'vat etish.

21-modda. Fikr va e'tiqodni ifoda etish erkinligi va axborotdan foydalanish imkoniyati

Ishtirokchi-davlatlar nogironlar fikr va e'tiqodlarini erkin ifoda etish huquqini, jumladan, ushbu Konvensiyaning 2-moddasida belgilab qo'yilgan muomalaning barcha shakllaridan o'z tanlovi bo'yicha foydalangan holda axborot va g'oyalarni izlash, olish va tarqatish erkinligini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radi, xususan:

a) nogironlarni foydalanish imkoniyati bo'lgan shaklda va nogironlikning turli shakllarini hisobga oladigan texnologiyalardan foydalanib, o'z vaqtida va qo'shimcha to'lovlarsiz keng ommaga mo'ljallangan axborot bilan ta'minlash;

b) rasmiy muomalada ishora tili, Brayl alifbosi, muomalani kuchaytiradigan va muqobil vositalaridan hamda nogironlarning tanlovi bo'yicha muomalaning boshqa foydalanish imkoniyati bo'lgan barcha vositalari, usullari va shakllaridan foydalanishlariga yordam ko'rsatish;

c) keng ommaga, shu jumladan, Internet orqali xizmat ko'rsatadigan xususiy korxonalarni nogironlar uchun foydalanish imkoniyati bo'lgan va yaroqli shakllardagi axborot va xizmatlarni taqdim etishga da'vat etish;

d) ommaviy axborot vositalarini nogironlarning axborotdan, shu jumladan, Internet orqali taqdim etiladigan xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlashga da'vat etish;

e) ishora tillaridan foydalanishni e'tirof etish va rag'batlantirish.

22-modda. Shaxsiy hayotning daxlsizligi

1. Birorta nogiron, yashash joyi yoki turar joyi sharoitlaridan qat'i nazar, o'z shaxsiy hayoti, oilasi, uy joyi yoki yozishmalari va boshqa muomala turlarining daxlsizligiga o'zboshimchalik bilan yoki noqonuniy tajovuzlarga yoki uning sha'ni va obro'siga noqonuniy hujumlarga duchor bo'lmasligi kerak. Nogironlar bunday tajovuzlar yoki hujumlardan himoyalaniish huquqiga ega.

2. Ishtirokchi-davlatlar boshqalarniki kabi nogironlarning shaxsi, so'lig'ining holati va reabilitatsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligini muhofaza qiladi.

23-modda. Uy va oilani hurmat qilish

1. Ishtirokchi-davlatlar nogironlarga nisbatan boshqalar bilan teng ravishda nikoh, oila, otalik, onalik va shaxsiy munosabatlar bilan bog'liq barcha masalalarda kamsitishlarni bartaraf etish uchun samarali va tegishli choralarni ko'radi, shu bilan birga quyidagilarni ta'minlashga intiladilar:

a) nikoh yoshiga yetgan barcha nogironlarning nikohlanuvchilarning erkin va to'liq rozilig asosida nikohdan o'tish va oila qurishga bo'lgan huquqining tan olinishini;

b) nogironlarning bolalar soni va ularning tug'ilishi orasidagi interval to'g'risida erkin va mas'uliyatli qaror qabul qilish hamda reproduktiv xatti-harakatlar va oilani rejalashtirish masalalarida yoshga mos axborotdan foydalanish imkoniyati hamda bilimga ega bo'lish huquqining e'tirof etilishini, shuningdek ularga ushbu huquqlarni amalga oshirish imkonini beradigan vositalarning taqdim etilishini;

c) nogironlar, shu jumladan, bolalar boshqalar bilan teng tarzda o'z fertilliklarini saqlashlarini.

2. Ishtirokchi-davlatlar milliy qonunchilikda vasiylik, homiylik, vasiylik qilish, farzandlikka olish yoki shunga o'xshash institutlar singari tushunchalar mavjud bo'lganda nogironlarning ushbu tushunchalarga nisbatan huquq va majburiyatlarini ta'minlaydi; barcha holatlarda bolaning oliy manfaatlari birinchi darajali ahamiyatga ega. Ishtirokchi-davlatlar nogironlarga bolalarini tarbiyalash bo'yicha majburiyatlarini bajarishlarida tegishli yordam ko'rsatadi.

3. Ishtirokchi-davlatlar nogiron bolalarning oilaviy hayotga nisbatan teng huquqlarga ega bo'lishini ta'minlaydi. Ishtirokchi-davlatlar ushbu huquqlarni amalga oshirish hamda nogiron bolalarni yashirish, ularni tashlab ketish, parvarish qilishdan bosh tortish va segregatsiyasiga yo'l qo'ymaslik uchun avvalboshdan nogiron bolalar va ularning oilalarini har tomonlama axborot, xizmatlar va qo'llab-quvvatlash bilan ta'minlash majburiyatini oladi.

4. Ishtirokchi-davlatlar bola o'z ota-onasidan uning irodasiga qarshi ajratilmasligini ta'minlaydi, sud tomonidan nazorat qilinadigan vakolatli organlar qo'llaniladigan qonunlar va tartib-taomillarga muvofiq bunday ajratish bolaning oliy manfaatlari uchun zarur ekanligini belgilagan holatlar bundan mustasno. Hech bir vaziyatda bola o'zining yoxud ota-onasidan birining yoki ikkalasining nogironligi sababli ota-onasidan ajratilishi mumkin emas.

5. Ishtirokchi-davlatlar nogiron bolani, uning yaqin qarindoshlari parvarish qilishga qodir bo'lmagan holatlarda uzoqroq qarindoshlarini jalb qilish orqali, agar bunday imkoniyat bo'lmasa, bolaning mahalliy hamjamiyatda yashashi uchun oilaviy sharoitlarni yaratish orqali muqobil parvarish qilishni tashkil etish maqsadida barcha sa'y-harakatlarni qilish majburiyatini oladi.

24-modda. Ta'lim

1. Ishtirokchi-davlatlar nogironlarning ta'lim olish huquqini e'tirof etadi. Ishtirokchi-davlatlar ushbu huquqni kamsitishlarsiz va imkoniyatlar tengligi asosida amalga oshirish maqsadida barcha darajalarda inklyuziv ta'limni va butun umri davomida o'qitilishlarini ta'minlaydi, shu bilan birga quyidagilarga intiladi:

a) inson salohiyatini, shuningdek qadr-qimmat va o'zini hurmat qilish hissining to'liq rivojlanishi hamda inson huquqlari, asosiy erkinliklari va insoniy turfa xillikni hurmat qilishni kuchaytirish;

b) nogironlarning shaxsi, iste'dodi va ijodkorligini, shuningdek ularning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini to'la hajmda rivojlantirish;

c) nogironlarga erkin jamiyat hayotida samarali ishtirok etish imkoniyatini yaratish.

2. Ishtirokchi-davlatlar ushbu huquqni amalga oshirishda quyidagilarni ta'minlaydi:

a) nogironlar nogironligi sababli umumiy ta'lim tizimidan, nogiron bolalar esa bepul va majburiy boshlang'ich ta'lim yoki o'rta ta'lim tizimidan chiqarilmasligi;

b) nogironlar o'z yashash joylarida boshqalar bilan teng ravishda inklyuziv, sifatli va bepul boshlang'ich ta'lim va o'rta ta'limni olish imkoniyatiga ega bo'lishi;

c) shaxsiy ehtiyojlarni hisobga oladigan oqilona moslashtirish ta'minlanishi;

d) nogironlar umumiy ta'lim tizimida, ularning samarali o'qitilishini yengillashtirish uchun talab etiladigan qo'llab-quvvatlashga ega bo'lishi;

e) to'la qamrab olish maqsadiga muvofiq bilimlarni o'zlashtirish va ijtimoiy rivojlanishga imkon qadar yordam beradigan vaziyatda individual qo'llab-quvvatlashni tashkil etish bo'yicha samarali choralar ko'rilishi.

3. Ishtirokchi-davlatlar nogironlarning ta'lim jarayonida hamda mahalliy hamjamiyatning a'zolari sifatida to'liq va teng ishtirok etishlarini yengillashtirish uchun ularga hayotiy va ijtimoiy ko'nikmalarni o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Ishtirokchi-davlatlar ushbu yo'nalishda tegishli choralarni ko'radi, shu jumladan:

a) Brayl alifbosi, muqobil shriftlarni, muloqotni kuchaytiradigan va muqobil usullari, vositalari va shakllarini, shuningdek moslashish va harakatchanlik ko'nikmalarining o'zlashtirilishiga hamda tengdoshlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga va murabbiylikka ko'maklashadi;

b) imo-ishora tilini egallashga va karlarning lingvistik o'ziga xosligini rag'batlantirishga yordam beradi;

c) shaxslarni o'qitish, xususan, ko'zi ojiz, kar yoki ko'zi ojiz va kar bo'lgan bolalarni o'qitish har bir shaxs uchun qulay bo'lgan til va usullarda, muloqot vositalarida hamda bilimlarni o'zlashtirish va ijtimoiy rivojlanishga imkon boricha yordam beradigan vaziyatda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

4. Ishtirokchi-davlatlar ushbu huquqning amalga oshirilishini ta'minlashga ko'maklashish uchun o'qituvchilar, shu jumladan, imo-ishora tilini va/yoki Brayl alifbosini o'zlashtirgan nogiron o'qituvchilarni ishga jalb etish hamda ta'lim tizimining barcha darajalarida ishlaydigan mutaxassislarni va xodimlarni o'qitish uchun tegishli choralarni ko'radi. Bunday o'qitish nogironlik masalalarida o'qitishni hamda nogironlarni qo'llab-quvvatlash uchun tegishli muloqotni kuchaytiradigan va muqobil usullari, vositalari va shakllarini, o'quv uslubiyotlari va materiallaridan foydalanishni qamrab oladi.

5. Ishtirokchi-davlatlar nogironlarning kamsitishlarsiz va boshqalar bilan teng ravishda umumiy oliy ta'lim, kasbga o'qitish, kattalar uchun ta'lim va butun hayoti davomida o'qitilish imkoniyatiga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Ishtirokchi-davlatlar shu maqsadda nogironlar uchun oqilona moslashishni ta'minlaydi.

25-modda. Sog'liqni saqlash

Ishtirokchi-davlatlar nogironlarning nogironlik belgisi bo'yicha kamsitishlarsiz erishish mumkin bo'lgan eng yuqori darajadagi sog'liqni saqlashga bo'lgan huquqini e'tirof etadilar.

Ishtirokchi-davlatlar nogironlarning gender xususiyatini hisobga oladigan sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlardan, shu jumladan sog'ligining holati bo'yicha reabilitatsiyadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radi. Ishtirokchi-davlatlar, xususan:

a) nogironlarga boshqa shaxslar qatori sog'liqni saqlash, shu jumladan, jinsiy va reproduktiv sohadagi salomatlik hamda aholiga taklif etilayotgan davlat sog'liqni saqlash dasturlari bo'yicha bepul yoki qimmat bo'lmagan xizmatlar va dasturlarning turlari, sifati va darajasini ta'minlaydi;

b) nogironlarga ularning nogironligi sababli bevosita zarur bo'lgan sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarni, jumladan, erta tashxis qo'yishni, tegishli holatlarda – korrektsiya va, xususan, bolalar va katta yoshdagilar o'rtasida nogironlikning keyinchalik paydo bo'lishini kamaytirish va uning oldini olishiga da'vat etilgan xizmatlarni taqdim etadi;

c) sog'liqni saqlash sohasidagi ushbu xizmatlarni iloji boricha mazkur odamlar bevosita yashaydigan joylarga, shu jumladan, qishloq joylari yaqinida tashkil etadi;

d) sog'liqni saqlash mutaxassislaridan nogironlarga boshqa shaxslarga bo'lgani kabi, shu jumladan, erkin va xabardorligi bo'yicha roziligi asosida o'qitish hamda davlat va xususiy sog'liqni saqlash uchun axloq standartlarini qabul qilish hisobiga inson huquqlari, qadr-qimmat, mustaqilligi va nogironlarning ehtiyojlari to'g'risidagi xabardorligini oshirish orqali sifatli xizmat ko'rsatilishini talab qiladi;

e) tibbiy sug'urtalash va hayotni sug'urtalashni taqdim etishda, agar keyingisi milliy qonunda ruxsat berilgan bo'lsa hamda u adolatli va oqilona asosda taqdim etilishini nazarda tutsa, nogironlarga nisbatan kamsitishni taqiqlaydi;

f) nogironligi sababli sog'liqni saqlashda yoki ushbu sohadagi xizmatlar yoxud ovqat yoki ichimliklarni olishda kamsitadigan rad etilishlarga yo'l qo'ymaydi.

26-modda. Abilitatsiya va reabilitatsiya

1. Ishtirokchi-davlatlar, shu jumladan boshqa nogironlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishida, nogironlarga iloji boricha mustaqillikka, to'la jismoniy, aqliy, ijtimoiy va kasbiy qobiliyatlarga erishishlari va uni saqlab qolishlari hamda hayotning barcha jabhalarida to'la qo'shilish va jalb qilinish imkoniyatini yaratish uchun samarali va tegishli choralarni ko'radi. Ishtirokchi-davlatlar shu maqsadda, ayniqsa, sog'liqni saqlash, bandlik, ta'lim va ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohalarida kompleks abilitatsiya va reabilitatsiya xizmatlari va dasturlarini tashkil etadi, mustahkamlaydi va kengaytiradi, shu tarzda ushbu xizmatlar va dasturlar:

a) ularni iloji boricha erta amalga oshirishga kirishilishi va nogironlarning ehtiyojlari va kuchli jihatlarini ko'p tomonlama baholashga asoslangan bo'lishi;

b) mahalliy hamjamiyatga hamda jamiyat hayotining barcha jabhalarida jalb etilish va qo'shilishga yordam berishi, ixtiyoriy xususiyatga ega bo'lishi hamda nogironlar uchun iloji boricha bevosita yashash joylariga yaqin, jumladan qishloq joylarida foydalanish imkoniyati bo'lishi.

2. Ishtirokchi-davlatlar abilitatsiya va reabilitatsiya xizmatlari sohasida ishlaydigan mutaxassis va xodimlarni boshlang'ich va keyingi o'qitishni rivojlantirishni rag'batlantiradi.

3. Ishtirokchi-davlatlar nogironlar uchun mo'ljallangan abilitatsiya va reabilitatsiyaga taalluqli assistive (yordamchi) qurilmalar va texnologiyalarning mavjudligi, bilimi, ulardan foydalanishni rag'batlantiradi.

27-modda. Mehnat va bandlik

1. Ishtirokchi-davlatlar nogironlarning boshqalar bilan teng ravishda mehnat qilish huquqini e'tirof etadi; bu mehnat bozori va ishlab chiqarish muhiti nogironlar uchun ochiq, inklyuziv va ishtirok etish imkoniyati bo'lgan sharoitda nogiron o'zi erkin tanlagan va erkin rozi bo'lgan mehnat qilish orqali hayot kechirishiga pul ishlab topish imkoniyatiga ega bo'lish huquqini qamrab

oladi. Ishtirokchi-davlatlar mehnat qilish huquqini, ayniqsa, mehnat faoliyati davomida nogiron bo'lgan shaxslarning, jumladan qonun hujjatlari tartibida, xususan, quyidagilarga yo'naltirilgan tegishli choralarni ko'rish orqali mehnat qilish huquqini amalga oshirishni ta'minlaydi va rag'batlantiradi:

a) bandlikning barcha shakllarida, jumladan ishga qabul qilish, yollash va bandlik, ish joyini saqlab qolish, xizmat lavozimida ko'tarilish, xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlariga taalluqli barcha masalalarda nogironlik belgisi bo'yicha kamsitishni taqiqlash;

b) nogironlarning boshqalar bilan teng ravishda adolatli va qulay mehnat sharoitlariga, jumladan, teng qiymatdagi mehnat uchun teng imkoniyatlar va teng rag'batlantirilish, xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlari, xususan, hujumlardan himoya qilinish va shikoyatlarning qondirilishiga bo'lgan huquqlarini himoya qilish;

c) nogironlarning boshqalar bilan teng ravishda o'zlarining mehnat va kasaba uyushmasiga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishlarini ta'minlash;

d) nogironlarga umumiy texnikaviy va kasbiy yo'naltirish dasturlari, ishga joylashtirish xizmatlari, kasbiy va uzluksiz ta'limdan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratish;

e) mehnat bozorida nogironlarning ishga joylashish va xizmat lavozimida ko'tarilish, shuningdek ish izlash, ishga ega bo'lish, saqlab qolish va qaytadan boshlash uchun yordam berish imkoniyatlarini kengaytirish;

f) shaxsiy mehnat faoliyati, tadbirkorlik, kooperativlarni rivojlantirish va o'z biznesini tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirish;

g) nogironlarni davlat sektoriga yollash;

h) nogironlarni tegishli strategiyalar va ijobiy harakatlar dasturlari, rag'batlar hamda boshqa choralarni qamrab olishi mumkin bo'lgan chora-tadbirlar yordamida xususiy sektorda ishga yollashni rag'batlantirish;

i) nogironlarga ish joylariga oqilona moslashishni ta'minlash;

j) ochiq mehnat bozori sharoitlarida nogironlarning ish tajribasiga ega bo'lishlarini rag'batlantirish;

k) nogironlar uchun kasbiy va malakaviy rehabilitatsiya, ish joylarini saqlab qolish va ishga qaytish dasturlarini rag'batlantirish.

2. Ishtirokchi-davlatlar nogironlarning qullikka va erksiz holatga tushib qolmasliklarini hamda boshqalar bilan teng ravishda majburiy yoki bajarilishi shart bo'lgan mehnatdan himoya qilinishini ta'minlaydi.

28-modda. Yetarli turmush darajasi va ijtimoiy himoya

1. Ishtirokchi-davlatlar nogironlarning o'zlari va oilalari uchun yetarlicha oziq-ovqat, kiyim-kechak va turar joyni o'z ichiga olgan yetarlicha turmush darajasiga va turmush sharoitlari uzluksiz yaxshilanib borishiga bo'lgan huquqlarini e'tirof etadi hamda ushbu huquqlarning nogironlik belgisi bo'yicha kamsitishsiz amalga oshirilishini ta'minlash va rag'batlantirishning tegishli choralarni ko'radi.

2. Ishtirokchi-davlatlar nogironlarning ijtimoiy himoyaga bo'lgan huquqlarini va bu huquqlardan nogironlik belgisi bo'yicha kamsitilmasdan foydalanishga bo'lgan huquqini e'tirof etadi hamda ushbu huquqni amalga oshirishni ta'minlash va rag'batlantirish uchun tegishli choralarni ko'radi, jumladan, quyidagi choralarni:

a) nogironlarning toza suvga ega bo'lishning teng imkoniyatlarini hamda nogironlik bilan bog'liq ehtiyojlarni qondirish uchun tegishli va qimmat bo'lmagan xizmatlar, qurilmalar va boshqa yordamdan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash bo'yicha;

b) nogironlarning, xususan, nogironligi bo'lgan ayollar, qizlar va keksa shaxslarning ijtimoiy himoya dasturlari va qashshoqlik ko'lamlarini qisqartirish dasturlaridan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash bo'yicha;

c) qashshoqlik sharoitlarida yashayotgan nogironlar va ularning oilalarini nogironlik bilan bog'liq xarajatlarni, jumladan, tegishli ta'lim, maslahatlashish, moliyaviy yordam va vaqtincha patronaj parvarishini qoplash maqsadidagi davlat tomonidan yordam olish imkoniyatini ta'minlash bo'yicha;

d) nogironlarning davlat uy-joy dasturlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash bo'yicha;

e) nogironlarning pensiya nafaqalari va dasturlaridan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash bo'yicha.

29-modda. Siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etish

Ishtirokchi-davlatlar nogironlarning siyosiy huquqlarini va ulardan boshqalar bilan teng ravishda foydalanish imkoniyatini kafolatlaydi hamda quyidagi majburiyatlarni oladi:

a) nogironlar boshqalar bilan teng ravishda siyosiy va ijtimoiy hayotda to'g'ridan-to'g'ri yoki erkin saylangan vakillari orqali samarali va har tomonlama ishtirok etishlari, shu jumladan ovoz berish va saylanish huquqi va imkoniyatiga ega bo'lishlarini, xususan, quyidagilar orqali ta'minlash:

i) ovoz berish tartib-taomillari, binolari va materiallari anglash va foydalanish uchun mos, ochiq va oson bo'lishini ta'minlash;

ii) nogironlarning saylovlarda va ommaviy referendumlarda yashirin ovoz berishda qo'rqitilmasdan ishtirok etish hamda saylovlarda davlat hokimiyatining barcha darajalarida lavozimlarni amalda egallash va barcha ommaviy funksiyalarni bajarish uchun – bunda kerak bo'lganda, assistiv va yangi texnologiyalardan foydalanishga ko'maklashish orqali – o'z nomzodlarini ko'rsatish huquqini himoya qilish;

iii) nogironlarning saylovchilar sifatida xohish-irodalarini erkin ifoda etishini kafolatlash va shu maqsadda, zarur bo'lganda, ularning o'z tanlovi bo'yicha biror bir shaxs tomonidan ovoz berishda yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimoslarini qondirish;

b) nogironlarning kamsitishsiz va boshqalar bilan teng ravishda davlat ishlarini boshqarishda samarali va har tomonlama ishtirok etishlari mumkin bo'lgan muhitni yaratishga faol ko'maklashish hamda ularning davlat ishlarida ishtirok etishlarini rag'batlantirish, jumladan:

i) faoliyati mamlakatning davlat va siyosiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan nohukumat tashkilotlari va birlashmalarida, shu jumladan siyosiy partiyalar faoliyati va ularga rahbarlik qilishda ishtirok etish;

ii) nogironlar tashkilotlarini tuzish hamda nogironlarni xalqaro, milliy, mintaqaviy va mahalliy darajada ko'rsatish uchun ularga a'zo bo'lish.

30-modda. Madaniy hayotda, bo'sh vaqtni o'tkazish, dam olish va sport bilan shug'ullanishda ishtirok etish

1. Ishtirokchi-davlatlar nogironlarning boshqalar bilan teng ravishda madaniy hayotda ishtirok etish huquqini e'tirof etadi va nogironlarga quyidagilarni ta'minlash uchun barcha tegishli choralarni ko'radi:

a) mavjud shakllarda madaniyat asarlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi;

b) mavjud shakllarda televideniye dasturlari, filmlar, teatr va boshqa madaniy tadbirlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi;

c) teatrlar, muzeylar, kinoteatrlar, kutubxonalar va turizm xizmatlari kabi madaniy tadbirlar o'tkaziladigan yoki xizmatlar ko'rsatiladigan joylardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi, shuningdek milliy madaniy ahamiyatga ega yodgorlik va ob'ektlardan imkon qadar ko'proq foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi.

2. Ishtirokchi-davlatlar nogironlarning ijodiy, badiiy va intellektual salohiyatlarini – nafaqat o'z manfaatlarini uchun, balki butun jamiyatni boyitish maqsadida rivojlantirish va ulardan foydalanish imkoniyatini berish uchun tegishli choralarni ko'radi.

3. Ishtirokchi-davlatlar intellektual mulk huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunlar nogironlarning madaniyat asarlaridan foydalanish imkoniyatlariga asossiz yoki kamsituvchi to'siq bo'lib qolmasligini ta'minlash uchun xalqaro huquqqa muvofiq tegishli choralarni ko'radi.

4. Nogironlar boshqalar bilan teng ravishda ularning alohida madaniy va tili o'ziga xosligi, shu jumladan imo-ishora tillari va karlar madaniyati e'tirof etilishi va qo'llab-quvvatlanishi huquqiga ega.

5. Ishtirokchi-davlatlar nogironlarga boshqalar bilan teng ravishda bo'sh vaqtlarni o'tkazish, dam olish va sport tadbirlarida ishtirok etish imkoniyatini berish uchun quyidagi tegishli choralarni ko'radi:

a) nogironlarning barcha darajadagi umumiy yo'nalishdagi sport tadbirlarida iloji boricha to'liq ishtirok etishini rag'batlantirish va targ'ib etish;

b) nogironlarning nogironlar uchun maxsus sport va bo'sh vaqtni o'tkazish tadbirlarini tashkil qilish, ularni rivojlantirish va ularda ishtirok etish imkoniyatlariga ega bo'lishini ta'minlash hamda shu munosabat bilan ularga boshqalar bilan teng ravishda tegishli o'qitish, tayyorlov va resurslar taqdim etilishiga ko'maklashish;

c) nogironlar sport, rekreatsiya va turizm ob'ektlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlarini ta'minlash;

d) nogiron bolalarning boshqa bolalar bilan teng ravishda o'yinlarda, bo'sh vaqtlarini o'tkazishda, dam olish va sport tadbirlarida, shu jumladan, maktab tizimi doirasidagi tadbirlarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishlarini ta'minlash;

e) nogironlarning bo'sh vaqtni o'tkazish, turizm, dam olish va sport tadbirlarini tashkil etish bilan shug'ullanadiganlar xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlash.

31-modda. Statistika va ma'lumotlarni to'plash

1. Ishtirokchi-davlatlar ushbu Konvensiya ijrosini ta'minlash maqsadida strategiyalar ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradigan zarur axborotlarni, shu jumladan statistika va tadqiqot ma'lumotlarini to'plash majburiyatini oladi. Ushbu axborotni to'plash va saqlash jarayonida quyidagilar zarur:

a) nogironlarning shaxsiy hayoti maxfiyligi va daxlsizligini ta'minlash uchun yuridik belgilangan kafolatlar, jumladan, ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etish;

b) statistika ma'lumotlarni to'plash hamda ulardan foydalanishda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilishga taalluqli xalqaro e'tirof etilgan normalarga, shuningdek axloq prinsiplariga rioya etish.

2. Ushbu moddaga muvofiq to'plangan axborot tegishli tarzda ro'yxatga olinadi hamda ishtirokchi-davlatlar ushbu Konvensiya bo'yicha o'z majburiyatlarini qanday bajarayotganini baholash, shuningdek nogironlar o'z huquqlarini amalga oshirishda duch keladigan to'siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun foydalaniladi.

3. Ishtirokchi-davlatlar ushbu statistika ma'lumotlarini tarqatish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi hamda nogironlar va boshqa shaxslarga ulardan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi.

32-modda. Xalqaro hamkorlik

1. Ishtirokchi-davlatlar ushbu Konvensiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirish bo'yicha milliy sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash uchun xalqaro hamkorlik va uni rag'batlantirishning muhimligini e'tirof etadi hamda shu munosabat bilan, maqbul bo'lganda, tegishli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati, xususan, nogironlar tashkilotlari bilan sheriklikda davlatlararo aloqalar bo'yicha tegishli va samarali choralarni ko'radi. Ushbu choralar, xususan, quyidagilarni qamrab olishi mumkin:

a) xalqaro hamkorlik, shu jumladan xalqaro rivojlanish dasturlari nogironlarni qamrab olishi va ularning foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash;

b) mavjud imkoniyatlarni mustahkamlashni, shu jumladan axborot, tajriba, dasturlar va ilg'or ishlanmalar bilan o'zaro almashish orqali yengillashtirish va qo'llab-quvvatlash;

c) tadqiqotlar sohasida hamkorlik hamda ilmiy-texnikaviy bilimlardan foydalanishga ko'maklashish;

d) kerak bo'lganda, texnik-iqtisodiy, shu jumladan, ochiq va assistiv texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini osonlashtirish hamda ularni o'zaro almashish yo'li bilan, shuningdek texnologiyalarni uzatish orqali yordam ko'rsatish.

2. Ushbu moddaning qoidalari har bir ishtirokchi-davlatning mazkur Konvensiyaga ko'ra o'z majburiyatlarini bajarish bo'yicha majburiyatlariga ta'sir qilmaydi..

33-modda. Milliy amalga oshirish va monitoring

1. Ishtirokchi-davlatlar o'zlarining tashkiliy tuzilishiga muvofiq hukumatda ushbu Konvensiyani amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni nazorat qiluvchi bir yoki bir nechta instansiyalarni tayinlaydi hamda kerakli tarzda, turli sektorlar va turli darajalarda tegishli ishlarda ko'maklashish uchun hukumatda muvofiqlashtiruvchi mexanizmni ta'sis etish yoki tayinlash imkoniyatini o'rganadi.

2. Ishtirokchi-davlatlar o'zlarining huquqiy va ma'muriy tuzilishiga muvofiq ushbu Konvensiyani amalga oshirishni rag'batlantirish, himoya qilish va monitoringi uchun, kerak bo'lganda, bir yoki bir nechta mustaqil mexanizmlarni qamrab oladigan tuzilmani qo'llab-quvvatlaydi, mustahkamlaydi, tayinlaydi yoki ta'sis etadi. Ishtirokchi-davlatlar bunday mexanizmni tayinlash yoki ta'sis etishda inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish bilan shug'ullanadigan milliy muassasalarning maqomi va amal etishiga taalluqli prinsiplarni e'tiborga oladi.

3. Fuqarolik jamiyati, xususan, nogironlar va ularning vakolatli tashkilotlari kuzatish jarayoniga to'liq jalb qilinadi hamda unda ishtirok etadi.

34-modda. Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita

1. Quyida ko'zda tutilgan funksiyalarni bajaradigan Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita (keyingi o'rinlarda – "Qo'mita") ta'sis etiladi.

2. Ushbu Konvensiya kuchga kirgan paytda Qo'mita o'n ikki ekspertdan iborat bo'ladi. Konvensiyani yana oltmishta davlat ratifikatsiya qilganidan yoki unga qo'shilganidan keyin, Qo'mita a'zolarining soni olti nafarga ko'payib, eng yuqori daraja – o'n sakkiz a'zoga yetadi.

3. Qo'mita a'zolari shaxsan o'z nomidan ish ko'radi hamda yuksak axloqiy fazilatlariga hamda ushbu Konvensiya qamrab olgan sohada e'tirof etilgan chuqur bilim va tajribaga egadir. Ishtirokchi-davlatlarga o'z nomzodlarini ko'rsatish paytida ushbu Konvensiyaning 4-moddasi 3-bandida belgilangan qoidalarni tegishli tarzda hisobga olish taklif etiladi.

4. Qo'mita a'zolari ishtirokchi-davlatlar tomonidan saylanadi, bunda e'tibor adolatli jo'g'rofiy taqsimotga, sivilizatsiyalarning va asosiy huquqiy tizimlarning turli shakllari vakilligiga, jinslarning muvozanatli vakilligiga va nogiron ekspertlarning ishtirok etishiga qaratiladi.

5. Qo'mita a'zolari ishtirokchi-davlatlar tomonidan o'z fuqarolari orasidan ko'rsatilgan nomzodlar ro'yxatidan Ishtirokchi-davlatlar konferensiyasi yig'ilishlarida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Ishtirokchi-davlatlarning uchdan ikki qismi kvorumni tashkil etadigan ushbu yig'ilishlarda ishtirokchi-davlatlar vakillarining hozir bo'lgan va ovoz berishda ishtirok etayotgan eng ko'p va mutlaq ko'pchilik ovozni olgan nomzodlar Qo'mita tarkibiga saylangan hisoblanadi.

6. Dastlabki saylovlar ushbu Konvensiya kuchga kirgan kundan kechi bilan olti oy o'tgandan so'ng o'tkaziladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi har bir saylov sanasidan kamida to'rt oy oldin ishtirokchi-davlatlarga ikki oy mobaynida nomzodlarni taqdim etishini taklif qilgan holda xat bilan murojaat qiladi. Shundan so'ng, Bosh kotib shu tarzda ko'rsatilgan barcha nomzodlar ro'yxatini ularni ilgari surgan ishtirokchi-davlatlarni ko'rsatgan holda alifbo tartibida tuzadi hamda ushbu ro'yxatni Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlariga yuboradi.

7. Qo'mita a'zolari to'rt yil muddatga saylanadi. Ular faqat bir marta qayta saylanish huquqiga ega. Biroq birinchi saylovlarda saylangan olti a'zoning vakolat muddati ikki yillik davr oxirida tugaydi; birinchi saylovlardan keyin darhol ushbu olti a'zoning ismlari mazkur moddaning 5-bandida qayd etilgan yig'ilishlarda raislik qiluvchi tomonidan qur'a tashlash orqali aniqlanadi.

8. Qo'mitaning olti nafar qo'shimcha a'zosini saylash mazkur moddaning tegishli qoidalarini bilan tartibga solinadigan odatdagi saylovlarga to'g'rilab belgilanadi.

9. Agar Qo'mitaning biron bir a'zosi vafot etsa yoki iste'foga chiqsa yoxud boshqa biron bir sababga ko'ra o'z majburiyatlarini bajara olmasligini e'lon qilsa, ushbu a'zoning nomzodini ko'rsatgan ishtirokchi-davlat vakolatning qolgan muddatiga malakaga ega bo'lgan hamda ushbu moddaning tegishli qoidalarida nazarda tutilgan talablariga javob beradigan boshqa ekspertni tayinlaydi.

10. Qo'mita o'zining tartib-taomillar qoidalarini o'rnatadi.

11. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Qo'mita tomonidan ushbu Konvensiyaga muvofiq o'z vazifalarining samarali amalga oshirilishi uchun zarur xodim va moddiy vositalarni taqdim etadi hamda uning birinchi yig'ilishini chaqiradi.

12. Ushbu Konvensiyaga muvofiq ta'sis etilgan Qo'mita a'zolari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan tasdiqlangan mukofotni Qo'mita majburiyatlarining ahamiyatini hisobga olgan holda, Assambleya tomonidan o'rnatilgan tartib va shartlarda Birlashgan Millatlar Tashkilotining mablag'laridan oladilar.

13. Qo'mita a'zolari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Imtiyozlar va immunitetlar to'g'risidagi konvensiyasining tegishli bo'limlarida mustahkamlangan Birlashgan Millatlar Tashkilotining ishlari bo'yicha xizmat safarlaridagi ekspertlarning yengilliklari, imtiyozlari va immunitetlariga bo'lgan huquqiga ega.

35-modda. Ishtirokchi-davlatlarning ma'ruzalari

1. Har bir ishtirokchi-davlat Qo'mitaga Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi orqali ushbu Konvensiya bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish uchun ko'rilgan choralar va tegishli ishtirokchi-davlat uchun mazkur Konvensiya kuchga kirgandan keyin ikki yil avomida bu borada erishilgan yutuqlar to'g'risida keng qamrovli ma'ruzani taqdim etadi.

2. Ishtirokchi-davlatlar shundan so'ng navbatdagi ma'ruzalarni kamida to'rt yilda bir marta, shuningdek Qo'mita bu haqda ulardan so'raganda taqdim etadi.

3. Qo'mita ma'ruzalar mazmunini ifodalaydigan dasturilamal prinsiplarni belgilaydi.

4. Qo'mitaga dastlabki keng qamrovli ma'ruzani taqdim etgan ishtirokchi-davlatga keyingi ma'ruzalarida avval taqdim etilgan axborotlarni takrorlashning zarurati yo'q. Ishtirokchi-davlatlarga Qo'mitaga ma'ruza tayyorlashni ochiq va oshkor jarayonga aylantirish hamda tegishli tartibda ushbu Konvensiyaning 4-moddasi 3-bandida ifodalangan qoidalarini hisobga olish to'g'risida o'ylab ko'rish taklif etiladi.

5. Ma'ruzalarda ushbu Konvensiya bo'yicha majburiyatlarni bajarish darajasiga ta'sir qiladigan omillar va qiyinchiliklar ko'rsatilishi mumkin.

36-modda. Ma'ruzalarni ko'rib chiqish

1. Har bir ma'ruza Qo'mita tomonidan ko'rib chiqiladi va u ma'ruza bo'yicha o'rinli deb bilgan takliflar va umumiy tavsiyalarini beradi hamda ularni tegishli ishtirokchi-davlatga yuboradi. Ishtirokchi-davlat Qo'mitaga javob sifatida o'z tanlovi bo'yicha har qanday axborotni yuborishi mumkin. Qo'mita ishtirokchi-davlatlardan ushbu Konvensiyani amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha axborotlarni so'rashi mumkin.

2. Ishtirokchi-davlat ma'ruzani taqdim etishni jiddiy ravishda kechiktirayotgan bo'lsa, Qo'mita tegishli ishtirokchi-davlatni xabarnoma orqali, agar ushbu xabarnomadan so'ng uch oy

mobaynida tegishli ma'ruza taqdim etilmasa, mazkur ishtirokchi-davlatda ushbu Konvensiyani amalga oshirish haqidagi masala Qo'mita ixtiyorida bo'lgan ishonchli axborotlar asosida ko'rib chiqilishini talab etishi to'g'risida xabardor qilishi mumkin. Qo'mita tegishli ishtirokchi-davlatga ana shunday ko'rib chiqishda ishtirok etishni taklif qiladi. Agar ishtirokchi-davlat javob tartibida tegishli ma'ruzani taqdim etsa, ushbu moddaning 1-bandi qoidolari qo'llaniladi.

3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi ma'ruzalarni barcha ishtirokchi-davlatlar ixtiyoriga taqdim etadi.

4. Ishtirokchi-davlatlar o'zlarining mamlakatlaridagi jamoatchilik uchun o'z ma'ruzalaridan keng foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi hamda ushbu ma'ruzalarga taalluqli qoidalar va umumiy tavsiyalar bilan tanishishni yengillashtiradi.

5. Qo'mita buni o'rinli deb bilganida, u ishtirokchi-davlatlarning ma'ruzalarini Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashtirilgan muassasalari, jamg'armalari va dasturlariga, shuningdek boshqa vakolatli organlarga ular ushbu ma'ruzalarda texnik maslahat yoki yordam to'g'risidagi iltimoslarga yoxud oxirigisi zarurligi bo'yicha ko'rsatmaga e'tibor qaratishlari uchun Qo'mitaning ushbu iltimoslar yoki ko'rsatmalar bo'yicha takliflari va tavsiyalari (agar mavjud bo'lsa) bilan birga yuboradi.

37-modda. Ishtirokchi-davlatlar va Qo'mita o'rtasidagi hamkorlik

1. Har bir ishtirokchi-davlat Qo'mita bilan hamkorlik qiladi va uning a'zolariga o'z mandatlarini bajarishda yordam beradi.

2. Qo'mita ishtirokchi-davlatlar bilan o'z munosabatlarida ushbu Konvensiyani amalga oshirish bo'yicha, shu jumladan xalqaro hamkorlik yordamida milliy imkoniyatlarni kuchaytirish yo'llari va vositalarini tegishli tarzda hisobga oladi.

38-modda. Qo'mitaning boshqa organlar bilan munosabatlari

Ushbu Konvensiyani samarali amalga oshirishga ko'maklashish va u tomonidan qamrab olinadigan sohalarida xalqaro hamkorlikni rag'batlantirish:

a) Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashtirilgan muassasalari va boshqa organlari ushbu Konvensiyadagi o'z mandatlariga taalluqli qoidalarini amalga oshirish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishda vakil bo'lish huquqiga ega. Qo'mita buni o'rinli deb hisoblaganda, u ixtisoslashtirilgan muassasalar va boshqa vakolatli organlardan ularning tegishli mandatlariga kiradigan sohalarida Konvensiyani amalga oshirish bo'yicha ekspert xulosasini berishni taklif qilishi mumkin. Qo'mita Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashtirilgan muassasalari va boshqa organlariga ularning faoliyati doirasiga taalluqli sohalarida Konvensiyani amalga oshirish haqidagi ma'ruzalarni taqdim etishini taklif qilishi mumkin;

b) o'z vakolatini amalga oshirishda Qo'mita, zarur hollarda, inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar asosida ta'sis etilgan boshqa tegishli organlar bilan ma'ruzalarni taqdim etishning tegishli dasturilamal prinsiplarini, shuningdek ular tomonidan kiritilgan takliflar va umumiy tavsiyalarida muvofiqlikni ta'minlash hamda ularning o'z vazifalarini amalga oshirishda bir-birini qaytarish va parallellikdan qochish masalasida maslahatlashadi.

39-modda. Qo'mita ma'ruzasi

Qo'mita ikki yilda bir marta Bosh Assambleya hamda Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashga o'zining faoliyati to'g'risida ma'ruza taqdim etadi hamda ishtirokchi-davlatlardan olingan ma'ruzalar va axborotlarni ko'rib chiqishga asoslangan takliflar va umumiy tavsiyalarni berishi mumkin. Bunday takliflar va umumiy tavsiyalar Qo'mita ma'ruzasiga ishtirokchi-davlatlarning izohlari (agar mavjud bo'lsa) bilan birga kiritiladi.

40-modda. Ishtirokchi-davlatlarning Konferensiyasi

1. Ishtirokchi-davlatlar ushbu Konvensiyani amalga oshirishga taalluqli har qanday masalani ko'rib chiqish uchun muntazam ravishda Ishtirokchi-davlatlarning konferensiyasiga to'planadi.

2. Ushbu Konvensiya kuchga kirgandan so'ng olti oydan kechiktirmay Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Ishtirokchi-davlatlar konferensiyasini chaqiradi. Keyingi yig'ilishlar Bosh kotib tomonidan ikki yilda bir marta yoki Ishtirokchi-davlatlar konferensiyasi qarori bilan chaqiriladi.

41-modda. Depozitariy

Ushbu Konvensiyaning depozitariyi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Kotibi hisoblanadi.

42-modda. Imzolash

Ushbu Konvensiya barcha davlatlar va mintaqaviy integratsiya tashkilotlari tomonidan imzolash uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi Markaziy muassasalarida 2007 yil 30 martdan ochiq.

43-modda. Majburiyatga rozilik

Ushbu Konvensiya uni imzolagan davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilinishi va uni imzolagan mintaqaviy integratsiya tashkilotlari tomonidan rasman tasdiqlanishi kerak. U Ushbu Konvensiyani imzolamagan har qanday davlat yoki mintaqaviy integratsiya tashkilotlarining unga qo'shilishi uchun ochiq.

44-modda. Mintaqaviy integratsiya tashkilotlari

1. "Mintaqaviy integratsiya tashkiloti" muayyan mintaqaning suveren davlatlari tomonidan tashkil etilgan, unga a'zo-davlatlar ushbu Konvensiya bilan tartibga solinadigan masalalar bo'yicha vakolat bergan tashkilotni anglatadi. Bunday tashkilotlar o'zlarining rasmiy tasdiqlash yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjatlarida ushbu Konvensiya bilan tartibga solinadigan masalalarga nisbatan o'z vakolatlari hajmini ko'rsatadilar. Keyinchalik ular depozitariyni o'z vakolatlari hajmidagi har qanday jiddiy o'zgarishlar to'g'risida xabardor qiladi.

2. Ushbu Konvensiyadagi "ishtirokchi-davlatlar"ga havolalar bunday tashkilotlarga ularning vakolati doirasida taalluqlidir.

3. Ushbu Konvensiyaning 45-moddasi 1-bandi hamda 47-moddasi 2 va 3-bandlari maqsadlari uchun mintaqaviy integratsiya tashkiloti tomonidan saqlash uchun topshirilgan birorta hujjat hisobga olinmaydi.

4. Mintaqaviy integratsiya tashkilotlari o'z vakolatlariga taalluqli masalalarda Ishtirokchi-davlatlar konferensiyasida ushbu Konvensiyaning ishtirokchilari bo'lgan ishtirokchi-davlatlarning soniga teng ovozlari soni bilan ovoz berish huquqini amalga oshirishlari mumkin. Bunday tashkilot, agar uning qaysidir bir a'zo-davlati o'z huquqini amalga oshirayotgan bo'lsa, o'zining ovoz berish huquqini amalga oshirmaydi va aksincha.

45-modda. Kuchga kirishi

1. Ushbu Konvensiya yigirmanchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilganidan keyin o'ttizinchi kuni kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiya uni ratifikatsiya qiladigan, uni rasman tasdiqlaydigan yoki unga yigirmanchi hujjat saqlash uchun topshirilgandan keyin qo'shilgan har bir davlat yoki mintaqaviy integratsiya tashkiloti uchun ular o'zining ana shunday hujjatini saqlash uchun topshirilganidan keyin o'ttizinchi kuni kuchga kiradi

46-modda. Izohlar

1. Ushbu Konvensiyaning ob'ekti va maqsadiga mos kelmaydigan qo'shimcha shartlarga yo'l qo'yilmaydi.
2. Qo'shimcha shartlar istalgan vaqtda olib tashlanishi mumkin.

47-modda. Tuzatishlar

1. Har qanday ishtirokchi-davlat ushbu Konvensiyaga tuzatish taklifini kiritishi va uni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga taqdim etishi mumkin. Bosh kotib taklif kiritilgan har qanday tuzatishlarni ishtirokchi-davlatlarga ma'lum qiladi hamda ulardan ushbu taklifni ko'rib chiqish va bu to'g'risida qaror qabul qilish uchun ishtirokchi-davlatlar konferensiyasini o'tkazish tarafdori ekanliklari to'g'risida xabardor qilishlarini so'raydi. Agar bunday xabar yetkazilgan sanadan boshlab to'rt oy mobaynida ishtirokchi-davlatlarning hech bo'lmaganda uchdan bir qismi shunday konferensiyani o'tkazishni bildirsa, Bosh kotib bu konferensiyani Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida chaqiradi. Konferensiyada hozir bo'lgan va ovoz berishda ishtirok etayotgan ishtirokchi-davlatlarning uchdan ikki qismining ko'pchiligi tomonidan ma'qullangan har qanday tuzatish Bosh kotib tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasiga tasdiqlash uchun, undan so'ng barcha ishtirokchi-davlatlarga qabul qilish uchun yuboriladi.

2. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq ma'qullangan va tasdiqlangan tuzatish saqlash uchun topshirilgan qabul qilish to'g'risidagi xujjatlarning soni ushbu tuzatish ma'qullangan sanadagi ishtirokchi-davlatlar sonining uchdan ikki qismiga yetganidan keyin o'ttizinchi kuni kuchga kiradi. Keyinchalik tuzatish har qanday ishtirokchi-davlat uchun o'zining qabul qilish to'g'risidagi hujjatni saqlash uchun topshirganidan keyin o'ttizinchi kuni kuchga kiradi. Tuzatish faqat uni qabul qilgan ishtirokchi-davlatlar uchun majburiydir.

3. Agar Ishtirokchi-davlatlar konferensiyasi konsensus asosida tegishli qarorni qabul qilsa, ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq ma'qullangan va tasdiqlangan, faqat 34, 38, 39 va 40-moddalarga taalluqli bo'lgan tuzatish barcha ishtirokchi-davlatlar uchun saqlash uchun topshirilgan qabul qilish to'g'risidagi xujjatlarning soni ushbu tuzatish ma'qullangan sanadagi ishtirokchi-davlatlar sonining uchdan ikki qismiga yetganidan keyin o'ttizinchi kuni kuchga kiradi.

48-modda. Denonsatsiya

Ishtirokchi-davlat ushbu Konvensiyani Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibini yozma ravishda xabardor qilish orqali denonsatsiya qilishi mumkin. Denonsatsiya Bosh kotib tomonidan ana shunday bildirgi olingan sanadan bir yil o'tgandan keyin kuchga kiradi.

49-modda. Foydalanish imkoniyati bo'lgan format

Ushbu Konvensiya matni foydalanish imkoniyati bo'lgan formatlarda bo'lishi ta'minlanishi kerak.

50-modda. Auten (asliga to'g'ri) matnlar

Ushbu Konvensiyaning ingliz, arab, ispan, xitoy, rus va frantsuz tillaridagi matnlari asliga to'g'ri.

V BO'LIM. ODIL SUDLOVNI AMALGA OSHIRISH SOHASIDA SHAXSLARNI HIMOYA QILISH

QIYNOQLAR HAMDA MUOMALA VA JAZOLASHNING BOSHQA SHAFQATSIZ, G'AYRIINSONIY YOKI QADR-QIMMATNI KAMSITUVCHI TURLARIGA QARSHI KONVYENSIYA

*BMT Bosh Assambleyasining 1984-yil 10-dekabrda
39/46-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustda
130-I-son Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan*

Ushbu Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlari,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavida e'lon qilingan prinsiplarga muvofiq, insoniyat oilasi hamma a'zolarining teng va ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik, adolat va umumiy tinchlikning asosi ekanligini *e'tiborga olib*,

bu huquqlar insonlar shaxsiyatiga mos qadr-qimmatdan kelib chiqishini *tan olib*,

davlatlarning Nizomga, jumladan, 55-moddaga muvofiq, inson huquqlari va asosiy erkinliklarining yalpi hurmat qilinishi va ularga rioya etilishiga ko'maklashish majburiyatlarini *e'tiborga olib*,

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 5-moddasini hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 7-moddasini, ularning ikkalasida hech kim qiynoqqa solinmasligi yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan muomala va jazoga tortilmasligi nazarda tutilganini *hisobga olib*,

shuningdek, barcha shaxslarni Qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazo turlaridan himoya qilish to'g'risida 1975-yil 9-dekabrda Bosh Assambleya tomonidan qabul qilingan deklaratsiyani *hisobga olib*,

butun dunyoda qiynoqlar va shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazo turlariga qarshi kurash samaradorligini oshirishni *istab*,
quyidagilar to'g'risida kelishib oldilar:

I QISM

1-modda

1. Ushbu Konvensiyaning maqsadlari uchun "qiynoq" ta'riflari har qandaydir shaxsga undan yoki uchinchi shaxsdan u yoki uchinchi shaxs sodir etgan yoki u sodir etishda gumon qilinayotgan harakatlarining jazolanishi uchun ma'lumotnomalar yoki iqrornomasini olishda qasddan jismoniy yoki ruhiy kuchli og'riq yoki azob yetkazilishi, shuningdek uni yoki uchinchi shaxsni qo'rqitish yoki majburlash yoxud bunday og'riq yoki azob davlatning mansabdor shaxsi yoki rasmiy sifatidagi boshqa shaxs yoxud ularning ig'vogarligi bilan yoki ularning ma'lumoti yoki indamay roziligi bilan biror bir xususiyatdagi kamsitishlarga asoslangan har qanday sababga ko'ra yetkaziladigan harakatni anglatadi. Bu ta'rifga faqat qonuniy sanksiyalar natijasida paydo bo'ladigan shu sanksiyalardan ajralmas yoki ulardan tasodifan kelib chiqadigan og'riq yoki azoblarni o'z ichiga olmaydi.

2. Ushbu modda yana-da kengroq qo'llash to'g'risidagi qoidalarni o'z ichiga olgan yoki olishi mumkin bo'lgan biron bir xalqaro shartnomaga yoki biron bir milliy qonunchilikka zarar yetkazmaydi.

2-modda

1. Har bir ishtirokchi-davlat yurisdiksiyasidagi istalgan hududda qiynoq harakatlarini oldini olish uchun samarali qonunchilik, ma'muriy, sud va boshqa choralarni ko'radi.

2. Hech qanday istisno holatlar, ular qanday bo'lishidan qat'i nazar, urush holati yoki urush xavfi, ichki siyosiy beqarorlik yoki boshqa har qanday favqulodda holat, qiynoqni oqlashga xizmat qilolmaydi.

3. Yuqori turuvchi boshliq yoki davlat hokimiyatining buyrug'i qiynoqni oqlashga xizmat qilolmaydi.

3-modda

1. Hech qaysi ishtirokchi-davlat, agar unga u yerda qiynoqlar qo'llanilishi tahdidini taxmin qilishga jiddiy asoslari mavjud bo'lsa, biror bir shaxsni boshqa davlatga jo'natmasligi, qaytarmasligi ("refouler") yoki bermasligi kerak.

2. Bunday asoslarning mavjudligini aniqlash uchun vakolatli hokimiyatlar ishga taalluqli barcha holatlar, jumladan, tegishli hollarda, ushbu davlatda inson huquqlarining doimiy qo'pol, jiddiy va ommaviy buzilishining mavjudligini qo'shib e'tiborga oladi.

4-modda

1. Har bir ishtirokchi-davlat hamma qiynoq harakatlari uning jinoyat qonunchiligiga muvofiq ko'rib chiqilishini ta'minlaydi. Xuddi shu narsa qiynoqqa solishga urinish va biror bir shaxsning qiynoqqa sherikligi yoki ishtiroki bo'lgan harakatlariga ham tegishli.

2. Har bir ishtirokchi-davlat bunday jinoyatlar uchun ularning og'irlik xususiyatini hisobga olgan holda tegishli jazolarni tayinlaydi.

5-modda

1. Har bir ishtirokchi-davlat quyidagi hollarda 4-moddada ko'rsatilgan jinoyatlarga nisbatan yurisdiksiyasini belgilash uchun zarur bo'lishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi:

a) jinoyatlar uning yurisdiksiyasidagi biror bir hududda yoki ushbu Davlatda ro'yxatga olingan dengiz yoki havo kemasi bortida sodir qilinganda;

b) taxmin qilingan jinoyatchi ushbu Davlatning fuqarosi bo'lganda;

s) qurbon ushbu Davlatning fuqarosi bo'lganida va, agar mazkur Davlat buni maqsadga muvofiq deb hisoblasa.

2. Har bir ishtirokchi-davlat shu tarzda shunday tadbirlar qabul qiladiki, ular gumon qilinayotgan jinoyatchi uning yurisdiksiyasidagi biror bir hududda bo'lgan hollarda shunday jinoyatlarga nisbatan o'z yurisdiksiyasini o'rnatish uchun zarur bo'lishi mumkin bo'lgan choralarni ko'radi va u 8-moddaga muvofiq uni ushbu moddaning 1-bandida keltirilgan davlatlardan hech biriga topshirmaydi.

3. Ushbu Konvensiya ichki qonun hujjatlariga muvofiq biron bir jinoyat yurisdiksiyasini amalga oshirishni istisno etmaydi.

6-modda

1. Uning ixtiyorida bo'lgan axborotni ko'rib chiqqandan keyin vaziyat shuni talab etishiga ishonch hosil qilgach, har qanday ishtirokchi-davlat hududida bo'lgan 4-moddada ko'rsatilgan jinoyatlardan birini sodir etganlikda ayblanayotgan shaxsni hibsga oladi yoki uning shu yerda bo'lishini ta'minlaydigan boshqa yuridik choralarni ko'radi. Hibsga olish va boshqa shu kabi

yuridik choralar ushbu Davlatning qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi, biroq bu jinoiy-protsessual harakatlar yoki berish bo'yicha harakat qilish uchun zarur bo'lgan vaqt mobaynida davom etishi mumkin.

2. Bunday Davlat darhol faktlar bo'yicha oldindan tekshiruv o'tkazadi.

3. Ushbu moddaning 1-bandiga asosan hibsdagi bo'lgan har qanday shaxs u fuqarosi bo'lgan davlatning eng yaqin tegishli vakili bilan yoki agar u fuqaroligi yo'q shaxs bo'lsa, odatda, u yashab turgan davlatning vakili bilan darhol aloqa o'rnatishida yordam ko'rsatiladi.

4. Davlat ushbu moddaga muvofiq biror bir shaxsni hibsga olsa, 5-moddaning 1-bandida qayd etilgan davlatlarga bunday shaxsning hibsdaligi fakti to'g'risida va uning hibsga olinishi uchun asos bo'lgan vaziyatlar haqida darhol xabar beradi. Ushbu moddaning 2-bandida nazarda tutilgan dastlabki tergovni olib boradigan Davlat darhol u olgan ma'lumotlar to'g'risida yuqorida qayd etilgan davlatlarga xabar beradi hamda o'z yurisdiksiyasini amalga oshirish niyati haqida ko'rsatadi.

7-modda

1. Yurisdiksiyasidagi hududda 4-moddada ko'rsatilgan jinoyatlardan birini sodir etishda gumon qilingan shaxs topilgan ishtirokchi-davlat, agar u 5-moddada nazarda tutilgan hollarda jinoyatchini bermasa, mazkur ishni sud tekshiruv uchun o'zining vakolatli hukumatlariga topshiradi.

2. Bu hukumatlar jiddiy tusdagi oddiy jinoyat holatidagi kabi ushbu davlat qonunchiligiga muvofiq qaror qabul qiladi. 5-moddaning 2-bandida sanab o'tilgan hollarda sud tekshiruv va qoralash uchun zarur dalillarga qo'yiladigan talablar hech bir holatda 5-moddaning 1-bandida ko'rsatilgan hollarda qo'llaniladiganiga nisbatan kamroq jiddiy bo'lmaydi.

3. 4-moddada ko'rsatilgan jinoyatlardan biri bo'yicha muhokama amalga oshiriladigan har qanday shaxsga nisbatan muhokamaning barcha bosqichlarida adolatli muomala qilish kafolatlanadi.

8-modda

1. 4-moddada qayd etilgan jinoyatlar ishtirokchi-davlatlar o'rtasida mavjud bo'lgan ekstraditsiya to'g'risidagi biror bir shartnomaga kiritiladigan jinoyatlar sifatida kiritilishi kerak deb hisoblanadi. Ishtirokchi-davlatlar bunday jinoyatlarni o'zlari o'rtasida tuziladigan ekstraditsiya to'g'risidagi biror bir shartnomaga kiritiladigan jinoyatlar sifatida kiritish majburiyatini oladilar.

2. Agar ekstraditsiya qilishni shartnoma mavjudligi bilan shart qiladigan ishtirokchi-davlat ekstraditsiya qilish to'g'risidagi shartnomaga ega bo'lmagan boshqa ishtirokchi-davlatdan ekstraditsiya qilish to'g'risidagi iltimosnomani olsa, u bunday jinoyatlarga nisbatan ushbu Konvensiyani ekstraditsiya uchun huquqiy asos sifatida ko'rib chiqishi mumkin. Ekstraditsiya ekstraditsiya qilish to'g'risidagi iltimos bilan murojaat qilingan Davlatning qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa shartlarga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Ekstraditsiya qilishni shartnoma mavjudligi bilan shart qilmaydigan ishtirokchi-davlatlar o'zaro munosabatlarda bunday jinoyatlarni ekstraditsiya to'g'risidagi iltimosnoma bilan murojaat qilingan Davlatning qonunchiligida nazarda tutilgan shartlarga muvofiq ekstraditsiya qilishga olib keladigan jinoyatlar sifatida ko'rib chiqadilar.

4. Ishtirokchi-davlatlar o'rtasida ekstraditsiya maqsadlari uchun bunday jinoyatlar nafaqat sodir qilinadigan joyda, balki 5-moddaning 1-bandiga muvofiq o'z yurisdiksiyasini o'rnatishi lozim bo'lgan davlatlar hududida ham sodir qilingandek ko'rib chiqiladi.

9-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bir-birlariga 4-moddada sanab o'tilgan jinoyatlardan biron biriga nisbatan qo'llanilgan jinoiy-protsessual harakatlarni, jumladan, ularning ixtiyorida sud tekshiruv

uchun zarur bo'lgan barcha mavjud dalillarni taqdim etish bilan bog'liq eng to'liq yordamni ko'rsatadilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar o'z majburiyatlarini ushbu moddaning 1-bandiga binoan ular o'rtasida tuzilishi mumkin bo'lgan o'zaro huquqiy yordam to'g'risidagi har qanday shartnomalarga muvofiq bajaradi.

10-modda

1. Har bir ishtirokchi-davlat qiynoqlarni taqiqlashga tegishli o'quv materiallari va axborotlarni huquqni qo'llovchi organlar xodimlarini, fuqarolik yoki harbiy, tibbiy xodimlarni, davlatning mansabdor shaxslari va har qanday shaklda hibsga olish, ushlab turish yoki qamoqqa olishga duchor bo'lgan shaxslarni qamoqda saqlash va so'roq qilishga yoki ularga muomala qilish bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa shaxslarni tayyorlash dasturlariga to'liq ravishda kiritilishini ta'minlaydi.

2. Har bir ishtirokchi-davlat bu taqiqni biror bir shu kabi shaxslarning majburiyatlar va vazifalariga oid qoida yoki yo'riqnoma kiritadi.

11-modda

Har bir ishtirokchi-davlat har qanday qiynoq holatlariga yo'l qo'ymaslik uchun uning yurisdiksiyasidagi bo'lgan biron bir hududda hibsga olish, ushlab turish yoki qamoqqa olishning har qanday shakliga duchor bo'lgan shaxslarni qamoqda saqlash va ular bilan muomala qilish, shuningdek so'roq qilishga taalluqli qoida, yo'riqnoma, usul va amaliyotlarni muntazam ko'rib chiqadi.

12-modda

Har bir ishtirokchi-davlat uning yurisdiksiyasidagi biron bir hududda qiynoq qo'llanilgan deb taxmin qilishga yetarli asoslar mavjud bo'lganda, uning vakolatli organlari tez va xolis tekshiruv o'tkazishini ta'minlaydi.

13-modda

Har bir ishtirokchi-davlat, ushbu Davlat yurisdiksiyasida bo'lgan biron bir hududda qiynoqlarga duchor bo'lganligini tasdiqlaydigan har qanday shaxsga shu davlatning vakolatli organlariga shikoyat qilish hamda ular tomonidan bunday shikoyatni tez va xolis ko'rib chiqilishi huquqini ta'minlaydi. Da'vogar va guvohlarni har qanday shakllardagi yomon muomala yoxud uning shikoyati yoki har qanday guvohlik ko'rsatmalari bilan bog'liq qo'rqitishdan himoya qilishni ta'minlash uchun choralar ko'riladi.

14-modda

1. Har bir ishtirokchi-davlat o'z huquqiy tizimida qiynoqlar qurboni tovon puli olishini va iloji borichato'liqreabilitatsiyauchunmablag'larniqamraboluvchi,huquqiysanksiyabilanto'ldiriladigan adolatli va muqobil tovon olish huquqiga ega bo'lish huquqini ta'minlaydi. Jabrlanuvchi qiynoq natijasida vafot etgan taqdirda, tovon puli olish huquqi uning qaramog'idagilarga beriladi.

2. Ushbu moddada hech narsa qurbon yoki boshqa shaxslarning milliy qonunchilikka ko'ra mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday tovon pulini olish huquqiga daxl qilmaydi.

15-modda

Har bir ishtirokchi-davlat belgilanganidek, qiynoq ostida berilgan har qanday ariza istalgan sud muhokamasida dalil sifatida foydalanmasligini ta'minlaydi, faqat qiynoqlar sodir etishda ayblanayotgan shaxsga qarshi ariza berilganining isboti sifatida foydalaniladigan hollar bundan mustasno.

16-modda

Har bir ishtirokchi-davlat yurisdiksiyasida bo'lgan biron bir hududda 1-moddada mavjud bo'lgan qiynoqlar ta'rifiga kirmaydigan shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazolashning boshqa harakatlarini, agar bunday harakatlar davlatning mansabdor shaxsi yoki rasmiy sifatida yoxud ularning ig'vogarligida yoki ularning ruxsati yoxud indamay roziligi bilan chiqqan boshqa shaxs tomonidan sodir etilganda ushbu harakatlarni oldini olish majburiyatini oladi. Xususan, 10, 11, 12 va 13-moddalarda keltirilgan majburiyatlar qiynoq to'g'risidagi mulohazalar shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazoning boshqa shakllari to'g'risidagi mulohazalar bilan almashtirilgan holda qo'llaniladi.

2. Ushbu Konvensiyaning qoidalarini shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazoni taqiqlovchi yoxud ekstraditsiya yoki chiqarib yuborishga tegishli har qanday boshqa xalqaro shartnomalar yoki milliy qonunchilikning qoidalariga zarar keltirmaydi.

II QISM

17-modda

1. Qiynoqlarga qarshi qo'mita (keyingi o'rinlarda – Qo'mita) tuziladi, u quyida nazarda tutilgan vazifalarni bajaradi. Qo'mita yuksak ma'naviy fazilatlariga ega va inson huquqlari sohasida vakolatli deb tan olingan hamda shaxs sifatida chiqadigan o'nta ekspertdan iborat. Ekspertlar ishtirokchi-davlatlar tomonidan saylanadi, shu bilan birga, adolatli jo'g'rofiy taqsimlanishga va yuridik tajribaga ega bo'lgan bir nechta shaxslarning ishtirok etishining maqsadga muvofiqligiga e'tibor beriladi.

2. Qo'mita a'zolari ishtirokchi-davlatlar tomonidan ko'rsatilgan ro'yxatdagi shaxslar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Har bir ishtirokchi-davlat o'z fuqarolari orasidan bitta nomzod ko'rsatishi mumkin. Ishtirokchi-davlatlar, shuningdek Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga muvofiq ta'sis etilgan Inson huquqlari bo'yicha qo'mitaning a'zolari bo'lgan hamda Qiynoqlarga qarshi qo'mitada ishlash istagini bildirgan shaxslarni ko'rsatishning maqsadga muvofiqligini ham hisobga oladi.

3. Qo'mita a'zolarining saylovi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tomonidan ikki yilda bir marta chaqiriladigan ishtirokchi-davlatlar yig'ilishlarida o'tkaziladi. Kvorumi ishtirokchi-davlatlarning uchdan ikki qismini tashkil etadigan ushbu kengashlarda Qo'mitaga saylangan nomzodlar eng ko'p ovoz olgan hamda Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlari vakillarining hozir bo'lgan va ovoz berishda ishtirok etganlarning mutloq ko'pchilik ovozini olganlar hisoblanadi.

4. Dastlabki saylovlar ushbu Konvensiya kuchga kirgan sanadan olti oy o'tgandan keyin kechiktirmay o'tkaziladi. Navbatdagi saylovlar sanasidan hech bo'lmaganda, to'rt oy avval BMT Bosh kotibi ishtirokchi-davlatlarga uch oylik muddatda o'z nomzodlarini taqdim etishlari taklifi bilan xat yuboradi. Bosh kotib shu tarzda ko'rsatilgan barcha shaxslar ro'yxatini ularni ilgari surgan ishtirokchi-davlatlarni ko'rsatgan holda alifbo tartibida tayyorlaydi hamda ushbu ro'yxatni ishtirokchi-davlatlarga taqdim etadi.

5. Qo'mita a'zolari to'rt yil muddatga saylanadi. Ular takror ko'rsatilgan taqdirda qayta saylanish huquqiga ega. Biroq, dastlabki saylovda saylangan besh a'zoning vakolat muddati ikki yillik davr oxirida tugaydi; dastlabki saylovdan keyin darhol shu besh a'zoning nomlari ushbu moddaning 3-bandida bayon etilganidek, kengash raisi tomonidan qur'a tashlab aniqlanadi.

6. Qo'mita a'zosi vafot etgan yoki iste'foga chiqqan taqdirda yoki qandaydir boshqa sabablarga ko'ra Qo'mitadagi vazifalarni bajarish imkoni bo'lmaganda uning nomzodini taklif qilgan ishtirokchi-davlat o'z fuqarolari orasidan qolgan muddatga ishtirokchi-davlatlar aksariyatining roziligi bilan boshqa ekspertni tayinlaydi. Agar ishtirokchi-davlatlarning yarmi yoki ko'prog'i Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibidan taklif qilinadigan tayinlov to'g'risida axborot olgandan keyin olti hafta ichida salbiy javob bermasa, nomzod tasdiqlangan hisoblanadi.

7. Ishtirokchi-davlatlar Qo'mita a'zolari tomonidan Qo'mita vazifalarini bajarish davridagi xarajatlarni qoplashni o'z zimmalariga oladilar.

18-modda

1. Qo'mita o'zining mansabdor shaxslarini ikki yil muddatga saylaydi. Ular qayta saylanishlari mumkin.

2. Qo'mita o'zining xususiy tartib-qoidalarini belgilaydi, biroq bu qoidalarda, xususan, quyidagilar nazarda tutilishi kerak:

a) olti nafar a'zo kворumni hosil qiladi;

b) Qo'mita qarorlari hozir bo'lgan a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi Qo'mita vazifalarini ushbu Konvensiyaga muvofiq samarali amalga oshirish uchun zarur xodimlar va shart-sharoit bilan ta'minlaydi.

4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi Qo'mitaning birinchi yig'ilishini chaqiradi. O'zining birinchi yig'ilishidan keyin Qo'mita tartib-qoidalarida nazarda tutilgan vaqt oralig'ida yig'iladi.

5. Ishtirokchi-davlatlar Qo'mita va ishtirokchi-davlatlar yig'ilishlarini o'tkazish munosabati bilan yuzaga keladigan xarajatlarni qoplashni, jumladan, ushbu moddaning 3-bandiga muvofiq Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ta'minlanadigan xodimlarga haq to'lash va shart-sharoitlarni ta'minlash kabi Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday xarajatlarini qoplashni o'z zimmasiga oladi.

19-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar Qo'mitaga mazkur Konvensiyaga ko'ra Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi orqali ushbu Konvensiya tegishli ishtirokchi-davlat uchun kuchga kirgandan keyin bir yil mobaynida ularning o'z vazifalarini amalga oshirish bo'yicha qabul qilgan choralar to'g'risidagi hisobotini taqdim etadi. Shundan keyin ishtirokchi-davlatlar to'rt yilda bir marta har qanday qabul qilingan yangi chora-tadbirlar to'g'risida qo'shimcha hisobotlarni, shuningdek Qo'mita rasman talab qilishi mumkin bo'lgan boshqa hisobotlarni taqdim qiladi.

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi ushbu hisobotlarni barcha ishtirokchi-davlatlarga yuboradi.

3. Har bir hisobot, u o'zi maqsadga muvofiq deb hisoblaydigan hisobot bo'yicha umumiy tartibda mulohazalar qilishi mumkin bo'lgan Qo'mita tomonidan ko'rib chiqiladi hamda ularni tegishli ishtirokchi-davlatga yuboradi. Mazkur ishtirokchi-davlat Qo'mitaga javob tariqasida o'rinli deb hisoblaydigan mulohazalardan birini taqdim etishi mumkin.

4. Qo'mita o'z xohishiga ko'ra, 24-moddaga muvofiq tayyorlaydigan o'zining yillik hisobotiga ular tomonidan ushbu moddaning 3-bandiga asosan qilingan har qanday mulohazalarni ular bo'yicha tegishli ishtirokchi-davlatdan olingan mulohazalar bilan birga kiritishga qaror qilishi mumkin. Tegishli ishtirokchi-davlat iltimosiga ko'ra Qo'mita ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq taqdim qilingan hisobotning nusxasini ham kiritishi mumkin.

20-modda

1. Agar Qo'mita, uning fikricha, biron bir ishtirokchi-davlat hududida qiynoqlar muntazam qo'llanilgani to'g'risida to'liq asoslangan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ishonchli axborotni oladigan bo'lsa, u ushbu ishtirokchi-davlatga shu axborotni ko'rib chiqishda hamkorlik qilishni va shu maqsadda mazkur axborotga nisbatan o'z mulohazalarini taqdim etishni taklif qiladi.

2. Tegishli ishtirokchi-davlat tomonidan taqdim etilgan har qanday mulohazalarni, shuningdek uning ixtiyorida bo'lgan ishga taalluqli boshqa har qanday axborotlarni hisobga olgan holda, Qo'mita, agar u shuni maqsadga muvofiq deb hisoblasa, maxfiy tekshiruv o'tkazish va Qo'mitaga zudlik bilan tegishli hisobotni taqdim etish uchun o'zining bir yoki bir necha a'zolarini tayinlashi mumkin.

3. Agar ushbu moddaning 2-bandiga muvofiq tekshiruv o'tkazilsa, Qo'mita tegishli ishtirokchi-davlat bilan hamkorlik o'rnatishga intiladi. Ushbu ishtirokchi-davlat roziligi bilan bunday tekshiruv uning hududiga tashrif buyurishni o'z ichiga olishi mumkin.

4. Ushbu moddaning 2-bandiga muvofiq taqdim qilingan ushbu a'zo yoki a'zolar tomonidan o'tkazilgan tekshiruv natijalari ko'rib chiqilgandan keyin, Qo'mita tegishli ishtirokchi-davlatga bu natijalarni mazkur vaziyatda maqsadga muvofiq deb topilgan har qanday mulohazalar yoki takliflar bilan birga yuboradi.

5. Ushbu moddaning 1–4-bandlarida qayd etilgan Qo'mitaning barcha ishlari maxfiy tusdadir va mazkur ishning hamma bosqichlarida ishtirokchi-davlat bilan hamkorlik qilishga intilish kerak. 2-bandga muvofiq o'tkazilgan tekshiruv bo'yicha bunday ishlar tugagandan so'ng Qo'mita tegishli ishtirokchi-davlat bilan maslahatlashgandan keyin ushbu ish natijalari to'g'risidagi qisqacha hisobotni 24-moddaga asosan tayyorlanadigan o'zining yillik hisobotiga kiritish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

21-modda

1. Ushbu moddaga muvofiq mazkur Konvensiyaning har qanday ishtirokchi-davlati istalgan vaqtda u Qo'mitaning bir ishtirokchi-davlatning boshqa ishtirokchi-davlat ushbu Konvensiya bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi to'g'risidagi bayonotlariga taalluqli xabarlarni olish va ko'rib chiqish vakolatini tan olishini bildirishi mumkin. Bunday xabarlar ushbu moddada keltirilgan tartib-qoidalariga muvofiq faqat, agar ular o'ziga nisbatan Qo'mita vakolati tan olingani to'g'risida bayonot bergan ishtirokchi-davlat tomonidan taqdim etilgan hollardagina qabul qilinishi va ko'rib chiqilishi mumkin. Qo'mita, agar ular bunday bayonot bermagan ishtirokchi-davlatga tegishli bo'lsa, ushbu modda bo'yicha xabarlarni ko'rib chiqmaydi. Ushbu moddaga ko'ra olingan xabarlar quyidagi tartib-qoidalariga muvofiq ko'rib chiqiladi:

a) agar biron bir ishtirokchi-davlat boshqa ishtirokchi-davlat ushbu Konvensiya qoidalarini bajarmagan, deb hisoblasa, u holda ushbu masala ko'rsatilgan ishtirokchi-davlat e'tiboriga yozma xabarni yetkazishi mumkin. Mazkur xabarni olgandan keyin uch oy mobaynida uni olgan Davlat yozma ravishda shu xabarni yuborgan davlatga tushuntirish yoki imkoni boricha va maqsadga muvofiq holda, ushbu masala yuzasidan qabul qilingan, qabul qilinadigan yoki qabul qilinishi mumkin bo'lgan ichki tartib-qoidalar va choralar ko'rsatilishi kerakligini o'z ichiga olgan izoh bilan birga boshqa har qanday bayonotni taqdim qiladi;

b) agar qabul qiluvchi davlat tomonidan dastlabki xabar olingandan keyin olti oy mobaynida masala tegishli ishtirokchi-davlatlarning ikkalasini qanoatlantirish uchun hal etilmasa, ushbu davlatlardan biri mazkur masalani Qo'mita va boshqa davlatni xabardor qilgan holda Qo'mitaga yuborish huquqiga ega;

s) Qo'mita ushbu moddaga binoan unga berilgan masalani faqat xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplariga muvofiq mazkur holatda barcha mavjud ichki choralar qo'llanilgan va tugatilganligiga ishonch hosil qilgandan keyin ko'rib chiqadi. Mazkur qoida bu choralarni qo'llash asossiz cho'zilib ketgan yoki ushbu Konvensiya buzilishining qurboni bo'lgan shaxsga samarali yordam ko'rsatishi mumkin bo'lmagan hollarda amal qilmaydi;

d) Qo'mita, ushbu moddaga ko'ra xabarlarni ko'rib chiqishda yopiq majlislar o'tkazadi;

e) Qo'mita "s" kichik bandning qoidalariga rioya qilgan holda tegishli ishtirokchi-davlatlarga masalani ushbu Konvensiyada nazarda tutilgan majburiyatlarni hurmat qilish asosida do'stona hal etish maqsadida yaxshi xizmatlar ko'rsatadi. Shu maqsadda Qo'mita zarurat bo'lganda maxsus kelishuv komissiyasini ta'sis etishi mumkin;

f) ushbu moddaga muvofiq o'ziga berilgan har qanday masala bo'yicha Qo'mita "b" kichik bandda qayd etilgan tegishli ishtirokchi-davlatlardan ishga taalluqli biron bir axborotni taqdim etishga chaqirishi mumkin;

g) "b" kichik bandda qayd etilgan tegishli ishtirokchi-davlatlar Qo'mitada malasalarni ko'rib chiqishda vakillik qilishlari hamda og'zaki va/yoki yozma ravishda fikr bildirish huquqiga ega;

h) Qo'mita bildirishnoma olgan kundan boshlab o'n ikki oy mobaynida "b" kichik bandga muvofiq quyidagi xabarlarni taqdim etadi:

i) agar "e" kichik bandning qoidalarini doirasida yechimga erishilsa, Qo'mita o'z xabarida faktlarni va erishilgan yechimni qisqacha mazmuni bilan cheklanadi;

ii) agar "e" kichik band qoidalarini doirasida yechimga erishilmasa, Qo'mita o'z xabarida faktlarni qisqacha mazmuni bilan cheklanadi; tegishli ishtirokchi-davlatlar tomonidan takdim etilgan yozma taqdimotlar va og'zaki bayonotlarning qaydi xabarga ilova qilinadi.

Har bir masala bo'yicha xabar tegishli ishtirokchi-davlatlarga yuboriladi.

2. Ushbu moddani qoidalarini mazkur Konvensiyaning beshta ishtirokchi-davlati ushbu moddani 1-bandiga muvofiq bayonot berganida kuchga kiradi. Bunday bayonotlar ishtirokchi-davlatlar tomonidan ularning nusxalarini qolgan ishtirokchi-davlatlarga yuboradigan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga topshiradi. Bayonot har qanday vaqtda Bosh kotib nomiga bildirishnoma orqali qaytarib olinishi mumkin. Bayonotni bunday qaytarib olish ushbu moddaga muvofiq yuborilgan xabarning predmeti bo'lgan har qanday masalani ko'rib chiqishga zarar yetkazmasligi kerak; ushbu moddaga muvofiq har qanday ishtirokchi-davlatning keyingi hech bir xabarlarini, agar tegishli ishtirokchi-davlat yangi bayonot bermagan bo'lsa, Bosh kotib bayonotni qaytarib olish haqida bildirishnoma olganidan so'ng qabul qilinmaydi.

22-modda

1. Ushbu Konvensiyaning ishtirokchi-davlati istalgan vaqtda ushbu moddaga muvofiq Qo'mitaning uning yurisdiksiyasida bo'lgan shaxslarning ishtirokchi-davlat tomonidan Konvensiya qoidalarining buzilishi qurbonlari bo'lganligini da'vo qilgan xabarlarini yoki ular nomidan tushadigan shu turdagi xabarlarni olish va ko'rib chiqish vakolatini tan olishi to'g'risida bayonot berishi mumkin, agar xabarlar shu kabi bayonotni bermagan ishtirokchi-davlatga taalluqli bo'lmasa, Qo'mita hech qanday xabarlarni qabul qilmaydi.

2. Qo'mita ushbu moddaga binoan anonim bo'lgan yoki uning fikriga ko'ra, shunday xabarlarni berish huquqini suiiste'mol qilgan yoki ushbu Konvensiya qoidalariga to'g'ri kelmaydigan har qanday xabarni qabul qilib bo'lmaydi deb hisoblaydi.

3. Qo'mita 2-bandning qoidalarini hisobga olgan holda, ushbu moddaga muvofiq unga taqdim etilgan har qanday xabarni 1-bandga ko'ra bayonot bergan va go'yoki Konvensiyaning u yoki bu qoidalarini buzgan mazkur Konvensiyaning ishtirokchi-davlatiga ma'lum qiladi. Xabarni olgan Davlat olti oy mobaynida Qo'mitaga masala va ushbu Davlat tomonidan qabul qilinishi mumkin bo'lgan har qanday choralarni aniqlashtiradigan yozma tushuntirish yoki bayonotlarni taqdim etadi.

4. Qo'mita ushbu moddaga muvofiq qabul qilingan xabarlarni unga mazkur shaxs yoki uning nomidan va tegishli ishtirokchi-davlat tomonidan taqdim etilgan barcha axborotlar asosida ko'rib chiqadi.

5. Qo'mita, agar u quyidagilarga ishonch hosil qilmasa, ushbu moddaga ko'ra biron bir shaxsning hech qaysi xabarini ko'rib chiqmaydi:

a) xuddi shu masala xalqaro tekshirish yoki hal qilish bo'yicha biron bir boshqa tartib-qoidalarida ko'rib chiqilmagan va ko'rib chiqilmayapti;

b) mazkur shaxs mavjud barcha ichki huquqiy himoya choralari tugatgan; ushbu qoida mazkur choralarni qo'llash asossiz kechiktiriladigan yoki ushbu Konvensiyaning buzilishi qurboni bo'lgan shaxsga samarali yordam berish mumkin bo'lmagan hollarda qo'llanilmaydi.

6. Qo'mita, ushbu moddaga ko'ra xabarlarni ko'rib chiqishda yopiq majlislar o'tkazadi.

7. Qo'mita tegishli ishtirokchi-davlat va mazkur shaxsga o'z fikrlarini bildiradi.

8. Ushbu moddani qoidalarini mazkur Konvensiyaning beshta ishtirokchi-davlati ushbu moddani 1-bandiga muvofiq bayonot berganida kuchga kiradi. Bunday bayonotlar ishtirokchi-davlatlar tomonidan ularning nusxalarini qolgan ishtirokchi-davlatlarga yuboradigan Birlashgan

Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga topshiradi. Bayonot har qanday vaqtda Bosh kotib nomiga bildirishnoma orqali qaytarib olinishi mumkin. Bayonotni bunday qaytarib olish ushbu moddaga muvofiq yuborilgan xabarning predmeti bo'lgan har qanday masalani ko'rib chiqishga zarar yetkazmasligi kerak; ushbu moddaga muvofiq har qanday ishtirokchi-davlatning keyingi hech bir xabarlar, agar tegishli ishtirokchi-davlat yangi bayonot bermagan bo'lsa, Bosh kotib bayonotni qaytarib olish haqida bildirishnoma olganidan so'ng qabul qilinmaydi.

23-modda

Qo'mita va 21-modda 1-bandining "e" kichik bandiga asosan tayinlanishi mumkin bo'lgan kelishuv komissiyalarining a'zolari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Imtiyozlar va immunitetlar to'g'risidagi konvensiyasining tegishli bo'limlarida nazarda tutilganidek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining topshirig'i bo'yicha harakat qiladigan ekspertlarning imtiyozlari, yengilliklari va immunitetlariga bo'lgan huquqiga ega.

24-modda

Qo'mita ishtirokchi-davlatlar va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasiga ushbu Konvensiyaga muvofiq o'z ishi to'g'risida yillik hisobot taqdim qiladi.

III QISM

25-modda

1. Ushbu Konvensiya barcha davlatlar tomonidan imzolaniishi uchun ochiqdir.
2. Ushbu Konvensiya ratifikatsiya qilinishi kerak. Ratifikatsiya yorliqlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga saqlash uchun topshiriladi.

26-modda

Ushbu Konvensiya barcha davlatlarning qo'shilishi uchun ochiqdir. Qo'shilish Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga qo'shilish to'g'risidagi hujjatni saqlash uchun topshirish bilan amalga oshiriladi.

27-modda

1. Ushbu Konvensiya yigirmanchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga saqlash uchun topshirilganidan keyin o'ttizinchi kuni kuchga kiradi.
2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki yigirmanchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilgandan so'ng qo'shilgan har bir Davlat uchun ushbu Konvensiya uning o'zining ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjati saqlash uchun topshirilgan sanadan keyin o'ttizinchi kuni kuchga kiradi.

28-modda

1. Har bir davlat ushbu Konvensiyani imzolash yoki ratifikatsiya qilish yoki unga qo'shilish vaqtida 20-moddada belgilangan Qo'mita vakolatini tan olmasligi to'g'risida bayonot berishi mumkin.
2. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq izoh bergan biron bir ishtirokchi-davlat bu haqda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibini xabardor qilgan holda istalgan vaqtda o'z izohini bekor qilishi mumkin.

29-modda

1. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi biron bir davlat tuzatishlar taklif qilishi va ularni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga taqdim etishi mumkin. So'ngra, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi har qanday taklif qilingan tuzatishlarni ko'rib chiqish va ular yuzasidan ovoz berishni

o'tkazish maqsadida ishtirokchi-davlatlar konferensiyasini chaqirish tarafdori ekanliklarini bildirishlarini so'rab ushbu takliflarni mazkur Paktda ishtirok etuvchi davlatlarga yuboradi. Agar bunday xat jo'natilgan sanadan boshlab to'rt oy davomida ishtirokchi-davlatlarning kamida uchdan bir qismi bunday konferensiya chaqirishni ma'qullasa, Bosh kotib Birlashgan Millatlar Tashkiloti homiyligida bu konferensiyani chaqiradi. Ushbu Konferensiyada hozir bo'lgan va ovoz berishda qatnashuvchi ishtirokchi-davlatlarning ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan har qanday tuzatish Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

2. Ushbu moddaning 1-bandiga asosan qabul qilingan tuzatish ushbu Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlaridan uchdan ikki qismi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibini o'zining konstitutsiyaviy tartib-qoidalariga muvofiq ular tomonidan mazkur tuzatish qabul qilinganligi to'g'risida xabardor qilganidan keyin kuchga kiradi.

3. Tuzatishlar kuchga kirganda, ularni qabul qilgan ishtirokchi-davlatlar uchun majburiy bo'lib qoladi, boshqa ishtirokchi-davlatlar uchun esa mazkur Pakt qarorlari va ular tomonidan avval qabul qilingan har qanday tuzatishlarni bajarish majburiy bo'ladi.

30-modda

1. Ushbu Konvensiyani sharhlash yoki qo'llash yuzasidan ikki yoki ko'proq ishtirokchi-davlatlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal qilinishi mumkin bo'lmagan har qanday bahs ulardan birining iltimosiga ko'ra arbitrajga beriladi. Agar arbitraj to'g'risida iltimos qilingandan so'ng o'tgan olti oy mobaynida tomonlar arbitraj tashkil etish to'g'risida bitimga kelish holatida bo'lmasalar, tomonlardan birining iltimosi bo'yicha bahs Xalqaro sud maqomiga binoan Xalqaro sudga o'tkazilishi mumkin.

2. Har bir davlat ushbu Konvensiyani imzolaganda, ratifikatsiya qilganda yoki unga qo'shilganda u o'zini ushbu moddaning 1-band qoidalari bilan bog'lanib qolmagan deb hisoblagani to'g'risida ma'lum qilishi mumkin. Boshqa ishtirokchi-davlatlar shunday izoh bergan har qanday ishtirokchi-davlatga nisbatan ushbu moddaning 1-band qoidalari bilan bog'lanib qolmaydilar.

3. Ushbu moddaning 2-bandiga muvofiq izoh bergan har qanday ishtirokchi-davlat bu hakda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga bildirib qo'yib, istalgan paytda o'z sharhini olib tashlashi mumkin.

31-modda

1. Har qaysi ishtirokchi-davlat ushbu Konvensiyani Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga yozma ravishda xabar berish yo'li bilan bekor qilishi mumkin. Bekor qilish Bosh kotib tomonidan bildirishnoma olingandan keyin bir yil o'tgach amalga kiradi.

2. Bunday bekor qilish ishtirokchi-davlatni ushbu Konvensiya bo'yicha uning bekor qilish amalga kiritilgan sanaga mavjud bo'lgan har qanday harakat yoki nuqson uchun javobgarliklardan ozod qilmaydi va bekor qilish Qo'mita tomonidan bekor qilish amalga kiritilgan sanagacha ko'rib chiqilgan istalgan savolning davom etayotgan ko'rib chiqishiga hech qanaqa zarar yetkazmaydi.

3. Qaysidir ishtirokchi-davlat uchun bekor qilish kuchga kiritilgan sanadan keyin Qo'mita mazkur davlatga tegishli yangi masalalarni ko'rib chiqishga kirishmaydi.

32-modda

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zolari bo'lgan barcha davlatlarga, ushbu Konvensiyani imzolagan yoki unga qo'shilgan barcha davlatlarga quyidagi ma'lumotlarni xabar qiladi:

- a) 25 va 26-moddalarga binoan imzolash, ratifikatsiya qilish va qo'shilish to'g'risida;
- b) 27-moddaga binoan ushbu Konvensiyani amalga kiritish va 9-moddaga binoan istalgan tuzatishlarni amalga kiritish sanasi to'g'risida;
- s) 31-moddaga binoan bekor qilish to'g'risida.

33-modda

1. Ushbu Paktning ingliz, ispan, xitoy, rus va fransuz tillaridagi matnlari aynan bir xil bo'lib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti arxiviga saqlash uchun topshiriladi.
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi ushbu Konvensiyaning tasdiqlangan nusxalarini barcha davlatlarga jo'natadi.

VI BO'LIM. SHAXSNING HUQUQIY MAQOMINI HIMOYA QILISH

FUQAROSIZLIKNI QISQARTIRISH TO'G'IRISIDAGI KONVENSIYA

BMT Bosh Assambleyasining 1954-yil 4-dekabrda 869(IX)-rezolyutsiyasiga muvofiq 1959-yilda bo'lib o'tgan va 1961 yilda yangi tashkil etilgan Vakolatli vakillar konferensiyasi tomonidan 1961-yil 30-avgustda qabul qilingan

Ahdlashuvchi Davlatlar,

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1954-yil 4-dekabrda qabul qilgan (896) IX-rezolyutsiyasi ijrosini ta'minlash uchun harakat qilib, xalqaro bitim bilan fuqarosizlikni qisqartirishning maqbulligini e'tirof etib, quyidagilar to'g'risida kelishib oldilar:

1-modda

1. Har qanday Ahdlashuvchi Davlat o'zining hududida tug'ilgan har qanday shaxsga o'z fuqaroligini taqdim etishi kerak, aks holda u apatrid bo'ladi. Bunday fuqarolik quyidagicha taqdim etiladi:

a) qonunga ko'ra tug'ilganida, yoki

b) milliy qonunda belgilangan tartibda tegishli hokimiyat organiga tegishli shaxs yoki uning nomidan iltimosnoma berganda. Mazkur moddaning 2-bandi qaroriga rioya qilish sharti bilan, hech bir bunday iltimosnoma rad etilishi mumkin emas.

Ushbu bandning "b" kichik bandiga muvofiq, har qanday Ahdlashuvchi Davlat o'z fuqaroligini taqdim etilishini nazarda tutib, shuningdek qonunga asosan o'z fuqaroligini milliy qonun tomonidan belgilangan yosh va shartlar bilan taqdim etilishini ko'zda tutishi ham mumkin.

2. Har qanday Ahdlashuvchi Davlat ushbu moddaning 1-bandi "b" kichik bandiga muvofiq quyidagi shartlardan bir yoki bir nechtasidan kelib chiqib o'z fuqaroligini taqdim etishi mumkin:

a) iltimosnoma Ahdlashuvchi Davlat tomonidan o'rnatilgan muddatda, boshlanishi o'n sakkiz yoshdan va tugashi yigirma bir yoshdan erta bo'lmasdan taqdim etiladi, biroq, shu bilan birga, tegishli shaxs qonuniy ruxsatning zaruratsiz o'zi iltimosnoma taqdim etishi uchun kamida bir yil muddatga ega bo'lishi kerak;

b) tegishli shaxs bevosita iltimosnoma berishdan oldin, mazkur Ahdlashuvchi Davlat hududida ushbu davlat tomonidan o'rnatilgan, besh yildan ortiq bo'lmagan muddatda odatdagidek yashagan bo'lishi, umuman esa, bu o'n yildan ortiq bo'lmashligi kerak;

c) tegishli shaxs sud tomonidan davlat xavfsizligiga qarshi jinoyatda aybdor yoki jinoiy ayblov bo'yicha besh yilga yoki undan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan deb tan olinmasligi kerak;

d) tegishli shaxs hamisha apatrid bo'lgan bo'lishi kerak.

3. Mazkur moddaning 1-bandi "b" kichik bandi va 2-bandi qaroriga qaramasdan, qaysidir bir Ahdlashuvchi Davlat hududidagi nikohdan va ushbu Davlat fuqarosi bo'lgan onadan tug'ilgan farzand uning fuqaroligini oladi, aksincha bo'lsa, u apatrid bo'ladi.

4. Ahdlashuvchi Davlat, aks holda apatrid bo'lgan va u Ahdlashuvchi Davlat hududida tug'ilib, iltimosnoma berish yoshidan o'tgani yoki ulardan talab qilingan yashash shartlarini bajara olmagan oqibatida, agar ushbu shaxsning tug'ilgan vaqtida ota-onasidan bittasi yuqorida

nazarda tutilgan Ahdlashuvchi Davlatlardan birinchisining fuqarosi bo'lsa, o'z fuqaroligini taqdim etadi. Agar tegishli shaxsning ota-onasi u tug'ilgan vaqtiga qadar bir xil fuqarolikka ega bo'lmagan bo'lsa, unda o'z otasining fuqaroligini yoki o'z onasining fuqaroligini olish to'g'risidagi masala ushbu Ahdlashuvchi Davlatning milliy qonuni bilan hal qilinadi. Agar bunday fuqarolikni olish uchun iltimosnoma talab qilinsa, ushbu milliy qonun bilan o'rnatilgan tartibda talab qiluvchi yoki uning nomidan tegishli hokimiyat organiga iltimosnoma berishi kerak. Ushbu moddaning 5-bandi qaroriga amal qilish sharti bilan bunday iltimosnoma rad etilmasligi kerak.

5. Ahdlashuvchi Davlat ushbu moddaning 4-bandi qarorlariga muvofiq quyidagi shartlardan bir yoki bir nechtasidan kelib chiqib o'z fuqaroligini berishi mumkin:

a) iltimosnoma iltimos qiluvchining Ahdlashuvchi Davlat tomonidan belgilab qo'yilgan yoshga yetguniga qadar beriladi, bu kamida yigirma uch yosh bo'lishi kerak;

b) tegishli shaxs ushbu Ahdlashuvchi Davlat hududida mazkur davlat tomonidan o'rnatilgan, bevosita iltimosnoma berishdan oldin uch yil davomida odatdagidek yashagan bo'lishi kerak;

c) tegishli shaxs hamisha apatrid bo'lsa.

2-modda

Har qanday Ahdlashuvchi Davlat hududida topilgan bola, qarshi tarafning dalillari yo'qligi sababli, shu hududda mazkur davlat fuqaroligiga ega bo'lgan ota-onalardan tug'ilgan deb hisoblanishi kerak.

3-modda

Ushbu Konvensiyaga muvofiq Ahdlashuvchi Davlatlarning majburiyatlarini aniqlash uchun kemada yoki havo kemasida tug'ilish tegishli ravishda davlat bayrog'i ostida suzadigan kema hududida yoki havo kemasi ro'yxatdan o'tgan davlat hududida bo'lgan deb hisoblanadi.

4-modda

1. Ahdlashuvchi Davlat hududida tug'ilmagan har qanday shaxs tug'ilish vaqtida uning ota-onasidan biri ushbu davlat fuqarosi bo'lsa, har qanday Ahdlashuvchi Davlat ushbu shaxsga o'z fuqaroligini beradi, aks holda, u apatrid bo'ladi. Agar u tug'ilgan vaqtida ota-onasi bir xil fuqarolikka ega bo'lmasa, tegishli shaxs otasi yoki onasining fuqaroligini olishi kerakmi degan masalasi ushbu Ahdlashuvchi Davlatning milliy qonuni bilan hal qilinadi. Ushbu bandning qaroriga muvofiq fuqarolikni taqdim etish quyidagicha amalga oshiriladi:

a) tug'ilganida qonunga asosan, yoki

b) milliy qonunda belgilangan tartibda tegishli hokimiyat organiga tegishli shaxs yoki uning nomidan iltimosnoma berganda. Ushbu moddaning 2-bandi qaroriga amal qilish sharti bilan, hech bir bu kabi iltimosnoma rad etilishi mumkin emas.

2. Har qanday Ahdlashuvchi Davlat ushbu moddaning 1-bandi qarorlariga muvofiq quyidagi shartlardan bir yoki bir nechta bo'yicha o'z fuqaroligini taqdim etishi mumkin:

a) iltimosnoma iltimos qiluvchining Ahdlashuvchi Davlat tomonidan belgilab qo'yilgan yoshga to'lishidan oldin berilishi, u yigirma uch yoshdan kichik bo'lmasligi kerak;

b) tegishli shaxs bevosita iltimosnoma berishdan oldin ushbu Ahdlashuvchi Davlat hududida mazkur Davlat tomonidan o'rnatilgan uch yildan oshmagan muddat davomida odatdagidek yashagan bo'lishi kerak;

c) tegishli shaxs sud tomonidan davlat xavfsizligiga qarshi jinoyatda aybdor deb tan olinmagan bo'lsa;

d) tegishli shaxs hamisha apatrid bo'lsa.

5-modda

1. Agar qaysidir bir Ahdlashuvchi Davlatning qonuni tegishli shaxsning shaxsiy maqomida nikohda bo'lish, nikohni to'xtatish, qonunlashtirish, tan olish yoki asrab olish kabi o'zgarishlar

oqibatida fuqarolikni yo'qotishni nazarda tutadigan bo'lsa, bunday yo'qotish boshqa fuqarolikka ega bo'lish yoki boshqa fuqarolikni olish sharti bilan belgilanishi kerak.

2. Agar qaysidir bir Ahdlashuvchi Davlat qonuniga muvofiq nikohsiz tug'ilgan bola otalikni tan olish natijasida ushbu davlat fuqaroligini yo'qotadigan bo'lsa, unga mazkur fuqarolikni tegishli hokimiyat organi oldida yozma iltimosnoma berish orqali ushbu fuqarolikni tiklash imkoniyati taqdim etiladi hamda bunday iltimosnomani tartibga soladigan shartlar mazkur Konvensiyaning 2-moddasi 1-bandida o'rnatilganidan ko'ra qat'iy bo'lmasligi kerak.

6-modda

Agar qaysidir bir Ahdlashuvchi Davlatning qonuni shaxsning turmush o'rtog'i yoki qaysidir bir shaxsning bolalari tufayli fuqaroligini yo'qotishi yoki ushbu shaxsni mazkur fuqarolikdan mahrum etishni nazarda tutsa, bunday yo'qotish boshqa fuqarolikka ega bo'lish yoki boshqa fuqarolikni olish sharti bilan bo'lishi kerak.

7-modda

1. a) Agar qaysidir Ahdlashuvchi Davlatning qonuni fuqarolikdan voz kechishga ruxsat bersa, tegishli shaxs boshqa fuqarolikka ega bo'lishi yoki olishi holatlaridan tashqari, bunday voz kechish fuqarolikni yo'qotishga olib kelmastligi kerak.

b) Ushbu bandning "a" kichik bandi qarori Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda tasdiqlangan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 13 va 14-moddalarida bayon etilgan prinsiplariga zid bo'lgan holatlarda qo'llanilmaydi.

2. Ahdlashuvchi Davlatning o'zga mamlakatda naturalizatsiya qilish (chet ellik shaxsning o'zi yashayotgan boshqa davlatning fuqaroligiga o'tkazilishi) istagida bo'lgan fuqarosi o'zga mamlakatning fuqaroligini olmasa yoki olishi tasdig'i bo'lmasa, o'z fuqaroligini yo'qotmaydi.

3. Ushbu moddaning 4 va 5-bandlari qarorlarida nazarda tutilgan istisnolar bilan Ahdlashuvchi Davlatning fuqarosi ketish, chet elda yashash, ro'yxatdan o'tmaslik yoki qandaydir shu kabi sabablarga ko'ra apatrid bo'lishi oqibatida o'z fuqaroligini yo'qotmaydi.

4. Naturallashgan shaxs tegishli Ahdlashuvchi Davlat qonunida o'rnatilgan, kamida ketma-ket yetti yildan kam bo'lmagan muddatda chet elda yashashi sababli tegishli hokimiyat organiga o'z fuqaroligini saqlab qolish istagi to'g'risida bildirmasa, o'z fuqaroligini yo'qotishi mumkin.

5. Qaysidir Ahdlashuvchi Davlatning ushbu Davlat hududidan tashqarida tug'ilgan fuqarosiga nisbatan mazkur Davlat qonuni bu fuqaroning voyaga yetgandan keyin bir yil davomida ushbu Davlat hududida yashashi yoki tegishli hokimiyat organi ro'yxatidan o'tishi sharti bilan o'z fuqaroligini saqlab qolishi mumkinligini belgilaydi.

6. Ushbu moddada nazarda tutilgan vaziyatlarda hech bir shaxs biron-bir Ahdlashuvchi Davlatning fuqaroligini yo'qotmaydi, agar bunday yo'qotish uni apatrid qiladigan bo'lsa-da, garchi bunday yo'qotish ushbu Konvensiyaning hech bir boshqa qarorlari bilan bevosita ta'qiqlanmagan bo'lsa ham.

8-modda

1. Agar fuqarolikdan mahrum etish shaxsning apatrid bo'lishiga olib kelsa, hech bir Ahdlashuvchi Davlat hech bir shaxsni fuqarolikdan mahrum etmasligi kerak.

2. Ushbu moddaning 1-bandi qaroriga qaramasdan, har qanday shaxs har qanday Ahdlashuvchi Davlatning fuqaroligidan mahrum etilishi mumkin:

a) 7-moddaning 4 va 5-bandlariga muvofiq bo'lgan holatlarda fuqarolikni yo'qotishga yo'l qo'yiladi;

b) agar fuqarolik yolg'on ma'lumotlar berilishi yoki aldash oqibatida olingan bo'lsa.

3. Ushbu moddaning 1-bandi qaroriga qaramasdan, har qanday Ahdlashuvchi Davlat har qanday shaxsni fuqaroligidan mahrum qilish huquqini saqlab qoladi, agar imzolash, ratifikatsiya

qilish yoki qo'shilish vaqtida o'sha paytda uning milliy qonunida nazarda tutilgan bir yoki bir nechta quyidagi asoslar bo'yicha fuqarolikdan mahrum qilish huquqini o'zida saqlab qolishini ko'rsatgan bo'lsa:

a) tegishli shaxs ushbu Ahdlashuvchi Davlatga sodiq bo'lish majburiyatiga qaramasdan quyidagilarni sodir etsa,

i) ushbu Ahdlashuvchi Davlat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri man etilganligini pisand etmasdan boshqa Davlatga xizmat ko'rsatgan yoki ko'rsatayotgan bo'lsa yoxud boshqa Davlatdan mukofot olgan yoki olayotgan bo'lsa, yoki

ii) o'zini ushbu Davlatning hayotiy manfaatlariga jiddiy zarar yetkazadigan tarzda tutsa;

b) agar tegishli shaxs boshqa Davlatga sodiqlik qasamyodini qabul qilgan bo'lsa yoki unga sodiqlik to'g'risida rasmiy bayonot bergan bo'lsa yoxud ushbu Ahdlashuvchi Davlatga sodiqlikdan voz kechish niyatini ko'rsatadigan muayyan dalillarni keltirgan bo'lsa.

4. Hech bir Ahdlashuvchi Davlatlar ushbu moddaning 2- yoki 3-bandlariga muvofiq yo'l qo'yiladigan fuqarolikdan mahrum qilish huquqini tegishli shaxs uchun sud yoki boshqa mustaqil muassasa tomonidan ishni adolatli ko'rib chiqish huquqini nazarda tutadigan qonunga muvofiqlikdan boshqacha tarzda amalga oshirmasligi kerak.

9-modda

Hech bir Ahdlashuvchi Davlat hech bir shaxsni yoki shaxslar guruhini irqiy, etnik, diniy yoki siyosiy asoslar bo'yicha fuqarolikdan mahrum etishi mumkin emas.

10-modda

1. Ahdlashuvchi Davlatlar o'rtasidagi hududni berishni nazarda tutadigan har qanday xalqaro shartnoma ana shunday hududni berish oqibatida hech bir shaxs apatrid bo'lmasligini kafolatlaydigan qarorni qamrab olishi kerak. Har qanday Ahdlashuvchi Davlat mana shunday qarorlarni mazkur Konvensiya ishtirokchisi bo'lmagan Davlat bilan tuziladigan har qanday ana shunday xalqaro shartnomaga kiritilishi uchun barcha choralarni ko'rishi kerak.

2. Mana shunday qarorlar mavjud bo'lmaganida, berilgan hudud yoki boshqa yo'l bilan hududga ega bo'lgan har qanday Ahdlashuvchi Davlat ana shunday berish yoki olish natijasida apatrid bo'lib qoladigan shaxslarga o'z fuqaroligini taqdim etishi kerak.

11-modda

Ahdlashuvchi Davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida oltinchi ratifikatsiya yorlig'ini yoki qo'shilish to'g'risidagi yorliq topshirilgandan so'ng, imkon qadar yaqin vaqt ichida, ushbu Konvensiyaga asosan biron bir imtiyozni talab qiladigan shaxslarning talablarni ko'rib chiqish va ushbu talablarni tegishli hokimiyat organlariga taqdim etishda ularga yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimos bilan murojaat qilishlari mumkin bo'lgan muassasani tashkil etishda ko'maklashishlari kerak.

12-modda

1. Ushbu Konvensiyaning 1-moddasi 1-bandi yoki 4-moddasida qonunga muvofiq nazarda tutilganidek, qonunga asosan tug'ilish vaqtida fuqaroligi taqdim etilmaydigan Ahdlashuvchi davlatlarda tegishli ravishda 1-moddaning 1-bandi yoki 4-moddaning qarorlari mazkur Konvensiya kuchga kirgunga qadar tug'ilgan hamda undan keyin tug'ilgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.

2. Ushbu Konvensiyaning 1-moddasi 4-bandi qarorlari u kuchga kirguniga qadar tug'ilgan, shuningdek undan keyin tug'ilgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.

3. Konvensiyaning 2-moddasi qarorlari har qanday Ahdlashuvchi Davlat hududida topilgan faqat yetimlarga ushbu Konvensiya mazkur Davlatga nisbatan kuchga kirgandan so'nggina qo'llaniladi.

13-modda

Ushbu Konvensiya fuqarosizlikni kamaytirishga yordam beradigan va qaysidir Ahdlashuvchi Davlatning amaldagi qonunida yoki qaysidir boshqa ikki yoki undan ortiq Ahdlashuvchi Davlatlar uchun kuchda bo'lgan qaysidir boshqa konvensiya, xalqaro shartnoma yoki bitimda mavjud bo'lsa yoxud bo'lishi mumkin bo'lsa, bunday qoidalariga qarshi talqin etilmasligi kerak.

14-modda

Ahdlashuvchi Davlatlar o'rtasida mazkur Konvensiyani talqin etish yoki qo'llash to'g'risidagi, boshqacha yo'l bilan hal etib bo'lmaydigan har qanday bahs, ushbu bahslashayotgan tomonlardan birining talabi bo'yicha Xalqaro Sudga taqdim etiladi.

15-modda

1. Ushbu Konvensiya Ahdlashuvchi Davlatlardan qaysidir biri xalqaro munosabatlari uchun mas'ul bo'lgan barcha o'zini o'zi boshqarmaydigan, vasiylik ostidagi, mustamlaka va boshqa metropoliyadan tashqaridagi hududlarga tarqaladi. Tegishli Ahdlashuvchi Davlat, ushbu moddaning 2-bandi qoidalariga zid bo'lmashligi uchun, imzolash, ratifikatsiya qilish yoki unga qo'shilish paytida metropoliyadan tashqaridagi hududlarni yoxud ana shunday imzolash, ratifikatsiya qilish yoki unga qo'shilish natijasida Konvensiya *ipso facto* tarqaladigan metropoliyadan tashqaridagi hududlarni ko'rsatishi kerak.

2. Agar gap fuqarolik to'g'risida ketganda, har qanday holatda, metropoliyadan tashqaridagi hududlar metropoliya hududi bilan yaxlit tarzda ko'rilmaydi hamda har qanday holatda ham mazkur Konvensiyani Ahdlashuvchi Davlat yoki metropoliyadan tashqaridagi hududda tarqatish uchun ushbu hududning asosiy qonuni yoki amaliyotiga muvofiq metropoliyadan tashqaridagi hududning oldindan roziligi talab qilinganida, bu Ahdlashuvchi Davlat mazkur Ahdlashuvchi Davlat ushbu Konvensiyani imzolagan kundan boshlab o'n ikki oy muddatda metropoliyadan tashqaridagi hududning zarur roziligini olish choralarini ko'rishi kerak, bunday rozilik olinganida, bu Ahdlashuvchi Davlat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibini xabardor qilishi kerak. Ushbu Konvensiya bunday xabarnomada ko'rsatilgan hudud yoki hududlarda Bosh kotib uni qabul qilgan kundan boshlab qo'llaniladi.

3. Ushbu moddaning 2-bandida qayd etilgan o'n ikki oylik muddat tugaganidan so'ng, tegishli Ahdlashuvchi Davlatlar Bosh kotibga xalqaro munosabatlar uchun mas'ul bo'lgan va ularning hududlarida mazkur Konvensiyaning qo'llanilishi bo'yicha rozilik olinmagan metropoliyadan tashqaridagi hududlar bilan maslahatlashuvlari natijalari to'g'risida ma'lum qilishlari kerak.

16-modda

1. Ushbu Konvensiya 1961-yil 30-avgustdan 1962-yil 31-mayga qadar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy muassasalarida imzolash uchun ochiq bo'ladi.

2. Ushbu Konvensiya quyidagilar nomidan imzolash uchun ochiq bo'ladi:

- a) Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zosi bo'lgan har qanday davlat;
- b) Birlashgan Millatlar Tashkilotining Kelajakda fuqarosizlikka barham berish yoki qisqartirish bo'yicha konferensiyada ishtirok etish uchun taklif qilingan har qanday boshqa Davlatga;
- c) Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan ushbu Konvensiyani imzolash yoki unga qo'shilish uchun taklif qilingan har qanday boshqa Davlatga.

3. Ushbu Konvensiya ratifikatsiya qilinishi kerak va ratifikatsiya yorliqlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga topshiriladi.

4. Mazkur Konvensiya ushbu moddaning 2-bandida ko'rsatilgan Davlatlarga qo'shilish uchun ochiq. Qo'shilish Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi huzurida qo'shilish to'g'risida yorliqni topshirish orqali amalga oshiriladi.

17-modda

1. Har qanday Davlat imzolash, ratifikatsiya qilish yoki qo'shilish paytida 11, 14 yoki 15-moddalariga qo'shimcha shartlarni ko'rsatishi mumkin.
2. Ushbu Konvensiyada boshqa hech qanday qo'shimcha shartlarga yo'l qo'yilmaydi.

18-modda

1. Ushbu Konvensiya oltinchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi yorliq topshirilgan kundan ikki yil o'tgandan keyin kuchga kiradi.
2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan har bir Davlat uchun oltinchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi yorliq topshirilgandan keyin ushbu Davlat tomonidan o'zining ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi yorliqni topshirilganidan keyin to'qsoninchi kunda yoxud ushbu moddaning 1-bandi qoidalariga muvofiq, qaysi kun keyinroq bo'lishiga qarab, kuchga kiradi.

19-modda

1. Har qanday Ahdlashuvchi Davlat ushbu Konvensiyani xohlagan vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi nomiga yozma bildirgi orqali denonsatsiya qilishi mumkin. Bunday denonsatsiya tegishli Ahdlashuvchi Davlat uchun Bosh kotib tomonidan qabul qilingan kundan bir yil o'tib kuchga kiradi.
2. Agar 15-moddaning qoidalariga muvofiq, ushbu Konvensiya qaysidir bir Ahdlashuvchi Davlatning metropoliyadan tashqaridagi hududida tarqaladigan bo'lsa, bunday Davlat shundan so'ng istalgan vaqtda tegishli hududning roziligi bilan mazkur Konvensiyani bu hududga nisbatan alohida denonsatsiya qilish to'g'risida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga bildirishi mumkin. Ushbu denonsatsiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi tomonidan bunday xabarnoma olingan kundan bir yil o'tib kuchga kiradi hamda u boshqa barcha Ahdlashuvchi Davlatlarga bunday xabarnoma va uni olgan kuni to'g'risida ma'lum qiladi.

20-modda

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi 16-moddada qayd etilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zo-davlatlari va ushbu Tashkilotga a'zo bo'lmagan davlatlarga quyidagi holatlar to'g'risida xabar qiladi:
 - a) 16-moddaga muvofiq imzolash, ratifikatsiya qilish va qo'shilish to'g'risida;
 - b) 17-moddaga muvofiq qo'shimcha shartlar to'g'risida;
 - c) 18-moddaga muvofiq ushbu Koventsiyaning kuchga kirgan kuni to'g'risida;
 - d) 19-moddaga muvofiq denonsatsiya to'g'risida;
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi oltinchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi yorliq topshirilgandan keyin kechiktirmasdan Bosh Assambleyaning e'tiborini 11-moddaga muvofiq, unda qayd etilgan muassasani tashkil etish to'g'risidagi masalaga qaratadi.

21-modda

Ushbu Konvensiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi tomonidan kuchga kirgan kunda ro'yxatga olinadi.

Buni tasdiqlash uchun imzolashga vakolatli vakillar ushbu Konvensiyani imzoladilar.

Nyu-Yorkda bir ming to'qqiz yuz oltmish birinchi yil o'ttizinchi avgustda bir nusxada tuzilgan, ingliz, ispan, xitoy, rus va frantsuz tillaridagi matnlari aynan bir xil bo'lib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti arxiviga saqlash uchun topshiriladi va uning tasdiqlangan nusxalari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi tomonidan ushbu Konvensiyaning 16-moddasida qayd etilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zolari va mazkur Tashkilotga a'zo bo'lmagan Davlatlarga yuboriladi.

APATRID MAQOMI TO'G'RIDAGI KONVENSIYA

1954-yil 28-sentabrda Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashning 1954-yil 26-apreldagi

526 A(XVII)-rezolyutsiyasiga muvofiq chaqirilgan

Vakolatli vakillar konferensiyasi tomonidan qabul qilingan

MUQADDIMA

Yuqori Ahdlashuvchi Tomonlar,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi barcha odamlar asosiy huquq va erkinliklardan hech bir kamsitishsiz foydalanishlari kerakligi prinsipini o'rnatganligini e'tiborga olib,

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ko'p marta apatridlar taqdiriga chuqur qiziqish bildirganligini hamda apatridlarning belgilangan asosiy huquq va erkinliklardan iloji boricha kengroq foydalanishini ta'minlash uchun sa'y-harakatlar qilganligini e'tiborga olib,

shuningdek, qochoq hisoblanadigan apatridlar 1951 yil 28 iyuldagi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi konvensiya tomonidan qamrab olinganligini hamda ushbu Konvensiya tomonidan qamrab olinmagan ko'pgina apatridlarning borligini e'tiborga olib,

apatridlarning ahvolini xalqaro bitim bilan tartibga solish va yaxshilash maqsadga muvofiqligini e'tiborga olib,

quyidagilar to'g'risida kelishib oldilar:

I BOB. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. "Apatrid" tushunchasini belgilash

1. Ushbu Konvensiyada "apatrid" atamasi biron bir davlat tomonidan, uning qonuniga ko'ra fuqaro deb hisoblanmaydigan shaxs nazarda tutiladi.

2. Ushbu Konvensiyaning qoidalari quyidagilarga qo'llanilmaydi:

i) Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy komissaridan tashqari, hozirgi vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkilotining boshqa organlari yoki muassasalari himoyasi yoxud yordamidan foydalanayotgan shaxslarga;

ii) o'zlari yashayotgan mamlakatning vakolatli organlari ushbu mamlakatning fuqaroligi bilan bog'liq huquq va majburiyatlarni tan oladigan shaxslarga;

iii) ularga nisbatan ehtimol tutishga jiddiy asoslar bo'lgan shaxslarga, ya'ni ular:

a) shu kabi jinoyatlarga nisbatan choralar ko'rish maqsadida tuzilgan xalqaro hujjatlarda qilmishlari uchun belgilab qo'yilgan tinchlikka qarshi jinoyatlar, harbiy jinoyatlar yoki insoniyatga qarshi jinoyatlar sodir etganlar;

b) ular ushbu davlatga kiritilgunga qadar boshpana bergan mamlakat tashqarisida nosiyosiy xususiyatga ega og'ir jinoyat sodir etganlar;

c) Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsadlari va tamoyillariga zid bo'lgan xatti-harakatlarni sodir etgan aybdorlar.

2-modda. Umumiy majburiyatlar

Har bir apatridda hozir o'zi bo'lib turgan mamlakatga nisbatan majburiyatlar mavjud bo'lib, xususan, u qonunlar va qarorlarga, shuningdek jamoat tartibini saqlab turish uchun qabul qilinadigan choralarga bo'ysunishi kerak.

3-modda. Kamsitishga yo'l qo'ymaslik

Ahdlashuvchi davlatlar ushbu Konvensiya qoidalarini apatridlarga nisbatan irqi, dini yoki kelib chiqish mamlakati belgisi bo'yicha hech bir kamsitishga yo'l qo'ymasdan qo'llaydilar.

4-modda. Diniy e'tiqodlar

Ahdlashuvchi davlatlar o'z hududlarida bo'lgan apatridlarga kamida o'z fuqarolariga nisbatan bo'lgani kabi o'z diniga erkin e'tiqod qilish va bolalariga diniy tarbiyani erkin berishga qulay sharoit taqdim etadilar.

5-modda. Ushbu konvensiyadan qat'i nazar taqdim etilgan huquqlar

Ushbu Konvensiyadagi hech narsa apatridlarga qaysidir bir Ahdlashuvchi davlat tomonidan ushbu Konvensiyadan qat'i nazar taqdim etilgan hech bir huquq va ustunliklarni buzmaydi.

6-modda. "Xuddi shunday vaziyatlarda" ifodasi

Ushbu Konvensiyada "xuddi shunday vaziyatlarda" ifodasi apatrid, agar o'zi apatrid bo'lmaganida, o'z xususiyati bo'yicha apatrid qondirishga qodir bo'lmagan har qanday talablarni (jumladan, mamlakatda bo'lish yoki yashash muddati va shartlariga tegishli talablar) istisno etgan holda, mazkur alohida shaxsni tegishli huquqdan foydalanishini qondirishi zarur bo'lgan har qanday talablarni qondirishi kerak.

7-modda. O'zaro munosabatlar prinsipidan ozod qilish

1. Ahdlashuvchi davlatlar ushbu Konvensiyaga asoslangan holda, apatridlarga yanada qulayroq huquqiy qoida taqdim etiladigan holatlardan tashqari, ularga umuman, chet elliklar foydalanadigan qoidalarini taqdim etadi.

2. Barcha apatridlar Ahdlashuvchi davlatlar hududlarida uch yillik yashash muddati tugagandan keyin qonunchilik orqali o'rnatilgan o'zarolik talabidan ozod qilinadi.

3. Har bir Ahdlashuvchi davlat apatridlarga mazkur Konvensiya ushbu davlatga nisbatan kuchga kirgan kunida hech bir o'zaro munosabatlarsiz ega bo'lgan huquq va imtiyozlarni keyinchalik ham ularga taqdim etadi.

4. Ahdlashuvchi davlatlar apatridlarga, ular 2 va 3-bandlarga ko'ra ega bo'lgan huquqlaridan tashqari, hech bir o'zaro munosabatlarsiz huquq va imtiyozlarning taqdim etilishi imkoniyatiga hamda 2 va 3-bandlarda ko'zda tutilgan shartlarga javob bermaydigan apatridlarning o'zarolik talablaridan ozod qilinishi ehtimoliga xayrixohlik bilan qaraydilar.

5. 2 va 3-bandi qoidalarini ushbu Konvensiyaning 13, 18, 19, 21 va 22-moddalarida qayd etilgan huquq va imtiyozlarga, ham ularda ko'zda tutilmagan huquq va imtiyozlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

8-modda. Istisno choralaridan ozod qilish

Ahdlashuvchi davlatlar tomonidan fuqarolar yoki chet el davlatining sobiq fuqarolari bo'lgan shaxslarning mol-mulki yoki manfaatlariga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan istisno choralari apatridlarga nisbatan, ularning avval ushbu chet el davlatining fuqaroligiga ega bo'lganliklariga asosan qo'llanilmaydi. Qonunchiligi ushbu moddada ifoda etilgan umumiy prinsipni qo'llashga yo'l qo'ymaydigan Ahdlashuvchi davlatlar tegishli holatlarda, bunday apatridlar manfaatlarini ko'zlab istisnolar o'rnatadi.

9-modda. Vaqtinchalik chora-tadbirlar

Ushbu Konvensiyada hech narsa Ahdlashuvchi davlatning urush paytida yoki boshqa favqulodda va alohida vaziyatlarda davlat xavfsizligi manfaatlarida zarur deb hisoblaydigan vaqtinchalik choralarni qabul qilish huquqidan mahrum etmaydi, bu esa ushbu Ahdlashuvchi davlat u yoki bu muayyan shaxsning haqiqatan apatrid ekanligini aniqlaguncha va unga nisbatan ana shunday choralarning keyinchalik qo'llanilishi davlat xavfsizligi manfaatlari uchun zarurdir.

10-modda. Yashashning uzluksizligi

1. Agar apatrid ikkinchi jahon urushi paytida deportatsiya qilingan va Ahdlashuvchi Davlatlardan birining hududiga jo'natilgan hamda o'sha yerda yashayotgan bo'lsa, bunday majburiy bo'lish vaqti ushbu hudud doirasida qonuniy yashash vaqti sifatida qaraladi.

2. Agar apatrid ikkinchi jahon urushi paytida Ahdlashuvchi Davlatlardan birining hududidan deportatsiya qilingan va ushbu Konvensiya kuchga kirgunga qadar o'sha yerda doimiy yashash maqsadida qaytib kelgan bo'lsa, u holda bunday deportatsiyadan oldin va keyin yashash davri yashashning uzluksizligi talab qilinadigan barcha holatlarda bir uzluksiz davr sifatida ko'rib chiqiladi.

11-modda. Dengizchi apatridlar

Agar apatridlar Ahdlashuvchi davlatlardan birining bayrog'i ostida suzib yurgan kemalar ekipajida yaxshi xizmat qiluvchi shaxslar bo'lsa, bu davlat ushbu shaxslarning o'z hududida joylashishiga va ularga yo'l hujjatlarini berishga yoki o'z hududiga, xususan, biron bir boshqa mamlakatda joylashishini yengillashtirish maqsadida vaqtincha kirish huquqini taqdim etishga xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladi.

II BOB. HUQUQIY MAQOM

12-modda. Shaxsiy maqom

1. Apatridning shaxsiy maqomi, u joylashgan mamlakat qonunlari yoki u bo'lmasa, u yashaydigan mamlakat qonunlari bilan aniqlanadi.

2. Apatridning shaxsiy maqomi bilan bog'liq avvaldan mavjud bo'lgan huquqiga va, xususan, nikohdan kelib chiqadigan huquqiga, zarur hollarda, tegishli huquq ushbu davlat qonunlari tomonidan tan olingan huquqlardan biri bo'lishi sharti bilan, mazkur davlatning qonunlarida belgilab qo'yilgan rasmiyatchiliklar, agar bu shaxs apatrid bo'lmaganida, Ahdlashuvchi davlatlar tomonidan bajarilishi bo'yicha amal qiladi.

13-modda. Ko'char va ko'chmas mulk

Ahdlashuvchi davlatlar ko'char va ko'chmas mulkni olishga hamda bu bilan bog'liq boshqa huquqlarga nisbatan, shuningdek ko'char va ko'chmas mulkka taalluqli ijara hamda boshqa shartnomalarga nisbatan apatridlarga, iloji boricha qulayroq imkoniyatlarni, har holda, ana shunday vaziyatlarda, odatda chet elliklar foydalanadigandan kam bo'lmagan qulay imkoniyatlarni taqdim etadi.

14-modda. Mualliflik va sanoat huquqi

Sanoat huquqlari, xususan, ixtiro qilish, chizmalar va modellar, savdo markalari, firmalar nomiga bo'lgan huquqlar hamda adabiy, badiiy va ilmiy asarlarga bo'lgan huquqlarni himoya qilishga taalluqli masalalarda, odatiy turar joyiga ega bo'lgan mamlakatdagi apatridlarga ushbu mamlakat fuqarolariga bo'lgani kabi bir xil himoya taqdim etiladi. Har qanday boshqa Ahdlashuvchi davlat hududida odatiy turar joyiga ega bo'lgan apatridlarga bu hududdagi mamlakat fuqarolariga bo'lgani kabi bir xil himoya taqdim etiladi.

15-modda. Assotsiatsiyalar huquqi

Siyosiy xususiyatga ega bo'lmagan hamda foyda olish maqsadini ko'zlamaydigan assotsiatsiyalar va kasaba uyushmalariga nisbatan Ahdlashuvchi davlatlar o'z hududlarida qonuniy yashayotgan apatridlarga xuddi ana shunday vaziyatda chet el fuqarolari uchun belgilanganiga mutanosib yanada qulay imkoniyat taqdim etadi.

16-modda. Sudga murojaat qilish huquqi

1. Har bir apatrid barcha Ahdlashuvchi davlatlarning hududlarida sudlarga erkin murojaat qilish huquqiga ega.

2. Ahdlashuvchi davlatlarning hududida odatiy turar joyga ega bo'lgan har bir apatrid o'z fuqarolari kabi sudga, xususan, huquqiy yordam va sud xarajatlarini to'lashdan ozod etish masalalarida murojaat qilish huquqidan foydalanadi.

3. O'zining odatiy yashash mamlakatidan tashqari, boshqa barcha mamlakatlardagi har bir apatridga 2-bandda qayd etilgan masalalar bo'yicha uning odatiy turar joyidagi mamlakat fuqarosiga bo'lgani kabi bir xil qoidalar taqdim etiladi.

III BOB: DAROMAD KELITIRADIGAN MASHG'ULOTLAR

17-modda. Yollanib ishlash

1. Ahdlashuvchi davlatlar o'zlarining hududlarida qonuniy yashayotgan apatridlarga, ularning yollanib ishlash huquqiga nisbatan, xuddi shunday holatlarda xorijiy davlatlar fuqarolari foydalanadigandan yanada qulayroq huquqiy imkoniyatni taqdim etadi.

2. Ahdlashuvchi davlatlar barcha apatridlarning va, xususan, ishchi kuchini yollash dasturini bajarish tartibi yoki immigratsiya rejalariga muvofiq o'z hududlariga kirgan apatridlarning yollanib ishlashga nisbatan huquqlarining fuqarolar huquqlari bilan tenglashtirish imkoniyatiga xayrixohlik bilan qaraydilar.

18-modda. O'z korxonasida ishlash

Ahdlashuvchi davlatlar, ularning hududlarida qonuniy yashayotgan apatridlarga mustaqil ravishda qishloq xo'jaligi, sanoat, hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullanish, shuningdek savdo va sanoat shirkatlarini ta'sis etish huquqlariga nisbatan qulayroq huquqiy imkoniyatni, har holda xuddi shunday vaziyatlarda, odatda chet elliklar foydalanadiganidan kam bo'lmagan qulay huquqiy imkoniyatni taqdim etadi.

19-modda. Erkin kasblar

Har bir Ahdlashuvchi davlat, ularning hududida qonuniy yashayotgan va ushbu davlatning vakolatli hokimliklari tomonidan e'tirof etilgan diplomga ega bo'lgan, erkin kasblar bilan shug'ullanishni istagan apatridlarga qulayroq huquqiy imkoniyatni, odatda xuddi shunday vaziyatlarda chet elliklar foydalanadiganidan kam bo'lmagan imkoniyatni taqdim etadi.

IV BOB: IJTIMOIIY TA'MINOT

20-modda. Payoklar tizimi

Butun aholi uchun tanqis mahsulotlarni umumiy taqsimlashni tartibga soladigan payoklar tizimining majburiyligi mavjud bo'lganda, bunday tizim apatridlarga fuqarolar bilan teng asosda qo'llaniladi.

21-modda. Uy-joy masalasi

Uy-joy masalasi qonunlar yoki qarorlar bilan tartibga solinishi yoxud davlat hokimiyati nazorati ostida bo'lsa, Ahdlashuvchi davlatlar o'z hududlarida qonuniy yashayotgan apatridlarga iloji

boricha qulayroq huquqiy imkoniyatni, har holda, odatda xuddi shunday vaziyatlarda xorijliklar foydalanadigandan kam bo'lmagan imkoniyatni taqdim etadi.

22-modda. Xalq ta'limi

1. Ahdlashuvchi davlatlar apatridlarga boshlang'ich ta'limga nisbatan fuqarolarga bo'lgani kabi bir xil huquqiy imkoniyatni taqdim etadi.

2. Ahdlashuvchi davlatlar apatridlarga boshlang'ich ta'limdan tashqari, xalq ta'limining boshqa turlariga va, xususan, o'qish imkoniyati, chet el attestati, diplom va darajalarini tan olish, o'qish huquqi uchun to'lov va yig'implardan ozod qilish, shuningdek stipendiya berishga nisbatan iloji boricha qulayroq huquqiy holatni va har holda, odatda xuddi shunday vaziyatlarda chet elliklar foydalanadiganidan kam bo'lmagan imkoniyatni taqdim etadi.

23-modda. Hukumat yordami

Ahdlashuvchi davlatlar, ularning hududlarida qonuniy yashayotgan apatridlarga o'z fuqarolari kabi hukumat yordami va qo'llab-quvvatlashidan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi.

24-modda. Mehnat qonunchiligi va ijtimoiy ta'minot

1. Ahdlashuvchi davlatlar fuqarolariga bo'lgani kabi ularning hududlarida qonuniy yashayotgan apatridlarga quyidagi holatlarni taqdim etadi:

a) mehnat uchun haq, jumladan, oilaga nafaqa, agar bunday nafaqalar mehnat haqining bir qismi bo'lsa, ish vaqtidan ortiqcha ish, pul to'lanadigan ta'til, uydagi ishni cheklash, yollanib ishlayotgan shaxslarning eng kichik yoshi, ayollar va o'smirlar uchun shogirdlik hamda kasbiy tayyorgarlik va jamoaviy shartnomalar manfaatlaridan foydalanish, chunki ushbu masalalar qonunlar yoki farmoyishlar bilan tartibga solinadi hamda ma'muriy hokimiyat tomonidan nazorat qilinadi;

b) quyidagi cheklovlar bilan ijtimoiy ta'minot (ishda baxtsiz hodisalar, kasbiy kasalliklar, onalik, kasallanish, nogironlik, qarilik, o'lim, ishsizlik, oilaga nisbatan majburiyatlar va ichki qonunlar yoxud qarorlarga muvofiq ijtimoiy ta'minot tizimida ko'zda tutilgan boshqa hodisalarga taalluqli qonun hujjatlari):

i) ega bo'lingan huquq va ega bo'lish jarayonidagi huquqlarni saqlashning tegishli tartibi mavjud bo'lishi mumkin;

ii) yashash mamlakatining qonun yoki farmoyishlari to'liq davlat mablag'lari hisobidan to'lab beriladigan to'liq yoki qisman nafaqa hamda normal pensiya olish uchun talab qilinadigan badallarga nisbatan barcha shartlarni bajarmagan shaxslarga beriladigan nafaqalarni olishning maxsus tartibini tasdiqlashi mumkin.

2. Apatridning ishda baxtsiz hodisa oqibatida yuzaga kelgan o'limi yoki kasb kasalligiga chalinishi uchun tovon puli olishga bo'lgan huquqiga manfaatdor shaxsning Ahdlashuvchi davlat hududida yashamasligi holati ta'sir qilmaydi.

3. Ahdlashuvchi davlatlar apatridlarga ijtimoiy ta'minotga nisbatan ega bo'lingan huquq va ega bo'lish jarayonidagi huquqlarni saqlash to'g'risidagi o'zlari o'rtasida tuzilgan yoki kelajakda tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlardan kelib chiqadigan imtiyozlarni faqat ushbu qayd qilingan bitimlarni imzolagan davlatlar fuqarolariga nisbatan qo'llaniladigan shartlarga rioya qilgan holda taqdim etadi.

4. Ahdlashuvchi davlatlar har qanday vaqtda ushbu Ahdlashuvchi davlatlar va shartnomada ishtirok etmayotgan davlatlar o'rtasida kuchga kirishi mumkin bo'lgan shu kabi bitimlardan kelib chiqadigan imtiyozlarni imkoni boricha apatridlarga taqdim etish to'g'risidagi masalaga xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladilar.

V BOB: MA'MURIY CHORALAR

25-modda. Ma'muriy ko'maklashish

1. Apatridlar tomonidan biron bir huquqdan foydalanishda, odatda, bu apatridlar murojaat qila olmaydigan xorijiy davlat hokimiyatining ko'maklashishini talab qilganda, hududida qayd etib o'tilgan apatridlar yashaydigan Ahdlashuvchi davlatlar ularga bunday yordam o'zlarining hokimliklari tomonidan ko'rsatilishi uchun choralar ko'radilar.

2. 1-bandda qayd etilgan hokimiyat yoki hokimliklar apatridlarni, odatda xorijliklarga hokimiyat yoki o'zlari fuqarosi bo'lgan davlatlarning hokimliklari orqali beriladigan hujjatlar yoxud guvohnomalar bilan ta'minlab beradi yoki ularga berilishini o'z nazorati ostida amalga oshirilishini ta'minlaydi.

3. Ushbu tartibda berilgan hujjatlar yoki guvohnomalar xorijliklarga hokimiyat yoki o'zlari fuqarosi bo'lgan davlatlarning hokimliklari orqali beriladigan rasmiy hujjatlar yoki guvohnomalar o'rnini bosadi hamda ular haqiqiy emasligi isbotlanmaguncha haqiqiy deb tan olinadi.

4. Ushbu moddada qayd etilgan xizmatlar uchun nochor shaxslarga taqdim etiladigan alohida imtiyozlarni istisno etgan holda, haq olinishi ham mumkin; biroq bunday haq mo'tadil bo'ladi hamda shunga o'xshash xizmatlar uchun fuqarolardan olinadigan haqqa mutanosib bo'ladi.

5. Ushbu moddaning qoidolari 27 va 28-moddalarning qoidalariga daxl qilmaydi.

26-modda. Harakatlanish erkinligi

Har bir Ahdlashuvchi davlat o'zining hududida qonuniy turgan apatridlarga, o'z hududi doirasida, odatda, xuddi shunday vaziyatlarda qo'llaniladigan barcha qoidalariga rioya qilish sharti bilan chet elliklarga yashash joyini tanlash va erkin harakatlanish huquqini taqdim etadi.

27-modda. Shaxsiy guvohnoma

Ahdlashuvchi davlatlar o'zining hududida bo'lgan va haqiqiy yo'l hujjatlariga ega bo'lmagan apatridlarga shaxsiy guvohnomani beradi.

28-modda. Yo'l hujjatlari

Ahdlashuvchi davlatlar o'zining hududida qonuniy yashayotgan apatridlarga o'z hududidan tashqarida harakatlanish uchun yo'l hujjatlarini beradi, bunga davlat xavfsizligi va jamoat tartibining asosli sabablari to'sqinlik qilmaydi; bunday hujjatlariga ushbu Konvensiyaga ilova qilingan qoidalar qo'llaniladi. Ahdlashuvchi davlatlar bunday yo'l hujjatlarini o'zining hududida bo'lgan har qanday boshqa apatridga berishi mumkin; ular, xususan, o'zining hududida bo'lgan, o'zlarining qonuniy yashaydigan mamlakatida yo'l hujjati olish imkoniyatiga ega bo'lmagan apatridlarga shunday yo'l hujjatlarini berish to'g'risidagi masalaga xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladi.

29-modda. Soliqlar

1. Ahdlashuvchi davlatlar apatridlardan ana shunday sharoitlarda o'z fuqarolaridan oladigan yoki olishlari mumkin bo'lgan soliqlardan tashqari yoxud yuqori bo'lgan hech qanday boj, yig'imgar yoki soliqlar olmaydi.

2. Avvalgi banddagi qoidalar hech bir tarzda apatridlarga chet elliklarga ma'muriy hujjatlarni, shu jumladan, shaxsiy guvohnomani berish uchun yig'imlarga taalluqli qonun va qarorlarning qo'llanilishini istisno etmaydi.

30-modda. Mulkni olib chiqib ketish

1. Ahdlashuvchi davlatlar o'z qonunlari va qarorlariga muvofiq apatridlarga o'zining hududiga ularning o'zi bilan olib kelgan mol-mulkni ularga joylashish uchun kirish huquqi taqdim etilgan boshqa mamlakatga olib chiqishiga ruxsat beradi.

2. Ahdlashuvchi davlatlar apatridning kirish huquqi taqdim etilgan boshqa mamlakatda joylashishi uchun ularga zarur bo'lgan mulkni olib chiqib ketishga, bu mulk qayerdaligidan qat'i nazar, ruxsat berilishi to'g'risidagi murojaatiga xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladi.

31-modda. Chiqarib yuborish

1. Ahdlashuvchi davlatlar davlat xavfsizligi yoki jamoat tartibi mulohazalaridan boshqacha tartibda hududlarida qonuniy yashayotgan apatridlarni chiqarib yubormaydi.

2. Bunday apatridlarni chiqarib yuborish faqat sud tartibida chiqarilgan qarorlarni bajarish bilan amalga oshiriladi. Davlat xavfsizligining uzrli asoslari to'squinlik qiladigan holatlarni istisno qilgan holda, apatridlarga tegishli instansiyalarda yoki tegishli instansiyalar tomonidan alohida tayinlangan shaxs yoki shaxslar oldida o'zini oqlash uchun dalillar va shikoyatlar taqdim etish huquqi, shuningdek bu maqsad uchun o'zlarining vakillariga ega bo'lish huquqi beriladi.

3. Ahdlashuvchi davlatlar bunday apatridlarga boshqa mamlakatga kirishga qonuniy huquq olish uchun yetarli muddat taqdim etadi. Ahdlashuvchi davlatlar ana shu muddat davomida o'zlari zarur deb topgan, ichki xususiyatga ega bo'lgan choralarni qo'llash huquqini saqlab qoladi.

32-modda. Naturalashtirish

Ahdlashuvchi davlatlar imkon boricha apatridlarning assimilyatsiyasi va naturalashtirilishini yengillashtiradi. Jumladan, ular naturalashtirish bo'yicha ish yuritishni tezlashtirish hamda bu bilan bog'liq yig'imga va xarajatlarni iloji boricha kamaytirish uchun o'zlariga bog'liq barcha imkoniyatlarni ishga soladi.

VI BOB: YAKUNLOVCHI QOIDALAR

33-modda. Milliy qonunchilik hujjatlari to'g'risida ma'lumotlar

Ahdlashuvchi davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibini ushbu Konvensiyani hayotga tatbiq etish maqsadida ular tomonidan nashr etilgan qonunlar va qarorlar matni to'g'risida xabardor qiladi.

34-modda. Bahslarni hal qilish

Ushbu Konvensiya ishtirokchilari o'rtasida uni talqin etish yoki qo'llashga oid paydo bo'ladigan, boshqacha tarzda hal etib bo'lmaydigan barcha bahslar bahslashayotgan tomonlardan birining talabi bo'yicha Xalqaro sudga yuboriladi.

35-modda. Imzolash, ratifikatsiya qilish va qo'shilish

1. Ushbu Konvensiya 1965-yil 31-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy muassasalarida barcha davlatlar tomonidan imzolash uchun ochiq bo'ladi.

2. Ushbu Konvensiya quyidagilar nomidan imzolash uchun ochiq bo'ladi:

a) Birlashgan Millatlar Tashkilotining a'zosi bo'lgan har qanday davlat;

b) Birlashgan Millatlar Tashkilotining apatridlar maqomi masalasi bo'yicha konferensiyada ishtirok etish uchun taklif qilingan har qanday boshqa davlat;

c) Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan uni imzolash yoki unga qo'shilish uchun taklif etilgan har qanday boshqa davlat.

3. Ushbu Konvensiya ratifikatsiya qilinadi va ratifikatsiya yorliqlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga topshiriladi.

4. Mazkur Konvensiya ushbu moddaning 2-bandida ko'rsatilgan davlatlarga qo'shilish uchun ochiq bo'ladi. Qo'shilish Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi huzurida qo'shilish to'g'risidagi hujjatni topshirish orqali amalga oshiriladi.

36-modda. Konvensiyaning hududiy qo'llanilishi to'g'risidagi qaror

1. Har qanday davlat Konvensiyani imzolash yoki ratifikatsiya qilish yoxud unga qo'shilish paytida, ushbu Konvensiyaning amal qilishi xalqaro munosabatlar uchun javobgar bo'lgan mazkur davlatning barcha hududlari yoki ayrim hududlariga tarqatilishini bayon etishi mumkin. Bunday bayonot Konvensiya ushbu davlat uchun kuchga kirgan kunda kuchga kiradi.

2. Konvensiya amal qilishining bu kabi tarqalishi har qanday keyingi paytda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga yo'llangan bildirgi orqali e'lon qilinishi kerak va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tomonidan ushbu bildirgi olingan kundan keyin to'qsoninchi kun yoki ushbu davlat uchun Konvensiya kuchga kirgan kundan boshlab, agar bu oxirgi sana kechroq bo'lsa, kuchga kiradi.

3. Ushbu Konvensiyani imzolash, ratifikatsiya qilish yoki unga qo'shilish paytida u tarqaladigan hududlarga nisbatan har bir manfaatdor davlat aynan shu hududlarda konstitutsiyaviy xususiyatga ega sabablarga ko'ra, mazkur hududlar hukumatlarining ruxsati bilan ushbu Konvensiyaning qo'llanilishini kengaytirish uchun zarur bo'lgan choralarni ko'rish imkoniyati to'g'risidagi masalani ko'rib chiqadi.

37-modda. Federativ davlatlar to'g'risidagi qaror

Federativ yoki unitar bo'lmagan davlatlarga quyidagi qoidalar qo'llaniladi:

a) mazkur Konvensiyaning federal qonunchilik organi yurisdiksiyasiga taalluqli bo'lgan moddalariga nisbatan federal hukumatning majburiyatlari ushbu Konvensiyaning federal davlat bo'lmagan tomoni majburiyatlariga ko'rsatilgan darajada muvofiq bo'ladi;

b) ushbu Konvensiyaning federatsiyaning konstitutsiyaviy tuzumiga muvofiq qonunchilik choralarini ko'rishga majbur bo'lmagan federatsiyaga kiradigan shtatlar, provintsiya va kantonlarining qonunchilik yuridiksiyasiga tegishli moddalariga nisbatan federal hukumat birinchi imkoniyatning o'zida mazkur moddalar to'g'risida tegishli shtat, provintsiya yoki kantonlarni o'zining xayrixoh munosabati bilan xabardor qiladi;

c) ushbu Konvensiyaning tomoni bo'lgan federativ davlatlar har qanday boshqa Ahdlashuvchi Davlatning talabiga binoan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi orqali Konvensiyaning har qanday aniq qoidasiga nisbatan federatsiya va uning tarkibiy qismlarida mavjud qonunlar va amaliyotda ushbu qoidaning qonunchilik yoki boshqa yo'l bilan hayotga tatbiq etilgani ko'rsatilganligi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadi.

38-modda. Qo'shimcha shartlar

1. Imzolash, ratifikatsiya qilish yoki qo'shilish paytida har qanday davlat 1, 3, 4, 16 (1) va 33–42-moddalari istisno etilgani holda Konvensiyaning moddalariga qo'shimcha shartlar qo'yishi mumkin.

2. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq qo'shimcha shartlar qo'ygan har qanday davlat istalgan vaqtda bu haqda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibini xabardor qilish orqali ushbu qo'shimcha shartlaridan voz kechishi mumkin.

39-modda. Kuchga kirishi

1. Ushbu Konvensiya oltinchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilgan sanadan boshlab to'qsoninchi kuni kuchga kiradi.

2. Konvensiyaning ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan barcha davlatlar uchun oltinchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat topshirilgandan so'ng, Konvensiya tegishli davlat tomonidan o'z ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat topshirilgan kundan boshlab to'qsoninchi kuni kuchga kiradi.

40-modda. Denonsatsiya qilish

1. Har qanday Ahdlashuvchi davlat istalgan vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibini xabardor qilish orqali ushbu Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin.

2. Bunday denonsatsiya qilish tegishli Ahdlashuvchi davlat uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga bildirgi yuborilgan kundan bir yil o'tgandan keyin kuchga kiradi.

3. 36-moddaga asosan bayonot bergan yoki xabarnoma yuborgan har qanday davlat shundan keyin istalgan vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi nomiga bildirgi yuborish orqali, Konvensiya Bosh kotib ushbu bildirgini olganidan bir yil o'tgach tegishli hududda amal qilmasligi to'g'risida bildirishi mumkin.

41-modda. Qayta ko'rib chiqish

1. Har qanday Ahdlashuvchi davlat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi nomiga yuborilgan bildirgi orqali istalgan vaqtda, ushbu Konvensiyani qayta ko'rib chiqishni talab qilishi mumkin.

2. Agar bunday talab bilan bog'liq qandaydir choralar ko'rish kerak bo'lsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tegishli choralar ko'rishni tavsiya qiladi.

42-modda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tomonidan yuboriladigan bildirgilar

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zolariga va 35-moddada qayd etilgan uning a'zosi bo'lmagan davlatlarga quyidagilarni xabar qiladi:

- a) 35-moddada ko'zda tutilgan imzolash, ratifikatsiya qilish va qo'shilishlar to'g'risida;
- b) 36-moddada ko'zda tutilgan arizalar va bildirgilar to'g'risida;
- c) 38-moddada ko'zda tutilgan qo'shimcha shartlar va qo'shimcha shartlardan voz kechish to'g'risida;
- d) 39-moddaga muvofiq ushbu Konvensiyaning kuchga kirish kuni to'g'risida;
- e) 40-moddada ko'zda tutilgan denonsatsiya qilish va bildirgilar to'g'risida;
- f) 41-moddaga muvofiq kelib tushgan qayta ko'rib chiqish talablari to'g'risida.

Buni tasdiqlash uchun imzolashga zarur vakolatga ega bo'lgan holda, o'z hukumatlari nomidan ushbu Konvensiyani imzoladilar.

Nyu-Yorkda bir ming to'qqiz yuz ellik to'rtinchi yil yigirma sakkizinchi sentyabrda bir nusxada tuzilgan, matni ingliz, ispan va frantsuz tillarida aynan bir xil; ushbu nusxa Birlashgan Millatlar Tashkiloti arxiviga topshirilgan hamda uning tasdiqlangan nusxalari Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zolari va 35-moddada qayd etilganidek, a'zo bo'lmagan davlatlarga yuboriladi.

QOCHOQLAR MAQOMI TO'G'RISIDAGI KONVENSIYA

1951-yil 28-iyulda Bosh Assambleyaning 1950-yil 14-dekabrda 429 (V)-rezolyutsiyasiga muvofiq chaqirilgan Qochoqlar va apatridlar maqomi to'g'risidagi masala bo'yicha vakolatli vakillar konferensiyasida qabul qilingan

MUQADDIMA

Yuqori Ahdlashuvchi tomonlar,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustaviva 1948-yil 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi barcha odamlar asosiy huquq va erkinliklardan hech bir kamsitishsiz foydalanishlari kerakligi prinsipini o'rnatganligini e'tiborga olib,

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ko'p marta qochoqlarning taqdiriga chuqur qiziqish bildirganligini hamda qochoqlarning belgilangan asosiy huquq va erkinliklardan iloji boricha kengroq foydalanishini ta'minlash uchun sa'y-harakatlar qilganligini e'tiborga olib,

qochoqlar maqomi to'g'risida ilgari tuzilgan xalqaro bitimlarni qayta ko'rib chiqish va birlashtirish hamda ushbu bitimlarni qo'llash sohalarini kengaytirish va yangi bitim tuzish orqali ularga himoyani taqdim etish maqsadga muvofiqligini e'tiborga olib,

boshpana huquqini taqdim etish ayrim mamlakatlarga benihoya og'ir yuk bo'lishi mumkinligini hamda shuning uchun xalqaro ko'lamli va xususiyati Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan tan olingan muammolarning xalqaro hamkorliksiz qoniqarli hal etib bo'lmazligini e'tiborga olib,

barcha davlatlar qochoqlar muammolarining ijtimoiy va insonparvarlik xususiyatini tan olgan holda, ushbu muammo bilan bog'liq davlatlar o'rtasidagi ixtilofning oldini olish uchun barcha choralarni ko'rishlari istagini ifoda etib,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy komissariga qochoqlarni himoya qilish bo'yicha xalqaro konvensiyalarning bajarilishi ustidan nazorat qilish topshirilganini ta'kidlab hamda ushbu muammolarni hal etish uchun ko'riladigan choralarni muvofiqlashtirishning samaradorligi davlatlarning Oliy komissar bilan hamkorligiga bog'liqligini e'tirof etib,

quyidagi bitimni tuzdilar:

I BOB. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. "Qochoq" tushunchasini belgilash

A. Ushbu Konvensiyada "qochoq" atamasi quyidagi shaxsni nazarda tutadi:

1) 11926-yil 12-may va 1928-yil 30-iyunda kuchga kirgan bitimlar yoki 1933-yil 28-oktyabr va 1938-yil 10-fevralda kuchga kirgan Konvensiya, 1939-yil 14-sentyabrda Bayonnoma yoxud Qochoqlar ishlari bo'yicha xalqaro tashkilot Ustavi asosida qochoq sifatida ko'rib chiqilgan;

Qochoqlar ishlari bo'yicha xalqaro tashkilot o'z faoliyati davomida chiqarilgan qochoqlar deb hisoblanish huquqini rad etish to'g'risidagi qaror ushbu bo'limning 2-bandida belgilangan shartlarga javob beruvchi shaxslarga qochoq maqomini berishga to'sqinlik qilmaydi;

2) 1951-yilning 1-yanvariga qadar sodir bo'lgan hodisalar oqibatida va irqi, e'tiqodi, fuqaroligi, muayyan ijtimoiy guruhga mansubligi yoki siyosiy e'tiqodi bo'yicha ta'qib qurboni bo'lishining asoslangan xavfi sababli o'zining fuqaroligi mansub mamlakatii tashqarisida bo'lgan va ushbu mamlakat himoyasidan foydalana olmaydigan yoki bu kabi xavflar tufayli bunday himoyadan

foydalanishni xohlamaydigan; yoxud muayyan fuqarolikka ega bo'lmagan va shu kabi hodisalar oqibatida o'zining avvalgi odatiy turar joyi mamlakati tashqarisida bo'lgani holda bunday xavflar oqibatida qaytib kela olmaydigan yoxud qaytib kelishni xohlamaydi.

Biron bir shaxs bir necha mamlakatning fuqarosi bo'lgan holatlarda "uning fuqaroligi mansub mamlakat" ifodasi u fuqaro bo'lgan har qanday mamlakatni anglatadi va agar juda asosli xavflardan kelib chiqqan holda hech bir haqiqiy sababsiz o'zi fuqarosi bo'lgan mamlakatlardan birining himoyasidan foydalanmagan bo'lsa, fuqaroligi mansub bo'lgan mamlakat himoyasidan mahrum etilgan deb hisoblanmaydi.

B. 1) Ushbu Konvensiyaning 1-moddasi, A bo'limida keltirilgan "1951-yil 1-yanvargacha sodir bo'lgan hodisalar" so'zlari yoki: a) "Evropada 1951-yil 1-yanvargacha sodir bo'lgan hodisalar"ni; yoxud b) "Evropada yoki boshqa joylarda 1951-yil 1-yanvargacha sodir bo'lgan hodisalar"ni anglatadi; va har bir Ahdlashuvchi davlat Konvensiyani imzolash, ratifikatsiya qilish yoki unga qo'shilish paytida ushbu Konvensiya asosida o'z zimmasiga olgan majburiyatlariga nisbatan yuqorida ko'rsatilgan qaysi ta'rifga amal qilishini aniq ko'rsatadi.

2) Muqobil ma'noni qabul qilgan har qanday Ahdlashuvchi davlat, a) muqobil ma'noni qabul qilib, b) Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibini xabardor qilish orqali o'z zimmasiga olgan majburiyatlar qamrovini xohlagan vaqtda kengaytirishi mumkin.

C. Ushbu Konvensiyaning qoidalari A bo'limidagi ta'rifga taalluqli shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi, bular:

1) o'z fuqaroligi mansub bo'lgan mamlakat himoyasidan ixtiyoriy ravishda yana foydalanarlarga; yoki

2) fuqarolikdan mahrum bo'lib, yana ixtiyoriy ravishda uni qabul qilganlarga; yoki

3) yangi fuqarolikni qabul qilgan va yangi fuqaroligi mansub bo'lgan mamlakat himoyasidan foydalanayotganlarga; yoki

4) ta'qib qilinish xavfi ostida o'z mamlakatini tark etgan yoki tashqarisida bo'lgan mamlakatiga yana ixtiyoriy ravishda joylashib olganlarga; yoki

5) o'z fuqaroligi mansub mamlakatning himoyasidan bundan buyon foydalanishni rad eta olmaydiganlarga yoxud uning asosida qochoq deb tan olingan holat endilikda mavjud bo'lmasa;

agar qochoqlar o'z fuqaroliklari mansub bo'lgan mamlakat himoyasidan foydalanishni rad etishlari uchun avvalgi ta'qiblardan kelib chiqadigan asoslarni keltirishga qodir bo'lsalar, ushbu bandning qoidalari mazkur moddaning A bo'limi 1-bandi ta'rifiga mos tushadigan qochoqlarga nisbatan qo'llanilmaydi;

6) qochoq deb tan olingan holatlar endilikda mavjud emasligiga asosanib, muayyan fuqarolikka ega bo'lmagan shaxs sifatida avvalgi odatiy turar joyi mamlakatiga yoxud sharoitiga qaytishi mumkin;

agar qochoqlar avvalgi odatiy turar joyi mamlakatlariga qaytishni rad etishlari uchun avvalgi ta'qiblardan kelib chiqadigan asoslarni keltirishga qodir bo'lsalar, ushbu bandning qoidalari mazkur moddaning A bo'limi 1-bandi ta'rifiga mos tushadigan qochoqlarga nisbatan qo'llanilmaydi;

D. Ushbu Konvensiyaning qoidalari hozirgi vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy komissaridan tashqari Birlashgan Millatlar Tashkiloti organlari yoki muassasalarining himoyasi yoki yordamidan foydalanayotgan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan tegishli rezolyutsiyalarga muvofiq, ushbu shaxslarning ahvoli uzil-kesil tartibga solinganiga qadar bunday himoya yoki yordam qaysidir sabablarga ko'ra to'xtatilgan holatlarda ushbu shaxslar avtomat tarzda mazkur Konvensiyadan kelib chiqadigan huquqlarga ega bo'ladi.

E. Ushbu Konvensiyaning qoidalari ular yashayotgan mamlakatning vakolatli organlari ushbu mamlakat fuqaroligi bilan bog'liq huquq va burchlarini tan olgan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

F. Ushbu Konvensiyaning qoidalari ularga nisbatan quyidagi jiddiy asoslar bo'lgan barcha shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi:

a) tinchlikka qarshi jinoyatlar, harbiy jinoyatlar yoki insoniyatga qarshi jinoyatlarga nisbatan choralar ko'rish maqsadida tuzilgan xalqaro hujjatlarda belgilangan ta'riflarga mos tushadigan jinoyatlarni sodir etganlarga;

b) o'zlariga boshpana bergan mamlakat tashqarisida va qochoq sifatida kiritilgan mamlakatga kiritilgunga qadar siyosiy xususiyatga ega bo'lmagan og'ir jinoyat qilganlarga;

c) Birlashgan Millatlar Tashkiloti prinsiplariga zid bo'lgan qilmishlarni sodir etganlarga.

2-modda. Umumiy majburiyatlar

Har bir qochoqda o'zi bo'lib turgan mamlakatga nisbatan majburiyatlar bo'ladi, shunga muvofiq u, jumladan, qonunlar va farmoyishlarga, shuningdek, jamoat tartibini saqlash uchun ko'riladigan choralarga bo'ysunishi kerak.

3-modda. Kamsitishga yo'l qo'ymaslik

Ahdlashuvchi davlatlar qochoqlarga nisbatan ushbu Konvensiya qoidalarini irqi, dini yoki kelib chiqish mamlakati belgisi bo'yicha hech bir kamsitishsiz qo'llaydilar.

4-modda. Diniy e'tiqodlar

Ahdlashuvchi davlatlar ushbu Konvensiyaning qoidalarini o'z hududlarida turgan qochoqlarga o'z dinlariga e'tiqod qilish erkinligi va o'z farzandlariga diniy ta'lim berish erkinligiga nisbatan hech bo'lmaganda o'z fuqarolaridagi kabi qulaylik taqdim etadilar.

5-modda. Ushbu Konvensiyadan qat'i nazar taqdim etilgan huquqlar

Ushbu Konvensiyadagi hech narsa har qanday Ahdlashuvchi davlat mazkur Konvensiyadan qat'i nazar, qochoqlarga taqdim etilgan hech bir huquq va ustunliklarni buzmaydi.

6-modda. "Xuddi ana shunday vaziyatlarda" iborasi

Ushbu Konvensiyada "xuddi ana shunday vaziyatlarda" iborasi, qochoq o'z xususiyatiga ko'ra bajarishga qodir bo'lmagan talablarni istisno etgan holda, mazkur alohida shaxs, agar u qochoq bo'lmaganida, tegishli huquqdan foydalanish uchun bajarishi kerak bo'lgan har qanday talablarga (shu jumladan, mamlakatda bo'lish muddati va sharoitlari yoki yashashga taalluqli talablar) javob berishi kerakligini anglatadi.

7-modda. O'zaro munosabatlar prinsipidan ozod qilish

1. Ahdlashuvchi davlatlar ushbu Konvensiyaga asoslangan holda, qochoqlarga yanada qulayroq huquqiy qoida taqdim etiladigan holatlardan tashqari, ularga umuman chet elliklar foydalanadigan qoidalarini taqdim etadi.

2. Ahdlashuvchi davlatlar hududida uch yillik yashash muddati tugagandan so'ng, barcha qochoqlar qonunchilik orqali o'rnatilgan o'zarolik talabidan ozod qilinadi.

3. Har bir Ahdlashuvchi davlat qochoqlarga mazkur Konvensiya ushbu davlatga nisbatan kuchga kirgan kunida hech bir o'zaro munosabatlarsiz ega bo'lgan huquq va imtiyozlarni keyinchalik ham ularga taqdim etadi.

4. Ahdlashuvchi davlatlar qochoqlarga, ular 2 va 3-bandlarga ko'ra ega bo'lgan huquqlaridan tashqari, hech bir o'zaro munosabatlarsiz huquq va imtiyozlarning taqdim etilishi imkoniyatiga hamda 2 va 3-bandlarda ko'zda tutilgan shartlarga javob bermaydigan qochoqlarning o'zarolik talablaridan ozod qilinishi ehtimoliga xayrixohlik bilan qaraydilar.

5. 2- va 3-bandlarning qoidalari ushbu Konvensiyaning 13, 18, 19, 21 va 22-moddalarida qayd etilgan huquq va imtiyozlarga hamda unda ko'zda tutilmagan huquq va imtiyozlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

8-modda. Istisno choralaridan ozod qilish

Ahdlashuvchi davlatlar tomonidan chet el davlatlarining fuqarolari bo'lgan shaxslarning mulk yoki manfaatlariga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan istisno choralari faqat fuqaroligi asosida rasman ushbu davlat fuqarolari bo'lgan qochoqlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Qonunchiligi ushbu moddada ifoda etilgan umumiy prinsipni qo'llashga yo'l qo'ymaydigan Ahdlashuvchi davlatlar tegishli holatlarda ushbu qochoqlar manfaatlarini ko'zlagan holda istisnolar o'rnatadi.

9-modda. Vaqtinchalik chora-tadbirlar

Ushbu Konvensiyada hech narsa Ahdlashuvchi davlatning urush paytida yoki boshqa favqulodda va alohida vaziyatlarda davlat xavfsizligi manfaatlarida zarur deb hisoblaydigan vaqtinchalik choralarni qabul qilish huquqidan mahrum etmaydi, bu esa ushbu Ahdlashuvchi davlat u yoki bu muayyan shaxsning haqiqatan qochoq ekanligini aniqlaguncha va unga nisbatan ana shunday choralarning keyinchalik qo'llanilishi davlat xavfsizligi manfaatlarini uchun zarurdir.

10-modda. Yashashning uzluksizligi

1. Agar qochoq Ikkinchi jahon urushi paytida deportatsiya qilingan va Ahdlashuvchi Davlatlardan birining hududiga jo'natilgan hamda o'sha joyda yashayotgan bo'lsa, bunday majburiy bo'lish ushbu hudud doirasida qonuniy istiqomat qilish vaqti sifatida ko'riladi.

2. Agar qochoq Ikkinchi jahon urushi paytida Ahdlashuvchi davlatlardan birining hududiga deportatsiya qilingan bo'lsa va ushbu Konvensiya kuchga kirgunga qadar o'sha joyda doimiy istiqomat qilish maqsadida o'sha yerga qaytib kelgan bo'lsa, u holda bunday deportatsiyadan oldin va keyin yashash davri yashashning uzluksizligi talab qilinadigan barcha holatlarda bir uzluksiz davr sifatida ko'rib chiqiladi.

11-modda. Qochoq dengizchilar

Agar qochoqlar Ahdlashuvchi davlatlardan birining bayrog'i ostida suzayotgan kemalar ekipajida normal xizmat qiluvchi shaxslar bo'lsa, bu davlat mazkur shaxslarning o'z hududida joylashishiga va ularga yo'l hujjatlarini berish yoki o'z hududiga, xususan, biron bir boshqa mamlakatda joylashishini yengillashtirish maqsadida vaqtinchalik kirish huquqini taqdim etishga xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladi.

II BOB. HUQUQIY MAQOM

12-modda. Shaxsiy maqom

1. Qochoqning shaxsiy maqomi, u joylashgan mamlakat qonunlari yoki agar u bo'lmasa, u yashaydigan mamlakat qonunlari bilan belgilanadi.

2. Qochoqning shaxsiy maqomi bilan bog'liq avvaldan mavjud bo'lgan huquqiga va, xususan, nikohdan kelib chiqadigan huquqiga, zarur hollarda, tegishli huquq ushbu davlat qonunlari tomonidan tan olingan huquqlardan biri bo'lishi sharti bilan, mazkur davlatning qonunlarida belgilab qo'yilgan rasmiyatchiliklar, agar bu shaxs qochoq bo'lmaganida, Ahdlashuvchi davlatlar tomonidan bajarilishi bo'yicha amal qiladi.

13-modda. Ko'char va ko'chmas mulk

Ahdlashuvchi davlatlar ko'char va ko'chmas mulkni olishga hamda bilan bog'liq boshqa huquqlarga nisbatan, shuningdek ko'char va ko'chmas mulkka taalluqli ijara hamda boshqa shartnomalarga nisbatan qochoqlarga, iloji boricha qulayroq imkoniyatlarni, har holda, ana shunday vaziyatlarda, odatda chet elliklar foydalanadiganidan kam bo'lmagan qulay imkoniyatlarni taqdim etadi.

14-modda. Mualliflik va sanoat huquqlari

Sanoat huquqlari, xususan: ixtiro qilish, chizmalar va modellar, savdo markalari, firmalar nomiga bo'lgan huquqlar hamda adabiy, badiiy va ilmiy asarlarga bo'lgan huquqlarni himoya qilishga taalluqli masalalarda, odatiy turar joyiga ega bo'lgan mamlakatdagi qochoqlarga ushbu mamlakat fuqarolariga bo'lgani kabi bir xil himoya taqdim etiladi. Har qanday boshqa Ahdlashuvchi davlat hududida, ularga odatiy turar joyiga ega bo'lgan ushbu hududdagi mamlakat fuqarolariga bo'lgani kabi bir xil himoya taqdim etiladi.

15-modda. Assotsiatsiyalar huquqi

Siyosiy xususiyatga ega bo'lmagan hamda foyda olish maqsadini ko'zlamaydigan assotsiatsiyalar va kasaba uyushmalariga nisbatan Ahdlashuvchi davlatlar o'z hududlarida qonuniy yashayotgan qochoqlarga xuddi shunday vaziyatda chet el fuqarolari uchun belgilanganiga mutanosib yanada qulay imkoniyat taqdim etadi.

16-modda. Sudga murojaat qilish huquqi

1. Har bir qochoq barcha Ahdlashuvchi davlatlarning hududlarida sudlarga erkin murojaat qilish huquqiga ega.

2. Ahdlashuvchi davlatlarning hududlarida odatiy turar joyga ega bo'lgan har bir qochoq sudga murojaat qilish huquqiga nisbatan, xususan, yuridik yordam va sud xarajatlarini to'lashdan ozod bo'lish (cautio judicatum solvi) masalalarida o'z fuqarolari kabi bir xil qoidalaridan foydalanadi.

3. O'zining odatiy yashash mamlakatidan tashqari, boshqa barcha mamlakatlardagi har bir qochoqqa 2-bandda qayd etilgan masalalar bo'yicha uning odatiy turar joyidagi mamlakat fuqarosiga bo'lgani kabi bir xil qoidalar taqdim etiladi.

III BOB. DAROMAD KELITIRADIGAN MASHG'ULOT

17-modda. Yollanib ishlash

1. Ahdlashuvchi davlatlar o'zlarining hududlarida qonuniy yashayotgan qochoqlarga, ularning yollanib ishlash huquqiga nisbatan, xuddi shunday holatlarda xorijiy davlatlar fuqarolari foydalanadigandan yanada qulayroq huquqiy imkoniyatni taqdim etadi.

2. Har qanday holatda chet elliklar yoki chet elliklarni yollashga taalluqli va ichki mehnat bozorini muhofaza qilish maqsadida qo'llaniladigan cheklov choralarini tegishli Ahdlashuvchi davlatlarga ushbu Konvensiya kuchga kirgan kunda tarqalmagan yoki quyidagi shartlardan biri qoniqtirilganda mazkur choralar qochoqlarga qo'llanilmaydi:

a) mamlakat hududida kamida uch yil yashagan;

b) turmush o'rtog'i yashash mamlakatining fuqaroligiga ega bo'lganda. Qochoq, agar u oilani tark etgan bo'lsa, ushbu qarorga havola qilishi mumkin emas;

c) bir yoki bir nechta farzandi yashash mamlakatining fuqaroligiga ega bo'lganda.

3. Ahdlashuvchi davlatlar barcha qochoqlarning va, xususan, ishchi kuchini yollash dasturini bajarish tartibi yoki immigratsiya rejalariga muvofiq o'z hududlariga kirgan qochoqlarning yollanib ishlashga nisbatan huquqlarining fuqarolar huquqlari bilan tenglashtirish imkoniyatiga xayrixohlik bilan qaraydi.

18-modda. O'z korxonasida ishlash

Ahdlashuvchi davlatlar, ularning hududlarida qonuniy yashayotgan qochoqlarga mustaqil ravishda qishloq xo'jaligi, sanoat, hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullanish, shuningdek savdo va sanoat shirkatlarini ta'sis etish huquqlariga nisbatan qulayroq huquqiy imkoniyatni, har holda xuddi shunday vaziyatlarda odatda chet elliklar foydalanadiganidan kam bo'lmagan qulay huquqiy imkoniyatni taqdim etadi.

19-modda. Erkin kasblar

1. Ahdlashuvchi davlat, ularning hududida qonuniy yashayotgan va ushbu davlatning vakolatli hokimliklari tomonidan tan olingan diplomga ega bo'lgan, erkin kasblar bilan shug'ullanishni istagan qochoqlarga qulayroq huquqiy imkoniyatni, odatda xuddi shunday vaziyatlarda chet elliklar foydalanadiganidan kam bo'lmagan imkoniyatni taqdim etadi.

2. Xalqaro munosabatlar uchun mas'ul bo'lgan Ahdlashuvchi davlatlar ana shunday qochoqlarni metropoliyadan tashqaridagi hududlarda joylashishini ta'minlash uchun o'zlarining qonunlari va konstitutsiyalari yo'l qo'yadigan barcha choralarni ko'radilar.

IV BOB. IJTIMOY TA'MINOT

20-modda. Payoklar tizimi

Butun aholi uchun tanqis mahsulotlarni umumiy taqsimlashni tartibga soladigan payoklar tizimining majburiyati mavjud bo'lganda, bunday tizim qochoqlarga fuqarolar bilan teng asosda qo'llaniladi.

21-modda. Uy-joy masalasi

Uy-joy masalasi qonunlar yoki farmoyishlar bilan tartibga solinishi yoxud davlat hokimiyati nazorati ostida bo'lsa, Ahdlashuvchi davlatlar o'z hududlarida qonuniy yashayotgan qochoqlarga iloji boricha qulayroq huquqiy imkoniyatni, har holda, odatda xuddi shunday vaziyatlarda xorijliklar foydalanadiganidan kam bo'lmagan imkoniyatni taqdim etadi.

22-modda. Xalq ta'limi

1. Ahdlashuvchi davlatlar qochoqlarga boshlang'ich ta'limga nisbatan fuqarolariga bo'lgani kabi bir xil huquqiy imkoniyatni taqdim etadi.

2. Ahdlashuvchi davlatlar qochoqlarga boshlang'ich ta'limdan tashqari, xalq ta'limining boshqa turlariga va, xususan, o'qish imkoniyati, chet el attestati, diplom va darajalarini tan olish, o'qish huquqi uchun to'lov va yig'implardan ozod qilish, shuningdek stipendiya berishga nisbatan iloji boricha qulayroq huquqiy holatni va har holda, odatda xuddi shunday vaziyatlarda chet elliklar foydalanadiganidan kam bo'lmagan imkoniyatni taqdim etadi.

23-modda. Hukumat yordami

Ahdlashuvchi davlatlar, ularning hududlarida qonuniy yashayotgan qochoqlarga ham o'z fuqarolari kabi hukumat yordami va qo'llab-quvvatlashidan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi.

24-modda. Mehnat qonunchiligi va ijtimoiy ta'minot

1. Ahdlashuvchi davlatlar o'z fuqarolariga bo'lganidek ularning hududlarida qonuniy yashayotgan qochoqlarga ham quyidagi holatlarni taqdim etadi:

a) mehnat uchun haq, jumladan, oilaga nafaqa, agar bunday nafaqalar mehnat haqining bir qismi bo'lsa, ish vaqtidan ortiqcha ish, pul to'lanadigan ta'til, uydagi ishni cheklash, yollanib ishlayotgan shaxslarning eng kichik yoshi, ayollar va o'smirlar uchun shogirdlik hamda kasbiy tayyorgarlik va jamoaviy shartnomalar manfaatlaridan foydalanish, chunki ushbu masalalar qonunlar yoki farmoyishlar bilan tartibga solinadi hamda ma'muriy hokimiyat tomonidan nazorat qilinadi;

b) quyidagi cheklovlar bilan ijtimoiy ta'minot (ishda baxtsiz hodisalar, onalik, kasallanish, nogironlik, keksalik, o'lim, ishsizlik, oilaga nisbatan majburiyatlar va ichki qonunlar yoxud qarorlarga muvofiq ijtimoiy ta'minot tizimida ko'zda tutilgan boshqa hodisalarga taalluqli qonun hujjatlari):

i) ega bo'lingan huquq va ega bo'lish jarayonidagi huquqlarni saqlashning tegishli tartibi mavjud bo'lishi mumkin;

ii) yashash mamlakatining qonun yoki farmoyishlari to'liq davlat mablag'lari hisobidan to'lab beriladigan to'liq yoki qisman nafaqa hamda normal pensiya olish uchun talab qilinadigan badallarga nisbatan barcha shartlarni bajarmagan shaxslarga beriladigan nafaqalarni olishning maxsus tartibini tasdiqlashi mumkin.

2. Qochoqning ishda baxtsiz hodisa oqibatida yuzaga kelgan o'limi yoki kasb kasalligiga chalinishi uchun tovon puli olishga bo'lgan huquqiga manfaatdor shaxsning Ahdlashuvchi davlat hududida yashamasligi holati ta'sir qilmaydi.

3. Ahdlashuvchi davlatlar qochoqlarga ijtimoiy ta'minotga nisbatan ega bo'lingan huquq va ega bo'lish jarayonidagi huquqlarni saqlash to'g'risidagi o'zlari o'rtasida tuzilgan yoki kelajakda tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlardan kelib chiqadigan imtiyozlarni faqat ushbu qayd qilingan bitimlarni imzolagan davlatlar fuqarolariga nisbatan qo'llaniladigan shartlarga rioya qilgan holda taqdim etadi.

4. Ahdlashuvchi davlatlar har qanday vaqtda ushbu Ahdlashuvchi davlatlar va shartnomada ishtirok etmayotgan davlatlar o'rtasida kuchga kirishi mumkin bo'lgan shu kabi bitimlardan kelib chiqadigan imtiyozlarni imkon boricha qochoqlarga taqdim etish to'g'risidagi masalaga xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladilar.

V BOB. MA'MURIY CHORALAR

25 modda. Ma'muriy ko'maklashish

1. Qochoqlar tomonidan biron bir huquqdan foydalanishda ular, odatda murojaat qila olmaydigan chet el davlati organlarining ko'maklashishini talab qilganda, hududida qayd etib o'tilgan qochoqlarga yashaydigan Ahdlashuvchi davlatlar ularga bunday yordam o'zlarining hokimliklari tomonidan ko'rsatilishi uchun choralar ko'radilar.

2. 1-bandda qayd etilgan hokimiyat yoki hokimliklar qochoqlarni, odatda chet elliklarga hokimiyat yoki o'zlari fuqarosi bo'lgan davlatlarning hokimliklari orqali beriladigan hujjatlar yoxud guvohnomalar bilan ta'minlab beradi yoki ularga berilishini o'z nazorati ostida amalga oshirilishini ta'minlaydi.

3. Ushbu tartibda berilgan hujjatlar yoki guvohnomalar chet elliklarga hokimiyatlar yoki o'zlari fuqarosi bo'lgan davlatlarning hokimliklari orqali beriladigan rasmiy hujjatlar yoki guvohnomalar o'rnini bosadi hamda ular haqiqiy emasligi isbotlanmaguncha haqiqiy deb tan olinadi.

4. Ushbu moddada qayd etilgan xizmatlar uchun nochor shaxslarga taqdim etiladigan alohida imtiyozlarni istisno etgan holda, haq olinishi ham mumkin, ammo bunday haq mo'tadil bo'ladi hamda shunga o'xshash xizmatlar uchun fuqarolardan olinadigan haqqa mutanosib bo'ladi.

5. Ushbu moddaning qoidolari 27- va 28-moddalarning qoidalariga daxl qilmaydi.

26-modda. Harakatlanish erkinligi

Har bir Ahdlashuvchi davlat ularning hududida qonuniy turgan qochoqlarga o'z hududi doirasida, odatda, xuddi shunday vaziyatlarda qo'llaniladigan barcha qoidalarga rioya qilish sharti bilan chet elliklarga yashash joyini tanlash va erkin harakatlanish huquqini taqdim etadi.

27-modda. Shaxsiy guvohnoma

Ahdlashuvchi davlat ularning hududida bo'lgan va haqiqiy yo'l hujjatlariga ega bo'lmagan qochoqlarga shaxsiy guvohnoma taqdim etadi.

28-modda. Yo'l hujjatlari

1. Ahdlashuvchi davlatlar ularning hududlarida qonuniy yashayotgan qochoqlarga o'z hududidan tashqarida harakatlanish uchun yo'l hujjatlari beradi, bunga davlat xavfsizligi va

jamoat tartibining asosli sabablari to'sqinlik qilmaydi; bunday hujjatlarga ushbu Konvensiyaga ilova qilingan qoidalar qo'llaniladi. Ahdlashuvchi davlatlar ana shunday yo'l hujjatlarini ularning hududida bo'lgan har qanday boshqa qochoqqa berishi mumkin; ular, jumladan, o'zining hududida bo'lgan, o'zlarining qonuniy yashaydigan mamlakatida yo'l hujjati olish imkoniyatiga ega bo'lmagan qochoqlarga ana shunday yo'l hujjatlarini berish to'g'risidagi masalaga xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladi.

2. Qochoqlarga avvalgi xalqaro bitimlar asosida berilgan yo'l hujjatlari, xuddi ushbu modda asosida berilganda Ahdlashuvchi davlatlar tomonidan ushbu bitimlar ishtirokchilari sifatida e'tirof etiladi va ko'rib chiqiladi.

29-modda. Soliqlar

1. Ahdlashuvchi davlatlar qochoqlardan ana shunday sharoitlarda o'z fuqarolaridan oladigan yoki olishlari mumkin bo'lgan soliqlardan tashqari yoxud ko'p boj, yig'imlar yoki soliqlar olmaydi.

2. Avvalgi bandning qoidalarini hech bir holda qochoqlarga chet elliklarga ma'muriy hujjatlarni, shu jumladan, shaxsiy guvohnomani berish uchun yig'implarga taalluqli qonunlar va farmoyishlar qo'llanilishini istisno etmaydi.

30-modda. Mulkni olib chiqib ketish

1. Ahdlashuvchi davlatlar o'z qonunlari va farmoyishlariga muvofiq, qochoqlarga o'zining hududiga ularning o'zi bilan olib kelgan mol-mulkni ularga joylashish uchun kirish huquqi berilgan boshqa mamlakatga olib chiqishiga ruxsat beradi.

2. Ahdlashuvchi davlatlar qochoqning ularga kirish huquqi berilgan boshqa mamlakatlarda joylashishlari uchun zarur bo'lgan mulkni olib chiqib ketishga, bu mulk qayerdaligidan qat'i nazar, ruxsat berilishi to'g'risidagi murojaatiga xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladi.

31-modda. Ularga boshpana bergan mamlakatda noqonuniy yashayotgan qochoqlar

1. Ahdlashuvchi davlatlar, o'zlarining hududlariga hayotlariga yoki erkinliklariga xavf tug'dirgan hududdan to'g'ridan-to'g'ri kelib, noqonuniy kirgan yoki hududlarida noqonuniy turgan qochoqlarni, 1-moddada ko'zda tutilganidek, ruxsatsiz bu davlatlar hududlariga kirgani yoki turgani uchun, agar bunday qochoqlar zudlik bilan hokimiyatga borishlari va o'zlarining noqonuniy kirgani yoki turgani haqida qoniqarli tushuntirishlar taqdim etsa, jazo choralari qo'llamaydi.

2. Ahdlashuvchi davlatlar bunday qochoqlarning zarurat tug'dirmasdan erkin harakat qilishlarini cheklamaydilar; bunday cheklovlar faqat bu qochoqlarning mazkur mamlakatdagi maqomi tartibga solingandan keyin yoki ular boshqa mamlakatga kirish huquqini olgandan keyin qo'llaniladi. Ahdlashuvchi davlatlar ana shunday qochoqlarga boshqa mamlakatga kirishlari uchun yetarli muddat va barcha zarur shart-sharoitlarni taqdim etadilar.

32-modda. Chiqarib yuborish

1. Ahdlashuvchi davlatlar o'z hududlarida qonuniy yashayotgan qochoqlarni davlat xavfsizligi va jamoat tartibi nuqtai nazaridan boshqa holatlarda chiqarib yubormaydi.

2. Bunday qochoqlarni chiqarib yuborish faqat sud tartibida chiqarilgan qarorlarni bajarish bilan amalga oshiriladi. Davlat xavfsizligining uzrli asoslari to'sqinlik qiladigan holatlarni istisno qilgan holda, qochoqlarga o'zini oqlash uchun dalillar va shikoyatlarni tegishli instansiyalarga yoki tegishli instansiyalar tomonidan tayinlangan shaxs yoxud shaxslarga taqdim etish huquqi, shuningdek bu maqsad uchun o'zlarining vakillariga ega bo'lish huquqi beriladi.

3. Ahdlashuvchi davlatlar ana shunday qochoqlarga boshqa mamlakatga kirishga qonuniy huquq olishga yetarli muddat taqdim etadilar. Ahdlashuvchi davlatlar ana shu muddat davomida o'zlari zarur deb topgan, ichki xususiyatga ega choralarni qo'llash huquqlarini saqlab qoladilar.

33-modda. Qochoqlarni chiqarib yuborish yoki majburiy qaytarib keltirishni (ular kelgan mamlakatlardan) taqiqlash

1. Ahdlashuvchi davlatlar qochoqlarni hech bir tarzda ularning irqi, dini, fuqaroligi, muayyan ijtimoiy guruhga mansubligi yoki siyosiy e'tiqodi oqibatida hayotlari yoki erkinliklariga xavf tug'diradigan mamlakatlar chegarasiga chiqarib yubormaydi yoki qaytarib bermaydi.

2. Biroq, bu qaror qochoqlar turgan mamlakat xavfsizligiga tahdid soluvchi uzrli sabab sifatida ko'rilayotgan yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etganligi bo'yicha hukm kuchga kirgan sudlanganlar va mamlakat uchun jamoat tahdidini keltirib chiqaradigan qochoqlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

34-modda. Naturalashtirish

Ahdlashuvchi davlatlar imkon darajasida qochoqlarning assimilyatsiyasi va naturalashtirilishini yengillashtiradi. Jumladan, ular naturalashtirish ishini tezlashtirish hamda u bilan bog'liq yig'imlar va xarajatlarni kamaytirish uchun qo'llaridan kelgan hamma narsani qiladi.

VI BOB. KONVENSIYANI QO'LLASH VA O'TISH DAVRIGA TAALLUQLI QOIDALAR

35-modda. Milliy hokimiyatlar va Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'rtasidagi hamkorlik

1. Ahdlashuvchi davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi yoki uning vazifalarini bajarish o'tishi mumkin bo'lgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday boshqa organi bilan hamkorlik qilish majburiyatini oladi va, xususan, ularga ushbu Konvensiya qoidalarining qo'llanilishini kuzatish bo'yicha majburiyatlarini bajarishda ko'maklashadi.

2. Oliy komissar boshqarmasi yoki uning o'rnini egallaydigan Birlashgan Millatlar Tashkilotining boshqa organi Birlashgan Millatlar Tashkilotining tegishli organlariga hisobotlar taqdim etish imkoniyatini berish uchun Ahdlashuvchi Davlatlar ular tomonidan talab qilinadigan, tegishli shakldagi quyidagi axborotlar va statistika ma'lumotlari bilan ta'minlash majburiyatini oladi:

- a) qochoqlarning ahvoli;
- b) ushbu Konvensiyaning hayotga tatbiq etilishi;
- c) qochoqlar masalalari bo'yicha kuchga kirgan yoki keyinchalik kuchga kirishi mumkin bo'lgan qonunlar, farmoyishlar va dekretlar.

36-modda. Milliy va qonunchilik hujjatlari to'g'risida ma'lumotlar

Ahdlashuvchi davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibini ushbu Konvensiyani hayotga tatbiq etish maqsadida ular tomonidan nashr etilgan qonunlar va qarorlar matni to'g'risida xabardor qiladi.

37-modda. Avval imzolangan Konvensiyalar

Ushbu Konvensiyaning 28-moddasi 2-bandini kuchda saqlab qolgan holda, bu Konvensiya unda ishtirok etuvchi tomonlar uchun 1922-yil 5-iyul, 1924-yil 31-may, 1926-yil 12-maydagi hujjatlarni, 1933-yil 28-oktyabr va 1938-yil 10-fevraldagi Konvensiyalarni hamda 1946-yil 15-oktyabrdagi Bitimni almashtiradi.

VII BOB. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

38-modda. Bahslarni hal etish

Ushbu Konvensiya ishtirokchilari o'rtasida uni talqin etish yoki qo'llashga oid paydo bo'ladigan, boshqacha tarzda hal etib bo'lmaydigan barcha bahslar bahslashayotgan tomonlardan birining talabi bo'yicha Xalqaro Sudga beriladi.

39-modda. Imzolash, ratifikatsiya qilish va qo'shilish

1. . Ushbu Konvensiya 1951-yil 28-iyulda Jenevada imzolanish uchun ochiq bo'ladi va shundan so'ng, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga topshiriladi. Konvensiya 1951-yil 28-iyuldan 31-avgustgacha Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa bo'limida imzolash uchun ochiq bo'ladi hamda 1951-yilning 17-sentyabridan 1952-yilning 31-dekabrigacha Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy muassasalarida imzolash uchun yana ochiq bo'ladi.

2. Ushbu Konvensiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zolari bo'lgan davlatlar, shuningdek qochoqlar va apatridlar maqomi masalasi bo'yicha Vakolatli vakillar konferensiyasiga taklif etilgan har qanday boshqa davlatlar nomidan hamda Bosh Assambleya uni imzolashni taklif etgan har qanday davlatning imzolashi uchun ochiq bo'ladi. Ushbu Konvensiya ratifikatsiya qilinadi, bunda ratifikatsiya yorlig'i Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga topshiriladi.

3. Ushbu Konvensiya 1951-yil 28-iyuldan mazkur moddaning 2-bandida qayd etilgan davlatlarning qo'shilishi uchun ochiq bo'ladi. Qo'shilish Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi huzurida qo'shilish to'g'risidagi hujjatni topshirish orqali amalga oshiriladi.

40-modda. Konvensiyaning hududiy qo'llanilishi to'g'risidagi qaror

1. Har qanday davlat Konvensiyani imzolash yoki ratifikatsiya qilish yoxud unga qo'shilish paytida, ushbu Konvensiyaning amal qilishi xalqaro munosabatlar uchun javobgar bo'lgan mazkur davlatning barcha hududlari yoki ayrim hududlariga tarqalishini bayon etishi mumkin. Bunday bayonot Konvensiya ushbu davlat uchun kuchga kirgan kunda kuchga kiradi.

2. Konvensiya amal qilishining bu kabi tarqalishi har qanday keyingi paytda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga yo'llangan bildirgi orqali e'lon qilinishi kerak va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tomonidan ushbu bildirgi olingan kundan keyin to'qsoninchi kun yoki ushbu davlat uchun Konvensiya kuchga kirgan kundan boshlab, agar bu oxirgi sana kechroq bo'lsa, kuchga kiradi.

3. Ushbu Konvensiyani imzolash, ratifikatsiya qilish yoki unga qo'shilish paytida u tarqalmagan hududlarga nisbatan har bir manfaatdor davlat aynan shu hududlarda konstitutsiyaviy xususiyatga ega sabablarga ko'ra, mazkur hududlar hukumatlarining ruxsati bilan ushbu Konvensiyaning qo'llanilishini kengaytirish uchun zarur bo'lgan choralarni ko'rish imkoniyati to'g'risidagi masalani ko'rib chiqadi.

41-modda. Federativ davlatlar to'g'risidagi qaror

Federal yoki unitar bo'lmagan davlatlarga quyidagi qoidalar qo'llaniladi:

a) mazkur Konvensiyaning federal qonunchilik organi yurisdiksiyasiga taalluqli bo'lgan moddalariga nisbatan federal hukumatning majburiyatlari ushbu Konvensiyaning federal davlat bo'lmagan tomoni majburiyatlariga ko'rsatilgan darajada muvofiq bo'ladi;

b) ushbu Konvensiyaning federatsiyaning konstitutsiyaviy tuzumiga muvofiq qonunchilik choralarini ko'rishga majbur bo'lmagan federatsiyaga kiradigan shtatlar, provintsiya va kantonlarining qonunchilik yuridiksiyasiga tegishli moddalariga nisbatan federal hukumat birinchi imkoniyatning o'zida mazkur moddalar to'g'risida tegishli shtat, provintsiya yoki kantonlar hokimiyatlarini o'zining xayrixoh munosabati bilan xabardor qiladi;

c) ushbu Konvensiyaning tomoni bo'lgan federativ davlatlar har qanday boshqa Ahdlashuvchi Davlatning talabiga binoan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi orqali Konvensiyaning har qanday aniq qoidasiga nisbatan federatsiya va uning tarkibiy qismlarida mavjud qonunlar va amaliyotda ushbu qoidaning qonunchilik yoki boshqa yo'l bilan hayotga tatbiq etilgani ko'rsatilganligi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadi.

42-modda. Qo'shimcha shartlar

1. Imzolash, ratifikatsiya qilish yoki qo'shilish paytida har qanday davlat 1, 3, va 4-moddalar, 16-moddaning 1-bandi, 33 va 36–46-moddalar istisno etilgani holda Konvensiyaning moddalariga qo'shimcha shartlar qo'yishi mumkin.

2. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq qo'shimcha shartlar qo'ygan har qanday davlat istalgan vaqtda bu haqda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibini xabardor qilish orqali ushbu qo'shimcha shartlaridan voz kechishi mumkin.

43-modda. Kuchga kirishi

1. Ushbu Konvensiya oltinchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilgan sanadan boshlab to'qsoninchi kuni kuchga kiradi.

2. Konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan barcha davlatlar uchun oltinchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat topshirilgandan so'ng, Konvensiya tegishli davlat tomonidan o'z ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat topshirilgan kundan boshlab to'qsoninchi kuni kuchga kiradi.

44-modda. Denonsatsiya qilish

1. Har qanday Ahdlashuvchi davlat istalgan vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibini xabardor qilish orqali ushbu Konvensiyani denonsatsiya qilishi mumkin.

2. Bunday denonsatsiya qilish tegishli Ahdlashuvchi davlat uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga bildirgi yuborilgan kundan bir yil o'tgandan keyin kuchga kiradi.

3. 40-moddaga asosan bayonot bergan yoki xabarnoma yuborgan har qanday davlat shundan keyin istalgan vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi nomiga bildirgi yuborish orqali, Bosh kotib ushbu bildirgini olganidan bir yil o'tgandan keyin Konvensiya tegishli hududda amal qilmasligi to'g'risida bildirishi mumkin.

45-modda. Qayta ko'rish

1. Har qanday Ahdlashuvchi Davlat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi nomiga yuborilgan bildirgi orqali istalgan vaqtda mazkur Konvensiyani qayta ko'rishni talab qilishi mumkin.

2. Agar bunday talab bilan bog'liq qandaydir choralar ko'rish kerak bo'lsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tegishli choralar ko'rishni tavsiya qiladi.

46-modda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tomonidan yuboriladigan bildirgilar

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zolari va 39-moddada qayd etilgan uning a'zosi bo'lmagan davlatlarga quyidagilarni xabar qiladi:

- a) 1-moddaning B bo'limi asosida kelib tushgan arizalar va bildirgilar to'g'risida;
- b) 39-moddada ko'zda tutilgan imzolash, ratifikatsiya qilish va qo'shilishlar to'g'risida;
- c) 40-moddada ko'zda tutilgan arizalar va bildirgilar to'g'risida;
- d) 42-moddada ko'zda tutilgan qo'shimcha shartlar va qo'shimcha shartlardan voz kechish to'g'risida;
- e) 43-moddaga muvofiq ushbu Konvensiyaning kuchga kirish kuni to'g'risida;
- f) 44-moddada ko'zda tutilgan denonsatsiya qilish va bildirgilar to'g'risida;
- g) 45-moddaga muvofiq kelib tushgan qayta ko'rib chiqish talablari to'g'risida.

Buni tasdiqlash uchun imzolashga zarur vakolatga ega bo'lgan holda o'z hukumatlari nomidan ushbu Konvensiyani imzoladilar.

Jenevada bir ming to'qqiz yuz yil ellik birinchi yil yigirma sakkizinchi iyulda bir nusxada tuzilgan, matni ingliz va fransuz tillarida aynan bir xil, ushbu nusxa Birlashgan Millatlar Tashkiloti arxiviga topshirilgan hamda uning tasdiqlangan nusxalari Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zolariga va 39-moddada qayd etilgan a'zo bo'lmagan davlatlarga yuboriladi.

QOCHOQLAR MAQOMLARIGA TAALLUQLI BAYONNOMA

1967-yil 31-yanvar Nyu-York

*BMT Bosh Assambleyasining 1966-yil 16-dekabrda
2198(XXI)-rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan*

Ushbu Bayonnomaning ishtirokchi-davlatlari,

1951-yil 28-iyulda Jenevada imzolangan Qochoqlar maqomi to'g'risidagi konvensiya (keying o'rinlarda – Konvensiya) faqat 1951-yil 1-yanvarga qadar sodir bo'lgan hodisalar oqibatida qochoq bo'lgan shaxslarga nisbatan amal qilishini e'tiborga olib,

Konvensiya qabul qilingan vaqtdan beri qochoqlarga taalluqli yangi vaziyatlar yuzaga kelganligini va shu sababli bunga aloqador bo'lgan qochoqlar Konvensiya amal qilish doirasiga kirmasliklari mumkinligini e'tiborga olib,

Konvensiyada mavjud ta'rifga to'g'ri keladigan barcha qochoqlar 1951-yil 1-yanvarning ko'rsatilgan sanasidan qat'i nazar, teng maqomdan foydalanishlari maqsadga muvofiqligini e'tiborga olib,

quyidagilar to'g'risida kelishib oldilar:

1-modda. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Bayonnomaning ishtirokchi-davlatlari Konvensiyaning 2–34-moddalarini quyida bayon etilgan ta'rifga to'g'ri keladigan qochoqlarga nisbatan qo'llash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

2. Mazkur Bayonnomaning maqsadlari uchun ushbu moddaning 3-bandini qo'llashga taalluqli holatlarni istisno qilgan holda, "qochoq" atamasi deganda, 1A(2)-moddasidagi "1951-yil 1-yanvargacha sodir bo'lgan hodisalar oqibatida..." va "... shu kabi voqealar oqibatida" so'zlari tushirib qoldirilib, Konvensiyaning 1-moddasi ta'rifiga to'g'ri keladigan har qanday shaxs nazarda tutiladi.

3. Ushbu Bayonnoma unda ishtirok etuvchi davlatlar tomonidan hech bir jo'g'rofiy cheklashlarsiz Konvensiyaning 1B(1)(a)-moddasiga muvofiq Konvensiyaning ishtirokchilari hisoblangan davlatlar tomonidan qilingan mavjud bayonot holatlari istisno etilgan hollarda, shuningdek, agar mazkur Bayonnoma muvofiq Bayonnoma 1B(2)-moddaga ko'ra uzaytirilmagan bo'lsa ham qo'llaniladi.

2-modda. Milliy hokimiyatlarning Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorligi

1. Ushbu Bayonnomaning ishtirokchi-davlatlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi yoki uning vazifalarini bajarish o'tishi mumkin bo'lgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday boshqa muassasalari bilan hamkorlik qilish va, xususan, ushbu Bayonnoma qoidalarini qo'llash ustidan nazorat majburiyatlarini bajarishga ko'maklashish majburiyatini oladilar.

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oliy komissari boshqarmasi yoki uning vazifalarini bajarish o'tishi mumkin bo'lgan har qanday boshqa muassasalariga Birlashgan Millatlar Tashkilotining vakolatli organlariga ma'ruzalar taqdim etish imkoniyatini berish uchun ushbu Bayonnomaning ishtirokchi-davlatlari ularga quyidagilarga taalluqli axborot va statistika ma'lumotlarini tegishli shaklda taqdim etish majburiyatini oladilar:

- a) qochoqlarning ahvoli;
- b) ushbu Bayonnomani bajarish;
- c) qochoqlarga taalluqli kuchda bo'lgan yoki keyinchalik kuchga kirishi mumkin bo'lgan qonunlar, qarorlar va dekretlar.

3-modda. Milliy qonunchilik to'g'risida axborot

Ushbu Bayonnomaning ishtirokchi-davlatlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga mazkur Bayonnomaning qo'llanilishini ta'minlash maqsadida qabul qilishi mumkin bo'lgan qonun va qarorlar matni to'g'risida xabar beradi.

4-modda. Bahslarni hal etish

Ushbu Bayonnomaning ishtirokchi-davlatlari o'rtasida talqin qilish yoki qo'llashga taalluqli bo'lgan va boshqacha usulda hal etib bo'lmaydigan barcha bahslar bahslashayotgan tomonlardan birining iltimosiga ko'ra Xalqaro Sudga yuboriladi.

5-modda. Bayonnomaga qo'shilish

Ushbu Bayonnoma Konvensiyaning barcha ishtirokchi-davlatlari nomidan va Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday boshqa a'zo davlatlari yoki har qanday ixtisoslashtirilgan muassasa yoxud Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan Bayonnomaga qo'shilish to'g'risida taklifnoma yuborilgan davlat a'zolarining qo'shilishi uchun ochiq. Qo'shilish Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlash uchun topshirilishi orqali amalga oshiriladi.

6-modda. Federativ davlatlar to'g'risidagi modda

Federativ yoki unitar bo'lmagan davlatga quyidagi qoidalar qo'llaniladi:

a) Konvensiyaning ushbu Bayonnomaning 1-moddasi 1-bandiga muvofiq qo'llanilishi kerak bo'lgan va federal qonunchilik hokimiyatining qonunchilik yurisdiksiyasiga kiradigan moddalariga nisbatan federal hukumatning majburiyatlari federativ davlat bo'lmagan ishtirokchi-davlatlar majburiyatlariga belgilangan darajada mos keladi;

b) Konvensiyaning ushbu Bayonnomaning 1-moddasi 1-bandiga muvofiq qo'llanilishi kerak bo'lgan hamda federatsiyaga kiradigan shtat, provintsiya va kantonlari federatsiyaning konstitutsiyaviy tuzumiga ko'ra qonunchilik choralari ko'rish shart bo'lmagan qonunchilik yurisdiksiyasiga kiradigan moddalariga nisbatan federal hukumat birinchi imkoniyatning o'zida mazkur moddalarni ijobiy tavsiyalar bilan birga tegishli shtat, provintsiya yoki kantonlarning e'tiboriga havola qiladi;

c) ushbu Bayonnomaning federativ ishtirokchi-davlati har qanday boshqa ishtirokchi-davlatning talabiga binoan unga Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi orqali Konvensiyaning Bayonnomaning 1-moddasi 1-bandiga muvofiq qo'llanilishi kerak bo'lgan biron bir aniq qoidasiga nisbatan federatsiyada va uning tarkibiy qismlarida mavjud qonunlar va amaliyotlar to'g'risida hamda mazkur qoidaning qonunchilik yoki boshqa yo'l bilan hayotga qanday darajada tatbiq etilgani ko'rsatilgan ma'lumotnomani taqdim etadi.

7-modda. Qo'shimcha shartlar va ariza

1. Har qanday davlat qo'shilish paytida ushbu Bayonnomaning 4-moddasiga va mazkur Bayonnomaning 1-moddasiga muvofiq Konvensiyaning biron bir qoidasini qo'llashga nisbatan 1, 3, 4, 16(1) va 33-moddalarida keltirilgan qoidalarni istisno etgan holda, ushbu moddaga muvofiq Konvensiya ishtirokchi-davlatlarining qo'shimcha shartlari Konvensiya qo'llaniladigan qochoqlarga nisbatan tarqalmasligi sharti bilan qo'shimcha shartlar qo'yishi mumkin.

2. 42-moddaga muvofiq Konvensiyaning ishtirokchi-davlatlari tomonidan qilingan qo'shimcha shartlar, agar bekor qilinmagan bo'lsa, ushbu Bayonnoma bo'yicha ularning majburiyatlariga taalluqli bo'ladi.

3. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq qo'shimcha shartlar bergan har qanday davlat istalgan vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibini bu haqda xabardor qilish orqali ushbu qo'shimcha shartlaridan voz kechishi mumkin.

4. Ushbu Bayonnomaga qo'shilayotgan, Konvensiyaning 40-moddasi 1 va 2-bandlariga muvofiq unda ishtirok etayotgan davlat tomonidan qilingan bayonot, agar ishtirokchi-davlat qo'shilish paytida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga buning aksi to'g'risidagi bildirgini yubormasa, ushbu Bayonnomaga nisbatan ham qo'llaniladi, deb hisoblanadi. Konvensiyaning 40-moddasi 2 va 3-bandlari hamda 44-moddaning 3-bandi qoidalari ushbu Konvensiyaga qo'llaniladi, mutatis mutandis deb hisoblanadi.

8-modda. Kuchga kirish

1. Ushbu Bayonnoma qo'shilish to'g'risidagi oltinchi hujjat topshirilgan kundan kuchga kiradi.
2. Qo'shilish to'g'risidagi oltinchi hujjat topshirilgandan keyin Bayonnomaga qo'shilgan barcha davlatlar uchun Bayonnoma bunday davlatlar o'zlarining qo'shilish to'g'risidagi hujjatlarini topshirgan kundan kuchga kiradi.

9-modda. Denonsatsiya qilish

1. Bayonnomaning har qanday ishtirokchi-davlati istalgan vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi nomiga bildirgi yuborish orqali ushbu Bayonnomaning denonsatsiya qilishi mumkin.
2. Bunday denonsatsiya qilish tegishli ishtirokchi-davlat uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tomonidan bu kabi bildirgi olingan kundan boshlab bir yildan keyin kuchga kiradi.

10-modda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tomonidan yuboriladigan bildirgilar

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi yuqorida 5-moddada qayd etilgan barcha davlatlarga mazkur Bayonnomaning kuchga kirish sanasi, unga qo'shilish, qo'shimcha shartlar qilish va qo'shimcha shartlarni olib tashlash hamda uni denonsatsiya qilish, shuningdek unga taalluqli bo'lgan bayonotlar va bildirishnomalar to'g'risida xabar beradi.

11-modda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Kotibiyati arxivlariga saqlash uchun topshirish

Ushbu Bayonnomaning, ingliz, ispan, xitoy, rus va fransuz tilidagi matnlari aynan bir xil bo'lgan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining raisi va Bosh kotibi tomonidan imzolangan nusxasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Kotibiyati arxivida saqlanadi. Bosh kotib ushbu Bayonnomaning tasdiqlangan nusxalarini Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zo-davlatlari va yuqorida 5-moddada qayd etilgan boshqa davlatlarga yuboradi.

INSON HUQUQLARI BO'YICHA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI

**BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING
INSON HUQUQLARI BO'YICHA
XALQARO SHARTNOMALARI
TO'PLAMI**

Nashr uchun mas'ul
Muharrirlar
Kompyuterda sahifalovchi

M. Tillabayev
M. Palnova, L. Ruzikulova
A. Jumaniyazov

2023-yil 28-sentabrda chop etishga ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 $\frac{1}{16}$.
«PT Serif» garniturasida ofset usulda bosildi.
Shartli bosma tabog'i 12,2. Nashr tabog'i 12,8.
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 14.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi
Milliy markazida chop etildi.
100029, Toshkent, Islom Karimov ko'chasi, 15.